

O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOFOLKLORISTIK TADQIQI

HAMID BOZOROV

**O'ZBEK XALQ
ERTAKLARINING
LINGVOPOETIK VA
LINGVOFOLKLORISTIK
TADQIQI**

Monografiya



9 789910 512193

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

HAMID BOZOROV

**O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING
LINGVOPOETIK VA
LINGVOFOLKLORISTIK
TADQIQI**

Monografiya

Toshkent – 2026

UO‘K 821.512.133

KBK 81/2(5O‘)-4

B69

Bozorov H.X.

O‘zbek xalq ertaklarining lingvopoetik va lingvofolkloristik tadqiqi [Matn].
Monografiya. – T.: “SCIENCE PRINT” nashriyoti, 2026-y. – 248 b.

Ushbu monografiyada o‘zbek va jahon tilshunosligida ertaklarning lingvopoetik va lingvofolkloristik tadqiqiga bag‘ishlangan manbalar atroflicha yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek xalq ertaklarining lingvofolkloristik xususiyatlari, jumladan, ertaklarda mavjud frazeologizmlarning lingvopoetik xususiyatlari, ertaklar tilida maqollar, dialektal va arxaik birliklarning lingvopoetik jihatlari tahlil qilingan. Ertaklardagi o‘xshatish, giperbola va litota kabi badiiy tasvir vositalarining obraz yaratishdagi o‘rni hamda intertekstuallik hodisasining ertak qurilishida badiiy-estetik mazmunini boyitish va uning strukturasi shakllantirishdagi roli haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari, ertaklarda qo‘llaniladigan topishmoq, olqish va qarg‘ishlarning turg‘un nutq birikmalari ekanligi, folklor motivlari hamda qahramonlar obrazining lisoniy shakllanishi lingvofolkloristik nuqtayi nazardan o‘rganilib, ularning xalq og‘zaki ijodi an’analarini saqlash, janrning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalash va badiiy-estetik mazmunni yuzaga chiqarishdagi o‘rni kabi masalalar yoritilgan.

Monografiya tilshunoslar, folklorshunoslar, etnograflar, ilmiy xodimlar, oliy o‘quv yurti magistrantlari va talabalari hamda lingvopoetik tahlil bilan qiziquvchi keng kitobxonlar jamoasiga mo‘ljallangan.

M a s ’ u l m u h a r r i r

Zafar Umurqulov,

filologiya fanlari doktori, dotsent.

T a q r i z c h i l a r :

Sh.Maxmaraimova,

filologiya fanlari doktori, professor;

A.Xamidov,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Termiz davlat universiteti Kengashining 2026-yil 13-martdagi 8-son yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-5121-9-3

© Hamid Bozorov, 2026

© "SCIENCE PRINT" nashriyoti, 2026

KIRISH

O'tgan asrning ikkinchi yarmida jahon tilshunosligida paradigma o'zgarishi sodir bo'lib, asosiy e'tibor lisoniy birliklarni nutqiy vaziyat va yaxlit struktura doirasida o'rganishga qaratildi. Buning natijasida matn lingvistikasi mustaqil va ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida shakllandi. Lisoniy hodisalarni bevosita matn kontekstida tahlil qilish zarurati, o'z navbatida, tilshunoslikning yangi va istiqbolli sohasi – lingvopoetikaning vujudga kelishi uchun mustahkam nazariy zamin hozirladi. Lingvopoetika bir necha ijtimoiy-gumanitar fanlar tutashuvida shakllangan fanlararo tadqiqot sohasi bo'lsa-da, uning markazida badiiy asarlar hamda xalq og'zaki ijodi namunalarining lisoniy tabiatini tadqiq etish masalasi turadi. Mazkur yo'nalishning rivojlanish bosqichlari bevosita ilmiy paradigmalarning almashinuvi va tilga bo'lgan yondashuvlarning evolyutsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu jarayonlar lingvopoetikaning tadqiqot obyekti, aniq maqsad va vazifalarini yanada takomillashtirishni, shuningdek, badiiy matnning estetik funksiyasini lisoniy sathlar kesimida chuqur tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Xalq og'zaki ijodi namunalarini lingvopoetik yo'nalishda tadqiq etish lisoniy birliklarning badiiy-estetik vazifalarini hamda folklor matnining o'ziga xos poetik qurilishini yoritib berishda fundamental ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ertaklar tilidagi an'anaviy lisoniy formulalar, turg'un birikmalar va murakkab obrazli ifodalar tizimini o'rganish xalq hayotining tarixiy va etnomadaniy qatlamlarini shunchaki faktik ma'lumot sifatida emas, balki tilning yuksak san'at darajasiga ko'tarilgan estetik jozibasi orqali tahlil qilishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv xalqning ko'p asrlik orzu-intilishlari, falsafiy qarashlari va betakror poetik dunyoqarashi prizmasi ostida tilning ichki imkoniyatlarini qayta kashf etish imkonini beradi. Lingvofolkloristik tahlil jarayonida ertak matnining struktur-semantik butunligi, undagi lisoniy vositalarning badiiy tasvir yaratishdagi o'rni va matnning emotsional-ekspressiv quvvati xalqning milliy o'zligini ifodalovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek xalq ertaklari uzoq yillar davomida an'anaviy tarzda folklorshunoslikning o'rganish obyekti sifatida, asosan, syujet va janr xususiyatlari jihatidan tadqiq etib kelindi. Biroq zamonaviy tilshunoslikda ertak matniga lisoniy hodisa sifatida yondashish, uning lingvopoetik va lingvofolkloristik tabiatini ochish dolzarb vazifaga aylandi. Xalq ertaklari

yaxlit matn sifatida bugungi qadar o‘zbek tilshunosligida maxsus lingvopoetik va lingvofolkloristik aspektda o‘rganilmaganligi ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Zero, lingvofolkloristika doirasida ertak tili xalqning jamoaviy lisoniy xotirasi va og‘zaki nutq madaniyatining eng yorqin namunasi bo‘lsa, lingvopoetika ushbu matndagi badiiy tasvir vositalari, turg‘un formulalarning badiiy-estetik yukini aniqlashga xizmat qiladi. Ertak matnini bunday kompleks tahlil qilish orqali nafaqat xalq nutqining boyligini, balki lisoniy birliklarning ertak olamini yaratishdagi obrazli va estetik vazifalarini, ya’ni tilning badiiy qudratini tizimli ravishda yoritib berish imkoni mavjudligini ko‘rsatadi. Qayd etish joizki, “Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati, eng avvalo, uning og‘zaki ijodi – folklor san’atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo‘lib, ular millatning o‘zligini anglash, uning o‘ziga xos milliy qadriyatlari va an’analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi”¹. Bu esa og‘zaki ijodining ommabop janri hisoblangan ertaklarni lingvistik jihatdan tadqiq etish millatning tarixi, qadriyatlari va o‘ziga xos tafakkur tarzini til birliklaridagi lisoniy jilo hamda poetik bo‘yoqlar orqali qayta kashf etish imkonini beradi.

Dunyo tilshunosligida xalq og‘zaki ijodi namunalarini lingvopoetik va lingvofolkloristik yo‘nalishda tadqiq etish lisoniy birliklarning badiiy-estetik vazifalarini hamda folklor matnining o‘ziga xos poetik qurilishini yoritib berishda fundamental ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’noda, ertaklar tilidagi an’anaviy lisoniy formulalar, turg‘un birikmalar va murakkab obrazli ifodalar tizimini o‘rganish xalq hayotining tarixiy va etnomadaniy qatlamlarini shunchaki faktik ma’lumot sifatida emas, balki tilning yuksak san’at darajasiga ko‘tarilgan estetik jozibasi, xalqning orzu-intilishlari va betakror poetik dunyoqarashi prizmasi orqali qayta kashf etish imkonini beradi. Bugungi kunda jahon tilshunosligida xalq ertaklari matnidagi lisoniy vositalarning badiiy-estetik ta’sirchanligini aniqlash, folklorga xos an’anaviy formulalar va barqaror qoliplarning lisoniy qonuniyatlarini ochib berish dolzarb masalalar sirasiga kiradi..

Jahon tilshunosligida ertaklar tilining leksik-semantik xususiyatlari V.I.Sovbanova, Z.Kerimbayeva, S.V.Shevchuk, I.A.Razumova, Yan Ke’ Y.V.Shabanova, B.D.Sirenov, A.V.Bakanova, T.V.Burayeva,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik festevalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori. Xalq so‘zi. – Toshkent: 2018.

O.I.Zvorigina, G.G.Kulsarina, U.B.Abdullabekova² kabi tilshunoslarning ilmiy nazariyalarida qayd etilgan bo'lsa, xalq ertaklari tilining lingvomadaniy tadqiqi bo'yicha I.G.Christian, G.G.Salixov, O.N.Troyskaya, O.I.Leshenko, D.S.Gasanova, N.A.Akimenko, Y.I.Aleshenko, A.N.Lovpache, A.Z.Abdusalamova, S.Song, Sh.M.Kunnazarovalarning³ tadqiqotlari diqqatga sazovor. O'zbek tilshunosligida N.X.Dosanov, S.T.Israilova, S.T.Qo'chqorova, Sh.N.Rahmatullayevlarning⁴ ilmiy izlanishlari alohida ahamiyat kasb etdi.

Xalq ertaklarini o'rganishga oid tadqiqot ishlari, asosan, folklorshunoslikda M.Jo'rayev, K.Beknazarov, B.Jumaniyozov,

² Совбанова В.И. Лексико-семантические микросистема глаголов передачи в языке великорусских сказок. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Куйбышев, 1975. – 23 с.; Керимбаева З. Традиционные языковые средства казахских народных сказок. Дисс. ...канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1989. – 246 с.; Шевчук С.В. Семантико-синтаксическая структура сложноподчинённых предложений с придаточными временными в украинской народной сказке. Дисс. ...канд. филол. наук. – Киев, 1990. – 156 с.; Разумова И.А. Стилистическая обрядность русской волшебной сказки. – Петрозаводск: Карелия, 1991. – 153 с.; Ян Кэ. Лингвостилистический и лингвострановедческий анализ русских народных волшебных сказок. Дисс. ...канд. филол. наук. – Казань, 1995. – 160 с.; Шабанова Е.В. Семантика и функции языковых средств выражения модальных категорий приказа, просьбы, совета в тексте французской народной сказки. Дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 2000. – 130 с.; Цыренов Б.Д. Язык бурятских народных сказок. Дисс. ...канд. филол. наук. – Улан-Удэ, 2001. – 182 с.; Баканова А.В. Особенности языка испанских народных сказок. Автореф.дисс. ...канд. филол. наук. 2006. – 26 с.; Бураева Т.В. Язык калмыцких народных сказок (на материале «Калмыцких сказок» Г. И. Рамстедта). Автореф.дисс. ...канд. филол. наук. – Элиста, 2006. – 24 с.; Зворыгина О.И. Русская литературная сказка: речевые параметры жанра. Автореф.дисс. ...канд. филол. наук. Екатеринбург, 2012. – 32 с.; Кульсарина Г.Г. Язык и стиль башкирских народных сказок. Дисс. ...канд. филол. наук. – Уфа, 2004. – 156 с.; Абдуллабекова У.Б. Язык и стиль кумыкских народных сказок. Автореф.дисс. ...канд. филол. наук. – Махачкала, 2013. – 21 с.

³ Christian I.G. Linguistik and cultural analysis of three gujarati folktales. Doctor of philosophy. Texas, 1983. – P. 387.; Салихов Г.Г. Картина мира в башкирском фольклоре. Дисс. ...канд.филол.наук. – Уфа, 1992. – 184 с.; Тройская О.Н. Языковая картина мира немецкой народной сказки. Дисс. ...канд.филол.наук. – СПб, 1998. – 440 с.; Лещенко О.И. Антропоцентризм в англоязычной сказке как концепт мироотношения // Сучасна картина світу: інтеграція наукового та позанукового знання: збірник наукових праць. – Суми: ВВП «Мрія - 1» ЛТД, 2002.; Эпоева Л. Лингвокультурологические и когнитивные аспекты изучения языка волшебной сказки (на материале английского и русского языков). Автореф.дисс. ...док.филол.наук. – Краснодар, 2004. – 21 с.; Акименко Н.А. Лингвокультурные характеристики английского сказочного дискурса. Автореф.дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2005. – 21 с.; Алещенко Е. Этноязыковая картина мира в текстах русского фольклора (на материале народной сказки). Автореф.дисс ...док.филол.наук. Волгоград, 2008. – 45 с.; Петрова Е.Е. Способы лингво-прагматической репрезентации фантазийных концептов (на материале английских волшебных сказок). Автореф.дисс. ...док.филол.наук. – Санкт – Петербург, 2011. – 25 с.; Ловпаче А.Н. Языковые особенности народных сказок о животных в адыгской лингвокультуре. // Вестник Адыгейского университета. – Майкоп, 2010. – № 3. – С. 157-161; Гасанова Д.С. Лингвокультурологические и структурно-семантические особенности языка сказки (на материале лезгинского, русского и английского языков). Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Махачкала, 2013. – 26 с.; Абдусаламова А.З. Сравнительные конструкции в русских и аварских фольклорных текстах. Дисс. ...канд.филол. наук. – Махачкала, 2016. – 166 с.; Sooho Song. Narrative structures in Korean folktales: A comparative analysis of Korean and English versions. // Topics in Linguistics. 2017. №.18 (2); Кунназарова Ш.М. Қарақалпақ халық ертеклеринің лексика-семантикалық хәм лингвомәдени анализі. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Нөкис, 2021. – 140 б.

⁴ Досанов Н.Х. Ўзбек халқ эртаклари тилида аниқловчилар. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1994. – 141 б.; Исраилова С.Т. Замонавий тилшуносликда халқ эртакларини ўрганишнинг лингвокультурологик хусусиятлари // Сўз санъати. – Тошкент, 2020. № 5. – Б. 232.; Қўчқорова С.Т. Ўзбек эртаклари дискурсида ғарийботларнинг воқеланишининг лингвосемиотик хусусиятларига оид // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2021, № 1(36),79-92 <https://journal.fledu.uz>. ISSN: 2181-8215 (online). – P.5-8.; Rahmatullayev Sh. O'zbek xalq ertaklari tilidagi antroponimlarning lingvokulturologik tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Buxoro, 2023. – 53 b.

J.Eshonqulov, S.Jumayeva, Sh.Shomansurov, O.Qayumov, J.Yusupov, Z.I.Usmonova, N.N.Dostxodjayeva, M.A.Sodiqova, D.Fayziyeva, K.N.Qodirov, G.M.Egamberdiyeva, Z.J.Rasulova, Sh.I.Nazarova, M.F.Matquliyevalarning⁵ tadqiqot ishlarida o‘z ifodasini topdi. Xalq ertaklari tilining qiyosiy-chog‘ishtirma hamda tarjimonlik sohasida H.O‘.Yusupova, M.M.Jo‘rayeva, O.M.Fayzulloev, O.A.Xolmurodova, K.Abdulloeva, N.D.Djumayeva, S.T.Qo‘chqorova, A.A.Jumayev, S.T.Israilova, M.N.Taylonovalarning⁶ tadqiqotlarini e‘tirof etish mumkin. Yuqoridagilardan ayonlashadiki, ertak janri va undagi ba‘zi obrazlarning tadqiqi bilan bog‘liq bir qator tadqiqot ishlari mavjud. Ammo o‘zbek xalq ertaklarini lingvopoetik aspektda o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan. Shu ma‘noda xalq ertaklarining lingvopoetik va lingvofolkloristik tadqiqi bugungi kun tilshunosligi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

⁵ Жураев М. Магические числа в узбекских народных сказках. Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987. – 160 с.; Бекназаров К. Ўзбек халқ маиший эртаклари (ўрганилиши, таснифи, поэтикаси). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1993. 129 б.; Жуманиёзов Б.М. Ўзбек халқ эпосида ялмоғиз образи. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996. – 128 б.; Эшонқулов Ж.С. Ўзбек фольклорига дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1996 – 27 б.; Жумаева С. Ҳайвонлар ҳақидаги эртакларнинг генетик асослари ва спецификаси. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1996. – 154 б.; Шомусаров Ш. Араб ва ўзбек фольклори тарихий-киёсий таҳлили. Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1997 – 24 б.; Қаюмов О.С. Ўзбек фольклорига пари образи (генезиси ва бадиияти). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1999. – 169 б.; Юсупов Ж. Хоразм эртакларининг генезиси, асосий хусусиятлари ва поэтикаси. Филол.фан.д-ри. ...дисс. – Тошкент, 1999. – 287 б.; Усмонова З.И. Ўзбек эртақ новеллаларининг ўзига хос хусусияти ва бадиияти. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1999. – 141 б.; Достходжаева Н.Н. Ўзбек сеҳрли эртакларининг структурал таҳлили. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1999. – 175 б.; Содиқова М.А. Ўғай қиз типигади туркум эртакларнинг спецификаси, генезиси ва бадиияти. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2003. – 151 б.; Файзиёева Д. Ўзбек фольклорига илон образи (генезиси ва бадиияти). Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.; Қодиров К.Н. Ўзбек сеҳрли эртакларида замон ва макон талқини. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2004. – 148 б.; Эгамбердиева Г.М. Эртақ тип сюжетли Хоразм достонлари поэтикаси. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2005. – 156 б.; Расулова З.Ж. Ўзбек халқ сеҳрли эртакларида “Ғаройиб буюм”лар (спецификаси, генезиси ва бадиияти). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2012. – 146 б.; Назарова Ш.И. Ўзбек халқ эртакларида синов мотивларининг генезиси ва поэтикаси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2017. – 150 б.; Матқулиева М.Ф. Шаҳриёр эпик сюжетининг илк манбалари унинг дoston ва эртақ вариантлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Урганч, 2020. – 166 б.

⁶ Юсупова Х.Ў. Ўзбек халқ оғзаки насри намуналарининг инглизча таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши (эртақлар, латифалар мисолида). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2011. – 149 б.; Жўраева М.М. Француз ва ўзбек эртакларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2016. – 233 б.; Файзуллоев О.М. Ўзбек фольклоригади лингвокультуремаларнинг инглизча таржимада берилиши (болалар фольклори ва эртаклари мисолида). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2019. – 160 б.; Холмуродова О.А. Ўзбек ва инглиз кумулятив эртакларининг кийсий-типологик тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2020. – 63 б.; Abdulloeva K. Ingliz hamda o‘zbek ertaklarining lingvomadaniy va stilistik tahlili. // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2. 2021. № 5. ISSN: 2181-1601. <http://www.scientificprogress.uz/>. – P. 377-381.; Джумаева Н.Д. Инглиз ва ўзбек халқ эртакларида сеҳрли предметлар образлантирилишининг мотивацион хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Бухоро, 2022. – 152 б.; Қўчқорова С.Т. Ўзбек ва француз эртакларида маданий рамзларнинг коммуникатив-прагматик роли. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Самарқанд, 2022. – 61 б.; Жумаев А.А. Ўзбек ва немис эртакларида қушлар образи типологияси ҳамда спецификаси. Филол.фан.б.фалс.док...дисс.автореф. – Бухоро, 2022. – 48 б.; Israilova S.T. Ingliz va o‘zbek tillari ertak durskida “sinov” konsepti verballashuvining lingvomadaniy xususiyatlari. Filol.fan.b.fals.dok...diss.avtoref. – Toshkent, 2023. – 57 б.; Taylonova M.N. Koreyscha ertaklarning o‘zbekcha tarjimasida hayvonot va o‘simlik dunyosining leksik-semantik tarnsformatsiyasi. – Toshkent, 2024. Filol.fan.b.fals.dok...diss.avtoref. – 45 б.

TILSHUNOSLIKDA XALQ ERTAKLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOFOLKLORISTIK TAHLILI

Jahon tilshunosligida xalq ertaklarining o‘rganilishi

Jahon tilshunosligida tadqiqot usullarining takomillashuvi tilshunoslikning ilmiy qamrovini kengaytirmoqda. Til – xalqning milliy-ma’naviy qadriyatlari va tarixiy xotirasini o‘zida mujassam etuvchi hamda ularni avlodlarga uzatuvchi asosiy vositadir. Bu esa, aksariyat hollarda, badiiy matnda o‘z ifodasini topadi. Shu bois badiiy matni lingvistik jihatdan tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning ustuvor vazifasiga aylandi. Ayniqsa, og‘zaki va badiiy ijod namunalarining lingvopoetik tahlili lisoniy hodisalarning estetik vazifasini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday tahlil usuli matndagi til birliklarining badiiy mahorat va obrazlilikni shakllantirishdagi xizmatini tizimli yoritishga imkon beradi.

Har bir xalqning til imkoniyatlari, tildagi mavjud birliklarning semantik-struktur qurilishi, til birliklarining lingvopoetik hamda lingvofolkloristik xususiyatlari o‘sha xalqning og‘zaki ijod namunalarida o‘z ifodasini topadi. Bugungi tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri ham xalq ongida mavjud tushunchalarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, lingvistik birliklarning tub mohiyatini anglashdan iborat. Chunki xalq og‘zaki ijodi namunalarida har bir xalqning o‘ziga xos tarixi yashaydi. Bu tarix o‘sha xalqning til imkoniyatlari orqali asrlar osha ajdoddan avlodga o‘tib kelmoqda.

O‘tgan asrda tilshunoslikda metodologik yondashuvlarning o‘zgarishi lisoniy hodisalarni matn tahlili bilan uzviylikda tadqiq qilishga keng yo‘l ochdi. Bu jarayon, ayniqsa, folklor asarlari tilini o‘rganishda lingvopoetika va lingvofolkloristika kabi yo‘nalishlarning shakllanishiga asos bo‘ldi.

Matnlarning aksariyati yozma badiiy adabiyotni obyekt sifatida belgilab, ijodkorning lingvopoetik mahorati tahlil obyektiga aylanib ulgurdi. Ammo jahon tilshunosligida o‘tgan asrning 50-yillarida tadqiqot obyektiga aylangan ertaklar o‘zbek tilshunosligida lingvopoetik, lingvofolkloristik jihatdan maxsus tadqiq etilmay kelindi.

XVII asr oxiri va XVIII asrning birinchi yarmida Yevropada xalq ertaklarini to‘plashga bo‘lgan qiziqish ortdi. Jumladan, ertaklarni to‘plash

borasidagi ilk qadamlardan biri Italiyada Jambatista Bazeli⁷ tomonidan tashlanib, uning 1634-yilda nashr etilgan to‘plami Yevropa ertakchiligi rivojiga tamal toshi bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, Mari Katrin d’Olnua⁸ 1697-yilda fransuz xalq ertaklari asosida o‘z asarlarini yaratdi. Nemis ertaknavislari aka-uka Grimmlar ertaklarni jamlash orqali nemis xalqining milliy, madaniy merosini qayta jonlantirishni, kelgusi avlodlarga o‘z ona tilida yetkazib berishni maqsad qildilar. Bu esa Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida ertaklarni to‘plash, qayta nashr qilish orqali boy ma’naviy xazinaga ega bo‘lish g‘oyasi ilgari surilishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, Sh.Perro fransuz xalq ertaklarini, Elekleger, Y.Til, S.Grundvich, Vinter va H.K.Andersonlar Daniya xalq ertaklarini to‘pladilar. Xususan, Sh.Perro ertaklarida xalq hayoti bilan bog‘liq, shuningdek, xalqaro doiradagi ritsarlik asarlari va xalq og‘zaki ijod namunalariga murojaat qiladi. XVII-XX asrlarda rus xalq ertaklarining o‘rganilish, to‘plash va nashr etishning davri bo‘ldi. Bu esa ertaklarning buguni kunga qadar folklorshunoslik, didaktika, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik sohalarining tadqiqot obyektiga aylanishiga sabab bo‘ldi.

Lingvistik nuqtayi nazardan xalq ertaklari tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarning aksariyati XX asrning 2-yarmidan so‘ng amalga oshirila boshlandi. Bu jarayonni rus olimi V.Propp quyidagicha izohlaydi “Asrimizning birinchi choragida ertaklar haqidagi ilmiy adabiyotlar unchalik boy emas edi. Bir nechta asarlar nashr etilganiga qo‘shimcha ravishda, bibliografik hisobotlar quyidagi xulosani ko‘rsatdi: ko‘pchilik matnlar nashr etilgan, alohida masalalar bo‘yicha juda ko‘p va umumiy xarakterdagi ishlar nisbatan kam edi. Agar ular bo‘lgan bo‘lsa, unda ko‘p hollarda ular qat’iy tadqiqot emas, balki falsafiy va havaskor xarakterga ega edi. Ular o‘tgan asrning bilimdon faylasuflarining asarlariga o‘xshardi, biz esa aniq kuzatishlar, tahlillar va xulosalarga muhtoj edik”⁹. Darhaqiqat, XX asrning o‘rtalariga kelib ertaklarni to‘plash va nashr etish jarayoni nafaqat folkloristik, balki tilshunoslik tadqiqotlari obyektiga ham aylandi. Bu esa jahon tilshunosligida ertak matnlarining lingvistik tadqiqi uchun ham muhim hisoblanib, bu haqida Volgograd universiteti tadqiqotchisi Y.Aleshenko: “Xalq og‘zaki ijodining ertak janri turli jihatlarida o‘rganilgan. A.N.Afanasyev, F.I.Buslayev, A.N.Veselovskiy,

⁷ Basile G. Lo cunto de li cunti overo lo trattenemiento de peccerille. – Bari: Laterza, 1976. – 777 p.

⁸ Marie-Catherine d’Aulnoy. Les Contes des Fées. – Paris: Bernardin-béchet, éditeur, 1868. – 328 p.

⁹ Пропп В.Я. Морфология сказки. Изд. 2-е. М.: Главная редакция восточной литературы издательства. Наука, 1969. – С. 9.

Y.M.Meletinskiy, S.Y.Neklyudov, V.Y.Propp va boshqalarning asarlarida bu ko‘zga tashlanadi. Ularning izlanishlarida syujet hamda personajlar tipologiyasi masalalari, harakatning rivojlanish xususiyatlari va turli ertak konvensiyalarining tabiati, ertak va mif o‘rtasidagi munosabat va boshqalarni o‘z ichiga oladi... Hozirgi vaqtda ertak lingvofolkloristika, lingvokulturologiya, etnolingvistika, kognitiv tilshunoslik fanlarining o‘rganish predmetiga aylanib bormoqda¹⁰, – deb ta’kidlaydi.

Ertaklarning strukturaviy tahlili bevosita V.Propp nomi bilan bog‘liq. Bu haqida Soe Marlar Lwin shunday deydi: “Proppning rus xalq ertaklarining mifologik tasnifiga asoslanib, turli madaniyatlarga mansub ertaklarning struktural tipologiyasini o‘rganishi *“hikoya – grammatika”* degan tushunchani yuzaga keltirdi hamda narratologiya¹¹ning rivojlanishiga olib keldi. Biroq ijtimoiy va psixologik hodisa sifatida hikoya (umuman, ertak)ga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi, ertaklarning struktural tahlilini siqib qo‘ydi”¹². Chunki har bir xalqning til imkoniyati, yashash tarzi, madaniyati, mentaliteti, til vositalari, stilistik va uslubiy figuralardan foydalanishda o‘ziga xoslik kabilar ertaklarda o‘z ifodasini topib, ertak tilida mavjud jarayonlarni o‘z mentaliteti doirasida namoyon bo‘lishi tadqiqotlar natijasida ko‘rsatib berildi.

Rus tilshunosligida ertaklar tahliliga bo‘lgan e’tibor XX asrda kuchaydi hamda ertaklarning lisoniy tabiatini o‘rganuvchi tizimli tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu haqida Y.Aleshenko: “I.A.Razumova tomonidan rus folklori etnomadaniy hodisa sifatida, P.G.Bogatyrev tomonidan folklor tili, A.A.Petrova tomonidan folklordagi qofiyalarning ifodasi, Y.B.Artemenko, O.V.Voloshchenkolar tomonidan esa alohida xalq og‘zaki ijodida mavjud tushunchalari o‘rganilgan”¹³, – deb izohlaydi.

Ertak tilida mavjud madaniy va ma’naviy merosni avlodlarga yetkazib berishdan tashqari, adabiy tilning shakllanishida ham muhim

¹⁰ Алещенко Е. Этноязыковая картина мира в текстах русского фольклора (на материале народной сказки). Автореф.дисс... док. филол.наук. – Волгоград, 2008. – С. 3.

¹¹ Qarang: Narratologiya – bu hikoya va hikoya tuzilishi va ularning inson idrokiga ta’sir qilish usullarini o‘rganadigan fan. Uning nazariy asoslari Aristotelning “Poetika” asarida berilgan bo‘lib, zamonaviy narratologiya V.Propp tomonidan taqdim etilgan. Narratologiyaning bir nechta ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, keng tarqagani kognitiv narratologiya hoslanadi. Kognitiv narratologiya – bu rivoyatni kengroq tushunishga imkon beradigan, hikoyaning tuzilishiga e’tibor qaratish o‘rniga, “odamlar hikoyalarni qanday tushunishadi” va “odamlar hikoyalardan qanday qilib aqliy vosita sifatida foydalanadilar” degan g‘oyaga asoslanadi.

¹² Soe Marlar Lwin. Revisiting a structural analysis of folktales: a means to an end? // The buckingham journal of language and linguistics. – P. 69.

¹³ Алещенко Е. Этноязыковая картина мира в текстах русского фольклора (на материале народной сказки). Автореф.дисс. ...док. филол.наук. Волгоград, 2008. – С. 1.

ahamiyat kasb etadi. Bu haqida tadqiqotchi G.Kulsarina shunday deydi: “Ertak avloddan avlodga o‘tadi, shuning uchun uning matni ishlov berish va sayqallash xarakterini oladi. Xalq nasri tili obrazlilik, bezaklilik va an’anaviylik bilan ajralib turadi... o‘zlashtirilgan va eskirgan lug‘atni o‘rganishga, shuningdek, undagi so‘zlarning turg‘un birikmalari va ko‘chma ma’nolarini qo‘llashga e’tibor beriladi. Ertak matni so‘z boyligining muhim qatlami”¹⁴.

Xalq ertaklarini to‘plash va nashr etish natijasida xalq tilida mavjud til birliklarini tadqiq etish bo‘yicha ishlarning jadallashishiga olib keldi. Xususan, rus tilshunosi O.V.Voloshenko rus xalq ertaklarida kompozitsion nutq shakllari va aqliy faoliyat fe’llarining ertaklarda qo‘llanishining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishni maqsad qiladi. Tadqiqotchi “ertaklar syujetida buyruqlar, maslahatlar, va’dalar bilan bir qahramon (to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita) boshqa qahramonlarni muayyan harakatni bajarishga undovchi aqliy faoliyat fe’llaridan foydalanishini”¹⁵ ta’kidlab o‘tadi. Qizig‘i shundaki, bu kabi fe’l shakllari jahon xalqlarining ko‘plab ertaklarida, jumladan, o‘zbek xalq ertaklarida ham ko‘p ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim.

S.Badmayeva esa ertaklar matnining leksik va semantik jihatlarini, shuningdek, obrazli-ifoda vositalari tizimi xususiyatlarini ochib berishda butun xalq og‘zaki ijodi tili va uslubini yanada chuqur o‘rganish muhimligini ta’kidlaydi. Dissertatsiyada “ertak matnini adekvat (har jihatdan mos) idrok etish vositasi sifatida xalq og‘zaki ijodi so‘zlarining semantik tuzilishini, xalq ertaklari tili lug‘atining eng muhim semantik kategoriyalarini aniqlash”¹⁶ muhim ahamiyatga egaligi haqida fikr-mulohazalar yuritadi. Tadqiqot ishida boshqa xalqlar ertaklarining o‘rganishning ahamiyati haqida gap ketar ekan, olim “Ertak matnini to‘g‘ri semantik talqin qilish va adekvat tarjima qilish uchun nafaqat tegishli tilni yaxshi bilish, balki ushbu tilda so‘zlashuvchilar tomonidan yaratilgan olamning folklor (ertak) manzarasini tushunish kerak”, degan xulosani beradi. S.Badmayevaning fikrlari o‘rinli. Chunki shaxs ma’lum bir hududda uzoq yillar istiqomat qilishi mumkin, lekin o‘sha xalqning tarixini, qadriyatiy jabhalarini anglamas ekan ertaklar tilida mavjud jozibani ham his qilishi qiyin kechadi.

¹⁴ Кульсарина Г.Г. Язык и стиль башкирских народных сказок. Автореф. дисс.канд.фол.наук. – Уфа, 2004. – С. 6.

¹⁵ Волощенко О.В. Языковые основы фольклора в свете явлений традиционной народной культуры (на материале русской волшебной сказки). Автореф. дисс.канд.фол.наук. – Воронеж, 2006. – С. 9.

¹⁶ Бадмаева С. Язык и стиль сказок монгольских народов (на материале лексики). Автореф. дисс. канд.фол.наук. – Элиста, 2004. – С. 2.

Rus tilshunosi D.Gusanova: milliy xarakterdagi arxetiplar va stereotiplarni o‘rganish turli xalqlarning ertaklarini tahlil qilish jarayonida muhim ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, “xalqlarning o‘ziga xos madaniy belgilarini o‘rganish, o‘xshash va farqli tomonlarini tahlil qilish istiqbolli va dolzarb”¹⁷ ekanligi haqida fikr bildirib o‘tadi.

I.G.Xristian gujarat xalq ertaklari tilining struktur xususiyatlarini o‘rganadi. Shuningdek, ertak tilining lingvistik shaklini madaniylik belgisi va til tuzilmasi bilan bog‘liqligini ta’kidlab, ertak matnidagi madaniy xususiyatlarni hisobga olmasdan ertak tilini o‘rganish mumkin emasligini qayd etiladi¹⁸. Shuningdek, tadqiqotchi ertaklarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilar ekan, gujarat ertaklarining gap zanjiri, qo‘shma fe’llarning o‘ziga xos tarzda ifodalanishi, xudolar va g‘ayritabiiy mavjudotlar, oila nutqida qo‘llanuvchi gaplar tuzilmasi, madaniy belgilar (ramzlar), olmoshlar orqali ishtirokchilarni havola qilish jarayonlari haqida ma’lumotlarni misollar orqali ko‘rsatib beradi.

Viskonsin-Miluoki universiteti tadqiqotchisi Sooho Song xalq ertaklari har bir madaniy jamoaga tegishli bo‘lgan janr ekanligini, ular yozma matnlardan ko‘ra madaniy e’tiqodlar, madaniy o‘ziga xosliklar, an’ana va ijtimoiy urf-odatlarini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi hamda koreys xalq ertaklarining amerika xalq ertaklari bilan qiyosiy tahlil qilar ekan, “ertaklar tilida xalq madaniyati o‘z aksini topishi hamda koreys xalq ertaklarida axloqiy saboqlar ustunlik qilishi”¹⁹ni ta’kidlab o‘tadi.

Qoraqalpoq ertaklarining lingvistik tadqiqiga bag‘ishlangan Sh.Kunnazarovanning²⁰ tadqiqotda qoraqalpoq xalq ertaklari tilining genealogik qatlami, arxaik so‘zlar, dialektizmlar, kasb-hunarga doir so‘zlar haqida fikr yuritadi. Shuningdek, dissertatsiyada ertaklar tilida mavjud lingvomadaniy birliklari tadqiq qilinadi.

Ertak janri jamiyatda shakllangan g‘oyalarni badiiy shaklda aks ettirish xususiyati bilan qadrlidir. Bu haqida Nihal N.Sarhan xalq ertaklarida mavjud mafkuralar hozirgi zamonning ko‘plab e’tiqodlari va qadriyatlarini tushuntirishi mumkinligini hamda “ertaklar jamiyat

¹⁷ Гасанова Д.С. Лингвокультурологические и структурно-семантические особенности языка сказки (на материале лезгинского, русского и английского языков). Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Махачкала, 2013. – С. 9.

¹⁸ Christian I.G. Linguistik and cultural analysis of three gujarati folktales. Doctor of philosophy. Texas, 1983. – P. 14.

¹⁹ Sooho Song. Narrative structures in Korean folktales: A comparative analysis of Korean and English versions. // Topics in Linguistics. 2017. №.18 (2). – P. 1-2.

²⁰ Кунназарова Ш.М. Қарақалпақ халық ертеклериниң лексика-семантикалық ҳәм лингвомәдений анализи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Нөкис, 2021. – 140 б.

tarixining yig‘indisi”²¹ ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Bu esa har bir xalq ertaklarida ma’lum bir xalqning tarixi yashashidan dalolat beradi.

A.Sayef bangladesh xalqida ertaklarning quyidagi ta’rifi borligini ta’kidlaydi: “Xalq ertaklari avloddan avlodga aytib berish va takrorlash yo‘li bilan o‘tadi. Og‘zaki tabiati tufayli xalq ertaklari, ko‘pincha, turli variantlarga ega bo‘ladi”²². Olimning qarashlariga qo‘shilib aytish mumkinki, ertaklarning og‘zaki tabiati tilning variantlilik va differensial xususiyatlarini yuzaga keltiruvchi, ertak matnlarning avloddan avlodga o‘tishi esa xalq jonli tilidagi arxaik va dialektal qatlamlarning saqlanib qolishini ko‘rsatadi.

Ertaklar bolalar uchun xoslangan janr bo‘lganligi uchun ularning ichki “meni”ni shakllanishida hamda milliy-madaniy meros bilan tanishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonni L.Luan va V.M.Shaklein: “Xalq ertaklari jamoaviy aqlning kvintessensiyasi, ya’ni xalq mahoratining eng yuqori darajasidir”²³. Ular ma’lum bir xalqning turli sohalarini aks ettira oladi. Ertaklar yosh bolalarni tarbiyalash uchun qimmatli materiallar sifatida qabul qilinadi. Xalq ertaklaridan bolalar faqatgina milliy xarakter o‘rganmaydilar, balki muloqot qilishni ham o‘rganadilar”²⁴, deb izohlaydilar.

O‘zbek tilida ertak atamasining davr nuqtayi nazaridan qachondan beri nutqda qo‘llanib kelinayotganligini aniq ko‘rsatish qiyin. Xalq orasida mashhur (eng ko‘p tinglanadigan (ijro etiladigan) ertaklarning ham qaysi davrdan og‘izdan og‘izga o‘ta boshlaganini, dastlabki asl mazmunini bilish imkonsiz. Chunki asrlar o‘tishi bilan ertaklar mazmuni ertak aytuvchilar tomonidan o‘zgartirilishi, sayqallanishi, zamonga mos holda moslashtirilishi mumkin.

“Devonu lug‘otit-turk”da ertak atamasi “*etuk*” deb qayd etilgan: “Этүк – hikoya, ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so‘z qo‘llanadi”²⁵. Bu atama “*ertak*”, “*ertaki*”, “*irtaki*”

²¹ Nihal N. Sarhan. A Critical Stylistic Analysis of Ideologies of Masculinity and Femininity in Folktales of Egypt // Journal of Scientific Research in Arts (Language & Literature) volume 24 issue 1. 2023. – P. 36-37.

²² Ahmed Sayeef. Teaching english language using popular folk tales in bangladesh // International Journal of Literature, Linguistics and Language Teaching. Volume 1 Issue 1 January 2019.

²³ Qarang: Antik davr faylasuflari hamma narsaning asosini tashkil etuvchi 4 element – suv, yer, havo va olovdan tashqari 5-element borligini ta’kidlaydi. Bu Uyg‘oninsh davri falsafasidagi “inson – hamma narsaning o‘lchovi” g‘oyasiga to‘g‘ri keladi.

²⁴ Luan L., Shaklein V.M. Discourse and child-centred discourse in russian folk tales // The European Proceedings of Social and Behavioural Sciences EpSBS. e-ISSN: 2357-1330 This is an Open Access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial 4.0 Unported License, permitting all non-commercial use, distribution, and reproduction in any medium, provided the original work is properly cited. DOI: 10.15405/epsbs.2020. – P. 637. <http://www.europeanproceedings.com/>

²⁵ Кошғарий. Девону луғотит-турк. 1-том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 98.

shaklida turkiy xalqlarda hayotida keng qo‘llaniladi. “Ertak epik turga mansub qadimiy janrlardan biri bo‘lib, xalq orasida g‘oyat keng tarqalganligi, asrlar davomida shakllangan milliy-madaniy qadriyatlar, xalqning turmush-tarzi, an‘analari va urf-odatlarini o‘ziga xos tarzda epik talqin qiladigan, asosan, professional ijrochilar – ertakchilar tomonidan nasriy usulda, og‘zaki tarzda hikoya etish orqali ommalashishi, yaxlit poetik tizim sifatida shakllanganligi, o‘ziga xos badiiy struktura va motivlar tarkibiga egaligi, hayotiy voqelikni xayoliy uydirma, fantastik talqin orqali ifoda etishi bilan xarakterlanadi”²⁶.

Jahon tilshunosligida xalq ertaklari tilining lingvistik tahlili o‘tgan asrda tilshunoslar diqqatini tortdi. Bu esa o‘zbek tadqiqotchilarining ham ertak matnlari ustida ilmiy izlanishlar olib borishga undadi. O‘zbek xalqining tarixini o‘zida aks ettirgan xalq ertaklarini jamlash, to‘plam sifatida nashr etish o‘tgan asrning ikkinchi choragida folklorshunoslar tomonidan amalga oshirildi. O‘zbek folklorshunosligidagi ertakchilik an‘analarining mavjud ekanligi va ertaklar tahliliga oid dastlabki tadqiqotlar “XX asrning 30-yillaridan to hozirgi paytgacha yozib olinganligiga diqqat qilsak”²⁷, ertaklar tilini lingvistik tadqiq qilish uchun yetarlicha manba mavjudligini ta’kidlab o‘tishimiz joiz.

Xalqimizga xos bo‘lgan qadimiy madaniyatimiz va o‘zbek tilining lisoniy imkoniyatlarini o‘quvchilar ongiga singdirish, til imkoniyatlaridan unumli foydalanish, milliy-madaniy merosimizni asrashga qaratilgan ertaklarining ilmiy tadqiqi folklorshunoslikdan tashqari pedagogika va tilshunoslik sohasida ham amalga oshirildi. Bu tadqiqot ishlarining aksariyati mustaqillik yillariga to‘g‘ri keldi²⁸.

²⁶ Mirzayev T. va boshqalar. O‘zbek folklori. – Toshkent, 2020. – B. 139.

²⁷ Бекназаров К.К. Ўзбек халқ маиший эртаклари (ўрганилиши, таснифи, поэтикаси). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1993. – Б. 11.

²⁸ Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида сеҳрли рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991. – 152 б.; Бекназаров К. Ўзбек халқ маиший эртаклари (ўрганилиши, таснифи, поэтикаси). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1993. – 129 б.; Досанов Н. Ўзбек халқ эртаклари тилида аниқловчилар: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 26 б.; Бозорова М.Қ. Кичик ёшдаги мактаб ўқувчиларида дўстлик ўртоқлик хиссини тарбиялашда халқ анъаналаридан фойдаланиш (Ўзбек халқ эртаклари воситасида). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1994. – 155 б.; Жумаева С. Ҳайвонлар ҳақидаги эртакларнинг генетик асослари ва спецификаси. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1996. – 154 б.; Юсупов Ж. Хоразм эртаги ва ҳаёт ҳақиқати. – Тошкент: Фан, 1997. – 127 б.; Юсупов Ж. Хоразм эртакларининг генезиси, асосий хусусиятлари ва поэтикаси. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 1999. – 287 б.; Усмонова З.И. Ўзбек эرتак новеллаларининг ўзига хос хусусияти ва бадийати. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1999. – 141 б.; Достходжаева Н.Н. Ўзбек сеҳрли эртакларининг структурал таҳлили. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1999. – 175 б.; Содикова М.А. Ўғай қиз типдаги туркум эртакларнинг спецификаси, генезиси ва бадийати. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2003. – 151 б.; Қодиров К.Н. Ўзбек сеҳрли эртакларида замон ва макон талқини. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2004. – 148 б.; Эгамбердиева Г.М. Эртак тип сюжетли Хоразм дostonлари поэтикаси. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2005. – 156 б.; Расулова З.Ж. Ўзбек халқ сеҳрли эртакларида “Ғаройиб буюм”лар (спецификаси, генезиси ва бадийати). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2012. – 146 б.; Назарова Ш.И. Ўзбек халқ эртакларида синов мотивларининг генезиси ва поэтикаси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2017. –

Ertaklar tilini lingvistik tadqiqiga oid ishlar bugungi o‘zbek tilshunosligi uchun muhim hisoblangan ishlardan biri sifatida N.Dosanov²⁹ning tadqiqot ishini ko‘rsatishimiz mumkin. Tadqiqotda xalq ertaklarimiz tilida mavjud aniqlovchilarning ifodalanishi, sintaktik xususiyatlari, ma’no va ifoda xususiyatlarining o‘ziga xosligi, qolip shaklidagi aniqlovchi birikmalarning qo‘llanishi, ertaklar tarkibidagi ayrim aniqlovchilarning sifatdoshli murakkab so‘z birikmalari va predikativli murakkab so‘z birikmalari shaklida kela olishi, xalq udumlari bilan bog‘liq raqamlarning aniqlovchi vazifasidagi ma’no xususiyatlarini tahlil qiladi.

“Zamonaviy tilshunoslikda ertak, rivoyat, mif, afsona kabi xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq jihatlarga nisbatan yangicha yondashuvlar, millatlar urf-odatlarining o‘ziga xosligi, xalq ertaklari konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlari tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etmoqda”³⁰. Bu esa o‘zbek xalq ertaklarini lingvomadaniy aspektda tadqiq qilish lozimligini ko‘rsatmoqda. Sh.N.Rahmatullayevning o‘zbek xalq ertaklaridagi antroponimlarning lingvomadaniy jihatlariga bag‘ishlangan tadqiqot ishi shu jihati bilan ahamiyatlidir. Tadqiqotchi ertaklardagi antroponimlarning nominatsion-motivatsion asoslarini semantik jihatdan tasnif qilar ekan, ertaklarda mavjud antroponimlarda animistik, totemistik, fetishistik motivli ismlarning mohiyatiga, genezisiga alohida to‘xtalib o‘tadi. Ertak qahramonlarining nomlanishida biror belgi bilan tug‘ilishi, tabu, evfemizm, disfemizm kabi til hodisalarining ertak qahramonlarining nomlanishidagi o‘rni³¹ batafsil tahlil qilingan.

Ertaklarining lingvistik tadqiqiga doir bir qancha maqolalar e’lon qilindi. Xususan, S.Israilova³² ertak janrini tasnif qilish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilganligi, biroq tilshunoslikda xalq ertaklarining lingvistik xususiyatlari yetarlicha tadqiq qilinmaganligini qayd etib o‘tadi.

150 б.; Матқулиева М.Ф. Шахриёр эпик сюжетининг илк манбалари унинг дoston ва эртақ вариантлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Урганч, 2020. – 166 б.

²⁹ Досанов Н.Х. Ўзбек халқ эртақлари тилида аниқловчилар. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1994. – 141 б.

³⁰ Israilova S.T. Ingliz va o‘zbek tillari ertak duskursida “sinov” konsepti verballashuvining lingvomadaniy xususiyatlari. Filol.fan.b.fals.dok...diss.avtoref. – Toshkent, 2023. – B. 5.

³¹ Rahmatullayev Sh. O‘zbek xalq ertaklari tilidagi antroponimlarning lingvokulturologik tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok...diss.avtoref. – Buxoro, 2023. – B. 14-15.

³² Исраилова С. Замонавий тилшуносликда халқ эртақларини ўрганишнинг лингвокультурологик хусусиятлари // Сўз санъати. – Тошкент, 2020. № 5. – Б. 230-235.

B.Kilichov va Sh.Rahmatullayev³³ tomonidan e’lon qilingan maqola o‘zbek xalq ertaklaridagi antroponimlarni nomlilik belgisi, antroponimlar, ism berishda kelajagi va taqdirini Ollohdan so‘rash, nisbat berish, bolaning oiladagi tug‘ilish navbati bilan bog‘liq o‘rnini tadqiq qilishga bag‘ishlanganligi bilan diqqatga sazovor.

K.Abdulloyeva ertaklarning lingvomadaniy va stilistik tadqiqiga bag‘ishlangan maqolasida “til va madaniyatning lingvomadaniy mazmun-mohiyatini jamiyatdagi lingvistik omillarning mavjud bo‘lishi bilan bog‘laydi hamda lingvomadaniy yondashuv natijasida matnda madaniy va lingvistik talqin yuzaga kelishi, bu orqali esa uni yaratgan xalqning milliy va madaniy belgilari aniq ochib beriladi”³⁴, degan fikrni ilgari suradi.

Xalqlar o‘rtasidagi milliy-madaniy o‘ziga xosliklarning o‘sha xalq lisoniy manzarasida o‘ziga xos tarzda tilda namoyon bo‘lishini qiyosiy tahlil qilish katta samara beradi. Bu esa xalq ertaklarida mavjud madaniy semalar, konseptlar va unversaliyalarning har bir xalq lisoniy manzarasida namoyon bo‘lishini, shuningdek, ertaklardagi o‘xshash va farqli tomonlarini va lisoniy tabiatini tadqiq qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, M.M.Jo‘rayeva³⁵ fransuz va o‘zbek ertaklaridagi modallik kategoriyasining xususiyatlari, modallik turlari va konseptual belgilar, modallik kategoriyalarining o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, bu ikki xalq ertaklarida o‘xshash va farqli motivlarni tahlil qilish orqali milliy mentalitetga xos xususiyatlarini ochib beradi.

Jahon xalqlari ertaklarini tarjima qilish orqali ma’lum bir xalq madaniyati, mentaliteti, o‘tmishi, yashash tarzi, e’tiqodi va shu kabilar bilan yaqindan tanishish mumkin. Badiiy tarjima jarayonida milliy-madaniy o‘ziga xosliklar va ertak koloritni aslicha saqlay olmaslik matnning estetik jozibasi hamda emotsional ta’sir kuchining pasayishiga olib kelishi mumkin. H.Yusupova tadqiqot ishida bu haqida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi: “Folklor asarlari tarjimalarida so‘zni so‘z bilan emas, obrazni obraz bilan almashtirish yaxshi samara beradi. Masalan, “*sandal*”, “*paranji*”, *sandiq*” obrazlarini tarjimada faqat so‘z bilan

³³ Kilichev B., Rahmatullayev Sh. Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Buxoro. 22-noyabr, 2021-yil.

³⁴ Abdulloyeva K. Ingliz hamda o‘zbek yertaklarining lingvomadaniy va stilistik tahlili // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2. 2021. № 5. ISSN: 2181-1601. <http://www.scientificprogress.uz/>. – P. 377-381.

³⁵ Жўраева М.М. Француз ва ўзбек эртакларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 30.

berish kifoya emas. Balki ularning obraz darajasidagi estetik vazifasini ham ko‘rsatib berishga to‘g‘ri keladi”³⁶.

B.Xurramovning “Ertaklar tipologik katologini yaratish masalasiga oid”³⁷ nomli maqolasida ertaklarni katologlashtirish, ertak tipini aniqlash kabi jahon tajribalari tahlil qilinib, Germaniyada ilk bor yaratilgan “O‘zbek sehri ertaklari tipologik katologi”ni misol qilib keltiradi. Maqolada ushbu katologning uzoq yillar Germaniya va O‘zbekiston olimlarining hamkorligida yaratilganligi, ushbu katologda mingdan ziyod o‘zbek sehri ertaklari jamlanib, G.Keller va X.Rahimovlarning 145 tip ertaklarning tasnif etilganligi qayd etiladi. Bu esa o‘zbek mamlakatshunosligi, etnografiyasi va xalqaro folklorshunoslik uchun zarur ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda, o‘zbek sehri ertaklaridagi qadimiy motivlari, magik simvollarning avloddan avlodga o‘tib kelayotgan qadriyat va urf-odatlar, o‘zbek kundalik hayotiga doir voqea-hodisalar, xalqning yashash tarzi, milliy urf-odatlar bayoni kabi o‘ziga xos xususiyatlarning turliligi va o‘zbek xalqining madaniyati tarixiga jonli nazar tashlash imkoniyatini berishi haqida mulohazalar yuritiladi.

S.T.Israilova³⁸ o‘zbek va ingliz xalq ertaklarini qiyosiy tahlil qilar ekan, ertaklar matnini shakllantiruvchi tarkibiy qismlarning o‘ziga xos jihatlari, ertak tilidagi so‘z o‘yinlarida *alliteratsiya, asindeton, polisindetin, ritm, inversiya, leksik-semantik takrorlar, anafora, epifora, metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, oksyumoron, antiteza* kabi tasviriy vositalardan foydalanish o‘rinlarini tahlilga tortadi.

S.Qo‘chqorova³⁹ning maqolasida har bir xalqning o‘ziga xos qarashlari, xulqi, axloqiy normalari, udumlarining xalq ongida paydo bo‘lishi hamda uning tilda ifodalanishi bilan bog‘liq fikr-mulohazalar bildiriladi. Tadqiqotda o‘zbek xalq ertaklari matnida g‘aroyibotlarning ifodalanishida lingvosemiotik yondashuv katta ahamiyatga ega ekanligi qayd etiladi.


³⁶ Юсупова Х.Ў. Ўзбек халқ оғзаки насри намуналарининг инглизча таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши (эртақлар, латифалар мисолида). Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б. 12.

³⁷ Рахимов Х.Р. Эртақлар типологик каталогини яратиш масаларига оид. //Ўзбекистонда хорижий тиллар. 2021. № 1 (36). – Б.225-234.

³⁸ Israilova S.T. Ingliz va o‘zbek tillari ertak dursida “sinov” konsepti verballashuvining lingvomadaniy xususiyatlari. Filol.fan.b.fals.dok...diss.avtoref. – Toshkent, 2023. – 57 b.

³⁹ Қўчқорова С.Т. Ўзбек эртақлари дискурсида ғаройботларнинг воқеланишининг лингвосемиотик хусусиятларига оид // Scientific-methodological yelectronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2021, № 1(36), 79-92 <https://journal.fledu.uz>. ISSN: 2181-8215 (online). Page 5-8.

“O‘zbek va turk ertaklarida “yaxshilik” konseptining ifodalanishi”⁴⁰ maqolada o‘zbek va turk ertaklarida ifodalangan “yaxshilik” konseptini ifodalovchi o‘rinlar tahlilga tortiladi. Maqolada o‘zbek va turk xalq ertaklaridagi o‘zaro o‘xshashliklar va farqlar haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. S.Qayumovaning ushbu maqolasida o‘zbek va turk xalq ertaklari o‘rtasidagi o‘xshash jihatlarga alohida urg‘u beriladi. Xususan, ertaklarning ma’noviy guruhlarida ham o‘xshashlik mavjudligi ta’kidlanadi.



1-rasm. O‘zbek va turk xalq ertaklarining ma’noviy guruhlarini

O‘zbek va turk xalq ertaklaridagi farqlar haqida gap ketar ekan, ertak so‘nggidagi uslubiy qoliplarda farqlar yaqqol ko‘zga tashlanishi ta’kidlanadi. Xususan, turk ertaklari ham o‘zbek xalq ertaklari singari boshlanma (kirish), asosiy qism (voqealar rivoji), xulosa (ertak so‘nggi)dan iborat. Ammo turk xalq ertaklari o‘zbek xalq ertaklaridan farqli o‘laroq kirish qismi (turk folklorida “tekerlama” atamasi qo‘llanadi)da ertak aytuvchi ertak voqealariga tinglovchini olib kirishga katta e’tibor qaratadi. Bunda so‘z o‘yinidan foydalaniladi. Masalan, “*Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Zamon zamon ichida, igna somon ichida. Tuya dallol ekan, chivin sartarosh ekan, xo‘roz imom ekan, onam qoshiqda, otam beshikda ekan. Men otamning beshigini ting‘ir-ming‘ir tebratar ekanman, otam tushdi beshikdan, chiqib ketdi eshikdan, Onam qisqichni oldi, otam kurakni oldi, menga eshik orqasidagi burchak qoldi... Onam yaxshi. Otam yaxshi, qo‘llaridan qutulsang undan yaxshi*” kabi so‘z

⁴⁰ Qayumova S.A. O‘zbek va turk yertaklarida “yaxshilik” konseptining ifodalanishi. // Oriental Renaissance: Innovative, yeducational, natural and social sciences. VOLUME 1 |ISSUE 11 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF December 2021: 5423 www.oriens.uz. Page 5-6.

o‘yinlaridan foydalaniladi. O‘zbek xalq ertaklarida esa bunday holat, ya’ni jummlarni aralash qo‘llash holati, deyarli, kuzatilmaydi.

Har bir xalqning lisoniy manzarasida ramziy xususiyatga ega birliklar shakllangan bo‘lib, ularning genezisi uzoq davom etgan tarixiy-lingvistik jarayonlar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Bu jarayon xalq hayoti bilan bog‘liq holda asrlar osha yashab keladi. Ertaklar tilida mavjud narsa-buyumlar, hayvonlar, ranglar, raqamlar va boshqalar turli sabablarga ko‘ra ramziylik darajasiga ko‘tariladi. Bu ramzlar turli xalq ertaklarida turlicha assotsiatsiyalarni ifoda etadi. Buni S.T.Qo‘chqorova quyidagicha ifodalaydi: “Jahon ertaklarida, asosan, ritual, kosmologik, raqam, rang va hayvon ramzlari namoyon bo‘ladi”⁴¹. Ertaklardagi asosiy ramz sifatida namoyon bo‘lishida ornitonimlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, o‘zbek xalq ertaklarida ko‘p qo‘llanuvchi *burgut – hukmdor (podsho)lar uchun ruh va huquq, xalqimiz lingvomadaniyatida ozodlik va erk, qarg‘a – xabar beruvchi, ogoh etuvchi, uzoq umr, laylak – baxt va bahor, kabutar – mushtiparlik va ayollik, tovuq (xo‘roz) – xazina*⁴² kabi timsollarni ifodalab keladi. Qushlarning o‘zbek va nemis xalqi lingvomadaniyatida turli ramzlarni ifodalab kelishini tadqiq etgan A.Jumayev⁴³ nemis va o‘zbek ertaklarida “Qush-ruh” bilan bog‘liq e’tiqodiy qarashlarda *burgut, kabutar, qarg‘a, qaldirg‘och* kabi qushlarning ramziy ifodasida o‘xshashliklar mavjud ekanligini ta’kidlaydi.

O.A.Xolmurodova⁴⁴ o‘zbek va ingliz kumulyativ ertaklarini qiyosiy tahlil qilgan ekan, o‘zbek kumulyativ (takrorlanuvchan, zanjirli) ertaklarining janr xususiyatlari, strukturasi, motivi, syujeti, badiiyati ilmiy tadqiq qilinmaganligini ta’kidlaydi hamda o‘zbek va ingliz kumulyativ ertaklarini qiyosiy-tipologik tadqiq qilish orqali ikki xalq ertaklarining o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash, kumulyativ ertaklarning syujet tizimining shakllanish tarixini, motivlar tarkibini, obrazlar sistemasining transformatsiyasini aniqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etishini o‘rinli ta’kidlab o‘tadi.

M.N.Taylanova koreys va o‘zbek ertaklaridagi taqlid so‘zlar tarjimasiga alohida e’tibor qaratish lozimligini qayd etadi. Buning asosiy

⁴¹ Кўчқорова С.Т. Ўзбек ва француз эртақларида маданий рамзларнинг коммуникатив-прагматик роли. Филол.фан.б.фалс.док...дисс.автореф. – Самарқанд, 2022. – Б. 13.

⁴² Bozorov H.X. O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok...diss.avtoref. – Termiz, 2023. – 115 b.

⁴³ Жумаев А.А. Ўзбек ва немис эртақларида қушлар образи типологияси ҳамда спецификаси. Филол.фан.б.фалс.док...дисс.автореф. – Бухоро, 2022. – Б. 17-18.

⁴⁴ Холмуродова О.А. Ўзбек ва инглиз кумулятив эртақларининг қиёсий-типологик тадқиқи. – Тошкент: 2020. Mashhur-press, 2022. – Б. 7.

sababini esa koreys tilida mavjud ba'zi tovushlarning o'zbek tilida mavjud emasligi bilan izohlaydi. Hayvon va o'simliklarning ikki xalq ertaklaridagi ifodasi haqida to'xtalar ekan, koreys xalq ertaklarida *yo'lbars, toshbaqa, ayiq, qurbaqa va xayoliy hayvon* obrazlarining ko'p uchrashi, o'simliklar obrazi koreyslarda inson hayoti, turmushi, taqdirini belgilashda xizmat qilishini yozadi. Bu esa o'simliklar nomini to'g'ridan to'g'ri emas, balki ramziy ma'nolariga ham e'tibor bergan holda tarjima qilish lozim ekanligini ta'kidlab o'tadi⁴⁵.

Xalq og'zaki ijodi namunalari millatning tarixiy xotirasi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Shu bois folklor matnlarini lingvistik jihatdan tadqiq etish tilning taraqqiyot bosqichlarini hamda xalq dunyoqarashining til birliklaridagi in'ikosini ochib berishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Buni M.Jo'rayev quyidagicha izohlaydi: "Xalq tarixini, xalq og'zaki ijodini, tafakkurini o'rganmay turib, uning bugunini, kelajagini ham ko'rib bo'lmaydi. O'zbek xalqi boy folklor merosiga ega bo'lib, uning ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladi"⁴⁶.

Ertaklar mavzu ko'lamiga ko'ra turlicha. Bunday ertaklar ichida hayotiy haqiqatga yaqin va tinglovchini o'ziga tez jalb etuvchi, ajdodlarning orzu va intilishlarini, turmush-tarzini, an'ana va qadriyatlarini yaqqol namoyon qiluvchi maishiy xarakterdagi ertaklar alohida ajralib turadi. K.Beknazarov aynan mana shu jihatlarga e'tibor qaratgan holda maishiy xarakterdagi ertaklarni tadqiq etadi. Tadqiqotchi *hayotiy, satirik, realistik, sotsial-maishiy* ertaklar nomlari ostida atalib kelgan ertaklar turkumini umumiy ma'noda "*maishiy ertaklar*" deb atash ilmiy jihatdan to'g'riligini qayd etadi⁴⁷.

O'zbek xalq ertaklarida ko'p qo'llanuvchi mifonimlardan biri yalmog'iz hisoblanadi. Yalmog'iz demononimining og'zaki ijod janrlaridagi o'rni va uning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari B.M.Jumaniyozov tomonidan monografik planda tadqiq etilgan. Tadqiqotda "yalmog'iz" atamasi tashqi ko'rinish tasviriga ko'ra faqat "*yamlab yutadigan og'iz*" deb talqin qilinsa, u o'zbek folklorida, aksariyat hollarda, salbiy obraz sifatida namoyon bo'lsa, ba'zi xalqlar folklorida esa epik qahramonga yordamchi va ko'makchi sifatida ham mavjudligi ta'kidlanadi. "Yalmog'iz" atamasi "Yal" – jasur, bahodir, ma

⁴⁵ Taylonova M.N. Koreyscha ertaklarning o'zbekcha tarjimasida hayvonot va o'simlik dunyosining leksik-semantik tarnsformatsiyasi. – Toshkent, 2024. Filol.fan.b.fals.dok...diss.avtoref. – B. 14-17.

⁴⁶ Жураев М. Магические числа в узбекских народных сказках. Автореф.дисс. ...док.филол.наук. – Ташкент, 1987. – С. 3.

⁴⁷ Бекназаров К. Ўзбек халқ маиший эртаклари (ўрганилиши, таснифи, поэтикаси). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1993. – Б. 10.

– noma'lumlikni bildiruvchi, g'iz – qiz kabi birikmalardan iborat bo'lib, *noma'lum jasur qiz*⁴⁸ ma'nosini ifodalashini ham bildirishini qayd etiladi.

Ertak janriga xos mifonimlar tizimida dev obrazi xalq tasavvuridagi an'anaviy mifologik tushunchalarni ifodalovchi asosiy lisoniy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Dev obrazining o'zbek folkloridagi ilmiy tadqiqi J.S.Eshonqulov tomonidan o'rganilgan. Tadqiqot ishida dev obrazining mifologik, badiiy-timsoliy tahlil etish orqali xalq ma'naviyati va tafakkuri tarixi haqida ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati mavjudligi ilmiy asoslanadi. Xususan, dev mifonimining xalq marosim va urf-odatlaridagi o'rni, doston va ertaklardagi epik qahramonlar bilan munosabati, ushbu janrlardagi badiiy-estetik vazifalari va dev obrazining psixoanalitik talqini tadqiq etiladi. Dev leksemasining lug'aviy ma'nosi ayrim tarixiy manbalarda "*divini*" – iloh va tangri"⁴⁹ so'zlariga ma'nodosh sifatida qo'llanilgan o'rinlar mavjudligi qayd etiladi.

Ertak janri bolalar uchun xoslanganligi bois, bolalarning tabiatga, hayvonot dunyosiga munosabatini ifodalovchi o'rinlarga katta ahamiyat berilgan. Hayvonlar haqidagi ertaklar jahon xalqlari ertakshunosligida bo'lgani kabi o'zbek xalq ertaklari turkumida ham salmoqli o'rinni egallaydi. S.Jumayeva bu tipdagi ertaklarning o'ziga xos tomonlari tadqiq qilar ekan, olamni bilish, idrok etishning eng ibtidoiy tasavvur mahsuli hayvonlar haqidagi ertaklarda namoyon bo'lishini hamda "hayvonlar haqidagi ertaklar o'zining voqelikka munosabati va badiiy aks ettirish prinsiplari bilan ajralib turishi"⁵⁰ni ta'kidlaydi.

Folklor janrlarida mifologik obrazlar shunchaki badiiy personaj emas, balki asarning g'oyaviy-estetik mazmunini ochish, xalqning qadimiy dunyoqarashini ifodalash va matnning emotsional-ekspressiv bo'yog'ini ta'minlash kabi turli vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi. Yuqorida dev demononimining o'ziga xos, asosan, salbiy xususiyatlari tadqiq etilgan bo'lsa, O.S.Qayumov pari mifonimining xalq eposidagi o'rnini tadqiq etadi. Ta'kidlash joizki, pari obrazi aksariyat folklor janrlari qatori ertak janrining ham asosiy obrazlaridan hisoblanadi. O.S.Qayumov bu o'ringa alohida e'tibor qaratib, pari obrazining xalq ertaklaridagi

⁴⁸ Жуманиёзов Б.М. Ўзбек халқ эпосида ялмоғиз образи. Филол. фан. номз... дисс.автореф – Тошкент, 1996. – Б. 8-9.

⁴⁹ Эшонкулов Ж.С. Ўзбек фольклориде дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1996 – Б. 9.

⁵⁰ Жумаева С. Хайвонлар хақидаги эртакларнинг генетик асослари ва спецификаси. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1996. – Б. 17.

badiiy vazifalari “*pari – homiy*”, “*pari – epik ko‘makchi*”, “*pari – raqib*”⁵¹ kabi funksional qatlamlar misolida tahlil qiladi.

O‘zbekiston hududida ertaklar umumiy o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, areal nuqtayi nazardan ba’zi farqlar ham mavjud. Bunga asosiy sababi sifatida ma’lum bir hududning turmush tarzi, qadimiy an’ana va qadriyatlari, asosiy mashg‘uloti kabilarni ko‘rsatishimiz mumkin. J.Yusupovning “Xorazm ertaklarining genezisi, asosiy xususiyatlari va poetikasi” nomli tadqiqot ishi aynan shu haqida. Olim Xorazm ertaklarini tadqiq qilar ekan, unda mifonimik (aksariyati demonologik) obrazlar mavjud turkumdagi ertaklar ko‘p ekanligini, bunday obrazlarning asosini *dev, suv parisi, yalmog‘iz, alvasti, jin, shayton, ajina, ajdarho, ifrid*⁵² kabilar tashkil etishini qayd etadi. Ushbu mifonimik obrazlarning genezisi tilshunoslikda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq ertaklarini fantastikasi, obrazlar tizimi va kompozitsion qurilishiga ko‘ra hayvonlar, sehrlil va maishiy ertaklardan iborat ekanligi adabiyotlarda qayd etiladi. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, ta’kidlab o‘tilgan ertak janrlaridan tashqari ***komik ertaklar, novella ertaklar, qahramonlik ertaklari*** ham jahon tajribasida mavjud ekanligi ma’lum. O‘zbek xalq ertaklarida ham ushbu tipdagi ertaklar mavjud. Aytish joizki, ushbu ertak turlaridan hayotiyli, aksariyat hollarda, xalq qarashlarini bevosita ifodalashi bilan maishiy ertaklar boshqa ertak turkumlariga qaraganda alohida ajralib turadi. O‘zbek xalq ertaklari turkumlaridagi maishiy ertaklar Z.Usmonova tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqot ishida ertak-novella haqida fikr bildirilar ekan, jahon xalqlarida novella janri XII-XIII asrlarda adabiy janr sifatida shakllanganligi qayd etilsa-da, uning kelib chiqishi xalq og‘zaki ijodi – ertaklarga borib taqalishi ta’kidlanadi⁵³. Xalqning podsho zulmidan, turli xil bosqinchilik harakatlari, soliqlardan bezganligi, obodonchilikka, xalq farovonligiga beparvolik kabi ijtimoiy, umumbashariy muammolar hayotiy ertaklarning asosini tashkil etishini ta’kidlab o‘tadi. Maishiy-hayotiy ertaklar konfliktida tor doiradagi oilaviy yoki shaxsiy: hunar o‘rganish, oilani boqish, kundalik mashg‘ulot, oila qurish kabi muammolar bayon etiladi, ijtimoiy hayotiy ertaklarda esa asosiy qahramonning umumxalq uchun harakati yetakchilik qiladi. Shu jihatdan tadqiqotchi mazkur atamalar

⁵¹ Каюмов О.С. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва бадиияти). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 8.

⁵² Юсупов Ж. Хоразм эртақларининг генезиси, асосий хусусиятлари ва поетикаси. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 39.

⁵³ Усмонова З.И. Ўзбек эртақ новеллаларининг ўзига хос хусусияти ва бадиияти. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 21.

o‘rnida “*ertak-novella*” deb atash unchalik to‘g‘ri emasligini ta’kidlab, bunday ertaklarni maishiy ertaklarning ichki turi deb belgilaydi⁵⁴.

O‘zbek xalq ertaklarida ifodalanayotgan voqelik mezonlarini aniqlash, zamon bilan makon munosabatini anglash muhim ahamiyatga ega. Zamon va makonning mantiqiy uyg‘unlikka ega bo‘lgan hodisa ekanligini inobatga olib, xalq ertaklarida ham zamon ko‘rsatkichlari va makon o‘lchovlarini tahlil qilingan. Jumladan, K.Qodirovning tadqiqot ishida sehri ertaklarda ro‘y beradigan zamon va makonning o‘ziga xos tomonlarini aniqlash, shakl-ma’nosiga ko‘ra farqli va o‘xshash tomonlarini farqlash, tunda yoki tongda, shuningdek, biografik hamda ov jarayonida kechadigan epik zamoni tadqiq qilish tadqiqotning asosini tashkil qilgan. Dissertatsiyada zamon nutqda *davr, payt, kez, mahal, kelajak, o‘tmish, shu on, hademay, tez fursatda, ahyon-ahyonda*⁵⁵ kabi leksemalar orqali ifodalanishi haqida fikr bildirib o‘tiladi. Ertaklarda zamon va makonni ifodalashda ko‘p qo‘llanuvchi sintaktik parallelizm “ekan” to‘liqsiz fe’lining o‘rni kattadir. Chunki voqealar qaysi zamonda, inkor yoki tasdiq shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar o‘zbek xalq ertaklarining boshlanmasida “ekan” leksemasining qo‘llanilishi an’ana sifatida o‘ziga xoslikni vujudga keltiradi.

Ertaklarda asosiy personajning xarakter-xususiyatlarini ochib berishda sinov motivlaridan keng foydalaniladi. O‘zbek xalq ertaklarida uchrovchi sinov motivlarining ilmiy tadqiqi Sh.Nazarova⁵⁶ning tadqiqot ishida o‘z ifodasini topdi. Tadqiqotda o‘zbek xalq ertaklaridagi mifologik va marosim folkloriga daxldor sinov motivlarining genezisi, syujet qurilishidagi funksional ko‘rinishlari (taqiq, shart, shartlashish) hamda ularning tipologik va badiiy-estetik xususiyatlari tahlilga tortiladi. Shuningdek, nikoh marosimigacha bo‘lgan vaqtda qo‘yiladigan sinovlar va ularning genezisi, nikoh uchun qo‘yiladigan sinovlarning xalq hayoti, mentaliteti bilan bog‘liqligiga to‘xtalib o‘tiladi.

“O‘gay qiz” obrazi jahon xalqlari ertaklarida alohida tipologik obraz hisoblanadi. M.Sodiqova⁵⁷ ushbu mavzu asosida tadqiqot ishi olib borib, o‘zbek xalq ertaklaridagi o‘gay qiz obrazini asosiy obyekt sifatida tahlilga

⁵⁴ Усмонова З.И. Ўзбек эртақ новеллаларининг ўзига хос хусусияти ва бадиияти. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 9.

⁵⁵ Қодиров К.Н. Ўзбек сеҳрли эртақларида замон ва макон талқини. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 11.

⁵⁶ Qarang: Назарова Ш.И. Ўзбек халқ эртақларида синов мотивларининг генезиси ва поетикаси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 8, 12.

⁵⁷ Содикова М.А. Ўғай қиз типигаги туркум эртақларнинг спецификацияси, генезиси ва бадиияти. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2003. – 151 б.

tortadi. Muallif mazkur mavzuning shakllanishiga asos bo'lgan ijtimoiy-tarixiy omillarni, obrazlarning funksional-estetik xususiyatlarini, ushbu turkum ertaklarning genezisi hamda badiiy evolyutsiyasini atroflicha yoritib bergan.

Jahon ertakshunosligida ertaklar klassifikatsiya qilinarkan unda sehrli ertaklar turkumi katta o'rinni egallaydi. Barcha xalqlarning azaliy ezgulikka bo'lgan intilishlari natijasida vujudga kelgan sehrli ertaklar turkumi o'zbek folklorida ham tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. Sehrli ertaklar bevosita sehrli buyumlar bilan bog'liq bo'ladi. Z.Rasulova⁵⁸ning o'zbek xalq sehrli ertaklarida uchraydigan "g'aroyib buyumlar" yuzasidan olib borgan tadqiqot ishi an'anaviy tarzda qo'llanilgan "g'aroyib buyum"larning turlari, ushbu buyumlarning o'ziga xos tabiati, badiiy-estetik funksiyalari, tarixiy-mifologik ildizlarini ochib berishga qaratilganligi bilan dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotda "g'aroyib buyum"larning genezisi va mifopoetik asoslariga to'xtalib, qadimgi marosimlar, tabu, fetishistik qarashlarning "g'aroyib buyum"larning shakllanishidagi o'rnini, motivlar tarkibini, "g'aroyib buyum"larni tasvirlashda poetik vositalardan foydalanishning nazariy asoslarini tahlilga tortadi.

Xalq ertaklari, odatda, qiziqarli ritmlarni yaratadigan yangi so'zlar, onomatopoeetik tovushlar, takrorlangan yoki parallel fonologik yoki grammatik naqshlar kabi o'ziga xos lingvistik va tizimli xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Xalq ertaklari bo'yicha madaniy-tarixiy, filologik-adabiy, sotsiologik va psixologik jihatdan turli tadqiqotlar olib borilib, ularga bo'lgan keng ko'lamliligi va ko'p tarmoqli izlanishlar olib borilgan⁵⁹. O'zbek xalq ertaklarida ham o'ziga xos poetik an'analar mavjud. Shu ma'noda ertaklar tilda mavjud lingvopoetik birliklarni tadqiq qilish orqali ajdodlarning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahoratini, zamon va makonda ro'y bergan o'zgarishlarni, til birliklarini aniqlash imkoni tug'iladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, dunyoda kechayotgan globallashtirish jarayonlari har bir xalqning o'z milliy o'zligi, madaniyati va tilini saqlab qolishga bo'lgan ehtiyojini yanada oshirmoqda. Xususan, adabiy tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, uning sofligi hamda millat ruhi bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etish bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, folklorning

⁵⁸ Rasulova Z.J. Ўзбек халқ сеҳрли эртакларида "Ғаройиб буюм"лар (спецификаси, генезиси ва бадиияти). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2012. – 146 б.

⁵⁹ Soe Marlar Lwin. Using Folktales for Language Teaching. XLIV (2), 2015. – P. 74.

yetakchi janri bo‘lgan ertak matnlarini lingvopoetik va lingvofolkloristik jihatdan tadqiq etish xalqning lisoniy tabiatini yoritish bilan birga, milliy tafakkur xususiyatlari va til tarixining taraqqiyot bosqichlarini teran anglash imkonini beradi.

Matnni lingvopoetik tahlil qilishning lingvistik asoslari

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon tilshunosligida badiiy asar tili hamda u bilan bog‘liq til sathi birliklarining poetik vazifalarini tavsiflash, tahlil qilish tilshunoslarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Har bir sath birligining muayyan adib ijodidagi poetik xususiyatlarini aniqlashga, lisoniy hodisalarning nutqiy voqelanish shakllarini asoslashga qaratilgan ko‘plab ishlar amalga oshirildi.

Lingvopoetikaning nazariy-amaliy ildizlari antik davr poetikasi va ritorikasi bilan uzviy bog‘liq holda eramizdan avvalgi asrlarga borib taqalishi ma‘lum bo‘ladi. Xususan, Arastuning “Poetika” asarida poetik san‘atlar haqida ma‘lumotlar uchraydi. Bundan tashqari, poeziya va uning o‘ziga xos jihatlari haqida ham ma‘lumotlar mavjud. Arastu: “Tuban bo‘lmagan, tushunarli nutq qimmatli nutqdir. Eng tushunarlisi hamma ishlatadigan, ya‘ni umumiy so‘zlardan tuzilgan nutqdir”⁶⁰, – deya ta‘kidlaydi. Bunda so‘z qo‘llashda ma‘no nozikliklarini e‘tiborga olish va aytilayotgan so‘zning tinglovchiga qay darajada ta‘sir qilishi va tushunarli bo‘lishini inobatga olish lozimligini nazarda tutadi. Arastu “Til va fikr” bobida nutq va fikrga tegishli hodisalarning ritorika bilan bevosita aloqadorligini aytib o‘tadi hamda nutq tuzish hayotiy tajriba va bilim bilan bog‘liqligini ta‘kidlaydi. Shu narsaga alohida e‘tibor qaratish joizki, ritorika qadimdan she‘riyatning eng muhim sohasi sifatida qayd etilgan. Ko‘rinib turganidek, lingvopoetikaning ilk ildizlari badiiy uslubga xos matnlar negizida rivojlangan. Keyinchalik lingvopoetikaning rivojlanishi, aniq obyektlar va maqsadlarni belgilanishi stilistika hamda lingvopoetikaning alohida sohalarga ajralishiga olib keldi.

Yozuvchi va shoirlar ijodidagi o‘ziga xos til birliklarini, ma‘no nozikliklari va inson his-tuyg‘ularini ifodalovchi birliklarni tahlil qilish borasida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Badiiy asar tiliga kategorial yondashuvning shakllanishi, badiiy so‘zni ijodning shakl va mazmun xossalari birligida o‘rganishga harakat badiiy asarni estetik va falsafiy

⁶⁰ Аристотель. Поэтика. Перевод, введение и примечания Новосадского Н.И. – Ленинград: АCADEMIA, 1927. – С. 68.

nuqtayi nazardan tushunish uchun asos bo'ladi. Jumladan, F.Shiller, V.Gumboldt, A.A.Potebnya, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, L.V.Shcherbaning ilmiy izlanishlarida badiiy matnning qiymati va falsafiy tomonlari yoritilgan hamda ilmiy xulosalar chiqarilgan. Bu esa lingvopoetikaning rivojlanishiga, fanning nazariy asoslarini yaratilishiga turtki berdi. Jumladan, F.Shiller estetik tajriba (poetik ifoda) orqali insonni ijtimoiy va ma'naviy jihatdan shakllantirish nazariyasini taklif etadi, go'zallik, ijod va til o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi. Shunga asoslanib olim estetik tarbiyani insoniyatning axloqiy va ijtimoiy takomiliga eltuvchi vosita sifatida qaraydi hamda quyidagilarni ta'kidlaydi: "Inson go'zallikni, his-tuyg'ularni, axloqiy ideallarni poetik shakllarda – badiiy til orqali anglaydi va yetkazadi deya ta'kidlaydi hamda estetik idrokni "ijodiy kuch" sifatida tasvirlaydi. Bu kuch til orqali ramz, allegoriya, dramatik forma kabi poetik shakllarda ifodalanadi. Shuning uchun, poetik matnlar – insoniy ongning eng erkin, go'zal ifodasi sifatida qaraladi"⁶¹.

V.Gumboldt lingvistik tafakkur, til falsafasi va estetik tafsir asoschilaridan biri hisoblanadi. Olim tilni nafaqat aloqa vositasi, balki inson tafakkuri va estetik dunyoqarashini shakllantiruvchi kuch deb bilgan hamda har bir nutq jarayonini yangilik yaratish, estetik ifoda vositasi sifatida talqin qilgan. V.Gumboldt til xalqning dunyoni idrok etish shakli ekanligini, tilda xalqning dunyoqarashi, qadriyatlarini, estetik didi va ruhiy holati aks etishini qayd etadi⁶².

A.A.Potebnya psixolingvist, adabiyotshunos va poetika nazariyotchisi sifatida "til – tafakkur – millat" uchligini ilmiy jihatdan mukammal tahlil qilgan olimdir. Uning "Мысль и язык. Язык и народность. О национализме" asarida til va uning estetik qiymati bayon etiladi. Olim: "Poetik til – tushunilganlarni estetik qabul qilish va shunday his qilish. Odam fikrni faqat mantiqiy emas, obrazli shaklda qabul qilganda, u go'zallikni his qiladi"⁶³, – deya ta'kidlaydi.

Formal va struktural adabiyotshunoslik rivojida muhim o'rin egallagan olimlardan biri V.M.Jirmunskiy hisoblanadi. Uning tadqiqotlari hozirgi zamon lingvopoetik tadqiqotlari uchun asosiy nazariy manba

⁶¹ Bu haqida qarang: Shiller F. Über die ästhetische Erziehung des Menschen, in einer Reihe von Briefen. 1975. <https://www.projekt-gutenberg.org/schiller/aesterz/aesterz.html>

⁶² Humboldt W. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues und ihren Einfluss auf die geistige Entwicklung des Menschengeschlechts. – Berlin. Gedruckt in der Druckerei der Kaniglichen Akademie der Wissmachalten, 1836. – S. 34.

⁶³ Потеби А. Мысль и язык. Язык и народность. О национализме. 3-е издание. – Харьков: Мирный Трудь, 1913. – С. 77-91.

hisoblanadi. Uning: “She’riyat ko‘rgazmalilik va obrazlilik borasida tasviriy san’at yoki musiqa bilan raqobatlasha olmasa-da, poetik obrazlarning subyektiv hamda o‘zgaruvchan tabiati tufayli so‘z san’ati o‘zining maxsus ifoda ko‘lamiga egadir. Aynan shu jihat she’riyatning ko‘rgazmali tasavvurlar masalasida «kambag‘alroq» ko‘rinsa-da, boshqa san’at turlarida mavjud bo‘lmagan o‘ziga xos mantiqiy va hissiy qatlamlar hisobiga ulardan boyroq bo‘lishini ta’minlaydi”⁶⁴, – degan qarashlari poetikani matnning estetik tuzilmasi, stilistikani esa shu tuzilma ichidagi til vositalarining funksiyasi deb talqin qilganligidan dalolat beradi.

B.A.Larinning “Эстетика слова и языка писателя” (“Yozuvchi so‘zi va til estetikasi”) asari XX asr rus stilistikasida badiiy matn va so‘z estetikasini o‘rganishga bag‘ishlangan muhim tadqiqotlardan biridir. Ushbu asar muallifning turli yillarda yozgan maqolalari asosida tuzilgan bo‘lib, adabiy til, yozuvchi uslubi, lirika va poetik obrazlarning tilshunoslik jihatdan o‘rganilishiga bag‘ishlangan. B.A.Larinning qarashlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1-jadval

B.A.Larinning lingvopoetik qarashlari

Larin qarashi	Lingvopoetik mazmun
So‘z estetik qudratga ega	Har bir so‘z o‘zining shakli, konnotatsiyasi va kontekstdagi roli bilan estetik ta’sir yaratadi.
Yozuvchi tili – alohida til tizimi	Har bir muallif poetik til yaratadi. Bu til orqali u o‘z dunyoqarashi va estetik idealini ifodalaydi.
Obrazli leksika va poetik funksiyalar	Poetik til metafora, epitet, simvol kabi vositalar orqali estetik “semantik maydon” yaratadi.
Tilning ritmik va intonatsion qurilishi	Ayniqsa she’riyatda, ritm va intonatsiya poetik ma’noni mustahkamlaydi, his-hayajonni oshiradi.

B.A.Larinning ushbu asariga kirish so‘zi yozgan A.Fedorov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Larin adabiyot nazariyasi yoki adabiy janrlar nazariyasi

⁶⁴ Жирмунский В.М. Теория литературы поэтика стилистика. – Ленинград: Иадательство “Наука”, 1977. – С. 24.

bilan emas, balki stilistika bilan poetikaning bir qismi sifatida, ya'ni badiiy adabiyot tilini o'ziga xos xususiyat sifatida, uni boshqa san'at turlaridan va hamma so'zlashadigan va yozadigan oddiy "umumiy" tillardan ajratib turadigan til bilan shug'ullangan"⁶⁵.

V.V.Vinogradov: "Badiiy adabiyot sohasidagi lingvistik stilistikaning predmeti – bu lingvistik badiiy uslubdir. U nafaqat muayyan adabiy asarning badiiy bayoni (uslub), balki umumiy stilistik kategoriyalarni ham o'z ichiga oladi. Bular – individual uslub (yozuvchining uslub), janr uslub, adabiy maktab uslub, ma'lum bir davr uslub va boshqalardan iboratdir"⁶⁶, – degan to'xtamga keladi va ushbu g'oyalar keyinchalik lingvopoetikaning predmetini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Y.Zadarnova lingvopoetik tahlilning ahamiyati va til ilmidagi o'rni haqida quyidagi ma'lumotlarni berib o'tadi: "Lingvopoetikani filologiyaning badiiy kontekstda til birliklari tomonidan olingan estetik xususiyatlarni o'rganadigan bo'limi sifatida ta'riflash mumkin... Tilning turli xil elementlari og'zaki va badiiy ijod sohasida o'zgarib, ularda obyektiv ravishda singdirilgan estetik ifoda imkoniyatlarini ochib beradi. Ayrim so'zlar aynan o'rganilayotgan asarda muallif niyatiga muvofiq estetik o'zgarishlarga uchraganida lingvopoetik tahlil predmetiga aylanadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetikaning predmeti badiiy asarda qo'llaniladigan lisoniy vositalar yig'indisi bo'lib, ular yordamida yozuvchi o'zining g'oyaviy-badiiy konsepsiyasini gavdalantirish uchun zarur bo'lgan estetik ta'sirni beradi"⁶⁷. Shu bois ijodkor ongining mahsuli hisoblangan eng nozik va estetik ta'sir kuchiga ega birliklarni tadqiq etish bugungi kunga qadar tilshunoslar e'tiborini tortib kelmoqda.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, lingvopoetika fanlararo tadqiqot sohasi hisoblanadi va uning asosiy vazifalaridan biri og'zaki va badiiy ijod namunalarini tahlil qilishni maqsad qiladi. Til ilmida badiiy asar tilini tahlil qilishda matnning stilistik xususiyatlarini, estetik jihatlarini o'rganish an'anasi mavjud edi. O'tgan asrning 60-70-yillarida badiiy adabiyotda ijodkorlarning estetik qarashlarini lisoniy tadqiq qilish, asar tilida mavjud eng nozik ma'no qirralarini, ijodkor his-tuyg'ularining asarda ifodalanishi va bu ifodalarning kitobxonga ta'sirini belgilash

⁶⁵ Ларин Б.А. Эстетика слова и языка писателя. – Ленинград: Художественная литература, 1973. – С. 23

⁶⁶ Виноградов В.В. Стилистика, теория поэтической речи, поэтика. – Москва: издательство академии наук, 1963. – С. 64.

⁶⁷ Задорнова В.Я. Лингвопоэтика. Слово в художественном тексте // Язык, сознание, коммуникация. – М.: МАКС Пресс, 2005. – 160 с.

uchun jiddiy yondashuvlarning paydo bo'lishi lingvopoetikaning chin ma'noda fan sifatida vujudga kelishiga zamin hozirladi. Bu davrda lingvopoetika atamasi tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishi sifatida tilshunoslar e'tiboriga tushdi. Bu davrgacha mavjud bo'lgan "Filologik poetika" termini endilikda "lingvopoetika" termini bilan yuritila boshlandi. Bu esa til vositalarining lingvopoetik tahlili adabiyot va tilshunoslik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada mustahkamlanishiga sabab bo'ldi.

Lingvopoetikaning fan sifatida shakllanishida ritorika, uslubshunoslik va badiiy asar tilini tadqiq qiluvchi sohalar muhim ahamiyat kasb etgan. G'arb tilshunoslari: G.E.Lessing, R.Yakobson, B.Larin, Y.M.Lotman, Sh.Balli kabi olimlarning qarashlarida lingvopoetikaning shakllanishidagi ilk g'oyalar ko'zga tashlangan bo'lsa, B.Tomashevskiy, V.Jirmunskiy, V.Vinogradov, V.Belinskiy, G.O.Vinokur, A.Potebnya, M.Baxtin, A.V.Chicherin, E.Koseriu, V.Y.Zadornova, A.Lipgartlarning tilshunoslik va adabiyotshunoslik o'rtasidagi bog'liqligiga oid nazariyalari badiiy matn tahlilida til vositalarining o'rni katta ekanligini ta'kidlaganlar. Jumladan, G.E.Lessing lingvistika, shuningdek, adabiyotning ifoda imkoniyatlarini tasviriy san'atning ifoda vositlaridan farqlashga urinadi. Olimning estetik va san'atshunoslik qarashlariga ko'ra: "Tasviriy san'atda tabiiy ramzlarning o'zboshimchalik bilan qo'llanishi san'atning mohiyatiga zid hisoblanadi. Bu yondashuv, ya'ni tashqi ko'rinishdan mutlaqo yiroq tushunchalarni tasvirlash allegorik tasvirdir. Bunday tasvirlarni she'riyatning intellektual maydoniga zo'rlab kiritish mumkin emas. She'riyatda esa bu holat "bo'yoqdorlik"dir. Bu san'at turlarining chegarasini buzadi va har birining estetik imkoniyatlariga putur yetkazadi"⁶⁸, – deya ko'rsatadi. G.E.Lessing she'riyat va tasviriy san'atni bir-biridan keskin ajratadi hamda ularning o'ziga xos funksional doirasiga rioya qilishni zarur deb biladi.

R.Yakobson: "Poetikani tilshunoslikdan ajratishga bo'lgan qat'iy urinishlar faqatgina tilshunoslik sohasi sun'iy tarzda cheklab qo'yilgan hollarda asosli bo'lishi mumkin, masalan, ayrim tilshunoslar tomonidan gap til birliklarining eng yuqori tahlil qilinadigan darajasi sifatida qaralganida, tilshunoslik doirasi faqat grammatikaga, faqat tashqi shaklning semantik bo'lmagan masalalariga yoki faqat denotativ vositalar inventarizatsiyasiga cheklangan holda olib borilganida samara berishi

⁶⁸ Lessing G.E. Laokoon: oder Über die Grenzen der Malerei und Poesie. Erster Teil. 1766. – S. 8.

mumkin”⁶⁹, – deb ta’kidlaydi. Ko‘rinib turibdiki, til va adabiyotning o‘zaro aloqasini cheklab bo‘lmaydi. B.Larin badiiy uslub tilning ichki qonuniyatlari asosida shakllanadi va u stilistik vositalarni ixtiyoriy tanlov emas, balki tarixiy-ijtimoiy, madaniy va janriy omillar bilan bog‘liqligi haqidagi g‘oyalarni ilgari surib, poetik tilni shunchaki estetik ifoda vositasi emas, balki ijtimoiy, madaniy kontekstda shakllanadigan hodisa sifatida talqin qiladi⁷⁰.

Y.M.Lotman badiiy adabiyotni san’at deb ta’riflaydi hamda san’at tili – bu oddiy aloqa vositasidan farqli ravishda yuqori darajadagi belgilar tizimi ekanligini, u nafaqat ma’lumot uzatadi, balki estetik taassurot uyg‘otadi. Shuning uchun badiiy til alohida tahlilni talab qiladi, deya ta’riflaydi hamda “badiiy matn – murakkab qurilgan ma’no tizimidir. Uning barcha unsurlari – ma’no ifodalovchi unsurlardir”⁷¹, – degan xulosaga keladi.

Lingvopoetika ilmining nazariya asoslari A.Xolodovich⁷²ning “Adabiy til uslubshunosligi, “Poetikada lisoniy usul” asarlarida o‘z ifodasini topgan. Nemis olimi E.Koseriuning “Ma’no, ko‘pincha, faqat adabiy yoki she’riy matnlarga nisbatan qaralib kelingan. Aslida “burilish stilistikasi” til ilmining ma’no ifodasidagi o‘rni katta”⁷³ degan qarashlari adabiyot va til ilmi birligidagi yangi fan hamkorligi zarurati borligini ta’kidlab o‘tadi. Fransuz tilshunoslari Daniel Delas va Jacques Fiyollar⁷⁴ning lingvistika va poetika bo‘yicha yangi qo‘llanmalarida, Y.B.Artemenko⁷⁵ning lingvofolkloristika bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida lingvopoetikaning filologiya ilmida alohida fan sifatida o‘rganilishi yuzasidan qarashlar bayon qilingan. Zamonaviy rus tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari tadqiqi bilan shug‘ullangan olimlardan biri A.Lipgart⁷⁶dir. A.Lipgart: “Til birliklari –

⁶⁹ Jakobson R. Language in Literature. – England: Edited By Krystyna Pomorska and Stephen Rudy the Belknap press of Harvard university press Cambridge, Massachusetts London, 1987. – P. 64.

⁷⁰ Bu haqida qarang: Ларин Б. Эстетика слова и язык писателя. – Ленинград: Художественная литература, 1973. – 240 с.

⁷¹ Лотман М.Ю. Об искусстве. – Санкт-Петербург: Искусство – СПб, 1998. – С. 24.

⁷² Холодович А. К вопросу о лингвистическом методе в поэтике // В борьбе за марксизм в литературной науке. – Л.: Прибой, 1930.

⁷³ Coşeriu E. Lingvistica textului. O introducecere în hermeneutica sensului. Editura Universităţii „Alexandru Ioan Cuza” Iaşi, – 2013. – P. 83.

⁷⁴ Delas D., Filliolet J. Linguistique et poetique. – Paris. Larousse, 1973. – 206 p.

⁷⁵ Артеменко Е.Б. Вопросы синтаксического строя русской народной лирической песни. Пособие к спецкурсу по лингвофольклористике для студентов-филологов. – Воронеж: Изд-во Ворон, ун-та, 1976. – 156 с.; Синтаксический строй русской народной лирической песни в аспекте ее художественной организации – Воронеж. Изд-во Ворон, ун-та, 1977. – 160 с.

⁷⁶ Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М., 2013. Учебное пособие. Изд. 5-е. Книжный дом “ЛИБРОКОМ”, 2009, 2012.

matnning g‘oyaviy-badiiy mazmuni ochib berish va ma’lum muayyan estetik funksiyani yuzaga chiqarishdagi rolini baholash lingvopoetik o‘rganish jarayonida amalga oshiriladi... Til o‘zining asosiy kommunikativ vazifasini bajarayotganda paydo bo‘ladigan turli xil ma’no soylari umumiy tizimli fanlarning predmetini tashkil etmaydi va tabiiy ravishda lingvistika bilan bog‘liq bo‘lib, shundan kelib chiqqan holda, tilshunoslikning lingvopoetika bilan bevosita va bilvosita aloqada bo‘lgan bo‘limi bo‘lib chiqadi”⁷⁷ degan qarashlari lingvopoetikaning obyektini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Olim “Badiiy adabiyotga yondashishda uning lingvistik xususiyatlari bo‘yicha tabaqalanishning yo‘qligini bartaraf etsak va lingvopoetik tahlilning ta’rifini aniqlasak – “lingvopoetik tahlilning yagona usuli” muammosini hali ham hal qilish mumkin” deya o‘rinli ta’riflaydi. Chunki lingvopoetika filologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, unda badiiy matnda qo‘llaniladigan stilistik jihatdan belgilangan birliklar ularning vazifalari va ma’lum bir g‘oyaviy-badiiy mazmuni yetkazishni va estetik ta’sir yaratishni bosh maqsad qilib qo‘yadi.

G.O.Vinokur “Til – bu fikrni ifodalash vositasidir”⁷⁸, – degan qarashi bevosita lingvopoetika ilmiga ham taalluqli bo‘lib, insoniyat tafakkurining estetik qarashlarni til unsurlari orqali ifodalash imkoni kengligini ko‘rsatdi. Olim: “Tilshunoslik va poetika uyg‘unligini ta’minlash oson emas, biroq bu jarayon juda zarurdir. Bu yo‘ldagi qiyinchiliklar, bir tomondan, adabiyot tarixida uzoq yillardan buyon saqlanib kelayotgan antiilmiy an’analar bilan, ikkinchi tomondan esa, tilshunoslikning hali hanuz tilni uning kommunikativ vazifasi nuqtayi nazaridan ko‘ra olmayotgan holati bilan bog‘liqdir”⁷⁹, – deya o‘rinli ta’kidlaydi hamda badiiy asarning lingvopoetika va stilistikdagi o‘rnini alohida ajratib ko‘rsatadi.

Uzoq yillar davomida ijodkor uslubini qaysi fan o‘rganishi lozim degan savollarga javob topilmay, tilshunos va adabiyotshunoslar o‘rtasida uzoq bahs yuritib kelindi. Bu masalada A.V.Chicherin V.V.Vinogradovning g‘oyalariga qo‘shilib, quyidagi ma’lumotni berib o‘tadi: “Akademik V.V.Vinogradov IV Xalqaro slavyanlar kongressida badiiy adabiyot tili haqida yangi maxsus fan yaratish loyihasini ilgari surdi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda bu masalaga kamida uchta yondashuv

⁷⁷ Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика. Дисс. ...док. филол.наук. – Москва: – 1996. – С. 34.

⁷⁸ Винокур Г.О. Филологические исследования: Лингвистика и поэтика. – М.: Наука, 1990. – С. 12.

⁷⁹ Винокур Г.О. Филологические исследования: Лингвистика и поэтика. – М.: Наука, 1990. – С. 14.

mavjud: 1) badiiy asar tili va yozuvchi uslubi lingvistik jihatdan, individual xususiyatlarni kuzatish va tasniflash orqali o'rganilishi kerak. Bu lingvostilistika; 2) yozuvchi uslubi adabiy tanqidning predmeti bo'lib, uni obrazlar, g'oyalar bilan uzviy bog'liqlikda, mazmun va shakl birligini marksistik tushunish nuqtayi nazaridan o'rganish kerak; 3) lingvostilistikaga asoslangan maxsus fan kerak"⁸⁰. Bu kabi qarashlar lingvopoetikaning haqiqiy ma'nodagi mustaqil fan sifatida tan olinishi uchun qo'yilgan qadamlardan biri edi.

M.Baxtinning “Вопросы литературы и эстетики” (“Adabiyot va estetika masalalari”) asari XX asr adabiyotshunosligi, estetika va lingvopoetika sohalarining rivojiga chuqur ta'sir ko'rsatgan fundamental falsafiy-estetik asardir. Ushbu asarda muallif adabiyotning mohiyati, estetik tabiatini, matn va muallif o'rtasidagi munosabatni, dialoglik g'oyasini tahlil qiladi. Muallif ushbu asarida lingvopoetika ilmining eng asosiy xususiyatlariga urg'u beradi. M.M.Baxtin: “Tilga kognitiv, axloqiy va estetik jihatlarni, ya'ni madaniyatga xos barcha xususiyatlarni yuklash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, madaniyatni faqat tildan iborat hodisa deb hisoblashga olib keladi. Natijada madaniyat til chegarasidan tashqarida mavjud emas degan bir yoqlama xulosa shakllanadi. Olim ham, shoir ham so'z bilan bir xil darajada aloqador bo'ladi. Biroq agar biz mantiq va estetikani, yoki hech bo'lmaganda tilshunoslik doirasida faqat poetikani o'rganish bilan kifoyalansak, bu holda nafaqat mantiq va estetikani, balki tilshunoslikning o'ziga xosligini ham yo'q qilgan bo'lamiz”⁸¹, – degan asosli fikrlarni bildirib o'tadi. Xulosa qilib aytganda, M.M.Baxtin matnни falsafiy, lingvistik va madaniy kontekstda tahlil qilish zaruratini ko'rsatadi, so'zning ixtiyoriylikdan holi emasligini, balki axloqiy-estetik vazifa ham bajarishini tahlillar asosida ko'rsatib beradi.

Stilistika va poetikaning uyg'unligini o'ziga xos metodlar asosida tadqiq etgan fransuz olimi Sh.Balli lingvopoetikaning rivoji uchun katta hissa qo'shdi. Olim stilistikani tilning subyektiv, emotsional, ekspressiv imkoniyatlarini o'rganuvchi fan, deya ta'riflaydi hamda so'zlarning faqat ma'lumot uzatmasligini, balki emotsiyalarni yetkazish, shaxsiy munosabatni bildirish, estetik ta'sir ko'rsatish kabi vazifalarni bajarishini isbotlaydi⁸².

⁸⁰ Чичерин А.В. Идеи и стиль. О природе поэтического слова. – Москва: Советский писатель, 1968. – С. 15. narrativ@list.ru

⁸¹ Бактин М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература, 1975. – С. 43.


⁸² Балли Ш. Французская стилистика. 2-е изд., стереотипное. – Москва: Эдиториал УРСС, 2001. – С. 169-218.

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar fundamental xarakter kasb etsa-da, lingvopoetikaning tub ildizi miloddan avvalgi davrlarga, ya'ni Arastuning "Poetika" asarida bayon etilgan qarashlarida o'z ifodasini topgan. Arastu davridan boshlab poetikani tadqiq qilish borasida nazariyalar yaratildi, ammo badiiy asar tilini haqiqiy ma'noda lingvopoetik tadqiq qilish XX asrda olib borilgan izlanishlarda o'z ifodasini topdi va "lingvopoetika" fan sohasida alohida termin sifatida o'rin oldi. Jumladan, G.O.Vinokur 1920-yillar boshidagi poetik tadqiqotlarni baholashda, birinchi navbatda, uslubiy masalalarga to'xtalib, ulardan eng muhimi tilshunoslik va poetika o'rtasidagi munosabatlar ekanini qayd etadi. Olim: "So'z ustida endi shunchaki belgi sifatida emas, balki o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan, har bir yangi she'riy gapda unsurlari qaytadan ko'rib chiqilib, qaytadan guruhlanadigan narsa sifatida"⁸³ qarash lozimligini ta'kidlaydi.

Uzoq yillardan beri "*So'z – belgimi yoki ta'sir kuchimi?*" degan savolga javob berish imkonini berdi, ya'ni so'zga shunchaki belgi yoki aloqa vositasi sifatida emas, balki inson ruhiyatiga, estetik idrokiga va tafakkuriga ta'sir etuvchi kuchli hodisa sifatida qarash lozimligi ayonlashadi. Bu esa lingvopoetika ilmi oldida turgan vazifalarni belgilab olish imkonini yaratadi. Buning natijasida XX asrning o'rtalariga kelib, jahon tilshunosligida lingvopoetikaga bo'lgan qiziqish kuchayib bordi. Ayniqsa, bu davrda strukturalizm, formalizm, semiotika, stilistika kabi yo'nalishlarning rivojlanishi bilan lingvopoetika muhim ilmiy mavzulardan biriga aylandi. 1960-yillardan boshlab adabiyotshunoslik va tilshunoslik o'zaro mustaqil emas, balki uzviy bog'langan sohalar sifatida qaraladigan yondashuvlar shakllandi. Shu tarzda poetika mavzusi tobora aniq tus ola boshladi. Tilshunoslik doirasida poetika o'z o'rnini mustahkamlab, har qanday lingvistik tadqiqotda o'z o'rniga, tadqiqot metodologiyasiga ega bo'la boshladi. So'zga endilikda shunchaki narsa yoki predmet sifatida emas, balki poetik vazifani bajaruvchi hodisa sifatida yondashish zarurati tug'ildi. Bu yondashuvda so'zning poetik vazifasi – uning obrazlilik, emotsional-estetik ta'sir va estetik funksiyalarga xizmat qilishidagi o'rni alohida ahamiyat kasb etdi.


Tilshunoslikda so'zga an'anaviy yondashuv aksariyat hollarda belgi, ya'ni signal, indeks, simvol sifatida qaralib, quyidagicha namoyon bo'lar edi:

⁸³ Bu haqida qarang: Винокур Г.О. Филологические исследования: Лингвистика и поэтика. – Москва: Наука, 1990. – С. 27.



2-rasm. So'zga klassik yondashuv

Bu yondashuvda so'zning vazifasi *aloqa qilish, xabar berish, narsa va hodisalarni nomlash bilan chegaralanadi*. Bu esa, asosan, denotativ funksiyani qamrab oladi. Lingvopoetika esa bu yondashuvni kengaytiradi. Chunki lingvopoetik yondashuv so'zning faqat grammatik yoki semantik jihatini emas, balki obrazlilik, emotsional ta'sir, estetik funksiyasi kabi chuqur ma'nodagi jihatlarini ham tahlil qilishga imkon beradigan yondashuvdir. Bu yondashuv, ayniqsa, badiiy adabiyot, poeziya, og'zaki ijod matnlarni tahlil qilishda o'zining beqiyos ustunliklarini namoyon etadi.



3-rasm. So'zga lingvopoetik yondashuv

Til va badiiyatning uyg'unligida shakllanuvchi badiiy matn, ayniqsa, uning janr xususiyatlari, stilistik boyligi va obrazli ifoda vositalari bevosita lingvopoetika ilmida hal qilinadi, ya'ni lingvopoetik

tadqiqotlarda har qanday janrning til xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ammo o‘tgan asrda til va nutq hodisalarini ongli va izchil farqlash natijasida lisoniy imkoniyatlarning badiiy voqelanishini ilmiy tadqiq qiluvchi soha sifatida nazariy va amaliy lingvopoetikani farqlash ehtiyoji kuchaymoqda. “Bu esa lingvopoetika qonuniyatlarini ishlab chiqish, muayyan ijodkor asarlarida umumiy lingvopoetik asoslarning badiiy matnda individual voqelanish holati va omillarini **ijodkor – til – badiiyat** mushtarakligi tamoyili asosida tadqiq qilish zaruratini keltirib chiqaradi”⁸⁴.

XX asrning 50-yillarida jahon tilshunoslarining qiziqish doirasida bo‘lgan lingvopoetik tadqiqotlar o‘zbek tilshunoslarining ham diqqatini torta boshlagan edi. Xususan, ushbu ilmiy tadqiqotlarning ilk ko‘rinishlari maqolalar⁸⁵ tarzida taqdim etilgan. Maqolalarda adabiy til taraqqiyotining individual shakllarini, ya’ni yozuvchi ijodi orqali tilning qanday o‘zgarishini ko‘rsatishga qaratilgan ilmiy xulosalar havola etiladi hamda tarixiy-lingvistik tahlil, stilistik-lingvopoetik yondashuvlarning yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Shuningdek, mazkur maqolalar badiiy asar ijodkorining so‘z tanlashdagi mahorati, sintaktik qurilishdagi individualligi, ifoda vositalarining badiiy yuklamasi kabi jihatlarni tahlil qilishga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu tadqiqotlardan so‘ng badiiy matn tahlili monografik⁸⁶ planda o‘rganila boshladi. Olib

⁸⁴ Тошхужаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси. Филол.фан.б.фалс.док...дисс.автореф. – Фағона, 2017. – Б. 5.

⁸⁵ Шомаксудов А. Ўзбек адабий тилининг ривожланишида Ҳамза ижодининг аҳамияти // Шарқ юлдузи. №3, 1954; Шоабдурахмонов Ш. Ойбек романларининг тили ва стили // Шарқ юлдузи, №10. 1955; Шукуров Н. Гафур Ғулومнинг тилдан фойдаланиш маҳоратига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, №4. 1959; Дониёров Х., Самадов Қ. Ҳ.Олимжоннинг тилдан фойдаланишдаги новаторлиги // Шарқ юлдузи, №7. 1959; Мамажонов С. Услуб, образ, тасвирий воситалар // Шарқ юлдузи. № 6. 1969. – Б. 8-10; Расулов Т. Бадий образ ва образли тасвирий воситалар // Ўзбек тили ва адабиёти. № 5. 1965. – Б. 5-13. Шукуров Н. Бадий услуб ва бадий тил // Ўзбек тили ва адабиёти. № 4. – Тошкент, 1972. – Б. 4-9; Алиев А.Ю. Абдулла Қодирий “Обид кетмон” кассасининг баъзи тил хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигининг актуал масалалари. – Тошкент, 1985; Ўзбек адабий тили тарихидан материаллар. – Тошкент, 1986.

⁸⁶ Дониёров Х., Мирзая С. Сўз санъати (бадий маҳорат ва тил хақида мулоҳазалар). – Тошкент: Ўздадабийнашр, 1962. – 316 б.; Шомаксудов А. Муқимий сатирасининг тили. – Тошкент, 1971. – 78 б.; Мамажонов С. Услуб жилolari. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 220 б.; Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Фан, 1973. – 168 б.; Туйчиев М. Язык и стиль романа Шухрата “Золото не ржавеет”. Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ашхабад, 1973. – 36 с.; Султанова М. Ёзувчи услубига доир (Ойбек, А.Қодирий, А.Қаҳҳор ва С. Аҳмад прозаси асосида). – Тошкент: Фан, 1973. 116 б.; Эгамов Х.К. Язык и стиль узбекских советских детских поэм. – Тошкент, 1974. – 26 с.; Эркинов С. Поэма “Фархад и Ширин” Алишера Навои и некоторые вопросы ее сравнительного, изучения. Автореф.дисс. ... док.филол.наук. – Ташкент, 1974. – 95 с.; Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд: СамДУ, 1975. – 82 б.; Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975. – 96 б.; Юлдашев Б. Язык и стиль произведений Саида Ахмада. Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1979. – 15 с.; Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 59 б.; Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент, 1981. – 154 б.; Абдуллаев Л. Ўзбек тилида экспрессивликини ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 88 б.; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент, 1983. – 158 б.; Таджиев К. Творчество Максуда Шейхзаде – переводчика. Дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1984. – 193 с.; Каххарова Х. Фразеология Абдулли Кадыри. Дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1984. – 273 с.; Бобоева С. Хамид Олимжон поэзиясининг лексик

borilgan tadqiqotlar sof lingvopoetik xarakter kasb etmagan bo'lsa-da, ushbu sohaning rivojlanishi, nazariy xulosalar chiqarish uchun o'zbek tilshunosligida qo'yilgan ilk qadam bo'ldi.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini haqiqiy ma'noda lingvopoetik tadqiq qilish XX asrning 80-90-yillariga to'g'ri keladi. Jumladan, N.Mahmudov tomonidan taqdim etilgan maqolalar o'zbek tilshunosligida lingvopoetik tahlil uslubining shakllanishi va rivojlanishida muhim qadamlardan biri bo'lib, milliy badiiy adabiyot namoyandalari tilining san'at darajasidagi ifoda vositalarini lingvistik jihatdan chuqur o'rganishga xizmat qildi⁸⁷. Olim maqolalar orqali badiiy asar tilida o'xshatishlarning emotsional, semantik, uslubiy va obrazli yuklamasini tahlil qiladi. Bu orqali obraz va til o'rtasidagi ichki qonuniyatlarni aniqlashning o'ziga xos tomonlarini taklif qiladi.

B.Umurqulov "Badiiy adabiyot tili obrazli til bo'lib, kommunikativ funktsiya bajarish bilan birga, kishiga estetik zavq ham bag'ishlaydi"⁸⁸ deb o'rinli ta'kidlaydi. Chunki badiiy asar tili shunchaki ma'lumot yetkazuvchi vosita emas, balki so'zlar orqali hayot manzaralarini chizuvchi jonli tasvirdir. Undagi har bir so'z o'zining estetik quvvati bilan o'quvchi qalbida go'zallikka nisbatan his-tuyg'u uyg'otadi.

Mustaqillikdan so'ng esa o'zbek adiblarining asarlarini haqiqiy ma'noda lingvopoetik tadqiq qilish, milliy so'z va o'zlikni ifodalovchi birliklarni, maqol, matal, ibora shaklidagi turg'un birliklarni tadqiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratildi⁸⁹. Aytish mumkinki, bu davrda o'zbek

хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 66 б.; Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадийий стиль. – Тошкент: Фан, 1988. – 164 б.; Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 110 б.; Ўринбоев Б., Кунгуров Р., Лапасов Ж. Бадийий текстнинг лингвистик тахлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 219 б.

⁸⁷ Махмудов Н. Ойбек насрида ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. №9. – Тошкент, 1985. – Б. 48-50; Махмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. №4. – Тошкент, 1987. – В. 30-38.

⁸⁸ Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 3.

⁸⁹ Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии). Автореф.дисс. ...док.филол.наук. – Тошкент, 1992. – 54 с.; Исаков Ф. Научно-критический текст "Зарбулмасал Гулхани". Автореф.дисс. ...канд. филол.наук. – Ташкент, 1997. – 48 с.; Имомова Г.М. Типик миллий характер яратишда бадийий нутқнинг ўрни. Филол.фан. ном. ...дисс.автореф. – Тошкент, 1993. – 24 б.; Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадийий услуби. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 1993. – 56 б.; Лапасов Ж. Бадийий матн ва лисоний тахлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 86 б.; Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадийий-услубий ўзига хослиги. Филол.фан. ном. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – 23 б.; Сайидов Е. Фитрат бадийий асарлари лексикаси. Филол.фан. номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2001. – 24 б.; Бобожонов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Беҳбудий ва Авлоний драмалари асосида). Филол.фан. номз. ...дисс.автореф. – Самарканд, 2002. – 23 б.; Мухаддинов М., Каримов С. Ғафур Ғулумнинг поэтик маҳорати. – Самарканд: СамДУ, 2003. – 126 б.; Хасанов Л.Л. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадийиятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол.фан. номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2010. – 153 б.; Сайидов Е. Жадид бадийий асарлари лексикаси. Филол.фан. д-ри. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2018. – 284 б.; Нормуродов Р.У. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 140 б.; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадийий тил маҳорати. ("Кеча ва кундуз" романи мисолида) Филол.фан. номз. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – 145 б.; Солижонов Й. XX

lingvopoetika sohasida sezilarli taraqqiyotga erishdi. Badiiy matnni lingvistik-estetik tahlil qilish, milliy poetik tafakkurni ochish va adabiy tilning obrazli vositalarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb ilmiy yo'nalishga aylandi. Til, adabiyot, estetik tafakkur va milliy ong uyg'unligida shakllanuvchi lingvopoetik tadqiqotlar yangi bosqichga ko'tarildi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Lingvopoetik izlanishlar badiiy tafakkur va til uyg'unligi, o'zbek xalqining tarixiy-estetik qarashlari, xalq og'zaki ijodi namunalari, ijod namunalari tilining lingvopoetik tahlili, so'zning estetik yuklamasi tahlil qilina boshladi. Lingvistik tahlil faqat grammatik doirada emas, balki estetik va semantik qamrovda, aytish mumkinki, lingvopoetik aspektda amalga oshirila boshlandi. Xususan, S.Karimov badiiy asar tilini alohida nutq uslubi sifatida ilk bor keng qamrovda tadqiq qilgan ekan: "Badiiy obraz yaratish masalasini o'rganish markaziy vazifalaridan bo'lgan poetika bilan badiiy uslub o'rtasidagi munosabat ham filologiyadagi eng qiziqarli masalalardan sanaladi"⁹⁰, – deb qayd etadi. Matndagi leksik birliklarning aksariyati poetikaga asoslanib, asarning umumiy g'oyaviy-badiiy maqsadiga xizmat qiladi. Shu bois uslub va poetika munosabatini o'rganish badiiy so'zning san'at darajasiga ko'tarilish sirlarini ochib beradi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, mustaqillikdan so'ng folklor janrlari va obrazlar tizimi struktural jihatdan o'rganila boshlandi⁹¹. Lekin

асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2002. – 302 б.; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2003. – 256 б.; Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 257 б.; Шадиёва Д. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2007. – 144 б.; Сабирдинов А.Ф. Ойбекнинг поэтик маҳорати: Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2007. – 307 б.; Жуманазарова Г. "Ширин билан Шакар" достонининг луғавий ва лингвопоэтик хусусиятлари (Фозил Йўлдоми ўгли варианти асосида). Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 278 б.; Жамолнилина Д. Балний нутқда парантез. Сирликларининг семантик-грамматик на лингвопоэтик хусусиятларию Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2009. – 137 б.; Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2009. – 314 б.; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Фарғона, 2017. – 34 б.; Йўлдош Қ. Сўз ёлкини. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2018. – 285 б.; Қурбонова М.О. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2019. – 153 б.; Шодмонова Д. Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоэтик хусусиятлари (метафорик ходисалар мисолида). Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Қарши, 2019. – 55 б.; Умуркулов З. Бадий матнда қиёс ва унинг лингвопоэтик қиммати. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Қарши, 2019. – 55 б.; Ражабов Ф. Заҳриддин Муҳаммад Бобур асарларидаги ономастик бирликларининг лексик-семантик ва лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. – Қарши, 2020. – 132 б.

⁹⁰ Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: "Зарафшон" нашриёти, 1992 – Б. 23.

⁹¹ Абдуллаев Ж.Х. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1994. – 114 б.; Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 125 б.; Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 257 б.; Қобулова У. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида). Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2007. – 121 б.; Халиков А. "Гўрўғлининг туғилиши" достони тилининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 147 б.; Жуманиёзова М. Хоразм халқ кўшиқлари лексикаси. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 170 б.; Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли

o‘zbek xalqining an‘ana va qadriyatlarini, milliy til boyligini ko‘rsatadigan folklor janrlarining til imkoniyatlari, jumladan, o‘zbek xalq ertaklari tili bo‘yicha lingvopoetik yo‘nalishda jiddiy tadqiqot ishi olib borilmagan. Vaholanki, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma‘naviyat va ma‘rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e‘tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”⁹².

O‘zbek xalq ertaklarida mavjud axloqiy-ruhiy qadriyatlar, estetik mezonlar va ma‘naviy g‘oyalar badiiy tasvir vositalari orqali ifodalanadi. Ana shu badiiy talqinlarning til birliklari, obrazlilikni yuzaga chiqaruvchi til vositalari lingvopoetika va stilistika fanlari uchun muhim amaliy ahamiyatga egadir. Chunki ertak matni nafaqat folklor asari sifatida, balki tilning emotsional-estetik imkoniyatlarini yorituvchi lingvistik manba sifatida ham qaraladi. Shu sababli ertaklarda aks etgan ma‘naviy-ma‘rifiy mazmunning poetik struktura bilan uyg‘unligida tilning obrazli ifoda vositalarini aniqlash, ularning semantik-funksional xususiyatlarini tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

Badiiy matnga estetik, semantik va madaniy nuqtayi nazardan yondashuvlar matnning ko‘p qatlamli tuzilmasini, ya‘ni nafaqat axborot uzatuvchi, balki poetik, obrazli, emotsional va konnotativ xususiyatlarini ham mukammal o‘rganishga imkon berdi. Aynan shu nuqtada lingvopoetika fani o‘zining mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatidagi ahamiyatini namoyon etdi. U matndagi til vositalarining badiiy-estetik funksiyalarini, ularning ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy yukini tahlil qilishda zamonaviy lingvistik tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Lingvopoetik yondashuv, xususan, xalq og‘zaki

достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2017. – 280 б.; Оллоёров Қ. М. Хоразм достонлари ономастикаси (“Гўрўғли” ва “Ошиқнома” туркум достонлари асосида) Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. – Урганч, 2018. – 190 б.; Дусматов Х. Аския матнининг лингвостилистикаси. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2018. – 136 б.; Турдалиева Д. Ўзбек халқ мақолларини лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Қарши, 2019. – 50 б.; Қурбонова М.О. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2019. – 153 б.; Ражабов Д. Ўзбек халқ кўшиқлари тузилиши: композиция ва образlilik. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2019. – 231 б.; Ўринбаева Д.Б. Халқ оғзаки ижоди: жанрий-лисоний ва лингвостатистик тадқиқ муаммолари. Филол.фан. д-ри. ...дисс. автореф – Тошкент, 2019. – 74 б.; Умаров И. А. “Фозил Йўлдош ўғлининг “Малика айёр” достони лексикаси” (тарихий-этимологик, функционал-семантик ва стилистик таҳлил). Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Фарғона, 2020. – 52 б.; Ходжиев Ю. “Алпомиш” достонидаги шахс маънавий сифатларини ифода этувчи атов birlikларнинг семантик-структур, концептуал ва лексикографик хусусиятлари. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – 121 б.; Худайберганова Д. Достонлар тилидаги нофаол қатламга оид лексик birlikларнинг лисоний таҳлили. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Урганч, 2023. – 61 б.

⁹² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 285.

ijodi, she'riyat, nasr, dramatik asarlar, tarjima matnlari va boshqa janrlarda soʻzning estetik va obrazli kuchini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, lingvopoetika – bu nafaqat tilshunoslik va adabiyotshunoslik chorrahasidagi fan, balki tilning badiiy tafakkur bilan uygʻunligida yuzaga keladigan tilshunoslik yoʻnalishidir. U badiiy matnning mazmuniy-estetik mohiyatini anglash, yozuvchi yoki ijodkorning individual til xususiyatlarini ochib berish, shuningdek, milliy madaniyat va xalq ruhiyatini til orqali yoritish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Jahon va oʻzbek tilshunosligida lingvofolkloristik tadqiqotlar

Badiiy matn inson tafakkuri va hissiyotlarini ifodalashning eng mukammal, eng taʼsirchan vositalaridan biridir. U nafaqat estetik zavq beradi, balki xalqning tarixiy xotirasini, milliy ongini, madaniy kodlarini oʻzida jamlaydi. Shu boisdan badiiy asarlar yuksak obrazlilikka ega boʻlib, inson qalbida chuqur iz qoldiradi. “Obrazlilik yuqori boʻlgan ifodalar qanotli soʻzlar sifatida ajdodlardan avlodlarga, ogʻizdan ogʻizga koʻchib yurishining bosh sabablaridan biri ham shunda. Badiiy asar oʻtmish tilini jonlantiradi, zamonaviy jonli nutqni oʻz sahifalarida muhrlaydi, uni opichlab, avaylab-asrab, kelajak avlodlarga yetkazadi, yosh avlod maʼnaviy dunyosining oʻtmish qadriyatlariga sodiq ravishda shakllantirishga xizmat qiladi”⁹³. Xalqning estetik va obrazli tafakkurini, qarashlarini anʼanaviy ravishda kelgusi avlodlarga yetkazib beruvchi muhim manbalardan biri folklor janrlari hisoblanadi. Oʻzbek xalq ertaklarining lingvofolkloristik jihatdan tahlil etish xalq tafakkuri, qadriyatlari, ezgulik va yovuzlik, halollik va hiyla, sabr va matonat kabi umumbashariy tushunchalarni til orqali ramziy shaklda ifodalash imkoniyatini koʻrsatadi. Lingvofolkloristik tahlil til vositalari orqali ertak matnida ifodalangan qadriyatlar, til birliklarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, ertak matnlarining til, tafakkur, madaniyat va qadriyatlar tizimi bilan uzviy aloqasini ilmiy asosda oʻrganish orqali nafaqat adabiy-estetik, balki lingvistik va maʼnaviy-maʼrifiy qimmatini aniqlash imkonini beradi.

Til hissiy holatni ifodalashga boy, biz uning qanday ifodalanishini his qilamiz. Til soʻz almashishlariga sezgir boʻladi, yaʼni bir soʻz ritmni

⁹³ Кодирова Д.Х. Дунё тилшунослигида лингвопоэтика соҳасидаги янги назарий қарашлар // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. –12/4-2022. – Б. 133.

buzishi, hissiy ta'sirni kuchaytirishi yoki aksincha, taassurotni yo'q qilishi mumkin. Bunday holatlar, ayniqsa, folklor janrlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu ma'noda ma'lum bir ijodkor mahorati mahsuli bo'lgan til elementlaridan bilan bir qatorda o'tmish ajdodlarining qarashlarini tavsiflovchi xalq og'zaki ijodi namunalarini lingvofolkloristik tadqiqi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki folklor tilining poetik xususiyatlari azaldan fan va fan tarmoqlarining qiziqish doirasida bo'lgan. "Folklor asarlarining janriy xususiyatlarini o'rganish, ularni tahlil etishga bo'lgan qiziqishlar natijasi o'laroq xalq og'zaki ijodining ham lingvistik, ham folkloristik xususiyatlarini tahlil qilish zaruratini paydo qildi. Fanimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida folklor asarlarining kompozitsiyasi, syujeti, motivlarinigina tahlil qilish asar badiiyatini aniqlash, u haqidagi to'liq xulosaning shakllantirilishida yetarli emasligi o'z isbotini topdi. Bu esa folklor matnlariga kengroq aspektda yondashish zarurligini ko'rsatdi. Ana shu ehtiyoj natijasi o'laroq, tilshunoslikning alohida yo'nalishi sifatida lingvofolkloristika yuzaga keldi"⁹⁴.

Jahon tilshunosligida lingvofolkloristikaning vujudga kelish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning uzoq yillar davomida an'anaviy folklorshunoslik doirasidan ajratilmagan holda qaraladi. Garchi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan xalq og'zaki ijodi namunalarini yig'ish, tasniflash va mazmuniy jihatdan tahlil qilishga oid izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, ularning barchasini lingvofolkloristik tadqiqotlar qatoriga kiritish mumkin emas. Chunki bu kabi ishlarda aksariyat hollarda tilning o'ziga xos strukturaviy va kommunikativ xususiyatlarini o'rganishga emas, balki asosan, mazmun va shakl ustuvorligiga asoslangan yondashuvga urg'u beriladi. Lingvofolkloristika mustaqil ilmiy soha sifatida qaralishi masalasi hanuzgacha turli bahs va munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Bu munozaralar, asosan, folklor matnlarni lingvistik aspektda o'rganish zarur deb biluvchilar bilan xalq nutqiy tajribasi va og'zaki matnlardagi til birliklarini tahlil qilish ilmiy asosga ega emas, deb hisoblovchilar o'rtasidagi qarama-qarshi fikrlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, lingvofolkloristika bugungi kunga qadar rivojlanib kelayotgan yangi soha sifatida olimlar tomonidan tan olinmoqda.

⁹⁴ Abdumannatova N. "Hotamnoma" asarining lingvofolkloristik tadqiqi ("Hotamnoma" asari misolida). Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.. – Samarqand, 2024. – B. 20.

Lingvofolkloristikaning fan sifatida rivojlanishi – bu xalq og‘zaki ijodi va tilshunoslikning o‘zaro integratsiyasi asosida shakllangan fan sohasi bo‘lib, folklor matnlarning tilshunoslik mezonlari asosida o‘rganilishi bilan ajralib turadi. Bu yo‘nalish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fan sifatida shakllanib, XXI asrda til va madaniyat o‘zaro munosabatlarini jiddiy tahlil etish zarurati bilan yanada jadal rivojlandi. Chunki folklor matnlari tilning tarixiy, dialektal, stilistik va mental darajalarini saqlab qolgan qadimiy til qatlamlarining noyob ko‘zguvidir.

Folklor matnlari nafaqat og‘zaki ijod namunasi sifatida, balki tilning etnolingvistik, sotsiopragmatik va semantik imkoniyatlarini namoyon qiluvchi muhim vosita sifatida ham qadrlanadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida (ular qaysi janrga mansub bo‘lishidan qat’i nazar) avloddan avlodga o‘tib kelayotgan xalqning tarixiy tajribasi, ma’naviy dunyosi, tafakkuri va qadriyatlarini o‘z ifodasini topadi. Bunday matnlar orqali xalqning *og‘zaki nutqi, nutqiy madaniyati* hamda *lingvistik xususiyatlari* yaqqol namoyon bo‘ladi. Folklor janrlariga xos til birliklari xalq ruhiyati bilan uyg‘un holda yashab, uning ongida mustahkam o‘rnashadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, og‘zaki ijod o‘zining butun taraqqiyot bosqichlarida nafaqat folklorshunos va adabiyotshunoslar, balki tilshunos olimlar e’tiborini ham o‘ziga jalb etib kelgan. Natijada tilshunoslikning turli yo‘nalishlari doirasida og‘zaki janr matnlarining lingvistik qimmatini tadqiqot obyektiga aylangan. Bu esa lingvofolkloristika fani shakllanishiga ilmiy asos yaratadi va uni tilshunoslik hamda madaniyatshunoslik chegarasida joylashgan sohaning, ya’ni lingvofolkloristikaning rivojlanishida muhim qadam bo‘ldi. Jumladan, lingvofolkloristikaga bag‘ishlangan g‘oya va nazariyalar ancha qadimiy. Xususan, lingvofolkloristikaning ilk ildizlari qadimgi davr, ya’ni antik davr adabiyoti va tafakkurida ham kuzatiladi. Antik davr olimlarining ijodiy qarashlari, ayniqsa, mif, afsona, maqol va matal kabi janrlarga bergan baholari lingvofolkloristik qarashlarning dastlabki shakllari sifatida qaraladi. Antik davr adabiyoti ko‘p hollarda og‘zaki ijodga asoslanadi. Yunon va Rim mifologiyasi, qadimiy maqollar, qahramonlik epos va dramatik asarlar og‘zaki xalq ijodiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Til bu asarlarning asosiy ifoda vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Antik davrda, yozma adabiyot paydo bo‘lgunga qadar og‘zaki adabiyot jamiyatda bilim va tajriba almashish vositasi bo‘lgan. Gomerning “Iliada” va “Odisseya”si og‘zaki hikoya tarzida avloddan avlodga o‘tib kelgan. Bu

davr faylasuflari, xususan, Aflotun va Arastu tilning obraz yaratishdagi rolini, uning estetik va semantik vazifalarini o‘rgandilar. Bu lingvopoetik va lingvofolkloristik tafakkurga asos soldi. Shunga asoslanib, lingvofolkloristika zamonaviy fan sohasida shakllangan bo‘lsa-da, uning ildizlari qadimgi davr tafakkuri, ayniqsa, yunon-rim adabiyoti va falsafasiga borib taqaladi desak xato bo‘lmaydi. Til va folklorning uyg‘unligi qadim zamonlardan oq estetik, semantik va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan. Yevropada uyg‘onish davri yillarida gumanizm g‘oyalarini keng yoyilishi xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash, milliy tilga bo‘lgan e‘tiborning kuchayishi, xalq tili va folklor an‘analarining uyg‘unlashuviga sabab bo‘ldi. Madaniyat, san‘at, adabiyot, til va tafakkurda chuqur o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Uyg‘onish davrida folklorga, xalq og‘zaki ijodiga ham e‘tibor ortdi. Bu esa asta-sekin xalq ijodini o‘rganishga, uni tildagi ifodasi orqali anglashga olib keldi. Gumanistik yondashuv asosiy yo‘nalishga aylandi. Yozuvchi va olimlar xalq madaniyati, uning kundalik nutqi, qo‘shiqlari, ertak va afsonalariga bo‘lgan e‘tiborni oshirdilar. Til va xalq ijodining uyg‘unligi, ular orqali xalq ruhiyatini anglashga urinishlar kuzatildi. Lotin tili hukmronligidan voz kechish, milliy tillarda yozish an‘anasi rivojlandi. Shu sababli og‘zaki ijod namunalarini to‘plash va yozma shaklga keltirish kuchaydi. Bu milliy folklor va tilning uyg‘unligiga, ya‘ni lingvofolkloristik yondashuvning ilk qadamlari bo‘ldi. Xususan, Francheska Petrarka lirikasi ilk bor o‘z ona tilining xalqona obrazlarga boyligi va iboralarning poetik kuchini ochib berganligi bilan ahamiyatlidir. Garchi muallifning asarlarida o‘z ichki dunyosi yetakchilik qilishi bilan lingvopoetik hamda psixologik tahlilga boy bo‘lsa-da, ijod namunalarida xalqona obrazlar, maqollar, timsollar, iboralar, tabiat tasvirlari keng qo‘llanilganligi bilan folklor ildizlariga murojaat qilganligidan dalolat beradi⁹⁵.

J.Choser ingliz xalq og‘zaki nutqidagi iboralarni adabiy tilga olib kirdi⁹⁶. Nemis xalqi madaniy hayotida M.Lyuter o‘chmas iz qoldirdi. Injilni nemis tiliga tarjima qilar ekan, xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan til birliklariga murojaat qilgan⁹⁷. Natijada u lingvistik va folkloriy ma‘lumotlar uyg‘unligiga hissa qo‘shdi.

⁹⁵ Qarang: Петрарка Ф. Лирика. Вступ. статья, сост. и примеч. Н.Томашевского; Худож. Л.Ильина – М.: Худож. лит., 1980. – 381 с.

⁹⁶ Чосер Дж. Кентерберийские рассказы. Пер. с англ., предисл. и примеч. С.Сапожникова. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2024. – 884 с.

⁹⁷ Лютер М. О свободе христианина / Составление, вступ. статья, пер. с нем., коммент., примеч. И.Фокина. – Издательство “ARC”, 2013. – 728 с.

Fransuz Uygʻonish davrining mashhur namoyondasi F.Rablning “Gargantua va Pantagruel”⁹⁸ asari bevosita xalq ogʻzaki ijodiga yaqin turishi bilan diqqatga sazovor. Mazkur asar xalq tiliga, xalq donishmandligiga, hazil va mutoyiba boy. Xalqona obrazlar va qahramonlar Gargantua va Pantagruel xalq afsonalaridan olingan obrazlar. Bu obrazlar Yevropa xalq ogʻzaki ijodida keng tarqalgan ulkan, kuchli, ammo sodda xalq odamlari sifatida namoyon boʻlgan.

XVII-XX asrlarda aksariyat ijodkorlar til, madaniyat va xalq ogʻzaki ijodi oʻrtasidagi uzviy bogʻliqligini, falsafiy va mantiqiy tomonlarini ochib beruvchi fundamental ilmiy ishlar, nazariy yondashuvlar va metodik izlanishlar olib bordilar. Jumladan, Vilgelm Leibniz⁹⁹ til va urf-odatlarni milliy ruh bilan bogʻladi. Xalqlar tarixini tahlil qilishda ogʻzaki ijod namunalari muhimligini taʼkidlab oʻtadi. J.Makferson¹⁰⁰ “Ossian poemalari” orqali shotland xalq ogʻzaki ijodining yozma shaklga oʻtishida til va folklorning uygʻunligini koʻrsatishda muhim oʻrin tutadi. XIX asrga kelib aka-uka Grimmlar¹⁰¹ nemis xalq ertaklari va afsonalarini toʻplab, tilshunoslik bilan folklor oʻrtasidagi bogʻliqlikni tahlil qildi. Ogʻzaki xalq ijodining til va mentalitet bilan bogʻliqligini oʻrganadi.

A.Afanasyev¹⁰² rus xalq ertaklarini tizimli toʻplaydi. Til va obrazlar orqali xalq dunyoqarashini tahlil qiladi. F.Bopp, A.Schleyxer¹⁰³lar til tarixiy taraqqiyoti orqali xalq madaniyatining shakllanishi va saqlanishida tilning roli katta ekanligini taʼkidlashadi va asarlari orqali nazariy xulosalar berib oʻtadilar. Jumladan, A.Shleyxerning evolyutsion konsepsiyasi, genealogik modeli, arxaik shakllarga boʻlgan eʼtibori bugungi kunda folklor matnlarini lingvistik, tarixiy va madaniy qatlamlarda tahlil qilish uchun ilmiy asos boʻlib xizmat qilmoqda.

XX asrga kelib R.Yakobson xalq ogʻzaki ijodidagi til birliklarini tizimli oʻrganishni taklif qildi va quyidagi fikrlarni bildirib oʻtadi: “Poetika, eng avvalo, “Ogʻzaki xabarni sanʼat asariga aylantiradigan narsa nima?” degan savol bilan shugʻullanadi. Uning asosiy predmeti ogʻzaki sanʼatning boshqa sanʼat turlariga va ogʻzaki ifodaning boshqa koʻrinishlariga nisbatan oʻziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Shu

⁹⁸ Rabelais F. Gargantua et Pantagruel. Texte transcrit et annoté par. Tome I – Paris: Bibliothèque Larousse, 1913. – 238 p.

⁹⁹ Leibniz G.W. Die philosophischen Schriften. Erster Band. – Berlin: Weidmannsche Buchhandlung, 1875. – 457 s.

¹⁰⁰ Macpherson J. The poems of Ossian. – London, 1796. – 256 p.

¹⁰¹ Grimm Y., Grimm W. Kinder-und Haus-Marchen. – Berlin, 1812. – 489 s.

¹⁰² Afanasyev A.N. Russian folktales from the collection of. - New York, 2014. – 219 p.

¹⁰³ Bopp F. Über die Sprache der alten Preussen in ihreu verwandtschaftlichen Beziehungen. – Berlin: Akademische Buchdruckerei, 1853. – 63 s.; Schleicher A. Compendium der vergleichenden grammatik der indogermanischen sprachen. – Weimar, Herman Böhlau, - 1862. – 494 s.

bois poetika adabiyotshunoslikda yetakchi o‘rin egallashga haqli hisoblanadi. Qandayki rasm tahlili tasviriy tuzilishga bog‘liq bo‘lsa, poetika ham og‘zaki tuzilish muammolarini o‘rganadi. Tilshunoslik esa og‘zaki tuzilishni o‘rganadigan global fan sifatida, poetikani o‘zining ajralmas qismi sifatida qamrab oladi”¹⁰⁴.

Bu asrda folklor janrlari tahlilini, shubhasiz, V.Proppsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. “Мифология сказки” (“Ertakning mifologik asoslari”), “Исторические корни волшебной сказки” (“Sehrli ertakning tarixiy ildizlari”)¹⁰⁵ asarlari orqali folklor matnlarining strukturasi lingvistik yondashuv asosida tahlil qildi. Aytish mumkinki, V.Propp folklor tahlilga funksional-sxematik yondashuvni olib keldi.

Klod Levi-Straus xalq og‘zaki ijodiyotiga lingvistik metodlar asosida yondashgan ilk yirik olimlardan biridir. Uning qarashlari mif va ertaklarni strukturali, formal, til birliklari asosida tahlil qilish yetakchilik qiladi. Folklor matnlarida til va tafakkur modelini anglash mumkinligini ta’kidlaydi. “Myth and Meaning” (“Mif va ma’no”)¹⁰⁶ asarida miflarning o‘ziga xos tomonlarini tahlil qiladi.

XVII-XX asrlar davomida jahon tilshunoslari til va folklor o‘rtasidagi murakkab, ammo uzviy aloqalarni chuqur o‘rgandilar. Aka-uka Grimmlar, Propp, Yakobson, Lévi-Strauss kabi olimlar til birliklari, matn strukturasi, obrazlar tizimi va xalq ongining ifodalanishi kabi yo‘nalishlarda muhim nazariy asoslar yaratdilar. Bu ishlar lingvofolkloristikani mustaqil fan sifatida shakllanishiga, nazariy xulosalar chiqarishga muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Xalq ruhiyati, tafakkuri va estetik qarashlari til orqali folklor matnlarida qanday ifodalanishini tahlil qilish metodikasini yaratdi. Shu bois XVII-XX asrning 60-yillarigacha bo‘lgan davrni lingvofolkloristika fanining nazariy, metodik va amaliy jihatdan poydevorini yaratgan eng muhim bosqich desak bo‘ladi.

Uyg‘onish davridan XX asrning 50-yillariga qadar xalq og‘zaki ijodi namunalarini, jumladan, qo‘shiq, afsonalar, ertaklar, dostonlar to‘planib, yozma shaklga keltirila boshlandi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda folklorshunoslarning xizmati katta bo‘lib, lingvofolkloristik yo‘nalishning asosiy obyekti hisoblangan folklor janrlarining boy

¹⁰⁴ Jakobson R. Language in Literature. Edited by Krystyna Pomorska and Stephen Rudy. Of Harvard university press Cambridge, Massachusetts. Chapter 7. – London: Belknap press, 1987. – P. 63.

¹⁰⁵ Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. Научная редакция, текстологический комментарий И.В.Пешкоба. – Издательство «Лабиринт», – М.: 2000. – 336 с.; Пропп В.Я. Мифология сказки. Изд. 2-е. – М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1969. – 168 с.

¹⁰⁶ Levi-Strauss C. Myth and meaning. – New York: Schocken Books Collection, 1979. – 58 p.

manbasini kelgusiga avlodlarga yetkazib berdi. Lekin bu sohani alohida metodologik asosda tadqiq qilish va bu sohaga qiziqish 1966-yilgi sotsiolingvistika konferensiyasi va Xoyenigsvald¹⁰⁷ning “Aproposal for the study of folk linguistics” (“Xalq tilini o‘rganish bo‘yicha taklif”) nomli chiqishidan boshlandi. H.Xoyenigsvald o‘z ma‘ruzasida folklor matnlarni lingvistik jihatdan o‘rganishning dolzarb yo‘nalishlarini belgilab beradi. Uning fikricha, xalq og‘zaki ijod namunalarini tahlil qilishda tilga nisbatan tarixiy yoki estetik yondashuv bilan cheklanmaslik, balki uni dinamik, kommunikativ va ijtimoiy-funksional nuqtayi nazardan ham ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning 70-yillariga kelibgina tilshunoslik va folklorshunoslik kabi gumanitar fanlar tutashgan – folklor tilini o‘rganadigan lingvofolklorshunoslik paydo bo‘ldi. Lingvofolkloristikaning rivojlanishida rus olimlari A.N.Veselovskiy, I.A.Ossovetskiy, A.P.Yevgenyeva, Z.K.Tarlonov, A.T.Xrolenko kabi olimlarning tadqiqotlari keyingi davr rus folkloristikasi uchun fundamental manba bo‘lib xizmat qildi. Ushbu tadqiqotlarga qadar esa jahon tilshunosligida lingvofolkloristikaning xalq qo‘shiqlari, matallar, lapar kabi janrlar tiliga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, lingvofolkloristika termini atrofida birlashmagan edi. Shundan kelib chiqib, olimlar tomonidan lingvofolkloristikaning o‘rganish obyekti xalq og‘zaki tarkibiy qismi va birinchi navbatda, folklor matni bo‘lib, uni o‘rganish bilan folklorshunoslik, til, sinxron va diaxron dialektologiya, etnolingvistika va stilistika kabi fanlar shug‘ullanishi ta’kidlanadi. Lingvofolkloristikaning predmeti esa folklor tilini o‘rganish va tavsiflashdan iborat, degan qarashlar ilgari surildi hamda xalq og‘zaki ijodining og‘zaki tomonini o‘rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan tilshunoslik o‘zining tadqiqot vositalarini yangilash zaruratini his qildi.

A.Dandesning 1969-yilda e‘lon qilgan maqolalaridan iborat “Фольклор: семиотика и/или психоанализ” (“Folklor: semiotika va psixoanaliz”) asari lingvofolkloristika fanining shakllanishi va rivojlanishida nazariy asos, metodologik turtki va fundamental yondashuvlar manbayi sifatida muhim o‘rin tutdi. Maqolalarda folklor matnlarni belgilar tizimi (semiotika) va inson psixikasi mahsuli (psixoanaliz) sifatida tahlil qilgan holda, ularning lingvistik, psixologik va madaniy qatlamlarini ochib beradi. Bu esa lingvofolkloristikaning

¹⁰⁷ Hoenigswald H.A. Proposal for the study of folk-linguistics, in: William Bright (ed.), Sociolinguistics. – London: The Hague: Mouton, 1966. – P. 16-26.

ilmiy mezonlarini boyitadi va yangi tadqiqot yo‘nalishlariga yo‘l ochdi¹⁰⁸. Olim folklordagi til birliklarini shunchaki shakl emas, semantik va ramziy yuklamaga ega belgilar deb ko‘rsatadi. Har bir so‘z, obraz yoki struktura folklorda kodlangan bo‘lib, u xalq dunyoqarashi, mentaliteti va qadriyatlarining til orqali ifodasidir. A.Dandesning ushbu tamoyili lingvofolkloristik tahlilga semiotik yondashuv uchun imkon yaratdi.

1974-yilga kelib A.T.Xrolenkoning “Lingvofolkloristika muammolari: folklor tilini o‘rganishga kompleks yondashuv masalasi haqida”, “Lingvofolkloristika nima?” nomli maqolalari “Lingvofolkloristika” atamasini tilshunoslik ilmiga kirib kelishiga sabab bo‘ldi. A.T.Xlorenko: “Lingvofolkloristikani etnolingvistikaning bir tarmog‘i, lekin biri ikkinchisining o‘rnini bosa olmaydi”¹⁰⁹, – deya ta’kidlaydi. Olimning qaydlari o‘rinli, chunki etnolingvistika til va madaniyatning o‘ziga xos munosabatini o‘rganuvchi, etnosga xos tafakkur, urf-odat, an’ana, dunyoqarash va milliy ong kabi masalalarni tadqiq qilsa, lingvofolkloristika folklor janrlarida xos til birliklarini o‘rganuvchi sohadir. Lingvofolkloristikaning rivojlanishi ushbu fan tarmog‘idan bir nechta yangi yo‘nalishlarning, jumladan, folklor leksikologiyasi, folklor leksikografiyasi, folklor dialektologiyasi, qiyosiy lingvofolkloristika va krossmadaniy lingvofolkloristika kabilarning ajralib chiqishiga olib keldi. Lingvofolkloristikaning shakllanishi, predmet va obyekt doirasining belgilanishi, tadqiqot metodlarining aniqlashtirilishi, nazariy va metodologik muammolarning hal etilishida I.A.Ossovskiy¹¹⁰ G.Bogatirov va A.P.Yevgeniyevaning xizmatlarini katta ekanligini qayd etadi. Darhaqiqat, G.Bogatirovning “til singari, folklor asari ham shaxssizdir va u faqat murakkab impuls va mavjud emas” degan qarashlari lingvistik va folklor komponentlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilib, og‘zaki nutq elementlari orqali folklor asarining shakllanishini lingvistik aspektning o‘rni muhim ekanligi haqidagi qarashlari, folklor obrazlarning til vositalari orqali ifodalanishini estetik-funksional mezonlarda ko‘rib chiqish haqidagi takliflari soha rivojiga sezilarli ta’sir qildi. A.P.Yevgeniyeva esa tadqiqotlarida folklor matnining semantik qatlamlari, ularning kontekstual ma’nolari va ularning jamiyat madaniyati

¹⁰⁸ Bu haqida qarang: Дандес А. Фольклор: семиотика и/или психоанализ: Сб. ст. Пер. с англ.; Сост. А.С.Архипова. – М.: Вост. лит., 2003. – 279 с. (Исследования по фольклору и мифологии Востока: Осн. в 1969 г. Редкол: Мелетинский Е.М.(пред.) и др. Семиотика фольклора).

¹⁰⁹ Хроленко А.Т. Введение в лингвофольклористику: учебное пособие. – Москва: Флинта Наука, 2010. – С. 19.

¹¹⁰ Оссовецкий И.А. О языке русского традиционного фольклора. // Вопросы языкознания. 1975. № 5. – С. 66-77.

bilan bog‘liqligi tahlil etadi. Bu esa lingvofolkloristika fanining nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va semiotik tahlil mezonlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu olimlarning izlanishlari shuni dalillab bermoqdaki, lingvofolkloristika umumiy tilshunoslik doirasida ko‘riladigan tor doiradagi uslubiy yondashuv emas, balki o‘z predmeti, obyektlari, metodologiyasi va terminologik apparatiga ega mustaqil tarmoq fan sifatida qaralishi lozim¹¹¹.

Lingvofolkloristika sohasida bugungi kunga qadar olib borilgan tadqiqot ishlariga asoslanib, shuni aytishimiz mumkinki, lingvofolkloristikaning asosiy yo‘nalishlari folklor janrlarining lisoniy-madaniy xotirani muhrlash xususiyatini, folklor matnlari va kontekstual tarkibiy qismlarining semantik xususiyatlarini tadqiq qiladi. Bu esa leksik birliklar va folklor matn o‘rtasidagi o‘zaro murakkab munosabat folklor fondining estetik va ma‘naviy qiymatini ochib beruvchi omil sifatida qaralishiga asos bo‘ladi. Chunki folklor ijodiyoti insoniyat tafakkuri, e‘tiqodi, estetik qarashlarini o‘zida mujassamlashtira oladi. Bu folklor janrlarining lingvistik tabiatini o‘rganishda uning mazmuniy va janriy xususiyatlarini tahlil qilish bilan birga, til va so‘zning leksik mohiyatini tadqiq etish ham muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir. Aynan shu nuqtada lingvofolkloristika fanining ahamiyatli jihatlari yuzaga keladi.

Folklor tilining semantik tuzilmasi uni oddiy muloqot tilidan farqlab, turli zamon qatlamlaridagi elementlarni o‘zida jamlaydi va ularni uyg‘un bir sistema sifatida muvozanatlaydi. Bu jarayon davomida folklor tili o‘z semantik tarkibiga tarixiy, ijtimoiy, madaniy va estetik qatlamlarni mujassamlashtiradi.

So‘zning semantik qatlamlari asrlar davomida shakllanib, uzoq asrlar davomida yuzaga kelgan turli ijtimoiy-ma‘naviy o‘zgarishlarni aks ettiradi. Bu esa har bir folklor til birliklarining nafaqat lug‘aviy ma‘nosini, balki konnotativ, simvolik, arxaik va kontekstual ma‘nolarini ham hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi. Zero, folklor matnlarida lisoniy birlik va umummatn o‘rtasidagi munosabatlar o‘ziga xos sinkretik xarakterga ega bo‘lib, ular bir-birini o‘zaro taqozo etadi. Garchi matn folklor asarining yadrosi hisoblansa-da, uning to‘liq semantik qiymati faqat matnning o‘zi bilan emas, balki ohang, makon va zamon hamda ijro jarayoni kabi ekstralingvistik omillar sintezi orqali shakllanadi.

¹¹¹ Евгеньева А.П. Очерки по языку русской устной поэзии в записях XVII-XX вв. – Москва. Издательство академии наук СССР, 1963. – 353 с.; Богатырев П. Г. Вопросы теории народного искусства. – Москва: Издательство искусство, 1971. – 510 с.

Shunday ekan har bir folklor til birliklarini kontekstdan ajratib tahlil qilish mumkin emas, nazarimizda.

V.M.Jirmunskiy lingvopoetika, badiiy til, obrazlar tizimi, va adabiy shakllarning evolyutsiyasi bilan shug'ullangan yetuk nazariyotchidir. U poetika san'atini xalq poetikasi va individual poetikasi kabi ikki katta guruhga ajratib, ushbu guruhlarning o'ziga xos xususiyatlarini tasnif qiladi va "Badiiy vazifaga bo'ysundirilgan tilda, og'zaki badiiy asarda kompozitsiya estetik tamoyillar bo'yicha badiiy jihatdan bo'lingan va tashkil etilgan bir butunlik sifatida og'zaki materialni tartibga solish qonuniga aylanadi"¹¹², – degan qarashni ilgari suradi. V.M.Jirmunskiy xalq og'zaki ijodi (folklor) va yozma adabiyot poetikasini farqlab o'rganadi. Uning ushbu qarashlarini quyidagicha izohlash mumkin:

2-jadval

V.M.Jirmunskiyning folklor va yozma adabiyot poetikasidagi qarashlari

Folklor poetikasi	Individual ijod poetikasi
Muallifi noma'lum, xalq tomonidan yaratiladi	Aniq muallifga tegishli
Ko'p bora takrorlanadi, og'zaki uzatiladi	Bir martalik yozilgan va saqlanadi
Barqaror qolip (formulali uslub)	Shaxsiy uslub, erkinlik
Kollektiv ijod mahsuli	Individual yaratuvchanlik
Qayta-qayta o'zgarib boradi (variantlilik)	Innovatsion, yangilikka asoslangan
Og'zaki nutqning ifoda imkoniyatlariga tayanadi	Yozma tilning murakkab strukturasi va obrazlar tizimiga asoslanadi

E.A.Shubin badiiy ijod va og'zaki ijod haqida o'z qarashlarini ilmiy xulosaga ega tarzda ifoda etgan. Unga ko'ra: "Hozirda qo'llanilayotgan og'zaki rivoyatning barcha turlarining ta'sirini ko'plab adabiy asarlarda kuzatish mumkin. Bunda gap folklor ta'siri haqida emas, balki o'zlari

¹¹² Жирмунским В. Композиция лирических стихотворений. Сборники по теории поэтического языка – Петербург: Издательство "Опояз", 1921. – С. 5.

adabiyot ta'sirisiz shakllanmagan og'zaki nutq amaliyotining turli zamonaviy shakllarining ta'siri haqida bormoqda"¹¹³.

O'zbek tilshunosligida folklor tilini tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning yangi sohasi bo'lishiga qaramay, birinchi qadamlar allaqachon qo'yilgan. Buning uchun muhim ilmiy manba hisoblangan folklor matnlari olimlarimiz tomonidan alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan¹¹⁴. Ertak motivlari, turlari, genezisi va badiiyati folklorshunoslikning alohida tadqiqot obyekti sifatida belgilandi va tadqiq etildi. (Bu haqida ushbu faslning birinchi va ikkinchi faslda batafsil to'xtalib o'tildi)

O'tgan asrda o'zbek tilshunosligida folklor matnlarining til xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar muhim ahamiyatga

¹¹³ Поэтика и стилистика. Русской литературы памяти академика Виктора Владимировича Виноградова. – Ленинград: Издательство “Наука”, 1971. – С. 318.

¹¹⁴ Абдуллаев Х. Халқ дostonлари ва уларнинг вариантлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 123 б.; Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. – Тошкент: Фан, 1964. – 68 б.; Жирмунский В., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. – Москва: Гослитиздат, 1947. – 520 с.; Алавия М. Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1974. – 222 б.; Жалолов Ғ. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1976–156 б.; Жалолов Ғ. Узбекский народный сказочный эпос. – Ташкент: Фан, 1980. – 271 с.; Имомов К. Ўзбек халқ сатирик эртаклари. – Тошкент: Фан, 1974 – 156 б.; Мусина Ғ. Ўзбек халқ дostonларида хотин-қизлар образи. – Тошкент: Фан, 1983. – 104 б.; Раззоқов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижодида сатира ва юмор. – Тошкент: Фан, 1965. – 86 б.; Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – 65 б.; Жураев М. Магические числа в узбекских народных сказках. Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987. – 160 с.; Бекназаров К. Ўзбек халқ маиший эртаклари (ўрганилиши, таснифи, поэтикаси). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1993. 129 б.; Соатов Ғ. Ўзбек халқ анъанавий байрамлари таркибидаги фольклор асарларининг поэтик хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1993. – 142 б.; Ҳайдаров Т. Гўрўғли ва мифология синкретизми (“Гўрўғлининг туғилиши” дostonи мисолида). Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1993. – 147 б.; Эшчонова Ғ. “Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам” дostonининг вариантлари. Филол.фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 29 б.; Жумаева С. Ҳайвонлар ҳақидаги эртакларнинг генетик асослари ва спецификаси. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1996. – 154 б.; Жуманиёзов Б.М. Ўзбек халқ эпосида ялмоғиз образи. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1996 – 24 б.; Эшонкулов Ж.С. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини. Филол. фан. номз... дисс.автореф. – Тошкент, 1996 – 26 б.; Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикасининг тарихий асослари ва бадийати. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1995. – 268 б.; Диванова И.С. “Хурлиқо ва Ҳамро” дostonи вариантларининг таҳлили ва бадийати. Филол.фан. номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 1999. – 26 б.; Қаюмов О.С. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва бадийати): Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 24 б.; Тилавов А. Ўзбек халқ дostonларидаги от образининг тарихий асослари ва бадий талқини. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 154 б.; Файзиёва Д. Ўзбек фольклорида илон образи (генезиси ва бадийати). Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б. Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан. д.ри. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 257 б.; Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 252 б.; Гўрўғли дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. Филол.фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2011. – 308 б.; Жўраева М. Ю. Ўзбек халқ топишмоқларининг генезиси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2017. – 152 б.; Турдимов Ш. Рўзиёва М. Ё. Ўзбек халқ кўшиқларида ранг символикаси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2017. – 148 б.; Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2005. – 125 б.; Дусматов Х. Аския матнининг лингвостилистикаси. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2018. – 136 б.; Эшанова З. Ўзбек халқ дostonларида тоғ образи: генезиси ва бадий талқинлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2018. – 164 б.; Сабирова Н. Хоразм халқ лирик кўшиқларида поэтик рамзлар тизими ва уларнинг бадий-эстетик вазибалари. Филол.фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2019. – 156 б. Сариев С. “Гўрўғли” туркуми дostonларининг оғзаки ва кўлзма нусхаларини қиёсий ўрганиш. Филол.фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2019. – 262 б.; Турдалиева Д. Ўзбек халқ мақолларини лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Қарши, 2019. – 50 б.; Раймова Н. Хоразм дostonларининг поэтик тизими. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2020. – 57 б.

ega. Bu borada bir qator tilshunos olimlar tomonidan xalq og‘zaki ijodi namunalarning leksik-semantik, fonetik-fonologik, stilistik xususiyatlari tadqiqot obyekti sifatida tahlilga tortilgan. Jumladan, ertak, doston, maqol, xalq qo‘shiqlari va topishmoq¹¹⁵ kabi janrlarning til qurilishi, badiiy vositalar bilan boyitilishi, ularning poetik va kommunikativ funksiyalari tilshunoslikning turli yo‘nalishlarida tadqiq etilgan. Ayniqsa, folklor matnlaridagi obrazlar tizimi, ularning lingvopoetik tahlili, personajlarning nutq uslubi, frazeologizmlar, diaxronik va sinxronik tahlil metodlari asosida yoritilgan.

Folklor matnlarining til xususiyatlarini o‘rganish nafaqat o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, balki lingvomadaniyatshunoslik, lingvopoetika, stilistika va matnshunoslik kabi sohalarning rivojlanishida ham muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Shu sababli, o‘zbek tilshunosligida folklor matnlarining lingvistik tadqiqi dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Sh. Shobdurahmanovning “О художественном языке дастана “Равшан” nomli tadqiqot ishi o‘zbek epik adabiyoti tilini og‘zaki ijro tajribasi bilan o‘rganishda ilmiy yondashuvlarni qo‘llagan mustaqil va ahamiyatli ilmiy tadqiqotdir. U o‘z davrida epik matn tahlilining nazariy-

¹¹⁵ Шаабдурахманов Ш. О художественном языке дастана “Равшан”. Автореф.дис. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1949. – 19 с.; Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане “Алпамыш”. Автореф.дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 23 с.; Турсунов С. Лексические особенности дастана “Алпамыш”. Автореф.дис. ...канд. филол.наук. – Ташкент, 1990. – 19 с.; Абдуллаев Ж.Х. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 1994. – 114 б.; Холмонова З. “Шайбонийхон” достони лексикаси (Пўлкан шоир варианты асосида). Филол.фан.номз. ...дис.автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.; Болтаева И. Ўзбек халқ дostonларида эпитет табиати. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 151 б.; Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм дostonлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 160 б.; Рўзимбоев Х. Жанубий Хоразм дostonлари тилининг луғавий-маъновий таҳлили (“Шахриёр” ва “Маликаи Завриё” дostonлари мисолида). Филол. фан.номз. ... дис. – Тошкент, 2000. – 137 б.; Раҳимов А. Ўзбек халқ дostonлари лексикасининг қиёсий-тарихий таҳлили (Эргаш Жуманбулбул ўғли ижоди мисолида). Филол.фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 2002. – 140 б.; Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2005. – 125 б.; Қобулова У. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида). Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2007. – 121 б.; Холиқов А. “Гўрўғлининг туғилиши” достони тилининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 152 б.; Маҳмадиев Ш. Ўзбек халқ дostonлари тилида стилистик формулалар. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2010. – 155 б.; Абдиев А. Алпомиш достони тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дисс.автореф. – Нукус, 2011. – 23 б.; Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси. Филол. фанлари д-ри ...дис. – Тошкент, 2017. – 268 б.; Ўринбаева Д.Б. Халқ оғзаки ижоди: жанрий-лисоний ва лингвостатистик тадқиқ муаммолари: филол.фан. д-ри (DSc) дисс. – Самарқанд, 2019. – 245 б.; Хаджимусаева Н.Н. “Орзигул” дostonининг статистик, семантик-стилистик ва лингвопоэтик тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Жиззах, 2020. – 46 б.; Ашуров Д. “Алпомиш” дostonининг лингвокултурологик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Наманган, 2021. – 155 б.; Эшмуратов А.М. “Холдорхон» дostonининг лингвостилистик хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул ўғли варианты асосида). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Жиззах, 2021. – 50 б.; Файзуллаева Д. Халқ дostonлари тилининг лингвомаданий тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Жиззах, 2022. – 148 б.; Хамдамова Х.Ш. “Рустамхон” достони сўз бойлиги. (лексикографик функционал - семантик ва лингвостилистик таҳлил) Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Жиззах, 2022. – 54 б.; Ҳайитова Ф. Никоҳ тўйи кўшиқларининг лисоний талқини. Филол.фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 24 б.

metodologik asoslarini mustahkamlagan hamda keyingi tadqiqotchilar uchun poydevor bo‘lib xizmat qilgan deyish mumkin. Ushbu tadqiqot lingvofolkloristika va lingvopoetika sohalarida mustaqil mavzu sifatida epik matn tahlilining fundamentini yaratadi. R.Rasulovning tadqiqot ishida “Alpomish” dostoni tilining frazeologik tuzilmalar va bog‘lanish mexanizmlarini tahlil qilib, ularni turkumlab, tasniflaydi. Bu tipologik-sintaktik yondashuv uning ilmiy uslubining asosiy jihatini tashkil etdi. Mustaqillik davrida xalq og‘zaki ijodi namunalarining lingvistik tahlili alohida ahamiyat kasb etdi. Bu davrda tilga bo‘lgan yondashuv faqat kommunikativ vosita sifatidagina emas, balki milliy tafakkur, madaniy kod va estetik tafsirning asosiy ifodachisi sifatida ham shakllandi. Ayniqsa, xalq ijodi namunalarini lingvistik, lingvopoetik va lingvokulturologik jihatdan o‘rganish tendensiyalari katta ahamiyat berila boshlandi. Jumladan, G.Jumanazarova tadqiqot ishida: “Dostonlar tili lingvopoetikasini aniqlash orqali uslubiy formulalarning tuzilmaviy-poetik tabiati va leksik-stilistik qatlamlarning semantikasi, iboralarning tuzilmaviy-semantik va konnotativ ma’nolaridagi o‘ziga xosliklar, dostonlar qahramonlari nutqidagi norasmiy, xalqchil unsurlar, xususan, so‘kish, qarg‘ish va haqorat so‘zlarning matndagi lingvopoetik xususiyatlari, takroriy birliklar va saj’ san’atining lisoniy va lingvopoetik imkoniyatlari, dostonlar tilidagi o‘xshatishlarning tuzilmaviy-semantik va poetik tabiati, sifatlash, metafora, metonimiya va paremiologik birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari, badiiy-estetik qimmatini” muhim ekanligini qayd etib o‘tadi.

O‘zbek tilshunosligida xalq og‘zaki ijodi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan turli metodologik yondashuvlar asosida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ushbu boy madaniy-lisoniy merosni lingvofolkloristikaning mustaqil tadqiq obyektiga aylantirish yo‘lida olib borilgan izlanishlar alohida e’tiborga molikdir. Xususan, M.Yakubbekova xalq og‘zaki ijodining muhim janrlaridan biri – xalq qo‘shiqlari misolida lingvofolkloristik qarashlarning dastlabki ilmiy-nazariy asoslarini izohlab berdi. Uning ilmiy izlanishlarida folklor matnlarining poetik strukturasi, obrazlilik darajasini va estetik funksiyasini aniqlashga qaratilgan lingvistik tahlil alohida o‘rin egallaydi. Tadqiqotchi badiiy asar tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortgani hamda bu jarayon tilshunoslikda yangi yo‘nalish – lingvopoetika shakllanishiga olib kelganini asoslab beradi. Olimaning qarashlari lingvofolkloristika va lingvopoetika fanlarining o‘zaro bog‘liqligini yoritishga xizmat qilib, xalq ijodi tili orqali milliy tafakkur,

estetik dunyoqarash va madaniy qadriyatlarining ifodalanishini ilmiy asosda tushuntirishga imkon yaratadi¹¹⁶.

Shuni alohida qayd etish joizki, jahon va o'zbek tilshunosligida lingvofolkloristik tadqiqotlarning tarixiy taraqqiyotida xalq ertaklari alohida o'rin egallaydi. Bu janr og'zaki nutqning eng qadimiy, obrazli va mazmunan boy shakli bo'lib, til vositasida xalqning estetik qarashlari, axloqiy ideallari, milliy tafakkuri va ijtimoiy munosabatlari ifodalanadi. Folklorshunoslar tomonidan to'plangan va tadqiq etilgan ertaklarning lingvofolkloristik tadqiqini amalga oshirish, ayniqsa, o'zbek tilshunosligida tadqiq qilinishi lozim bo'lgan ishlardan biri bo'lib turibdi. Chunki bu tadqiqotlar o'zbek ertaklarida mavjud milliy tilning poetik imkoniyatlari, etno-kognitiv xususiyatlari va kommunikativ mezonlari aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, lingvofolkloristika boshqa tilshunoslik fanlari, xususan, dialektologiya, til tarixi, stilistika, matnshunoslik, etnolingvistika, lingvokulturologiya, folklorshunoslik va etnografiya bilan yaqin metodologik aloqada rivojlanadi. Bu fanlararo integratsiya lingvofolkloristik tahlillarning kompleks va sistematik xarakter kasb etishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, lingvofolkloristika xalq og'zaki ijodini tilshunoslik mezonlari asosida tadqiq etadigan nisbatan yangi, ammo mustahkam nazariy asosga ega bo'lgan fan sohasidir. U xalqning estetik va obrazli tafakkurini, madaniy merosini, milliy til va nutqiy tafakkurini o'rganishda asosiy vositalardan biri sifatida shakllanmoqda. Lingvofolkloristika fanining rivojlanishi til va madaniyatning o'zaro aloqasini tahlil etish zaruratidan kelib chiqqan holda, xalq ruhiyatini, estetik dunyoqarashini va milliy ongini ifodalashda muhim ilmiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

¹¹⁶ Qarang: Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 257 б.

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI

Frazeologizmlarning lingvopoetik tahlili

“Tilning leksik tizimini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ba’zi so‘zlar o‘zlarining bog‘lanishlarida cheklangan. Shu bilan birga, belgilangan hodisalarning tabiati nuqtayi nazaridan bunday cheklovlar uchun tushuncha topish qiyin, ular ushbu tilga xos bo‘lgan qonunlarga bog‘liq”¹¹⁷. Mana shunday bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun har bir xalqning tarixiy va madaniy yashash tarzi bilan bog‘liq frazeologizmlari yuzaga chiqadi. Shu jihatdan frazeologik birliklar (keyingi o‘rinlarda FB) semantik zichlik, ekspressivlik kabi xususiyatlarga ega bo‘lib, badiiy matnlar, og‘zaki nutq va madaniy diskursda obrazlilik yaratish, kontekstual takror va uslubiy soddalikdan qochish imkonini beradi.

Frazeologiya termini dunyo filologiyasida 1558-yilda ingliz adabiyotshunos olimi Neandr tomonidan birinchi marta qo‘llangan. U badiiy asarlarni tarjima qilishda shu termini ishlatishga majbur bo‘lgan¹¹⁸. Jahon tilshunosligida frazeologizm tushunchasi va uning nazariy asoslari Sh.Balli tomonidan muomalaga kiritildi. Shundan so‘ng olimlar tomonidan frazeologizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari turli aspektlarda tadqiq qilindi. Ammo ungacha bo‘lgan davrda A.Potebnya, F.Fortunatov o‘z asarlarida frazeologizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘zga tashlangan. Masalan, A.Potebnya “Мысль и язык”¹¹⁹ asarida FBlarining tilda emotsional-estetik yuk tashishi haqida fikr bildirib o‘tadi. A.M.Babkina, V.P.Jukova frazeologiyaning predmetini faqat barqaror so‘z birikmalari bilan cheklaydilar, ular semantik jihatdan o‘zgargan so‘z birikmalarini ifodalaydi, so‘zga tenglashtiriladi va nominativ birliklar deb ataladi. A.V.Kunin, A.D.Rayxshteyn esa frazeologiyaning obyektini semantik jihatdan o‘zgargan barqaror birikmalar hisobiga kengaytiradilar, bu birikmalar nafaqat so‘z, balki gap bilan ham bog‘liq bo‘ladi deya ta’kidlashadi.

O‘zbek tilshunosligida FBlarining ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilishi XX asrning 50-yillaridan boshlab shakllana boshladi. Xususan, bu sohada Sh.Rahmatullayev, A.Shomaqsudov, M.Husainov, A.M.Bushuy,

¹¹⁷ Горская С.А. Лексика. Фраzeология. Лексикография. – Гродно: ГрГУ, 2009. – С. 56.

¹¹⁸ Пинхасов Я. Хозирги ўзбек адабий тили. Лексиколосия ва фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – С. 55.

¹¹⁹ Потебня А. Полное собрание трудов: Мысль и язык. Подготовка текста Рассказова Ю.С., Сычева О.А. – Москва: Издательство “Лабиринт”, 1999. – С. 64.

A.E.Mamatov, Q.Hakimov, A.E.Mamatov, Sh.Abdullayev, K.Bozorboyev, B.Yo‘ldoshev, Z.Jumayeva, Sh.Sultonova¹²⁰ kabi olimlarning olib borgan ishlari diqqatga sazovordir. O‘zbek tilidagi FBlarning boshqa tillardagi birliklar bilan qiyosiy tadqiqi esa lingvomadaniyatshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon frazeologizmlarning milliy xususiyatlarini aniqlash, ularning semantik ekvivalentligini belgilash hamda tarjimada adekvat vositalarni tanlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Sh.Usmonova, M.Xalikova, G.Ergasheva, A.Nosirov, G.Abdashulloyeva, G.Qurbonova, M.Babadjanov, R.Zaripova, N.Turopova, D.Niyazmetova, N.Otaqulov, S.Abdullayeva, F.Mamatova, G.Umarjonova¹²¹ bu borada salmoqli ishlarni amalga oshirdi.

¹²⁰ Рахматуллаев Ш. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка. Автореф.дисс. ...канд.фол.наук. – Москва: 1952. – 18 с.; Шамаксудов А.Ш. Язык сатиры Муками (лексика и фразеология). Автореф.дисс. ...канд.фол.наук. – Ташкент, 1956. – 18 с.; Хусаинов М. Фразеология прозы писательницы Айдын. Дисс. ...канд.фол.наук. – Самарканд, 1959. – 166 с.; Бушуй А.М., Яхшиев А.А. Фразеология узбекской диалогической речи (на материале художественной прозы) // Сов. тюркология. 1986. № 3. – С. 27-33; Бушуй А.М., Журакулов Р.Д. Фразеология узбекских народных сказок // Сов. тюркология. 1990. № 5. – С. 40-48.; Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991. – 274 б.; Ҳакимов Қ. Ўзбек тилидаги содда гап қолипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанлиги. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент: 1993. – 121 б.; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол.фан. док... дисс. – Тошкент: 1999. – 316 б.; Абдуллаев Ш.Д. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида). Филол.фан. номз. ...дисс.автореф. – Тошкент: 2006. – 21 б.; Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутки фразеологизмлари. Филол.фан. номзоди. ...дисс. – Самарканд: 2001. – 144 б.; Йўлдошев Б. Мустақиллик йилларида ўзбек фразеологияси: эришилган ютуқлар ва навбатдаги вазифалар // Хорижий филология. №1, 2017 й. – Б. 8.; Жумаева З.Ш. Фразеологик birlikларнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Жиззах, 2021. – 58 б.; Султонова Ш.М. Диний фразеологизмлар трансформацияси: семантик ва лингвомаданий аспекти. Филол.фан. д-ри (DSc)...дисс.автореф. – Тошкент, 2022. – 80 б.

¹²¹ Усмонова Ш. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар. Филол.фан. номзоди. ...дисс. – Тошкент, 1998. – 162 б.; Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета в языковой картине (на материале русского и узбекского языков). Дис... канд. филол. наук – Ташкент, 1999. – 42 с.; Эргашева Г. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2011. – 165 б.; Насиров А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари. Филол.фан. д-ри (DSc)...дисс.автореф. – Тошкент, 2016. – 96 б.; Адашуллоева Г. Тожик ва ўзбек тилларида шахс хусусиятини ифодаловчи фразеологизмларнинг қиёсий-типологик таҳлили. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Самарканд, 2018. – 145 б.; Курбонова Г. Француз ва ўзбек тилларида ономастик компонентли фразеологизмларнинг миллий-лисоний хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2019. – 148 б.; Бабаджанов М. Ўзбекча-қорақалпоқча бадий таржималарда фразеологизмларнинг ифодаланиши. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – 140 б.; Зарипова Р.И. Инглиз ва ўзбек тилларида оддий сўзлашув нутқида хос фразеологизмларнинг адабий нормага муносабати. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф – Бухоро, 2020. – 50 б.; Турапова Н. Япон ва ўзбек тиллари соматик фразеологизмларининг чоғиштира таҳлили (лингвомаданий аспект). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф – Тошкент, 2020. – 56 б.; Ниязметова Д. Инглиз ва ўзбек тилларида озик-овқат компонентли фразеологизмларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2021. – 112 б.; Отақулов Н. Француз, ўзбек ва рус тилларида мезуратив фразеологизмларнинг лисоний хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2021. – 172 б.; Абдуллаева С. Лингвопрагматические особенности употребления фразеологизмов с компонентом-зоонимом в характеристике человека (на материале английского и узбекского языков). Дисс.док. ...филос. фил.наук. – Самарканд, 2022. – 161 б.; Маматова Ф. Инглиз ва ўзбек фразеологизмларида оилавий

Sh.Maxmaraimovanning: “Frazeologizmlar – millatning olamni anglashdagi o‘ziga xos tamoyili, sog‘lom fikri, axloqiy qonuniyatlarining qisqa va lo‘nda obrazli ifodasi”¹²², – degan fikrlari FBlarning faqat til birliklari emas, balki xalqning dunyoqarashi, ma‘naviy qadriyatlari va tarixiy xotirasini mujassamlashtiruvchi vosita ekanligini anglatadi. Darhaqiqat, frazeologizmlar xalq og‘zaki ijodining ajralmas bir qismidir. Masalan, ertaklarda uchraydigan **“o‘lanning ustiga ko‘mgan”**, **“holi xarob, bag‘ri kabob”**, **“shipirma-shaqshul qilmoq”** kabi frazeologizmlar obrazli, qisqa, lekin teran ma‘no ifodalaydi. Bunday birliklar nafaqat ertak matniga badiiylik va ifoda boyligi olib kiradi, balki qahramonlarning fe‘l-atvorini ochib berish, didaktik g‘oyalarni ifodalashda muhim estetik va semantik yukni o‘z zimmasiga oladi. Bu esa ertaklar tilidagi frazeologizmlarni lingvopoetik tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ertak matnidagi FBlar obrazlar va ijrochi nutqida xalq tili jozibasini, obrazlilik va ixchamlilikni ta‘minlovchi lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. E.Begmatov o‘tgan asrdayoq FBlarning o‘rganish muammolari bo‘yicha o‘z fikrlarini bayon etib, tilshunoslikda bu borada qilinishi lozim bo‘lgan ishlar haqida muhim tendensiyalarni ko‘rsatib bergan edi. E.Begmatov: “Frazeologiya o‘zbek tilining nisbatan qoniqarli o‘rganilgan sohalaridan biridir. Lekin ko‘pincha, asosan, adabiy til frazeologiyasi, ko‘proq badiiy adabiyot tilidagi frazeologiya tahlil qilinadi. Xalq tili frazeologiyasi, o‘zbek folklori frazeologiyasi, ayniqsa, o‘zbek dialektal frazeologiyasi materiallari hali tadqiq etilganicha yo‘q. FBlar o‘zbek tili lug‘at sostavining tarkibiy qismi bo‘lib, u til uchun badiiy-estetik tasvir vositasi hisoblanadi”¹²³. Darhaqiqat, o‘zbek tilshunosligida FBning ayrim yo‘nalishlarda, xususan, adabiy til va badiiy adabiyot tilidagi FBlar nisbatan mukammal tadqiq etilgan bo‘lsa-da, o‘zbek xalq ertaklari matnidagi frazeologizmlar lingvistik jihatdan o‘rganilgan emas. Bu esa xalq ertaklaridagi FBlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish o‘zbek tilshunosligi oldida turgan muhim ilmiy masalalardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Rus olimi N.F.Alefirenko o‘rinli qayd etganidek: “Frazeologiya – tilshunoslikning barqaror, umumlashgan va majoziy ma‘noga ega bo‘lgan birikmalarni o‘rganuvchi bo‘limi bo‘lib, u sinxron va diaxron frazeologiyaga ajratiladi”¹²⁴. Tarixiy frazeologiyaning

анъана ва муносабатларнинг лингвوماданий тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2022. – 162 б.; Умаржонова Г. М. Немис ва ўзбек тилларидаги “Hand” – “қўл” компонентли фразеологизмларнинг чоғиштирма таҳлили. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2022. – 163 б.

¹²² Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o‘zbek tili (leksikologiya). – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2021. – B. 271.

¹²³ Бегматов Э.А. Ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б.15.

¹²⁴ Алефиренко Н.Ф. Фразеология и паремиология: – Москва: Флинта: Наука, 2009. – С. 12-13.

ko‘plab namunalari, yuqorida ta’kidlaganimizdek, xalq og‘zaki ijodining turli janrlarida uchratish mumkin. Chunki folklor asarlari til tarixining qadim qatlamlarini saqlab qolgan, xalq tafakkuri, madaniy xotirasi va jamoaviy tajribasining lingvistik ifodasi sifatida xizmat qiladi. Bu janrlarda qo‘llaniladigan FBlar, ko‘pincha, o‘z davrining ma’naviy-madaniy mazmunini, qadriyatlar tizimini va ijtimoiy realiyalarini aks ettiradi. Shu bois tarixiy frazeologiyani o‘rganishda folklor manbalar asosiy empirik material vazifasini bajaradi va til taraqqiyotining diaxron aspektini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xalq og‘zaki ijodi janrlari orasida frazeologizmlarga eng boy janrlardan biri ertaklardir. Ushbu janrdagi frazeologizmlar nafaqat tilning obrazlilik darajasini oshiradi, balki xalqning tarixiy xotirasini, ijtimoiy-falsafiy qarashlarini aks ettiradi. Shu bois ertaklar frazeologik boylikni o‘rganishda muhim lingvistik manba sifatida qaraladi.

O‘zbek xalq ertaklaridagi xalqning ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq narsa-predmet, voqea-hodisalarga asoslangan tushunchalar orqali vujudga kelgan frazeologizmlar yetakchi o‘rinni egallaydi.

Echki bunday qarasa, bu sho‘ring qurg‘ur sovliq bechoraning holi xarob, bag‘ri kabob ko‘rinibdi. Oriq, terisi borib suyagiga yopishib, har qovurg‘asi “manamen”, deb sanalib turibdi. (Bo‘ri bilan mergan. “Botir echki”, 15-b) Mazkur parchasida sovliqning ahvoli xalqning badiiy mahorati orqali “*sho‘ring qurg‘ur*” frazeologizmi bilan boshlangan tavsif “*bag‘ri kabob*”, “*terisi suyagiga yopishib, har qovurg‘asi “mana men”, deb sanalib turibdi*” tarzidagi ifodalar orqali obrazlilik va emotsional yuklama vujudga keltiriladi. Matndagi “*sho‘ring qurg‘ur*”, “*bag‘ri kabob*” FBlari muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Jumladan, “*Bag‘ri kabob*” FBgi metaforik ohangda qattiq dard chekayotgan, iztirobli holatdagi jonivor tasvirini beradi. “*Qovurg‘asi “mana men”, deb sanalib turibdi*” birikmasini FB sifatida qaray olmaymiz. Chunki hayvonlar haqidagi ertaklarda hayvon tasviri, ayniqsa, tashqi holati iboralar bilan ifodalanayotganda aynan o‘z ma’nosida qo‘llanish holatlari kuzatiladi. Ushbu iborasi litota vositasida berilgan bo‘lib, jismoniy oriq holatni mubolag‘ali tarzda ko‘rsatish orqali obraz yaratgan.

Ertak matnlarida obraz nutqini badiiylashtirish maqsadida adabiy tilda mavjud frazeologizmlardagi komponentlar xalq og‘zaki ijodidagi leksemalar bilan almashtirilishi mumkin.

– *Dunyoning g‘am-g‘ashidan juda chiqdim. Bizni ota-onamiz zab sizlarga boylab ketgan ekan-da. Sahardan to namozshomgacha ishlaysan, ancha-ancha yerni haydaysan, kech kirib juda darmoningdan ketganingda qo‘shdan chiqaradi, o‘lganning ustiga ko‘mgan deganday, ketishda, quruq ketmasin deb, bir arava cho‘p-cho‘makni ham yuklab ketishadi.* (Bo‘ri bilan mergan. “Botir echki”, 18-b.)

Matnidagi “Dunyoning g‘am-g‘ashi”, “O‘lganning ustiga ko‘mmoq” kabi FBlar xalq og‘zaki ijodiga xos topqirlikning namunasi. “Dunyoning g‘am-g‘ashi” FBgi adabiy tilda qo‘llanuvchi “Dunyoning achchiq-chuchugi” FBga sinonimday ko‘rinsa-da, aslida ma‘no otkenlarida keskin farqni ko‘rish mumkin.

3-jadval

**“Dunyoning g‘am-g‘ashi”, “Dunyoning achchiq-chuchugi”
FBlarining ta‘sir doirasi**

Ibora	Leksema	Frazeologizmlardagi leksemalarning qatlamlanishi	Ijobiy/asosiy ma‘no	Salbiy/asosiy ma‘no
Dunyoning g‘am-g‘ashi	Dunyo	+	+/-	-/+
	G‘am	+	-	+
	G‘ash	-	-	+
Dunyoning achchiq-chuchugi	Dunyo	+	+/-	+/-
	Achchiq	+	-	+
	Chuchuk	-	+	-

Frazeologizm	Asosiy leksema	Ta‘sir doirasi (semantika)	Frazeologizmdagi leksemalarning qatlamlanishi
Dunyoning g‘am-g‘ashi	<i>g‘am, g‘ash</i>	Qayg‘u, tashvish, azob-uqubatlar, hayotning og‘ir jihatlari	<p>1. G‘am – bevosita: qayg‘u, ko‘chma: hayotiy yuk, ruhiy iztirob.</p> <p>2. G‘ash¹ – hushini yo‘qotish, behushlik, noxush.</p>

			G‘ash² – g‘ishg‘isha qilaveradigan, injiq G‘ash³ – ba’zi shevalarda aldamchilik, firibgarlik, soxtakorlik ¹²⁵
Dunyoning achchiq-chuchugi	<i>achchiq, chuchuk</i>	Hayotdagi barcha sinovlar – og‘ir (achchiq) va yoqimli (chuchuk) tomonlari	1. Achchiq – bevosita: ta’m; ko‘chma: og‘ir, qiyin holat.
			2. Chuchuk – bevosita: yoqimli ta’m; ko‘chma: quvonchli, yengil holat.

Ertak matnidagi “g‘am-g‘ashi” birligidagi g‘ash so‘zi jadvalda keltirilganidek 3 xil ma’noni ifodalaydi hamda ertak qahramonining ahvolidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ikkinchi va uchinchi ma’no ushbu FBning asosiy ma’nosini ifodalay oladi. Ertak matnida qo‘llangan ikkinchi frazeologizm “**O‘lganni ustiga ko‘mmoq**” adabiy tilda ko‘p qo‘llanuvchi “*o‘lganning ustiga chiqib tepmoq*” (bir ko‘ngilsiz ish ustiga yana boshqa bir ko‘ngilsiz ishni qilmoq)¹²⁶ning o‘rnida qo‘llangan. “O‘lganning ustiga ko‘mmoq” FBgi ertak matnida obrazning bechora ahvolini ortiq darajada ekanligini ifodalovchi badiiy vosita sifatida ishlatilgan. Bu hayotda duch kelinadigan ortiqcha jabr va toqatning chegarasini obrazli ifodalaydi. Mazkur frazeologizmlar ertakdagi syujetni ramziy-majoziy ma’no bilan boyitadi. Bu esa ertakdagi jonivor obrazlarining bechoraligini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu ibora matnda gradatsion tarzda namoyon bo‘lib, avval og‘ir mehnat, so‘ng jonsiz qolgan holda ishlatilish kabi holatlar ketma-ketlik orqali azobning kuchayib borishi poetik shaklda namoyon bo‘ladi.

FBlarda transformatsiya hodisasi, ya’ni bir shakldan boshqa shaklga o‘tish holati o‘zbek tilida ham keng kuzatiladi. Bu jarayon, ayniqsa, badiiy nutq doirasida obrazlilikni kuchaytirish, nutqning ifodaviy-

¹²⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, V жилд. – Б. 441.

¹²⁶ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2022. – B. 145.

ta'sirchanligini oshirish hamda xalq tiliga xos uslubni yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

– *Mening doira chalishimga sabab shuki, qaroqchi o'g'rilar sizlarning mol-dunyolaringizni **shipirma-shaqshul qilib** ko'tarib ketadigan vaqtida, men shu xayolni o'ylab, sizlarni ogohlantirdim.* (Bo'ri bilan mergan. “Rustamzod va Sherzod”, 38-b.)

Transformatsiya FBlarining komponentlari almashtirilishi yoki ularning shakl jihatidan o'zgarishi orqali sodir bo'ladi. Misolda qo'llangan “*shipirma-shaqshul-qilmoq*” FBgi “*supurib ketmoq*” o'rnida qo'llangan. FBning birinchi komponenti (“shipirma”) shevaga oid leksema, qipchoq shevalarida keng qo'llanadigan “supurmoq”, ya'ni “yig'ishtimoq” ma'nosini bildiradi. Matnda esa ko'chma ma'no hosil qilib, *batamom yig'ishtirib ketmoq, sudrab ketmoq* ma'nosida qo'llangan. Ikkinchi komponent “shaqshul” esa poetik xususiyatga ega bo'lib, *betartib, g'ala-g'ovur bilan sudrash* ma'nosini anglatadi. Ko'rinadiki, ertak matnidagi “**shipirma-shaqshul qilmoq**” FBgi xalq og'zaki nutqiga yaqin bo'lgan, transformatsiyalangan shaklda qo'llanilib, obrazlilikni kuchaytirish va matnga badiiy-estetik ta'sir baxsh etish vazifasini bajaradi.

Ertak matnida xalq orasida ommalashgan FBlarining ham qo'llanish holatlari ko'p kuzatiladi, ammo mazmuniy jihatdan farqlarni ko'rish mumkin. Masalan, “**Dashnom bermoq**” aksariyat hollarda nojo'ya ish, xatti-harakat uchun achchiq gap, tanbeh so'zlarni aytishni ifodalaydi.

– *Ey, bo'ri o'rtoq, chol seni shunday o'limdan qutqarsa-yu, sen shunday qari cholni yeysanmi? – deb **dashnom beribdi.*** (Bo'ri bilan mergan. “Bo'ri bilan mergan”, 5-b.) Ushbu FB *izza qilmoq, koyimoq*, ya'ni hissiy-psixologik bosimni bildiruvchi konnotatsiyada qo'llanilgan. Ko'rinadiki, misolda dashnom oddiy “tanbeh” emas, balki insoniy qadriyatlarni himoya qiluvchi birlik vazifasini o'taydi.

Hayvonlar haqidagi xalq ertaklarida antropomorfizatsiya hodisasi badiiy ifoda vositasi sifatida muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, insonlarga xos xatti-harakatlar, ijtimoiy muloqot shakllari, psixologik holatlar va nutq imkoniyatlarining hayvonlarga ko'chirilishi orqali ertak obrazlarining semantik hajmi kengayadi. Bunday yondashuv orqali ertak yaratuvchi xalq insoniyatga xos muammolarni ramziy shaklda aks ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

*Bular tutun chiqqan joyga yetib borib qarashsa, bu joy butun vahshiy hayvonlar o'tiradigan joy ekan. Bular shu yerda to'planib olib, **gap***

yeyishar ekan. (Bo‘ri bilan mergan. “Botir echki”, 20-b.) Misolda “**gap yemoq**” FBgi oddiygina muloqotni emas, balki faol ijtimoiy suhbat, maslahatlashuv, muhim masalalarni muhokama qilish ma’nolarini bildiradi. “Gap yeyish” FBning mazmuniy ko‘pqatlamliligi (suhbatlashmoq, maslahatlashmoq, sirli mavzularda gaplashmoq, ulfatchilik qilmoq) orqali ertakka o‘ziga xos badiiy drammatizm va satirik ohang kiritiladi.

Ertaklarda frazeologizmlar nafaqat an’anaviy obrazli ifoda vositasi sifatida, balki semantik siljish orqali yangi ma’noviy yuklama bilan ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, “*o‘n gulidan bir guli ochilmagan*” FBgi xalq orasida odatda *husn-jamoli endigina namoyon bo‘la boshlamoq* ma’nosida, ya’ni yosh qiz (ba’zan o‘g‘il bila)ning husn-jamoli hali to‘liq namoyon bo‘lmagan, go‘zallikda kamolotga yetmagan holatni ifodalashda qo‘llaniladi. Biroq ertakdagi quyidagi parchada ushbu FBning semantik yadrosi siljishga uchrab, umr va hayotning boshlang‘ich bosqichini anglatuvchi, ya’ni hayotning hali gullamagan, to‘liq yashalmagan davriga nisbatan ishlatilganligining guvohi bo‘lamiz: “*E bobo, bizning o‘n gulimizdan bir gulimiz ochilgani yo‘q, biror odamga yomonlik qilmadik, ne sababki, otamiz bizga o‘limni ravo ko‘radi?*” (Oltin beshik. “Ahmadjon bilan Luqmonjon”, 21-b.) yoki “– *Ey Azroil hazratlari, mening jonimni olmang. Jonimning evaziga, nima desangiz shuni beray, nima desangiz shuni qilay! O‘n gulimdan bir gulim ochilmagan yigitman! – debdi.* (Oyjamol. “Yamoqchining qizi va podshovachcha”, 20-b.) Misollarda FBning lingvopoetik ko‘lami gul ochilishi – *hayotning ochilishi, shaxsiy taraqqiyot, hayotdan bahramand bo‘lishning* timsoli sifatida namoyon bo‘lgan.

Ertak janrida xalqning kundalik hayoti, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar va xalq tabiatining aksi bo‘lgan realistik tasvirlar obrazlarning nutqida muhim estetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, FBlar orqali bu holatlar yanada ifodali va obrazli tus oladi. Jumladan, “**Bosh qashigani tirnog‘i qolmaslik**” FBgi orqali xalqning og‘zaki ijodida mehnatning og‘irligi, jismoniy azob-uqubat darajasi ifodalanadi. Quyidagi misolda mazkur FB ushbu semantik yuklama bilan qo‘llanilgan: “*Bu daraxt bitguncha, bosh qashigani tirnog‘imiz ham qolmasa kerak*”, – *deb qayg‘uribdi.* (Oltin beshik. “Qiron botir”, 30-b.) Ushbu FBni tahlil qilishda, eng avvalo, uning etimologik asoslariga e’tibor qaratish zarur. Frazemaning tarkibiy qismlari bo‘lgan “*bosh qashimoq*” va “*tirnoq qolmaslik*” ot+fe’l birliklari og‘zaki nutqda

jismoniy charchoqni bildiradi. “Bosh qashimoq” – insonning eng sodda, tabiiy ehtiyoji bo‘lib, bu amalni ham bajara olmay qolish darajasidagi charchoq, ya’ni intensiv mehnat ta’siridagi chorasizlik holati tasvirlanmoqda. “Tirnog‘i qolmaslik” esa mehnatning tanaga, jismga yetkazgan zararini ifodalovchi tashbeh sifatida qo‘llanadi. Demak, FBning etimologik negizi oddiy, har kungi hayotiy ehtiyojlar orqali inson mehnatining og‘irligini obrazli yetkazishdan iborat.

Ertaklarida shunday FBlar mavjudki, ular xalqning ma’lum tarixiy davrida faol qo‘llangan bo‘lib, bugungi kunda esa faqat ayrim hududiy lahja va ba’zi ijtimoiy guruh (asosan, keksalar nutqida)lar nutqida saqlanib qolgan. Ushbu birliklar nutqning faol qatlamidan passiv qatlamiga o‘tgan bo‘lsa-da, ular ertak matnlarida o‘zining badiiy-estetik ta’siri bilan ajralib turadi. Bu kabi FBlar adabiy tilda mavjud FBlarining muqobillariga nisbatan obrazlilik, hissiylik va ekspressivlik nuqtayi nazaridan ustunlik qiladi. Masalan: *Olti oy bo‘ldi, men g‘am loyiga botdim, bu qush biror marta sayramaydi.* (Oltin beshik. “Bulbuligo‘yo”, 43-b.) Matndagi “**G‘am loyiga botmoq**” frazeologizmi oddiy “*g‘amgin bo‘lmoq*” degan semantik ma’noni bildirsa-da, ifoda vositasi sifatida yanada chuqurroq estetik yuklamaga ega. U inson qalbidagi og‘ir va davomli ruhiy iztirobni loy, ya’ni balchiq, loyqa, cho‘kindi, botqoq¹²⁷ modda obrazi orqali ifodalaydi. “**Loy**” g‘amning og‘ir, harakatni cheklovchi, insonni tutqich bermaydigan, yopishqoq, botirib yuboradigan holatini tasvirlash uchun tanlangan. “Botmoq” fe’li orqali g‘amning vaqtinchalik emas, balki uzoq davom etadigan, odamni ruhiy va jismoniy jihatdan falaj qiladigan kuchli ta’siri berilgan. “*G‘am loyiga botmoq*” psixologik ahvolning fizik metaforasi bo‘lib, inson qalbidagi og‘irlikni modda (loy) orqali jonlantiradi. Ushbu birlik nafaqat hissiy ta’sirni oshiradi, balki ertak obrazining ruhiy holatini badiiy ifoda etishga xizmat qiladi. “G‘am chekmoq”, “g‘amga tushmoq” kabi FBlarda bu darajadagi obrazlilik sezilmaydi.

Ertaklarda xalqning kundalik turmush tarzida qo‘llaniladigan predmet va buyumlar asosida shakllangan FBlar keng qo‘llanadi. Bunday birliklar, bir tomondan, o‘zbek xalqining obrazli fikrlash darajasini namoyon etsa, boshqa tomondan, matnga realistik asos, folkloriy kolorit va badiiy uslubiy rang-baranglik olib kiradi.

Xotin avval, u mening tengimmi, zotim ulug‘ bo‘lsa, men kelib-kelib shu isqirt, ombori don, sandig‘i non ko‘rmagan bir gadoga tegamanmi,

¹²⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, II жилд. – Б. 504.

– *deb ko‘nglidan o‘tkazibdi...* (Oltin beshik. “Mayna”, 48-b.) **“Ombori don, sandig‘i non ko‘rmagan”** FBgi nihoyatda kambag‘al (bu faqat ertak matni uchun xoslangan) obrazni ifodalashga xizmat qilgan. Mazkur FB ikki real predmet: *ombor* va *sandiq* orqali xalq turmush tarzini, ularning ichida bo‘lishi kerak bo‘lgan eng zaruriy mahsulotlar (don va non)ning yo‘qligi orqali ifodalaydi. FBning semantik o‘qi moddiy yetishmovchilik bo‘lsa-da, u sifatlash orqali ruhiy-axloqiy qadrsizlikka aylantiriladi. Frazemada semantik kuchlanish zarur bo‘lgan narsaning yo‘qligi orqali hosil qilinadi, bu esa qahramonning ijtimoiy maqomini pasaytirgan.

O‘zbek tilidagi **“Ko‘zi tirik”** FBgi xalq og‘zaki ijodining badiiy-estetik kuchini namoyon qilgan. Mazkur FB nafaqat fiziologik holatni, balki jon, hayot, borliq kabi falsafiy tushunchalarni ham mujassamlashtirgan. *Otasi o‘g‘liga hunar o‘rgatmoqchi bo‘lib: “O‘g‘lim, ko‘zim tirikligida hunar o‘rganib olgin”, – debdi.* (Oltin beshik. “Ziyod botir”, 57-b.) Misolda berilgan FB ko‘z orqali inson hayotining davom etayotgani bildirilib, ko‘z – ruh va mavjudlik timsoli sifatida talqin qilinadi. “Ko‘z” komponenti ertak matnida faqatgina idrok a‘zosi emas, balki ruhning oynasi, hayotning belgisi, tuyg‘ularning tarjimoni sifatida ham tasvirlanadi. Ushbu FBning antonimi sifatida ertak matnida qo‘llangan **“Ko‘ziga tuproq to‘lmoq”** frazemasini uchratish mumkin. Ushbu frazema disfemistik xarakterda bo‘lsa-da, ertak qahramonining vafotini eshitgan suyukli singillar tilidan aytiladi. Bu jarayonda singillarning fojidan alamda ekanligi obrazlashtiriladi hamda nutqqa ixchamlik, obrazlilik, hissiy ifoda, ta’sirchanlik ham baxsh etadi:

*“Akang keladi” deguncha,
“Akang o‘ldi!” desang-chi!*

Xumor-xumor ko‘ziga

Tuproq to‘ldi desang-chi!


(Oltin beshik. “Bektemir botir”, 100-b.)

Misrada *“xumor-xumor ko‘z”* FBgi hayot, go‘zallik, yashash istagini anglatgan bo‘lsa, keyingi satrda bu *ko‘zga tuproq to‘lishi*, ya’ni o‘lim holati tasvirlangan. Bunda antiteza muhim vazifa o‘tagan. **“Akang keladi”** degan birlik orqali umid uyg‘otilsa, **“Akang o‘ldi!”** degan birlik keskinlik, fojialilikni bildiradi.

Ba'zi FBlar matnda butun shaklda emas, komponentlari orasiga boshqa leksik birliklar kiritilgan holda namoyon bo'ladi. Bu usul aytilayotgan mazmun tabiiy va emotsional bo'lishi bilan birga matnda o'zgaruvchanlik kasb etadi. Misol uchun: *Otasi Ziyod botirni shahardan haydab yuborgandan keyin yorug' dunyo Qamarxonning ko'ziga qorong'i bo'lib, erta-yu kech Ziyod botirni yodlab, kechalari yig'lab tong ottirar ekan. Ammo dardini hech kimga aytmas ekan.* (Oltin beshik. "Ziyod botir", 60-b.) Bu yerda "**Ko'ziga yorug' dunyo qorong'i bo'lib**" FBgi odatiy ketma-ketlikdan farqli holda ifodalangan: "yorug' dunyo" FBgi oldin kelib, undan keyin "ko'ziga" komponenti keltirilgan. "Yorug' dunyo" ifodasi bu yerda *hayot, baxt, quvonch, umid* kabi tushunchalarni anglatadi. Bu yorug'likning "ko'ziga qorong'i" bo'lishi esa obrazda *depressiv holat, umidsizlik, hayotiy yo'nalishni yo'qotish* ramzi sifatida keladi. Shu jihatdan olib qaraganda "yorug' dunyo" hayotni yorug'lik orqali tasviri, "qorong'i bo'lmoq" esa ruhiy iztirobni ifodalashga xizmat qilgan.

Sintaktik inversiya FBning odatiy tartibda emas, komponentlar aralash shaklda kelishini ko'rsatadi. Quyidagi ertak matnlarida ham shu holatni ko'rish mumkin: *Oxiri sakkizinchi kuni shahzoda Somir hind shohining qizini yerdan azod ko'tarib yerga uray deganda, hind shohi qizining yuzidagi niqobi ko'tarilib ketib, shahzoda Somirning ko'zi qizning jamoliga tushibdi. Yigit bir oh tortib, qizni sekin yerga qo'yibdi.* (Oltin beshik. "Momir bilan Somir", 81-b.); – *Otangizni bu yerdan yo'qoting. Iloji bo'lsa, gadoy debdi, xotin, topmas biror joyga tashlab keling!* (Oltin beshik. "Nima eksang, shuni olasan", 125-b.)

Ertaklar xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgani sababli, ularda FBning adabiy tilga xos variantlari o'rniga ko'proq dialektal, variantli yoki folklor tiliga xos sinonimik shakllari qo'llanilishi kuzatiladi. Bunga bir qancha omillar sabab bo'ladi.



4-rasm. Ertaklar tilida adabiy tilda mavjud FBlarning variantlashuvini va ertak matniga moslashtirishni taqozo asosiy omillar

Quyidagi misolga e'tibor qilsak, adabiy tildagi “Og‘zing qani?, – desa, qulog‘ini ko‘rsatmoq” (mutlaqo anqov, noshud, sodda odam¹²⁸) FB o‘rnida ertak matnida variantli va ifodaviy ta’sir doirasi kuchli bo‘lgan **“Sichqonning burnini qonata olmaydi”** iborasi ishlatilgan:

– *Birkam qirq akangning arslonligini ko‘rdim. Arslonlik u yoqda tursin, birkam qirqi yig‘ilib, bitta sichqonning burnini qonata olmaydi, – dedi!* (“Bektemir botir”, 91-b.) Ushbu misolda ekspressivlik, kinoyalik va baholovchanlik komponentlari orqali FBning semantik ta’sirchanlik doirasi hamda badiiy-estetik ko‘lami kengaygan. FBning bunday variantlashuvi vazifaviy va uslubiy nuqtayi nazaridan voqelikni kuchaytiradi.

A.Rafiyev: “An’anaviy frazeologizm bilan transformatsiyaga, o‘zgarishga uchragan FBlarni bir-biridan farqlash lozim, chunki an’anaviy frazeologizm til hodisasi bo‘lsa, o‘zgarishga uchragan FBlar nutq hodisasidir”¹²⁹, – deya ta’kidlaydi. Darhaqiqat, shunday FBlar mavjudki, ular ertakdagi obrazlar nutqidan kelib chiqib kompozitsiyaga singdiriladi. Masalan, **“Yorug‘likka chiqmoq”** FBgi odatda metaforik tarzda *baxtli, osoyishta, erkin hayotga yetishmoq* mazmunini anglatadi. Bunday ibora xalq tilida *kambag‘allikdan, g‘am-g‘ussadan, muammoli hayotdan najot topish, ijobiy holatga o‘tishni* ifodalashda qo‘llaniladi. Ammo ertak matnlarida bu FBning qo‘llanishi yanada murakkabroq

¹²⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи. 1978. – Б. 202.

¹²⁹ Рафиев А. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг структурал-функционал хусусиятлари. Филол. фанл. номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 1982. – Б. 30.

semantik qatlam kasb etib, xalq og‘zaki ijodining poetik mahorati natijasida ko‘chma ma’noning o‘zidan yangi ko‘chma ma’no hosil qilish, ya’ni ikkilamchi semantizatsiya (metaforik transpozitsiya) jarayoni kuzatiladi. Quyidagi matnda FBning bunday poetik-funksional yuklamasi yaqqol ko‘zga tashlanadi: *“Yuragingda darding bor, ta’bing xira. Xafa bo‘lma, bolam! Ko‘pi bilan bir hafta ichida **yorug‘likka chiqasan**”*. (Oltin beshik. “Bektemir botir”, 96-b.) Bu matnda “yorug‘likka chiqmoq” FBgi dastlabki asosiy ma’nosidan (“ozodlik”, “baxt”, “erkin hayot”) uzoqlashib, yangi, kontekstga xos poetik ma’no kasb etadi. Voqealar rivoji va personajlararo munosabatlar asosida bu FB Oqbilakoyim obrazining qora kun (baxtsizlik, yolg‘izlik) holatidan chiqib, oila qurishi va hayotining ijobiy tomonga o‘zgarishini anglatuvchi bashoratli, belgili ifoda vazifasini bajaradi.

Badiiy matnda bir gap tarkibida bir nechta ma’nodosh FBlar birgalikda qo‘llanib, ekspressiv kuch va fikriy ta’kid yuzaga keltirishi mumkin. *Husanboy Oyparining aytganini qilib, bir kam qirq parini ergashtirib podshoning saroyiga boribdi. Qizlarni ko‘rib, podshoning **og‘zining tanobi qochibdi, so‘lagi oqibdi, ko‘zi suzilibdi**. Esi og‘ib qolibdi, xursand bo‘lganidan nuqul «xi-xi-xi» dermish*. (Oltin beshik. “Oypari”, 173-b.) Misoldagi “og‘zining tanobi qochmoq”, “so‘lagi oqmoq” va “ko‘zi suzilmoq” FBleri semantik jihatdan yaqin, ya’ni frazeologik sinonimlar. Ularning barchasi xarakterning *ichki hayajoni, kuchli havasni* ifoda etishga qaratilgan bo‘lib, personajdagi estetik va jismoniy ta’sirchanlikni obrazli ifoda etishga xizmat qilgan hamda ertakdagi obrazning shaxsiyatini ochib berishda muhim vazifa bajargan. Ayni FBlar emotsional holatni qayd etish bilan birga, ekspressiv-stilistik vazifani ham bajaradi. Jumladan, “og‘zining tanobi qochmoq” va “so‘lagi oqmoq” FBleri bevosita taomga nisbatan ishlatilar ekan, bu holda metafora orqali ular shaxsiy ehtirosning kuchli ifodasiga, ya’ni ayollarga bo‘lgan shahvoniy hirsga ko‘chirilgan. Bu esa semantik transformatsiya, aniqrog‘i, semantik ko‘chish orqali yuzaga kelgan metafora sifatida ko‘zga tashlanadi. **“Ko‘zi suzilmoq”** FB esa nafaqat tashqi harakat (qarash)ni, balki qiziqish va muhabbat hayajonini ham bildiradi. Mazkur FBlar bir-biri bilan ma’nodoshlikda qo‘llanilib, personaj nutqining ekspressiv va obrazli ifodalanishiga, shu bilan birga fikriy intensivlikni oshirishga xizmat qilgan. Buni quyidagi misollarda ham ko‘rishimiz mumkin: – *Vo ajabo, – deb baqiribdi yigit, anavuni qaranglar! Yigitlar toqqa qarab, kiyikni ko‘rib, **og‘izlari ochilib, hang-u***

mang bo‘lib qolishibdi. (Oltin beshik. “Gul Sanobarga nima qildi, Sanobar Gulga nima qildi?”, 182-b.); *Sizlarni bir-biridan pahlavon, tog‘ni ursa talqon qiladigan, daryo suvini sipqorsa quritadigan devlar deb kim aytadi, e uyat-e, e uyat-e, – deyaveribdi.* (Uch og‘ayni botirlar. “Mushuk, it va sichqon”, 190-b.) Ushbu FBlar (**frazema+frazema+frazema**) bir kontekstda, sintaktik va semantik uyg‘unlikda joylashib, fikrning badiiy-yuklamali, hissiy kuchli va obrazli ifodasini ta’minlaydi.

Xalq ertaklari matnida leksik birliklar bilan FBlarining bir matn doirasida ma’nodoshlik asosida qo‘llanish holatlari kuzatiladi. Bu fikrning ta’sirchanligi, badiiy ifodaning emotsional kuchi va uslubiy aniqlikni oshirishga xizmat qiladi. Yuqoridagi ertak matnida FBlar sinonimligi kuzatilgan bo‘lsa, quyidagi misolda **frazeologizm+leksema** sinonimlik holati kuzatiladi. *Bu uyda o‘tirgan mehmonlarning og‘zi ochilib, aqli lol bo‘lib, angrayib joylarida qotib qolibdilar...* (Oltin beshik. “Chinnioy bilan Baxtiyor”, 206-b.) Bu matn frazeologik va leksik sinonimiya asosida badiiy-estetik ifoda kuchaytirilgan. Jumladan: “*Og‘zi ochilib*”, “*Aqli lol bo‘lib*” FB hisoblansa, “*Angrayib*” esa leksik birlik. Bu ertak matnining tasviriy kuchini oshirish, ruhiy holatni ko‘p qirrali ko‘rsatish va o‘quvchi idrokida kuchli obrazli taassurot uyg‘otishga xizmat qilgan.

Xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan ayrim FBlar adabiy tilda uchramaydi, ular og‘zaki va badiiy uslub doirasida shakllangan bo‘lib, folklor obrazlar bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. *Yigit bu gaplarni isirg‘a qilib qulog‘iga taqib olib, shaharni oralab ketibdi.* (Oltin beshik. “Gul Sanobarga nima qildi, Sanobar Gulga nima qildi?”, 190-b.) Parchadagi “**Qulog‘iga isirg‘a qilib taqib olmoq**” FBgi adabiy tilda kam uchraydigan, folklor matnlarida faol qo‘llaniladigan FBdir. U adabiy tildagi “*qulog‘ida tutmoq*”, “*esda saqlamoq*” kabi birikmalarga semantik jihatdan yaqin, ya’ni frazeologik sinonim sifatida qaralishi mumkin. Biroq strukturasi va ekspressiv-obrazli ifodasi bilan ajralib turadi. Xususan, “*Qulog‘iga isirg‘a qilib taqib olmoq*” FBda so‘zni eslab qolish yoki unda qat’iy turish mazmuni badiiy-poetik shaklda berilgan. Ifodadagi “isirg‘a” leksemasi orqali gapning muhim ekanligi anglashiladi.

Xalq ertaklari tilidagi FBlarining qo‘llanish darajalari, ularning ertakchi repertuaridagi o‘rni, lingvistik tabiati juda keng. Shu bois biz FBlarining ertak matnlarida lingvopoetik imkoniyatlarini tadqiq qilish muhim. *Aytsa gap yetmaydi, yozsa daryo quriydi* (“Quyosh yerining

pahlavoni”, 299-b.); *Bel ushlashmoq* (“Quyosh yerining pahlavoni”, 114-b.); *Har toli zulfi olam xirojiga teng* (“Ola toyli bola”, 224-b.); *Ho‘kiz shoxiga ilib chiqquday narsasi yo‘q* (“To‘lg‘onoy”, 22-b.); *Iyagi qaltiramoq* (ertak matnida “qattiq qo‘rqmoq ma‘nosida) (“Uch ko‘knori”, 92-b.); *Iyagi-iyagiga tegmay* (“Ahmadlar”, 144-b.); *Ishlari jo‘nashib ketmoq* (“Uch ko‘knori”, 93-b.); *Jigaridan teshib o‘tibmoq* (“Uch avliyo”, 12-b.); *Kul supurganday supurib bo‘lmoq* (sovrurmoq) (“Osma savat”, 82-b.); *Oftobni soyaga yetkarmay* (“Qiron botir”, 32-b.); *Oq uylikka qoracherik* (“To‘lg‘onoy”, 21-b.); *Oyog‘iga tikon kirsa tili bilan sug‘urib olishga tayyor* (“Ahmoq podshoning dono xotini”, 43-b.); *Oyog‘ini yerga tegizmay* (“Qilichqora”, 32-b.); *Og‘zidan gaplari qochmoq* (“Uch ko‘knori”, 92-b.); *Qattig‘idan tutmoq* (“Guliqahqah”, 19-b.); *Qo‘li ishdan sovimoq* (“Kulol aka”, 160-b.); *Qo‘sh tashlamoq* (“Ahmadjon bilan Luqmonjon”, 24-b.); *Sichqon uyidagi nonga zor* (“Ilon og‘a”, 216-b.); *So‘zi tuzsiz* (Oyjamol. “Dono yigit va uning qaylig‘i”, 4-b.); *Tirnoq betiga zor bo‘lmoq* (Oyjamol. “Hasan va Zuhra”, 58-b.); *Tugunning uchini topmoq* (“Uch ko‘knori”, 93-b.); *Xayrma‘zurni quyuy qilmoq* (“Halol mehnat”, 32-b.); *Xazina qochib* (rohat-farog‘atda). (“Shomurod qo‘rqoq”, 210-b.); *Yomonlik ko‘chasiga kirmoq* (“Gul Sanobarga nima qildi, Sanobar Gulga nima qildi?”, 191-b.); *Yuragimning chigilini yozmoq* (“Botir echki”, 150-b.); *O‘pka qilmoq* (“Oltin beshik”, 248-b.); *O‘tishiga soting* (“To‘lg‘onoy”, 24-b.); *O‘zini qo‘yarga joy, kirarga kovak topolmay qolmoq* (“Podshoning mot bo‘lishi”, 18-b.); *Shaqal uvlasa uyiga qochadigan* (“Shomurod qo‘rqoq”, 210-b.); *Choy ichar fursat o‘tmasdan* (“Ahmadlar”, 148-b.) kabi ertak matnidagi FBlar o‘zining xalq tiliga yaqinligi, estetik va badiiyatining ta’sir doirasi kengligi bilan ahamiyatlidir.

O‘zbek xalq ertaklari tilida mavjud FBlar 2 uzvdan 6 uzvgacha bo‘lish holati kuzatiladi.

1) ikki uzvli: *adabini bermoq, ajab bo‘libdi, avjiga chiqmoq, bag‘ri kabob, bel bog‘lamoq, bosh qotirmoq, gadoy topmas, ichi qora, jon holat, ko‘z qisish, dovrug‘i tarqalmoq;*

2) uch uzvli: *adi-badi aytishmoq, asar topa olmaslik, ichini it tirnamoq, ko‘ziga tuproq to‘lmoq, asir-mubtalo bo‘lmoq, biri ikki bo‘lmadi, boshini juft qilmoq, dunyoning g‘am-g‘ashi, oftobni soyaga yetkarmay, qaynoq suv quyilgandek;*

3) to‘rt uzvli: *ajalidan besh kun burun, aql-hushidan begona bo‘lmoq, biror ishning boshini tutmoq, daryo suvini sipqirsa quritadigan,*

tog'ni ursa talqon qiladigan, es-pesi chiqib ketmoq, jamoli oyni xira qilar, kul supurganday supurib bo'lmoq, yetti yashardan etmish yashargacha;

4) besh uzvli: *birini o'poq, birini so'poq demoq, o'ziga yorug' dunyo qorong'i bo'lmoq, aqli-hushini bir joyga to'plamoq, bosh qashigani tirnog'i qolmaslik, ko'ziga yorug' dunyo qorong'i bo'lmoq, ombori don, sandig'i non ko'rmagan, sichqon uyidagi nonga zor bo'lmoq, o'n jonidan bir joni qolmaslik;*

5) olti uzvli: *aytsam gap yetmaydi, yozsam daryo quriydi, bir kosa suv bilan ichib yuborgudek, har toli zulfi olam xirojiga teng, ho'kiz shoxiga ilib chiqquday narsasi yo'q, oy desam – og'zi bor, kun desam – ko'zi, oyog'iga tikan kirsa, tili bilan sug'uradigan, o'zini qo'yarga joy, kirarga kovak topolmaslik.*

Ertaklar tilidagi 2 uzvli FBlar, asosan, ertak qahramonlarining sifatlarini ko'rsatish va ertakchining munosabatini ifodalashda, 3 uzvli FBlar epik qahramonning xarakter-xususiyati va holatini ifodalashda, 4 uzvli FBlar obrazlarning ichki kechinmalari va imkoniyatlarini ifodalashda, 5 uzvli FBlar ertakchi nutqiga xos holda ertak qahramonining holatini ifodalashda, 6 uzvli FBlar esa epik qahramonning go'zalligi hamda qahramonning insonlarga munosabatini ifodalash uchun qo'llanilishi bilan xarakterlidir.

Tadqiqot doirasida ertaklarda mavjud 400 ta FB ajratib, ularning tuzilish tabiatini ikki xil yo'nalishda namoyon bo'lishi kuzatildi: **1) so'z birikmasiga teng iboralar; 2) gapga teng keladigan keladigan iboralar.** Bu guruhlarning uzvi morfologik xususiyatiga ko'ra muayyan so'z turkumlariga mansub ekanligi, matnda bir-biri bilan o'zaro sintaktik munosabatga kirishishi ayon bo'ldi.

So'z birikmasi ko'rinishidagi FBlar. Xalq ertaklari tilidagi *“adabini bermoq”, “adi-badi aytishmoq”, “apoq-chapoq bo'lmoq”, “azob-uqubatlar chekmoq”, “aql o'rgatmoq”, “bel bog'lamoq”, “farzand yuzini ko'rmaslik”, “gapni bir joyga qo'ymoq”, “har toli zulfi olam xirojiga teng”, “hol-joniga qo'ymaslik”, “iyagi-iyagiga tegmay”, “iyagi qaltiramoq”, “aza tutdi”* kabi FBlar mazmunan to'liq fikrni anglatmaydi, ya'ni gapga teng bo'lmay, grammatik jihatdan ham shakllanmagan bo'lsa-da, ular poetik uslub vositasi sifatida ertak matnlarida syujetga daxldor fikrlar bayonining badiiy-estetik talablarini to'laqonli bajara oladi. Bunday FBlar grammatik jihatdan ikki yoki undan ortiq so'zlar uyushmasidan tashkil topgan, ot, sifat yoki fe'l birikmasi sifatida gapning muayyan bo'lagi vazifasini bajaradi. Masalan: *“Asrandi bolalarga ota-*


ona juda bino qo'yishib, ularga odob-ta'lim o'rgatishibdi". (Oyjamol. "Hasan va Zuhra", 58-b.); "*Qo'rg'onga kirsam bir parivash qiz o'tirgan emish, bir kosa suv bilan ichib yuborgudek xushsuratmish*". ("Qilichqora", 237-b.); kabi. Ushbu FBlarning har biri matndagi voqealar rivoji va obrazlar psixologiyasini ochishda badiiy vosita sifatida xizmat qilgan.

Gap teng bo'lgan FBlar. Gapga teng FBlar esa to'liq fikr bildirishi, ya'ni predikativ xususiyatda kelishi bilan alohida ahamiyatga ega. Masalan, "*ho'kiz shoxiga ilib chiqquday narsasi yo'q*", "*ajab bo'libdi*", "*aqli shoshdi*", "*aytsam gap yetmaydi, yozsam daryo quriydi*", "*aqli-hushini bir joyga to'pladi*", "*aql-hushidan begona bo'ldi*", "*aqli shoshdi*", "*asfaldasofilinga ketdi*", "*asar topa olmadi*", "*achchig'i keldi*", "*boshi osmonga yetdi*" kabi FBlar ertak matnida mazmunan tugal fikrni, grammatik jihatidan shakllangan, o'zaro sintaktik mezonlar asosida birikkan, ertaklar syujetiga daxldor tasvirlar bayonining talablariga to'la javob bera oladigan holda uchraydi. Masalan: *Ikkovining bir-birini ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q ekan*. (Oyjamol. "Podshoning mot bo'lishi", 17-b.); *Malika bir-ikki qo'l solib tilla olibdi-da, bir yoqqa qarab ko'z qisibdi*. (Oltin beshik. "Kimyogarning o'g'li", 159-b.); "*Akang keladi*" deguncha, "*Akang o'ldi!*" *desang-chi! Xumor-xumor ko'ziga tuproq to'ldi desang-chi!* (Oltin beshik. "Bektemir botir", 100-b.) kabi.

Aytish mumkinki, gapga teng bo'lgan FBlar matnda muayyan fikrni ifodalab, alohida urg'u va ohang bilan qo'llanadi. Ular, ko'pincha, qahramonlar nutqi yoki ertakchi bayonida o'ziga xos ifoda vositasi bo'lib xizmat qiladi. So'z birikmasiga teng FBlar esa tuzilishi jihatidan ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topib, matnda bir butun lisoniy-mazmuniy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Bu turdagi FBlar grammatik jihatdan alohida gap hosil qilmaydi, biroq tasvir, harakat, holat yoki munosabatni aniq va obrazli ifodalashda ishtirok etadi. Leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra, bu ikki turdagi FBlar ertak matnlarida o'zaro uyg'unlashgan holda xizmat qiladi. Ular, xususan, epik qahramonlarning nutqida yoki ertakchining bayonida voqealar rivoji, ruhiy holat, harakat va kayfiyatni tasvirlashda ifodaviy, obrazli va uslubiy vosita sifatida qo'llanadi.

O'zbek xalq ertaklari tilida uchraydigan FBlarni lingvosemantik va lingvopoetik jihatdan tahlil qilishda ularni quyidagi mikromaydonlarga ajratib o'rganish mumkin: 1) *somatik komponentli FBlar*; 2) *emotsional holatni ifodalovchi FBlar*; 3) *qahramon ruhiyati hamda ruhiy*

o'zgarishlarga oid FBlar; 4) oila, baxt va taqdir konseptlari bilan bog'liq FBlar; 5) o'lim va hayotning yakuniy bosqichlariga doir FBlar; 6) og'zaki nutq va fikr ifodasi bilan bog'liq FBlar. Ushbu guruhlariga mansub 153 ta FBning mikromaydondagi statistikasi quyidagicha bo'ldi:



5-rasm. Xalq ertaklari tilidagi FBning mikromaydondagi mavzuiy nisbati

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq ertaklari tilidagi FB larni lingvopoetik tahlil qilish ularning kontekstdagi semantik-estetik vazifalarini aniqlashga xizmat qiladi hamda ertak matnida obrazlilik yoritishga zamin yaratadi. FB larni mikromaydonlar asosida, masalan, ruhiy holat, ijtimoiy munosabat va h.k. orqali turkumlash orqali ularning funksional sathdagi o'rni, qahramon xarakterini ochishdagi roli hamda xalqning badiiy-estetik qarashlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Ertak matnidagi maqollarning badiiy-estetik imkoniyatlari

“Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir”¹³⁰. Milliy va umumbashariy qadriyatlarning ifodasi, natijasi, ajdodlar merosi maqollarda ifodasini topib, bugungi kun yoshlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Chunki maqolda xalq o'z ona tabiatida, uning hodisalariga, ajdodlarining ijtimoiy-tarixiy tajribasiga

¹³⁰¹³⁰ Миллий тикланишдан Миллий юксалиш сари. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев асарлари ва маърузаларидан олинган фикрлар. Нашрга тайёрловчилар: Салимов О. ва бошқ. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – Б. 83.

munosabatini aks ettiradi, dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari, estetik ideallarini ifodalaydi.

Maqollarda ishlatiladigan badiiy ifoda vositalari, masalan, tashbeh, kinoya, antiteza, parallelizm, metafora va boshqalarning o'sha xalqning tafakkur dunyosi, hissiyotlari va estetik qarashlarini yoritib beradi.

Lingvopoetik yondashuv, avvalo, tilning estetik imkoniyatlarini aniqlash va ulardan badiiy matnda qanday tarzda samarali foydalanilayotganini tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi. Boshqacha aytganda, lingvopoetik tahlil til birliklarining faqat grammatik, semantik yoki stilistik ko'rinishlarini emas, balki ularning badiiy matnda obraz yaratish, hissiy ta'sir o'tkazish, kompozitsion yaxlitlikni ta'minlash kabi vazifalarini ham ochib beradi. Bu esa o'z navbatida, tilning ichki estetik resurslarini aniqlashda imkoniyat, ya'ni voqelik mezonini asosiy nazariy mezonlardan biri sifatida qo'llash zaruratini tug'diradi.

D.Turdaliyeva to'g'ri ta'kidlaganidek: "Maqollar tilda informativlik nuqtayi nazaridan katta imkoniyatga ega, ajdodlar tomonidan tayyor holga keltirib qo'yilgan, asosiy xususiyati barqarorlik hisoblangan, kommunikativ mazmun va grammatik shaklning yaxlitligi sifatida mavjud birliklar. Maqollar moddiy voqelanganlik xususiyati bilan nutqiy birliklarga xos "moddiylikka egalik" sifatiga ega va ularni nutqiy hodisa sifatida qarash maqsadga muvofiq"¹³¹. Chunki maqollar xalq donishmandligining yuksak namunasi va ularni lingvistik jihatdan tahlil qilganda, informativlik, barqarorlik, struktura va semantika yaxlitligi kabi jihatlar alohida ajralib turadi. Ular tilda tayyor holda qo'llanilib, muayyan voqelikni ixcham, obrazli tarzda ifodalaydi.

Lingvopoetik yondashuvda maqollarning asosiy xususiyatlari tadqiq qilinar ekan, unda maqollarning faqatgina fikrning qisqa va ixcham ifodasi emas, balki uning badiiy-estetik kuchini ta'minlovchi vosita sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir¹³². Bu haqida rus tilshunosi E.Fedorova: "Maqol – bu folklor janrining bir turi bo'lib, fikrni minimal so'zlar yordamida tushunarli, aniq va ravon ifodalashga intiladi.

¹³¹ Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Қарши, 2019. – 50 б.

¹³² Nurjanova Y. Navoiy ijodida xalq maqollarining qo'llanilishi. // Innovative research in science. International scientific-online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7471387>. – В. 42.

Shuning uchun maqollar soʻzni toʻgʻri qoʻllash, uni sinchkovlik bilan tanlash zarur”,¹³³ deb taʼkidlaydi.

Maqol janrida maʼlum fikrni qisqa hamda binar ravishda ifodalash imkoniyati keng. Haqiqatdan ham, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo boʻlgan maqollar avloddan avlodga faqat ogʻzaki holdagina oʻtib kelganligi, xalq ogʻzaki ijodining mahsuli boʻlganligi uchun adabiyotshunoslikning oʻrganish obyekti hisoblanadi, chunki ularning aksariyati sheʼriy shaklga oʻxshaydi va ularda oʻxshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya kabilar qoʻllanadi.

Oʻzbek tilshunosligida xalq maqollarining lingvistik xususiyatlarini oʻrganishga doir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Soʻnggi yillarda ushbu tadqiqotlar doirasi, yuqorida taʼkidlaganimizdek, yanada kengayib, nafaqat oʻzbek maqollarining lingvistik¹³⁴ va lingvomadaniy¹³⁵ tahlilini, balki ularni boshqa tillardagi maqollar bilan qiyosiy¹³⁶ oʻrganishni ham qamrab olmoqda. Maqollarning struktura va semantikasini oʻrganish poetika, stilistika, semantika va pragmatika kabi sohalarda yangi nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Oʻzbek xalq ertaklari millat tafakkuri, axloqiy qarashlari va estetik ideallarining yorqin ifodasidir. Bu janrda hikoya qilinayotgan voqealar real hayotiy asos bilan uygʻunlashib, xalqning poetik mahoratini namoyon etadi. Maqollar esa ertak matnida nafaqat bezak unsuri, balki tarbiyaviy, mantiqiy va gnoseologik vazifalarni bajaruvchi vosita sifatida

¹³³ Федорова Э.Н. Арабские и персидские заимствования в татарских народных пословицах. Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Казань, 2003. – С.18.

¹³⁴ Абдурахмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества. Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Т.: 1977. – 37 с.; Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 18 с.; Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2002. – 136 б.; Абдуллаев Х.Д. Халқ мақолларининг “Кутадғу билиг” поэтикасидаги ўрни ва бадиий-эстетик функциялари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 152 б.; Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. (DSc) дис. – Самарқанд, 2019. – 230 б.; Турдалиева Д. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоетик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Қарши, 2019. – 143 б.; Ахроров А. Нутқ маданиятини ифодаловчи ўзбек халқ мақолларининг лингво-функционал ва хулқий қиймати. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Гулистон, 2021. – 150 б.; Комилова Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2022. – 50 б.;

¹³⁵ Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2017. – 56 б.; Қаландаров Ш. Ўзбек лингвомаданий мухитида халқ мақоллари эвфемизацияси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Кўкон, 2019. – 138 б.

¹³⁶ Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков). Дисс. док. филол. наук. – Тошкент, 2007. – 286 с.; Абдуллаева Н. Инглиз ва ўзбек халқ мақолларидаги градуонимик муносабатларнинг лингвопрагматик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2019. – 174 б.; Паизбекова А. Инглиз, рус, ўзбек ва козоқ тиллари мақолларидаги вақт репрезентациясининг лингвокогнитив аспекти. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2019. – 53 б.; Мирзаева Д. Ўзбек-инглиз тилларида мақол ва маталларининг лингвокультурологик ҳамда прагматик тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2022. – 56 б.; Уралова О. Инглиз ва ўзбек тилларида “оила” бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Самарқанд, 2021. – 50 б.

xizmat qiladi. Ertaklarda maqollar, ko‘pincha, voqea yakunida yoki mualliflik izohlarida ishlatiladi. Ular matnga milliy ruh, mazmuniy teranlik va ritmik boylik baxsh etadi. Masalan, *Ular o‘zlarining sevimli, go‘zal Vatani tuganmas oltin kon ekanligini endi anglabdilar.*

“Birovning yurtida, shoh bo‘lgandan, o‘zingning yurtingda gado bo‘l”, degan maqol o‘sha paytdan qolgan ekan. (Oltin beshik. “Pahlavon Rustam”, 13-b.)

Maqol aytuvchi nutqidan ertak so‘nggida umumiy xulosa tarzida havola etilib, bir qancha poetik jihatlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, maqolda ikkilik struktura mavjud, ya‘ni *“birovning yurtida shoh”, “o‘zingning yurtingda gado”*. Bu ikki qism qarama-qarshi tushunchalar orqali tuzilgan bo‘lib, u xotirada saqlashni osonlashtiradi va ta‘sir kuchini oshiradi. Ushbu maqol binar oppozitsiya asosida qurilgan bo‘lib, quyidagi semantik juftliklar yaqqol ko‘zga tashlanadi:

“birov” ↔ “o‘zing” – egalikning zidligi (begonalik ↔ egalik);

“shoh” ↔ “gado” – ijtimoiy maqom zidligi (baland ↔ past);

“birovning yurti” ↔ “o‘zining yurti” – vatanparvarlik g‘oyasi asosidagi zidlik (notanish ↔ tanish).

Maqolning asosini tashkil etgan “gado” va “shoh” leksemalari konseptual metafora sifatida ham qo‘llangan. Ya‘ni: **shoh** – *boylik, qudrat, ammo begonalik*; **gado** – *kambag‘allik, ammo o‘zlik va erkinlik kabilarda o‘z ifodasini topgan.*

Xalq ertaklari tilidagi ayrim maqollar ma‘naviy ikki rejallilik xususiyatiga ega bo‘ladi. Bu holatda aksariyat hollarda maqol qahramonning nutqida havola etiladi. Masalan:

– *Ha, o‘g‘lim, yo‘l bo‘lsin? – deb so‘rabdi. Shahzoda bo‘lgan voqealarni bir-bir gapirib beribdi. Shunda chol:*

– *Bolam, boshingga ko‘p mushkul ish tushibdi. Lekin sen qo‘rqma. Qidirgan topadi deganlar.* (Oltin beshik. “Shahzoda Salmon”, 87-b.)

Maqollarning aksariyati yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi ziddiyatga qaratilgan bo‘ladi. Quyida shu ziddiyat natijasida yuzaga kelgan maqolning qo‘llanishi ertak tilida ishonarli tarzda berilgan.

O‘g‘li otasidan bu gapni eshitib: “Nima eksang, shuni olasan”, degan maqolni eslabdi. (Oltin beshik. “Nima eksang, shuni olasan”, 125-b.) Matndagi “Nima eksang, shuni olasan” maqoli sabab va natijaga asoslangan. Ertakda mazkur maqol **“poetik signal”** orqali o‘g‘ilning axloqiy uyg‘onishiga sabab bo‘lmoqda.

Har bir xalqning ijtimoiy-axloqiy qarashlari mavjud. Quyidagi ertak parchasida ijtimoiy-axloqiy qadriyat semantik ikki rejali vositasida ifodalanganligining guvohi bo‘lamiz: “... *Vazir chiqib xatni undan so‘rab olganini aytib beribdi va “Har kim qilsa o‘ziga qiladi, “ko‘kka tupursang yuzingga tushadi”, deb tupurib hammaga ko‘rsatibdi”*. (Oltin beshik. “Ko‘kka tupursang, betga tushadi”, 129-b.)

“Ko‘kka tupursang, yuzingga tushadi” maqolida insonning yomon amali yoki nojo‘ya harakatlari, ayni paytda, o‘ziga zarar keltiruvchi sabab sifatida talqin qilinadi. Bu maqol konnotativ ma‘nodagi etik ogohlantirish vazifasini ham o‘taydi. Maqolning “*Shamolga tupursang, yuzingga qaytadi*”, “*Ko‘kka kul sochma, ko‘zingga tushadi*” kabi variantlari esa ushbu ijtimoiy-axloqiy tamoyilning xalq tafakkurida variantlilik xususiyatini semantik maydon sifatida ishlashini anglatadi. Ertak matnida berilgan “Ko‘kka tupursang, yuzingga tushadi” maqoli og‘zaki va hududiy xoslanganligi bois lingvofolkloristik aspektda tahlilda ham muhim ahamiyatga ega.

Ikki rejali semantik maqollar “*tinglovchi – o‘qituvchi – baholovchi*”ning tafakkur darajasiga qarab idrok etiladi. Ushbu maqollar ongda tasviriy (obrazli) asosda fikrlashni talab qiladi. Xususan, *Eksang-olasan*” – hayotni dehqonchilik bilan qiyoslash. “*Ko‘kka tupurmoq*” – aks ta’sir metaforasi orqali adolatli natijaning kelib chiqishini anglatadi. Ushbu maqollar o‘quvchi yoki tinglovchi tomonidan birdaniga sinxron ravishda ikkala ma‘no qatlamida ham anglanishi mumkin, ammo ikkilamchi (ko‘chma) ma‘no, ya’ni maqollik ko‘rsatkichi yetakchi o‘rinni egallaydi. Buni G.L.Peryamikov shunday izohlaydi: “Otlar yo‘qolsa, dalaga eshaklar chiqadi. Ushbu maqolga mos mantiqiy sxema vaziyatni “sof holda” quyidagicha: “Agar eng yaxshi narsa bo‘lmasa, uni yomonrog‘i almashtiradi”¹³⁷. Olim to‘g‘ri ta’kidlaganidek, maqoldagi birlamchi ma‘no emas, balki mantiqiy sxema, ya’ni ko‘chma ma‘no (sof ifoda)ning estetik va ta’sir kuchi muhim hisoblanadi.

O‘zbek xalq maqollarida hayot va borliq haqidagi qarashlar turli leksema va metaforik konstruksiyalar vositasida tasvirlanadi. Bu esa xalq og‘zaki ijodidagi estetik tafakkur, ifoda qudrati, badiiy til vositalarini maqsadli foydalanishning o‘ziga xos tomonlarini yuzaga chiqaradi. Masalan, ertaklar tilida mavjud maqollarda *insoniylik, baxt, o‘lim, sog‘lik, kambag‘allik, harakat, oila, farzand, mehnat, muhabbat, boylik* kabi

¹³⁷ Пермяков Г.Л. От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише). – Москва: Наука, 1970. – С. 31.

aksiologik tushunchani ifodalovchi leksik birliklar orqali xalq tafakkurida hayotning psixologik, ijtimoiy va ma'naviy qirralari ifodalanadi.

Shunda ko'p askarlar Oysuluv parining husnini ko'rib behush bo'lib, otdan yiqilib, ko'pisi "Buyurganga quyruq, buyurmaganga yumruq", – deb har biri o'ziga o'zi so'zlab qolaveribdilar. (Oltin beshik. "Ahmadlar", 149-b.) Matnda qo'llangan maqol rizq-nasiba ruknidagi maqollar sirasiga kiradi. Xalq tajribasidan kelib chiqib, *quyruq* leksemasiga mos *yumruq* leksemasi tanlangan va fonetik uyg'unlik ta'minlangan. Aytish joizki, misolda metaforik ifoda va kinoya yetakchilik qilib, **"Quyruq"** ta'zim, itoat, xushomad, manfaat izlashning metaforik timsoli sifatida bayon etilsa, **"Yumruq"**, ya'ni *musht* jazolash, qarshilik, zo'ravonlik, qat'iy munosabatni ifodalaydi. *"Yumruq"* kamiste'moldagi leksema hisoblanadi. Mazkur leksema 1987-yilda e'lon qilingan maqollar izohli lug'atida *"yudruq"* shaklida berilgan. **Kuyovnikida quyruq yegandan – og'ilnikida yudruq yegan yaxshi.** Varianti: *"Qiznikida go'sht yegandan, o'g'ilnikida musht yegan yaxshi", "Kuyovning xo'rdasidan o'g'ilning yundisi yaxshi", "O'g'ilnikini o'ynab yeysan, qiznikida o'ylab eysan"*¹³⁸.

Xalq og'zaki ijodida sabr hayotning sinovlariga bardosh berish, muammolar oldida tushkunlikka tushmaslik, oqibatni kutish, aql bilan harakat qilish degan ma'nolarda keng talqin etiladi. Bu bevosita ertaklarda ham o'z ifodasini topib, obrazlar nutqida estetik ta'sirni kuchaytirish maqsadida qo'llanish holatlari kuzatiladi. *Podsho:*

– *Sabr qiling, podshoyim! Donishmandlar, "Sabr qilsang g'o'radan holva bitar, besabrlar o'z oyog'idan yitar" deganlar!* (Oltin beshik. "Oypari", 168-b.) Bugungi kunga kelib, xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan va faol ishlatilayotgan maqollardan biri "Sabr qilsang g'o'radan holva bitar" maqoli, ertak matnida ko'rib o'tganimizdek, ikki segmentdan iborat. Ammo maqolning ikkinchi qismi, ya'ni **"Sabrsizlar o'z oyog'idan yitar"** bugungi kunda deyarli qo'llanilmaydi. Bu esa **"yitar"** leksemasining ma'nosining kamunum leksik qatlamga o'tishiga olib kelgan. Birinchi segment (Sabr qilsang g'o'radan holva bitar) xalq tafakkurida metaforik konstruksiya vositasida muvoffaqiyatga erishishning asosiy sharti sifatida sabrni talqin etadi. Unda "g'ora" – *og'ir kun, sinov, qorong'ilik*, "holva" esa – *shirin natija, mukofot* metaforasida namoyon bo'ladi. Ushbu maqol to'liq variantda XX asr boshlarida ham

¹³⁸ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Нега шундай демиз. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳлил луғати. – Тошкент: Ф.Ғулум, 1987. – Б. 147.

faol ishlatilgan bo‘lib, bu uning keng ijtimoiy-madaniy funksiyaga ega bo‘lgan paremiologik birlik ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, darslik sifatida yozilgan “Turkiy Guliston yoxud axloq”¹³⁹ asarida ushbu maqolga murojaat etilganligi, u orqali axloqiy-me‘yoriy va estetik qarashlarning shakllanishida maqolning ta’sirchan vosita bo‘lganini isbotlaydi.

– “*Kel-e, – debdi podshovachcha o‘z-o‘ziga, bir boshda bir o‘lim bor-ku!*” – *debdi.* (Oltin beshik. “Gul Sanobarga nima qildi, Sanobar gulga nima qildi?” 182-b.); – *Bolam, ajal yetmay chirkay o‘lmas, – debdi.* (Uch og‘a-ini botirlar “Halol mehnat”, 36-b.)

Misollardagi “**Bir boshda bir o‘lim**” va “**Ajal etmay chirkay o‘lmas**” maqollari o‘zbek xalq og‘zaki ijodida o‘limning diniy tasavvurlar bilan uyg‘un holda ifoda etilishini ko‘rsatadi. “*Bir boshda bir o‘lim bor*” maqoli semantik jihatdan mardlik, qismatga tan berish, muqarrarlikka rozi bo‘lish ma’nolarini anglatsa-da, ushbu ifoda chuqurroq tahlil qilinsa, uning asosida islomiy etik va ontologik qarashlar mujassam ekanligi ko‘rinadi. “*Ajal etmay chirkay o‘lmas*” maqolida esa qadimiy deterministik dunyoqarash, ya’ni har bir voqeaning sababi va vaqti mavjud degan fikr ifodalanadi. Maqolda “*chirkay*” dialekti (“chivin”, “pashsha”) nafaqat odam, balki eng arziyas jonivorning ham o‘limi Alloh irodasiga bog‘liqligi aks ettirilgan.

O‘lim bilan bog‘liq maqollarda islomiy qarashlar ko‘p uchraydi. Quyidagi ertak matnida berilgan maqol ham o‘limning islomiy qarashlarga asoslanganligi namoyon bo‘ladi.

Shunda devlarning kattasi: “Azroilning biti ham odam o‘ldiradi, qani, senda shu bormi?” – debdi. (Oltin beshik. “Shomurod qo‘rqoq”, 210-b.) Misoldagi “Azroilning biti ham odam o‘ldiradi” maqoli kam qo‘llaniladi. Mazkur maqol o‘zbek xalqining diniy-falsafiy tafakkuri, badiiy idroki va hayot haqiqatiga bo‘lgan qarashini ifodalaydi. “Azroilning biti” ifodasi o‘lim sabablarining eng arziyasini ham ilohiy iroda bilan bog‘liq ekanligini ifodalaydi. Bu yerda “bit” o‘ta kichik, e’tiborsizdek tuyulgan jonzot bo‘lsa-da, u Azroilga mansub ekani tufayli, o‘lim sababchisi bo‘lishi mumkin. Maqolning poetik kuchi uning metaforik tabiatida namoyon bo‘ladi. “Azroilning biti” badiiy va xayoliy tasvir sifatida bevosita o‘limning bexabar, kutilmagan shaklini ifodalaydi. Bundan tashqari, maqolda litosentrik (dunyo va taqdir Alloh irodasiga

¹³⁹ Qarang: Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. Nashrga tayyorlovchi: To‘laboyev O. – Toshkent: Zabarjad Media, 2023. – B. 30.

bog‘liq) tafakkurning aks etishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Bitga o‘xshagan arzimas narsa ham odamni o‘ldiradi” degan fikr orqali hayotning nozikligi, odam umrining har lahzasi ilohiy nazoratda ekani xalq donishmandligi bilan aks ettiriladi. Maqolda allegoriya va metafora mavjud. “Azroil” – taqdiriy kuch, “Bit” – eng zaif, arzimas, kutilmagan omil timsoli. Bu majozlar orqali “Eng katta kuch eng kichik narsani ham qurol qila oladi” falsafasi berilgan.

“Yozma adabiyotda muallif idiolekti tadqiqi keng va tor imkoniyatli leksemalarning har bir muallif ijodida o‘ziga xos tarzda ishlatilganini ko‘rsatadi. Xalq maqollarida keng imkoniyatli so‘zlar chastotasi baland bo‘lib, tor imkoniyatli so‘zlarni qo‘llash ancha chegaralanganligiga guvoh bo‘lamiz”¹⁴⁰. Bu holat og‘zaki ijod namunalarida obrazlar va aytuvchining nutqida qo‘llangan maqollarda ham kuzatishimiz mumkin. Keng va tor imkoniyatli so‘zlar chastotasini aniqlash maqsadida yuqorida tahlilga tortilgan maqollardagi so‘zlarga e‘tibor qaratamiz:

1. *Buyurganga quyruq, buyurmaganga yumruq.*
2. *Sabr qilsang g‘o‘radan holva bitar, besabrlar o‘z oyog‘idan yitar.*
3. *Ajal yetmay chirkay o‘lmas.*
4. *Azroilning biti ham odam o‘ldiradi.*

Yuqorida berilgan maqollarda 22 ta so‘z ishlatilgan bo‘lib, 3 ta so‘z tor imkoniyatlidir. Qo‘llanish imkoniyati tor va cheklangan til birliklarining bu xususiyati ehtimollik qonuniyati asosida farqlanadi: qo‘llanish ehtimoli katta va qo‘llanish ehtimoli kichik tarzida. Yuqoridagi maqollardagi qo‘llanish chastotasi tor bo‘lgan *yumruq*, *yitar* va *chirkay* kabi so‘zlardan “**chirkay**” leksemasi qo‘llanish ehtimoli katta bo‘lgan so‘zlar qatoriga kiradi. Chunki ushbu so‘z o‘zbek xalq shevalarida muomalada bugungi kunda mavjud.

Maqollar ertak matniga nafaqat xalqona ohang va milliy kolorit baxsh etadi, balki qahramonlar nutqining tabiiyligini ta‘minlaydi hamda ularning ichki kechinmalarini, hayotiy pozitsiyalarini ifoda etish imkonini beradi. Bu jarayonda ertakdagi qahramonlar o‘z fikrlarini dialoglar orqali namoyon qilishi ko‘p kuzatiladi. Kuzatishlarimiz natijasida anglashildiki, dialoglarda maqollardan foydalanish jarayonida *mehnat*, *aql*, *faqirlik*, *til*, *oilaviy munosabatlar*, *hayotiy sinovlar*, *baxt*, *taqdir*, *baxt* kabi tushunchalar yetakchilik qiladi. *To‘lg‘onoy keldi, besh-to‘rt tanga puling bormi? Bozorga borib bir narsa xarajat qilib kelsang. Kambag‘alchilik,*

¹⁴⁰ Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.авторреф. – Қарши, 2019. – Б. 12.

hech narsaning tayini yo‘q, – debdi. Kambag‘alning ahvoli bir-biriga ma‘lum bo‘ladi. (Oyjamol. “To‘lg‘onoy”, 56-b.) **“Kambag‘alning ahvoli bir-biriga ma‘lum”** maqoli xalqning real hayotiy tajribasi, sinfiy tafakkuri va mushtarak ijtimoiy taqdir haqidagi qarashlarini mujassamlashtiradi. Mazkur maqol, bir qarashda, oddiy holatni bildiruvchi birlik bo‘lib tuyulsa-da, aslida u o‘z ichiga *moddiy nochorlik, hayotiy tanglik, hamdardlik, o‘zaro anglashuv* kabilarni qamrab olgan.

Ertaklarida maqollar xalqona donishmandlikdan tashqari axloqiy mezon va estetik didni ifodalovchi badiiy vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, **“Aqlsiz bugunini, aqlli ertasini o‘ylar”** maqoli ertak matnida ham g‘oyaviy, ham lingvopoetik jihatdan alohida ahamiyatga ega.

– *Ertaga yana shu mahal kel, – deb yigitni kuzatib qo‘yibdi.*

“Aqlsiz bugunini, aqlli ertasini o‘ylar”, degan gap juda ham to‘g‘ri ekan. (Oyjamol. “Osma savat”, 82-b.) Maqoldagi **“aqlsiz”** va **“aqlli”**, **“bugun”** va **“erta”** o‘rtasidagi semantik qarama-qarshilik orqali maqol antisemali shaklda qurilgan bo‘lib, fikrni kuchli badiiy ta‘sir bilan ifodalashga xizmat qiladi. Maqol matnda faqat til bezagi emas, balki voqealarning g‘oyaviy asosini belgilab beruvchi semantik markaz sifatida xizmat qiladi.

Avval vazirni qizlar oldiga boshlab borgan chol bunday degan:

– *Ey vazir, “qush tilini qush biladi” degan maqol bor.* (Oyjamol. “Hasan va Zuhra”, 56-b.) Mazkur parcha xalq maqoli asosida qurilgan badiiy-mazmuniy birlikni ifodalaydi. “Qush tilini qush biladi” maqoli muloqot jarayonida tushunish, til, psixologik yaqinlik kabilarni shakllantiradi. Ushbu maqolda *“har kim o‘z holatiga, dunyoqarashiga yaqin kishining tilini tushunadi”*, degan fikr ilgari suriladi. Demak, qahramon (podachi chol)ning maslahatini asoslashda maqol asos – hosila, sabab – oqibat, umumiy – xususiy kabi semantik qatlamlar asosida ishlatilgan.

Maqol matn ichida intertekstual birlik sifatida qo‘llanib, emotsional va ma‘naviy qatlam olib kiradi, bu esa ertakning lingvopoetik ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi. Jumladan:

– *Podshohim, kishining boshiga yaxshilik ham, yomonlik ham tildan keladi. Elda bir maqol bor: “Tish tilning qal‘asi, til boshning balosi”.* Bu gapni eshitib podsho vazirning qiziga ajoyib bir bog‘ in‘om etgan ekan. (Oyjamol. “Yaxshisi ham, yomoni ham til”, 101-b.) **“Tish – tilning qal‘asi, til – boshning balosi”** maqoli ertak matnida aforistik, metaforik

vosita sifatida namoyon bo‘lib, nutqning ijtimoiy va axloqiy kuchini estetik jihatdan ifodalaydi. Bu maqol orqali xalq tafakkurida tilning himoya (ixtiyor) va xavf (mas’uliyat) manbayi ekanligi poetik tarzda yoritiladi. Shu bilan u ertakdagi obrazlararo munosabatni belgilovchi, xulosa chiqaruvchi va estetik ta’sir kuchiga ega bo‘lgan lingvopoetik birlik sifatida xizmat qiladi

O‘zbek xalq ertaklarida maqollar muayyan didaktik g‘oyani ifodalash bilan birga, obrazlar xarakterini ochish, ijtimoiy-axloqiy mezonlarni shakllantirish va xalqona tafakkurni ifodalash vositasi sifatida keng qo‘llanadi. Bunday maqollar, ko‘pincha, turli kontekstlarda semantik o‘zgarishlarga uchrab, variantlashuv holatida namoyon bo‘ladi. Chunki maqollar og‘zaki nutqdagi tabiiy rivojlanish jarayonida turli lahja va mintaqaviy variantlarda ishlatilishi, ularning grammatik va sintaktik qurilishi o‘zgarishi, hamda fonetik shakllari soddalashishi yoki murakkablashishi mumkin. Bunday variantlashuv jarayonida stilistik urg‘ularning ko‘chishi, metaforik obrazlarning kuchayishi yoki susayishi kuzatiladi. Shuningdek, maqolni tashkil etuvchi birliklarning, ya’ni so‘z, ibora, gap almashuvi, tushirilishi yoki qo‘shimcha birliklar bilan to‘ldirilishi mumkin. Bu hol maqolning variantlari vujudga kelishiga sabab bo‘lib, ularning har biri alohida ma’no yuklaydi, ayrim hollarda esa xalqning estetik didi va mintaqaviy tafakkur farqlarini aks ettiruvchi dialektal farqlanishlarni ham ko‘rsatadi. Masalan:

– *Hovuz bo‘yidagi qaramon tepasida o‘tirgan qush: “Jinni erni sog‘ qiladigan ham xotin, sog‘ erni jinni qiladigan ham xotin, hazir bo‘l. Xotining seni jinni qiladi!” degani. Qushning joniqib sayraganining ma’nisi shunda, – deb javob beribdi; (Oyjamol. “Dono xotin”, 61-b.) – Hurmatli padar, qushning sharqdan g‘arbga uchib ketayotib aytgani “Yaxshi xotin gadoni shoh qiladi”, g‘arbdan sharqqa qaytishidagisi esa “Yomon xotin erni gado qiladi”, deganidir, – debdi; (O‘zbek xalq ertaklari. “Sirli tush”, 125-b.) O‘sha kuni jumboq ustida qiz hozir bo‘libdi. Podshoh “Agar jumboqni yechsang, gunohlarini o‘tdim”, debdi. Qiz: “Qarg‘aning “qag‘” degani, erni bor qiladigan ham xotin, yo‘q qiladigan ham xotin, deganidir”, – deb javob beribdi (O‘zbek xalq ertaklari. “Malikayi Husnobod”, 72-b.)*

Bu uch maqol shaklan bir-biridan farqlansa-da, semantik yadrosi bir, ya’ni er-xotin munosabatlari, xotin obrazining erkak taqdiridagi hal qiluvchi roli asosiy o‘rinni egallaydi. Ammo ular turli kontekstlarda, turli

obrazlar tilidan aytilgani sababli har biri o‘ziga xos uslubiy va emotsional yuklamaga ega.

Maqollarda so‘z tartibi va gap tuzilmasi parallel konstruksiyada va bu konstruksiyada antonimik oppozitsiyasi yetakchilik qiladi (“*jinni erni sog‘ qiladi – sog‘ erni jinni qiladi*”, “*yaxshi xotin – yomon xotin*”, “*shoh qiladi – gado qiladi*”). “*Bor qiladi*”, “*shoh qiladi*”, “*yo‘q qiladi*”, “*gado qiladi*” kabi o‘zgaruvchan birliklar metaforik ifoda imkoniyatini boyitadi va maqollarga ekspressiv kuch bag‘ishlab, obrazli ifodaning badiiy samaradorligini oshiradi

Lisoniy darajalanish til tizimining ichki qonuniyatlaridan biri bo‘lib, til birliklarining semantik, stilistik yoki ekspressiv kuchiga qarab tadrijiy o‘zgarish jarayonini ifodalaydi. Buni O.Bozorov: “Lisoniy darajalanish til qurilishi qonunlaridan biri bo‘lib, bu qonunning takrorlanuvchan andazasi “muayyan til belgisining tadrijiy ozayib yoki ko‘payib borishi”dir”¹⁴¹, – deb ko‘rsatadi. Darhaqiqat, darajalanish hodisasi, avvalo, leksik birliklar darajasida kuzatiladi. Shuningdek, darajalanish frazemalar sathida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, “*qo‘rqdi – yuragi orqaga tortdi – rangi o‘chdi – yuragi tushib ketdi*” kabi ifodalarda biror psixologik holatning bosqichma-bosqich kuchayib borishi ifodalanadi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan misollardagi uchta maqol va xalq nutqida mavjud aynan shu mazmundagi maqollarning variantlarining darajalanishi tahlili quyidagicha:

1. *Jinni erni sog‘ qiladigan ham xotin,*
Sog‘ erni jinni qiladigan ham xotin
2. *Yaxshi xotin gadoni shoh qiladi,*
Yomon xotin erni gado qiladi
3. *Erni bor qiladigan ham xotin,*
Yo‘q qiladigan ham xotin
4. *Yaxshi xotin belgisi – xirom qilar terini,*
Yomon xotin belgisi – yerga bukar erini.
5. *Yaxshi xotin yigit nomin ko‘tarar,*
Yomon xotin yigit nomin yo‘qotar.
6. *Yaxshi xotin kelmasdan burun kuldirar,*
Yomon xotin o‘lmasdan burun o‘ldirar.
7. *Yaxshi xotin erini elga bosh qilur,*
Yomon xotin erini gado qilur.
8. *Yaxshi xotin erini yashartirar,*

¹⁴¹ Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фан. д-ри. дисс... автореф. – Тошкент, 1997. – Б. 42.

Yomon xotin erini tez qaritar.

Maqollarni belgilangan raqamlari asosida darajalanish qatoriga joylashtiramiz **8 → 7 → 2 → 3 → 1 → 4 → 6 → 5**. Bu tartib badiiy-estetik qimmatning ortib borishi va o‘zbek xalqining qadriyatlariga mos tarzda tuzilgan bo‘lib, har bir maqolda xotin obrazining er hayoti va jamiyatdagi o‘rniga ta’siri tobora kuchayib boradi. Ayniqsa, ushbu qatorning eng so‘ngida joylashgan: “*Yaxshi xotin yigit nomin ko‘tarar, yomon xotin yigit nomin yo‘qotar*” maqoli o‘zbek xalq tafakkurida *nomus* va *obro‘* nechog‘li muqaddas ekani bilan ajralib turadi. Bu maqol boshqa variantlardan farqli ravishda moddiy yoki ruhiy holatni emas, balki insonning sha’nini, ismini, ya’ni nomini saqlab qolish yoki yo‘qotish g‘oyasini ilgari suradi.

O‘zbek xalq maqollarida konstruktiv qolipning saqlanib qolishi muhim xususiyatlardan biridir. Maqollarning leksik variantlashuvi, ko‘pincha, ulardagi antroponimik komponentlarning o‘zgarishi orqali namoyon bo‘ladi. Bunda maqolning umumiy tuzilmasi o‘zgarmagan holda antroponim kontekstga moslashtirilib, nutq egasining ijtimoiy-ma’naviy mavqeyiga, genderiga yoki badiiy matndagi vaziyatga qarab moslab ishlatiladi. *Xotinlar bedanaga yetolmay charchab, yo‘ldan qaytib kelishsa, tugunlar qup-quruq emish. “Voy sho‘rimiz qurdi, “Oyimbuvi ovga chiqdi, ketidan g‘ovg‘a chiqdi” deganday, bu nimasi ekan!” deb dod deganlaricha qolaverishibdi.* (Oyjamol. “Bo‘ri bilan tulki”, 152-b.) Ertak matni ayol obrazi nutqidan aytilganligi uchun “*Oyimbibi*” antroponimi qo‘llangan bo‘lsa, xalq orasida ushbu antroponim “*Abdulkhakim*”¹⁴² asosiga quriladi. Bu yerda antroponimik adaptatsiya hodisasi sodir bo‘lmoqda. “Abdulkhakim” antroponimi genderni moslashtirilib, “Oyimbuvi” shaklida aytiladi. Bu gender markerlangan leksik o‘zgarish bo‘lib, ertakdagi ayol obrazi nutqiga stilistik uyg‘unlik kiritadi va mazmuniy uyg‘unlikni kuchaytiradi.

O‘zbek xalq ertaklarida muayyan voqelikni obrazlar orqali ifodalash jarayonida maqollar vositasida xalqona hikmat va axloqiy-didaktik mezonlar ilgari suriladi. Ayniqsa, xarakter xususiyatlarini, xususan, baxillik, nafsga berilish yoki to‘ymaslik kabi illatlarni fosh etuvchi maqollar ertak matnlariga muvofiq tarzda kiritiladi.

Nutq jarayonida ba’zi sintaktik bo‘laklarning ma’lum maqsad asosida tushirilishi, ya’ni ellipsis hodisasi maqollar badiiyatida eng ko‘p

¹⁴² O‘zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 193.

uchraydigan usullardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu usulning qo‘llanilishi, mohiyat e‘tibori bilan, maqol tarkibining lakonizmini kuchaytirib, qisqa leksik birlik orqali keng semantik maydonni ifodalash imkonini yaratadi. Maqollarda ellipsis, odatda, kontekst orqali anglash mumkin bo‘lgan sintaktik elementlarning tushirilishi natijasida yuzaga keladi. Bu esa, o‘z navbatida, nutq iqtisodi prinsipiga asoslanadi. Maqolning kompressiyalangan (lisoniy tejamkorlik) shaklda taqdim etilishi, uni nafaqat ifodaviy kuch jihatidan boyitadi, balki estetik vazifalarini ham oshiradi. Buni N.Mahmudov: “Asosida til tejamkorligi yotadigan hodisa sifatidagi ellipsis stilistika va sintaksisda muhim o‘rin tutadi” , – deya talqin qiladi. Darhaqiqat, ellipsis hodisasi sintaktik birliklarning maqsadli ravishda tushirib qoldirilishi nutqning ixchamligini, lo‘ndaligini va ifodalilik darajasini oshiradi. Bundan tashqari, stilistik jihatdan ellipsis emotsional kuch va badiiy ifoda vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, dialogik nutq, maqollar, aforizmlar, badiiy nasr va dramatik matnlarda ellipsis vositasi matnga dinamizm, ichki ziddiyat, dramatik tus kiritadi. Ko‘pincha, ellipsis orqali matnda pauza, sukut, noaniqlik yoki anglatilmagan, ammo o‘quvchi tomonidan taxmin qilinadigan ma’no yuzaga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq ertaklari matnida qo‘llanilgan maqollar misolida esa ellipsis orqali ertak qahramonlarining ichki kechinmalari, hayotiy tajribalari, dunyoqarashlari bevosita yoki bilvosita ifodalanadi. Natijada maqollar orqali obrazning psixologik holati, uning dard-u hasrati yoki quvonchli tuyg‘ulari badiiy anglash darajasida ifodalanadi. Bu esa ertakning umumiy estetik qimmatini va badiiy yukini yanada kuchaytiradi.

Demak, maqollarda kuzatiladigan ellipsis hodisasi bu faqatgina sintaktik qisqartma emas, balki lingvopoetik vosita sifatida ham xizmat qiladi. Ertak matnlaridagi maqollar kontekstida ellipsisning qo‘llanilishi matnning poetik intensivligini oshirish, semantik ko‘lamni kengaytirish va qahramon xarakterini ochib berish kabi funksional vazifalarni bajaradi. Masalan: *Oypari miyig‘ida kulibdi-da, “Podshoning belida noni, tizzasida qoni bo‘ladi, qonini kechib borib nonini yeysiz-da!” debdi.* (Oltin beshik. “Oypari”, 168-169-b.) Ertak matnida keltirilgan **“Podshoning belida noni, tizzasida qoni bo‘ladi”** maqoli ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb etgan bo‘lib, u orqali zo‘ravonlik, hukmronlik va hokimiyat bilan bog‘liq hayotiy haqiqatlar badiiy timsollar orqali ifodalangan. Bunda *“Podshoning belida noni”* hokimiyat va boylik

manbaya podsho ekanini bildirib, kimda kuch va hokimiyat bo'lsa, u rizq (non), ne'mat egasidir, u boshqalarni boqadi, ne'mat tarqatadi, taqsimlaydi degan tushuncha bor. *“Tizzasida qoni bo'ladi”* komponentida esa zo'ravonlik, qon to'kilishi, adolatsizlik g'oyasi ilgari suriladi. Maqolda dualizm, ya'ni non – hayot, rizq, qon – o'lim, xavf ekanligi anglashiladi. Bunda antiteza muhim vazifa bajaradi.

“Arslon izidan, yigit so'zidan qaytmas”, deganlar, “Borsa kelmas”ga boramiz dedikmi, boramiz”, – deb turib olibdi. (Oltin beshik. *“Gul Sanobarga nima qildi, Sanobar gulga nima qildi?”* 179-b.) yoki

– *Boyroqni boshimga uraymi, podshoning ham xotini bo'lib ko'rganman, ming podshodan bir qul, ming oltindan bir pul yaxshi, – debdi xotin.* (Oyjamol. *“Ahmoq podshoning dono xotini”*, 43-b.)

Yuqoridagi ertaklardagi obrazlar tilidan aytilgan maqollarning har uchalasida ikkinchi komponentda qo'llangan so'z (izoh leksema)lar (bo'ladi, qaytmas, yaxshi) maqollarning birinchi komponentida tushib qolgan. Ularning borligi maqolning shakl va ma'nosida bilinib turibdi. Ko'rinadiki, xalq maqollarida ham ellipsis hodisasi maqoldagi *“izoh”*ning, ya'ni kesimlarning tushib qolishi bilan xarakterlanadi. M.Yo'ldoshev ham maqollardagi ellipsislik haqida to'xtalar ekan, quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: *“Ellipsisni maqollarda juda ko'p uchratamiz. So'zlarning tushirilishi natijasida maqol tabiatiga xos ixchamlik va ifodalilik yuzaga keladi”*¹⁴³. Darhaqiqat, maqollarning tarkibida ko'p hollarda kesim yoki izohlovchi komponentlar tushirib qoldiriladi, biroq bu ellipsislar kontekst orqali oson anglashiladi va matnning semantik to'liqligiga to'sqinlik emas, balki aniqlik olib keradi.

O'zbek xalq ertaklari tarkibida qo'llanilgan maqollar ko'p hollarda faqat g'oyaviy-estetik yuklamasi bilan emas, balki lingvopoetik, pragmatik va kommunikativ funksiyalari bilan ham ajralib turadi. Quyidagi parcha bunga yaqqol misoldir:

– *Bolam, senga bir so'zim bor, qizlarimning bo'yi yetdi. “Teng tengi bilan” deganday, sen ham kambag'al, men ham. Topganingni to'y qilib, qizlarimizdan xohlaganingni ola qol.* (Oyjamol. *“Hasan va Zuhra”*, 55-b.)

Matnda kampirning nutqida xalq orasida mashhur bo'lgan **“Teng tengi bilan, tezak qopi bilan”** maqolining faqat birinchi komponenti (*“Teng tengi bilan”*) qo'llanilgan, ikkinchi komponenti (*“Tezak qopi bilan”*) ellipsisga uchragan. Ushbu holatda ellipsis o'quvchi yoki

¹⁴³ Yo'doshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili: – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – B. 54.

tinglovchining bilimiga, tafakkuriga va madaniy intertekstual kompetensiyasiga suyanadi, ya'ni maqolning davomi aytilmasa-da anglanadi. Bu orqali matnga noaniqlik emas, balki estetik aniqlik baxsh etiladi. Ellipsis matnga kampirning nozik ijtimoiy mavzuda to'liq gapirmasligi, tinglovchiga aytilmay qolgan haqiqatni his etish imkonini beradi. Maqolning ikkinchi komponenti ("*tezak qopi bilan*") o'zida disfemik xarakter kasb etib, ya'ni o'tkir, qattiq, estetik me'yordan chetga chiqish kabi salbiylik bo'yoqlarini keltirib chiqaradi. Bu leksema shakli axloqiy va estetik nuqtayi nazardan kamroq ijtimoiy maqomdagi obrazlar uchun qo'llaniladi. Aynan mana shu sababli kampir ushbu komponentni ataylab tilga olmaydi.

O'zbek xalq ertaklarida maqollar obrazli tafakkurning yuksak namunasi sifatida nutqqa kirib kelib, badiiy matnning mazmunini boyitadi. Ular voqealar rivojida qahramonning ruhiy holati, irodasi va qadriyatlarini ifodalovchi lingvopoetik vosita sifatida faol ishtirok etadi. Xususan, maqollar epik dialoglarda emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish, xalqona hikmat va ishonchlarni badiiy shaklda yetkazishda muhim semantik yuklamaga ega. Aynan shu holatni quyidagi ertak matnida kuzatish mumkin:

Bektemir botir:

– *E malikam, sira g'am yemang! "Yakkanning yori–xudo" deganlar.*
(Bo'ri bilan mergan. "Bektemir botir", 87-b.)

Ertak matnida qo'llanilgan "**Yakkanning yori – Xudo**" maqoli o'zbek xalqining diniy-etnik tafakkurida shakllangan maqol bo'lib, u Bektemir botir obrazining aksiologik va emotsional-ekspressiv qirralarini ochishda muhim lingvopoetik vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur maqolda mavjud teistik semantika orqali xalqning ilohiy kuchga bo'lgan ishonchi ifodalanadi. Bu maqol epik dialog kontekstida ishlatilgan bo'lib, qahramonning ruhiy holatini, jasoratini va tavakkalini ifoda etuvchi motivatsion-lingvopoetik birlik vazifasini bajaradi. Shuningdek, maqolda binar oppozitsiya "yakka" (yolg'iz inson) va "Xudo" (ilohiy kuch) o'rtasidagi dramatik kuch tasvirlanadi. Bu ertakdagi kulminatsion voqea arafasida qahramonning irodaviy pozitsiyasini kuchaytiradi. Maqolning konnotativ ma'nosi qahramonga nisbatan musbat baho berilishini ta'minlaydi, ya'ni u kuchsiz emas, balki iymonli, ma'naviy tayanchga ega botirdir. "*Yakkanning yori – Xudo*" maqoli xalq ertakda dialogik nutqdagi poetik ekspressivlikni oshirishda va qahramon obrazini epik darajasida ko'tarishda muhim vazifa bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, ertak matnlarida maqollar, ko‘pincha, obrazlarning nutqiy portretini chuqurlashtirish, ularning xarakterini ochish hamda voqelikni baholash vositasi sifatida qo‘llanadi. Ayniqsa, ertak aytuvchining izohlovchi nutqida ishlatilgan maqollar umumlashtiruvchi, xulosa chiqaruvchi va didaktik-estetik yuklama bilan ajralib turadi. Ular lingvopoetik jihatdan aforistik tuzilma, ritmik uyg‘unlik, metaforik ifoda kuchga ega bo‘lib, ertakning mazmuniy qatlamini chuqurlashtiradi. Shu orqali maqollar ertakning milliy-ma’naviy mohiyatini yoritish, xalq tafakkuri va estetik qarashlarini ifodalashda muhim poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalq ertaklari matnidagi dialektal qatlamning lingvopoetik va funksional xususiyatlari

O‘zbek xalq ertaklari xalq og‘zaki ijodining qadimiy, ko‘p qatlamli va tarixiy-lisoniy taraqqiyot bosqichlarini o‘zida mujassam etgan janrlaridan biri hisoblanadi. Ushbu janrning muhim xususiyatlaridan biri xalq tilining qadimgi shakllarini, ya’ni arxaik leksik va fonetik unsurlarni saqlab qolganligidir. Xususan, ertaklarning dialektal lisoniy manzarasi mintaqaviy koloritni yoritish, muloqot muhitini tabiiylashtirish hamda folklor obrazlarni jonlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Ertak matnlarida uchraydigan dialektizmlar bu adabiy tildan farq qiluvchi, hududiy chegaralangan leksik birliklar bo‘lib, ular shevalarda faol qo‘llaniladi. Hozirga qadar o‘zbek tilshunosligida dialektlarga oid bir qator izohli, qiyosiy va hududiy lug‘atlar tuzilgan, shevalar fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq xalq ertaklari matnlarida mavjud dialektal birliklar alohida lingvistik obyekt sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Aynan shu jihatdan olib qaraganda, xalq ertaklarida uchraydigan dialektal qatlam unsurlarini aniqlash, ularning adabiy tilga nisbatan munosabati, semantik-funksional vazifalarini, shuningdek, stilistik rolini aniqlash ushbu tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilandi.

Dialektizmlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular ertak matnining estetik va semantik qatlamida faol ishlatiladi. Masalan, **“cho‘mak”** (*cho‘p*), **“isirg‘a”** (*sirg‘a*), **“xo‘bchi”** (*xirmonchi*), **“og‘ayo”** (*aka-uka*), **“yugirak”** (*yuguruvchi*) kabi dialektizmlar mintaqaviy shevalarga xos bo‘lsa-da, ular ertak tiliga kirib, obrazlar ruhiyatini, voqea fonini va qahramon nutqini tabiiy va jonli ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa matnning konnotativ, ekspressiv va estetik qiymatini kuchaytiradi.

Shundan kelib chiqib, xalq ertaklari tilida mavjud dialektal birliklarning ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Obraz va voqelikni tabiiylashtirish. Bunda dialektal birliklar ertakdagi voqea-hodisalarni sun'iylikdan xoli, tabiiy tarzda aks ettirishga xizmat qiladi. Masalan, *“isirg‘a”*, *“cho‘mak”*, *“yugirak”*, *“unnab”* kabi so‘zlar xalq tilida jonli ishlatilganligi sababli qahramonlar nutqini real hayotga yaqinlashtiradi. Bu esa ertakdagi obrazlarning hayotiyligiga, xalqona bo‘lishiga olib keladi.

2. Mintaqaviy koloritni yoritish, ya'ni har bir dialektizm muayyan geografik hududga xos til unsuri bo‘lib, mintaqaviy koloritni ifodalaydi. Masalan: *“xo‘bchi”* Farg‘ona, *“juganlatmoq”*, Surxondaryo, *“qarincha”*, *“sazaq”* kabilar Xorazm hududlarining o‘ziga xos badiiyatini ifodalash uchun xizmat qiladi.

3. Estetik va ekspressiv boylik yaratish. Dialektizmlar, ko‘pincha, ekspressiv va emotsional ma‘no tashiydi. Bular ertak matnining badiiy-estetik qatlamini boyitadi. Masalan: *“og‘ayo”* dialektizmi nafaqat *“aka-uka”*, balki mehr-muhabbatni bildiruvchi yaqinlik ifodasi yoki *“yugirak”* oddiy yuguruvchidan ko‘ra chaqqon, epchil obraz yaratadi.

4. Adabiy til va xalq tili o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini o‘taydi. Xususan, ertaklardagi dialektizmlar xalqning og‘zaki nutqiga xos til qatlamini aks ettirib, adabiy til va xalq tili o‘rtasida vositachilik qiladi. Bu orqali xalq ertaklari avlodlararo uzviylikni ta‘minlanadi.

5. Stilistik va funksional yuklama. Bu jarayonda ertak qahramoni nutqini xarakterlashda, voqealar zamonaviylikdan uzoq arxaik fonda kechayotganini bildirishda hamda lug‘aviy sinonimlar yaratish orqali stilistik xilma-xillik hosil qilishda muhim rol ahamiyat kasb etadi.

6. Tilning tarixiy qatlamini saqlash. Ertaklardagi ayrim dialektizmlar arxaik xarakterda bo‘lsa-da, qadimiy og‘zaki nutq unsurlarini hozirgacha yetkazishda, o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aks ettirishda ma‘lum vazifa bajaradi.

Aytish mumkinki, xalq ertaklari boshqa folklor janrlari kabi an’anaviy ijodkorlar: ertakchi, baxshi, lofchi, qissaxonlar va h.k.lar tomonidan og‘zaki ijro etilgan bo‘lib, ular tilning og‘zaki shaklini, ayniqsa, dialektal qatlamini jonli ifoda shaklida saqlab qolgan. O‘tgan asrning 60-70-yillarigacha faol bo‘lgan o‘zbek ertakchilik maktablarida yozib olingan ertak matnlarida xalq tiliga xos ko‘plab dialektal unsurlarni uchratish mumkin. Bugungi kunga kelib, ertaklar to‘plamlarida adabiy til me‘yorlariga amal qilinishi natijasida, shevaga xos birliklarning

kamaygani kuzatiladi. Buni V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov quyidagicha izohlaydi: “Adabiy til va tayanch shahar shevalarining kundalik ta’siri O‘zbek xalq shevalarida til faktlarining aralashuvi va tekislasha borish jarayonini tezlashtirdi. Chunki o‘zbek xalqining ekonomikasi va madaniyati mislsiz darajada yuksalishi bilan o‘zbek adabiy tilining qo‘llanish doirasi kengaydi”¹⁴⁴. Biroq bu holat dialektizmlarning butkul yo‘qolganini anglatmaydi. Tadqiqot obyekti sifatida olingan xalq ertaklari to‘plamida dialektal birliklar saqlanib qolgan bo‘lib, ular ertakning milliy ruhini, estetik obrazlilikini hamda milliy tafakkur doirasini aks ettirishda alohida o‘rin egallaydi.

Xalq ertaklari matnidagi dialektal qatlam birliklarini lingvopoetik va funksional jihatdan tahlil qilish ularning tarixiy-lingvistik meros sifatidagi qiymatini, badiiy-estetikasini, shuningdek, adabiy til bilan o‘zaro aloqadorlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Ertakchining nutqi, aksariyat hollarda, adabiy til qoidalaridan chekinib, mahalliy shevalar asosida shakllanadi. Natijada ertak matnida shevaga oid leksik birliklar, ya’ni hududiy xususiyatga ega so‘zlar keng qo‘llanadi. Bu hodisa nafaqat ertakning realistik fonini yaratadi, balki uning estetik ta’sirchanligini kuchaytiradi.

Tilshunoslikda shevaga xos so‘zlar fonetik, leksik, semantik, etnografik va sintaktik dialektizmlar sifatida qaraladi¹⁴⁵. Fonetik dialektizmlar xalq ertaklari tilida kam uchraydi, asosiy dialektal birliklar leksik va semantik jihatdan farqlanadi. Shu bois fonetik dialektizmlarni faqat bitta lahja doirasida tahlil qilish aniq ilmiy mezonlar asosida chegaralanmagan natijalarga olib keladi. Bu esa xalq ertaklarining tili materiallari asosida olib borilgan kuzatuvlar fonetik tafovutlarning alohida bir shevaga emas, balki turli lahjalarga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar majmuasi sifatida ifodalanishini ko‘rsatmoqda. Masalan: *Bektemir botir*: “Men o‘zim yakka boraman! Qirq yigitning keragi yo ‘q!” – debdi. Shunda Odilxon yaxshi otni yasatib egarlatib, **juganlatib (yuganlatib)**, necha otga oltin-kumush orttirib beribdi. (Oltin beshik. “Bektemir botir”, 93-b.); *Podsho*: “Endi niyatimga yetdim-a” deb ko‘nglidan o‘tkazibdi, xabar keltirganlarga bir **kap (kaft)**, bir **kap** tilla beribdi. (Oltin beshik. “Oypari”, 174-b.); *Bir qancha yo‘l bosgandan keyin, yetay-yetay deb qolishgani-da, haligi qatiqni chochib (sochib)*

¹⁴⁴ Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 19.

¹⁴⁵ Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопoeтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик тахлил). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – Б. 90.

yuborishibdi. (Oltin beshik. “Ilon og‘a”, 220-b.); *Sen bilan savol-javob qilib o‘ltirishga (o‘tirishga) bardoshim yo‘q, – debdi podsho.* (Oltin beshik. “Oypari”, 175-b.); *Bor ekan, yo‘q ekan, och ekan, to‘q ekan, bo‘ri bakavul ekan, tulki yasovul ekan, qarg‘a qaqqimchi ekan, chumchuq chaqqimchi ekan, g‘oz karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, tovuq qaqq etdi, bilmadim qaqqqa ketdi.* (Oyjamol. “Xo‘jamurod”, 84-b.); *Daladan o‘tin tashiy-tashiy orqasi jovur (yag‘ir) bo‘lib ketibdi.* (Oyjamol. “Jovur chol”, 117-b.); *Tulki debdi: Momam (momo) uyiga boraman. Chol: Momang senga ne berar?* (Oyjamol. “Jovur chol”, 117-b.); *Sari (sara, sariq) kavish (kavush), sanama juvon. Gul-gul ko‘ylak, gulama juvonman. Senga tegib, kaltak yeguncha itga tegay, – deb yo‘lida ketaveribdi.* (Oyjamol. “Qo‘ng‘iz bikach”, 117-b.); *Yaxshi bo‘lsa er yigitning xotini, alla, Shul chiqarar yigitning otini, alla.* (Oyjamol. “Tuhmat”, 63-b.) kabi. Shuningdek, ertaklar tilida eliziya hodisasi ham shevalarga xos unsurlar o‘ziga xos badiiyat bilan matnlardan o‘rin oladi: *Namuncha g‘amga botmasangiz.* (Oltin beshik. “Oypari”, 174-b.); *Oqbilakman men qaytguncha Salomat bo‘l, yo‘lni ko‘zlab!* (Oltin beshik. “Bektemir botir”, 174-b.).

Leksik dialektizmlar ertaklar tilida ko‘p uchraydi. Ayrimlari etnografik xarakterda bo‘lsa, ayrimlari semantik xarakterda o‘z ifodasini topadi. Bu kabi dialektizmlar ertakdagi obrazlarning ruhiyatini, xarakter xususiyatini, ayrim o‘rinlarda ma‘lum hududga xosligini, shuningdek, voqe-hodisaning rivojida obrazlar holatini ifodalashda qo‘llaniladi. Masalan: *Yo‘lbars gangrab qolgandan keyin, tumshug‘iga behush qiladigan dori tutib, uni hushidan ketkazibdi...* (Oltin beshik. “Muqbil toshotar”, 111-b.); *...ketishda, quruq ketmasin deb, bir arava cho‘p-cho‘makni ham yuklab ketishadi.* (Bo‘ri bilan mergan. “Botir echki”, 22-b.); *Ot xop unnab ko‘ribdi, lekin o‘z tumshug‘ini och bo‘ridan ajratib ololmabdi.* (Bo‘ri bilan mergan. “Och bo‘ri”, 35-b.); *O‘rtadagi dasturxonga xilma-xil mevalar, sharob-u antaxurlar qo‘yilgan emish.* (Oltin beshik. “Gul Sanobarga nima qildi, Sanobar Gulga nima qildi”, 183-b.); *Echkisining suti yo‘q, Kadisining tegi yo‘q.* (Oyjamol. “Jovur chol”, 117-b.)

Semantik dialektizmlar shevalarda mavjud bo‘lgan ayrim leksik birliklarning adabiy tildagiga nisbatan o‘zgacha, ko‘pincha, toraygan, kengaygan yoki mutlaqo boshqa konnotativ va denotativ ma‘noda qo‘llanilishi bilan tavsiflanadigan hodisadir. Bu kabi so‘zlar umumxalq tilida ham mavjud bo‘lishiga qaramasdan, shevalarda ular o‘ziga xos

semantik yuklama kasb etadi va kommunikativ vazifasiga ko‘ra boshqa kontekstdagi ma’nolarni anglatadi. “Bunday so‘zlar adabiy tilda qo‘llansa-da, uning ma’nolaridan biri yoki bir nechasi faqat shevalarda mavjud bo‘ladi. Demak, bunday so‘zlarning shevalardagi ma’nosi e’tiborga olinadi”¹⁴⁶. Semantik dialektizmlar adabiy til bilan sheva o‘rtasidagi semantik tafovutlarni aniqlashda muhim lingvistik indikator bo‘lib, ular tilning ichki qatlamlaridagi ma’no o‘zgarishlari, konnotatsiyalar va kontekstual ta’sirni tahlil qilishda ahamiyat kasb etadi. Sh.Shoabdurahmonov: “So‘zlashuv tilining barcha dialektlarida biror tushuncha faqat birgina so‘z bilan ifodalanavermaydi”¹⁴⁷, – deya o‘rinli ta’kidlaydi. Bu hodisa, xalq og‘zaki ijodi namunalarda, xususan, ertaklar tilida milliy-etnik tafakkur va madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Masalan: *Dunyoning g‘am-g‘ashidan juda **chiqdim (charchadim)***. (Bo‘ri bilan mergan. “Botir echki”, 18-b.); *Aylanayin, qizimning boshi **bo‘sh (ochiq)**, – debdi kampir*. (Oyjamol. “Savdogar bilan podachi”, 52-b.); *Madamin ko‘knorining ishlari **jo‘nashib (yurishib)** ketib, buncha narsalarni sota berib, shoshib qolibdi*. (Oyjamol. “Uch ko‘knori”, 93-b.); *Karvonboshi siz bilan **tomir (qarindosh)** bo‘lmoqni havas qilib, mana bu qizingizni o‘ziga teng ko‘ribdi, – debdi*. (Oyjamol. “Savdogar bilan podachi”, 53-b.); *Uzoqdagi Zuhaxon, Sizdan ham **sulukkina (nozikkina)***. (Oyjamol. “Tohir va Zuhra”, 39-b.); *Hey uka, rahmatli otamiz bo‘lsa dunyodan o‘tdi, bizlar yosh qoldik, Endi men bosh bo‘lib, otamizning osh-obini bersak, sen borib yilqilar yonida ko‘z-quloq bo‘lib, qo‘ylarni boqib tursang, – debdi. **Ajab (xo‘p)** bo‘ladi, og‘a, – debdi Ahmadjon*. (Oltin beshik. “Ahmadlar”, 137-b.); “*Endi seni bir bo‘ldiqlatay” deb kadini **quyrug‘iga (dumiga)** mahkam bog‘lab, buloq yoniga kelib sekin buloqqa solibdi*. (Bo‘ri bilan mergan. “Kiyik bilan kadi”, 25-b.); kabilarda buni ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagi misollardan anglashiladiki, muayyan leksik birlik adabiy tilda mavjud bo‘lishiga qaramay, shevada o‘ziga xos semantik rang-baranglik bilan qo‘llanadi. Bunday hollarda so‘zning emotsional-ekspressiv tarkibida yuz beradigan ma’no siljishi uni semantik dialektizm sifatida baholash imkonini beradi. Bunday semantik dialektizmlar ertak matnining umumiy xalqona ruhini, og‘zaki nutqqa yaqinligini ta’minlaydi.

¹⁴⁶ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 83.

¹⁴⁷ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1962. – Б. 224.

Xalq ertaklari tilida qo‘llangan, hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalari uchun xos bo‘lgan umumiy leksemalarning aksariyatini narsa-predmet nomi (*cho‘mak, kadi, otoz, otov, sazaq, sonoch, antaxur, shakasha, arja* kabi) bilan bog‘liq dialektizmlar tashkil etadi. Turkumlar doirasida *ot, sifat, fe‘l*, shuningdek, qisman *ravish* turkumiga oid dialektizmlar uchraydi. Xususan, ot turkumidagi dialektizmlar odatda narsa-predmet nomlari, kasb-hunar faoliyatiga oid leksik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Bunday dialektik birliklar o‘zbek xalq og‘zaki ijodining, xususan, ertaklarning hududiy differentsiallik tamoyiliga asoslangan holda shakllanadi. Bu holat, bir tomondan, xalq tilining geolingvistik qatlamlarini, ya’ni turli hududlarda shakllangan so‘z shakllari va ularning ma’no differentsiatsiyasini o‘rganishga asos bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ertak matnlarining etnolingvistik va lingvomadaniy jihatdan qadimiy qatlamlarini aniqlashga imkon beradi. Ot turkumidagi dialektizmlar, ayniqsa, tarixiy-etnografik terminlar, an’anaviy hunarmandchilik turlari yoki dehqonchilikka oid nomlar orqali folklor matnlarining kognitiv asoslarini ochib beradi. Masalan: *Ular daryo yoqasidagi bir sabza joyga gilamlar toshadilar, kundol (kimxob) ko‘rpachalarni daryo tomonga soldilar*. (Bo‘ri bilan mergan. “Rustamzod va Sherzod”, 57-b.); *...ketishda, quruq ketmasin deb, bir arava cho‘p-cho‘makni ham yuklab ketishadi*. (Bo‘ri bilan mergan. “Botir echki”, 22-b.); *Kadi shamoldan kunin taraqlab, tunin taraqlab turar ekan*. (Bo‘ri bilan mergan. “Kiyik bilan kadi”, 25-b.); *Mayli bo‘lmasa, xo‘bchi (xirmonchi) kim bo‘ladi? – debdi*. (Bo‘ri bilan mergan. “Kiyik bilan kadi”, 27-b.); *Kunlardan bir kun qo‘ng‘iz bikach (bekning xotini yoki qizi) erga tegmoqchi bo‘lib, yo‘lga chiqibdi*. (Bo‘ri bilan mergan. “Qo‘ng‘iz bikach”, 28-b.) kabi. Sifat turkumidagi dialektizmlar esa, asosan, idrokiy-estetik baholovchi funksiyasiga ega bo‘lib, obrazlar ifodasida xalq dunyoqarashining, qadriyatlar tizimining til orqali namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi. Masalan: *yugirak, suvashak, sulukkina, giranda (uddaburon), sari (sara)* kabi shakllar voqelikni baholashda mintaqaviy nuqtayi nazarni ifodalaydi. Bu holat, o‘z navbatida, dialektizmlarning lingvopoetik yukini oshiradi va obrazli ifoda kuchini boyitadi. Fe‘l turkumiga oid dialektizmlar esa harakat-holatni ifodalashda qo‘llanadi va ko‘pincha, lokal semantikaga ega bo‘ladi. Ular tilning faol qatlamida bo‘lmasa-da, folklor matnlarida semantik jihatdan muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Masalan, *unnamoq, ajab bo‘ladi, qichamoq, to‘mirmoq* kabi so‘zlar harakatning tarzini, davomiyligini yoki muayyan etnografik kontekstda sodir

bo'lishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq ertaklaridagi dialektizmlar turli so'z turkumlarida har xil intensivlikda namoyon bo'lib, ular nafaqat tilning leksik boylik darajasini, balki matnning tarixiylik darajasi, etnolingvistik manbalari, estetik ta'sir kuchi hamda identitet mezonlarini aniqlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ot turkumi doirasida aniqlangan dialektizmlar quyidagi ma'noviy guruhlarda qo'llangan: 1. **Shaxsni ifodalovchi dialektizmlar:** *a) qavm-qarindoshlik dialektizmlari:* Agar bizga xotin olib bermoqchi bo'lsangiz, uch og'ayamiz (*aka-uka*), bizga uch opaya (*opa-singil*) qiz topib bersangiz debdi. (Oltin beshik. "Shahzoda Salmon", 85-b); Keyin mening makonimga kirib borasiz, – deb turgan vaqtida, qizni *enabiy (yanga)* chaqiribdi. (Oltin beshik. "Ilon og'a", 217-b.); *Mana, ena, o'n tanga, besh tangasini mening uyimdan olasiz.* (Oyjamol. "Tuhmat", 65-b); *b) nasl-nasab, yosh va kasb-koni ifodalovchi dialektizmlar:* Shunday qilib, *Qo'ng'iz bikach (bekning xotini yoki qizi)* Sichqonboyga tegibdi. (Bo'ri bilan mergan. "Qo'ng'iz bikach", 29-b.); *Shunda og'a-inilar bir keksaroq yoshulli (yoshi ulug') dan so'rabdilar...* (Oltin beshik. "Qilichqora", 234-b.); *Siz meni bir bandi bachcha (bola, yigit) deb o'ylamang.* (Bo'ri bilan mergan. "Rustamzod va Sherzod", 56-b.); *Boyning zulmidan koranda (yollanma dehqon) uyiga ham bormas ekan.* (Bo'ri bilan mergan. "No'xatvoy", 66-b.); *Mayli bo'lmasa, xo'bchi (xirmonchi) kim bo'ladi? – debdi.* (Bo'ri bilan mergan. "Kiyik bilan kadi", 27-b.); *Mening ismim Endi bular uch Ahmad: Ahmadjon, Ahmad suvishak (sovqotuvchi), Ahmad yugirak (yuguruvchi) bo'libdilar.* (Oltin beshik. "Ahmadlar", 145-b.); *Girandalar (ushlab keluvchilar) dehqonni ushlab, qo'lini orqasiga bog'lab, bek qoshiga olib kelishibdi.* (Oyjamol. "Dehqon", 41-b.);

2. **O'rin-joy nomi bilan bog'liq dialektizmlar:** *Otov (ko'chma uy) ga yaqin qolganda, Qiron holsizlanib, suvga bota boshlabdi* (Oltin beshik. "Qoron botir", 28-b.); *Ular chuvillashib, hangoma qilib o'tirishgan ekan, ko'zlariga ko'rim yerdan bir lochiq¹⁴⁸ (kichikroq chordevor uy) ko'rinibdi;* *Qiron yaqinlashib qarasa, chartakda bir qiz o'tirgan ekan.* (Oltin beshik. "Qoron botir", 28-b.); *Ahadjon bo'rini chatma (xodalar chatib bog'langan) uyga bog'lab qo'yibdi...* (Oltin beshik. "Ahmadlar", 138-b.);

3. **Zoonim va fitonimlarga doir dialektizmlar:** *Qilichqora toshni ko'targan ekan, butun yerni qarinja (chumoli) bosib ketibdi...* (Oltin

¹⁴⁸ O'rinbayeva D. Folklor asarlari tiliga xos so'zlarning izohli lug'ati. – Samarqand, 2017. – B. 114.

beshik. “Qilichqora”, 236-b.); *Shuning ichida qirq tuya o‘tinni moyga botirib yoqaman, uning ustiga yana qirq tuya sazaq¹⁴⁹ (o‘simlik nomi) o‘tin, qirq tuya yilg‘in, qirq tuya salin (qumda o‘sadigan o‘simlik turi) qalab yoqaman...* (Oltin beshik. “Ahmadlar”, 146-b.); ... *to‘rt yuzta gujum (sada) hamma yoqqa soya solib tursin, – debdi.* (Oltin beshik. “Gul uzuk”, 138-b.); *Kunlardan bir kun podsho kayf-safo qilib o‘tirgan ekan, birdan hovuz bo‘yidagi qaramon (qayrag‘och) tepasiga chiroyli bir qush kelib qo‘nibdi.* (Oyjamol. “Dono xotin”, 60-b.); *Jo‘xori ham yetilib shamol bo‘lsa, takalagi (zo‘g‘atasi) bir-biriga urilib shovillay boshlabdi.* (Oyjamol. “Kanizak bilan podsho”, 42-b.);

4. Narsa-buyum va taom bilan bog‘liq dialektizmlar: ...Charxini, dugini, bulg‘ovichini (charxning qulog‘ini aylantiradigan cho‘p) ayvonga chiqarib qo‘yib bir qozon atala qilibdi. (Oyjamol. “Savdogar bilan podachi”, 53-b.); ... *Qizim boyatdan beri yetti iylik (dug) ip yigirdim, deb ketdi, – debdi.* (Oyjamol. “Savdogar bilan podachi”, 52-b.); *Ular daryo yoqasidagi bir sabza joyga gilamlar toshadilar, kundol (kimxob) ko‘rpachalarni daryo tomonga soldilar.* (Bo‘ri bilan mergan. “Rustamzod va Sherzod”, 57-b.); *Bola bozorda aylanib yurib bir nosvoy choqcha (qovoq, idish) sotadigan kishining oldiga borib...* (Oltin beshik. “Gul uzuk”, 150-b.); *Bola “Buning ichida nima bor ekan”, – deb yo‘lda nosvoy qovoqning og‘zini choqqi (pakki, ustara) bilan o‘yibdi.* (Oltin beshik. “Gul uzuk”, 150-b.); *Mana bu soch tolasini cho‘p tabar (bolta)ga qo‘yib...* (Oyjamol. “Tuhmat”, 66-b.); *Shomurod xotiniga: “Sen menga bir moyak (tuxum), bir arqon, bir shakasha (ko‘za) qatiq keltirib ber, men devlarning yoniga boraman”, – debdi.* (Oltin beshik. “Shomurod qo‘rqoq”, 211-b.); *Sonoch (mesh)lardagi yo‘lbars sutini qo‘liga berib...* (Oltin beshik. “Oypari”, 170-b.); ... *Bu minoradan tashlagan odamlar parcha-parcha bo‘lib, zambar (zambil)dagi loyday yoyilib ketar edi.* (Oyjamol. “Tuhmat”, 66-b.); ... *Qo‘lingizga uzun tasbih va bitta g‘ishtni chorsi (belbog‘, qiyiqcha¹⁵⁰) ga o‘rab, sizni sandalga o‘tqazib qo‘yaman...* (Oyjamol. Mulla Tappak”, 76-b.); ... *Yuqoriga qarasa, tog‘ning ichidan mash‘al singari yorug‘ chiqib, tog‘ning damonasiga (o‘t chiqayotgan mo‘ri) urib turgan emish.* (Oyjamol. “Kambag‘al qurandoz”, 78-b.); *Men boshqa yoqdan xotin olmayman, o‘zimning ovdan olib kelgan sayit (ov)im bor, shuni olaman, – deb javob beribdi.* (Oyjamol. “Kambag‘al qurandoz”, 79-b.); *Choldan bolalariga uchta narsa: keli*

¹⁴⁹ Qarang: Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 99.

¹⁵⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, IV жилд. – Б. 511.

(*o'g'ir*), *kelisop (o'g'ir dastasi)*, *narvoncha qolibdi*. (Oyjamol. "Kenja o'g'il", 80-b.); *Boyning xotini yigitni to'rda turgan temir arja (sandi)ga solib qo'yibdi-da...* (Oyjamol. "Osma savat", 83-b.); *Tarobihdan keyin, odamlar machitning sahniga chiqib, qo'llariga biri tosh, biri g'isht, biri guvalak-kesak (xom g'isht kesagi) tutushib "Laylatulqadr"ning o'tishini kutib turishibdi*. (Oyjamol. "Uch ko'knori", 95-b.).

Ertaklarning yaratilishi hududiy xoslanishiga asoslanib yoki etnografik xarakter kasb etib, ma'lum taom nomlari dialektizmlar orqali namoyon qilinadi: *Yo bo'ldimi o'yinchi, G'ilmindi (ovaqat turi)dan keyincha?* (Oyjamol. "Jovur chol", 118-b.); *Har kuni chol cho'lga o'tinga chiqish vaqtida xotini ikkita chavati (lochira) qilib berar ekan*. (Oyjamol. "O'tinchi chol bilan tulki", 128-b.); *Keyin unga obdob (dumba yog'i bilan unni qovurib qilingan atala.)i ichirib turdi*. (Bo'ri bilan mergan. "Rustamzod va Sherzod", 51-b.);

Sifat turkumiga oid dialektizmlar: *Keyin doirani olib, bir kamgak (pana) joyga kirib oldi, doirani to'xtovsiz chala boshladi*. (Bo'ri bilan mergan. "Rustamzod va Sherzod", 37-b.); *E momo, kampir, pirag'ar (yaramas) Taqqa joyingda turabor*. (Oyjamol. "Kampir bilan shaqol", 145-b.); *Uzoqdagi Zuhraxon, Sizdan ham sulukkina (nozikkina)*. (Oyjamol. "Tohir va Zuhra", 39-b.); *Daladan o'tin tashiy-tashiy orqasi jovur (yag'ir) bo'lib ketibdi*. (Oyjamol. "Jovur chol", 117-b.); *Devlar esa olotos (ola – "kelishmovchilik, nizo" +tos – "parcha" =tartibsiz) qochib ketishibdi*. (Oltin beshik. "Shomurod qo'rqqoq", 212-b.)

Ravish turkumiga oid dialektizmlar: *Deshan (tashqari)da bir singlim bor*. (Oltin beshik. "Oltin beshik", 248-b.); *Onasi: "Bolam, endi borsam meni mut (bekorga) o'ldiradilar, o'z ko'rpangga qarab oyoq uzatsang-chi", debdi*. (Oltin beshik. "Gul uzuk", 152-b.); *"Shu odam qachon javob bersa so'g'in (so'ng, keyin) kelasizlar", yo'lbarslarga tayinlab, Husanboyni yo'lga solib yuboribdi*. (Oltin beshik. "Oypari", 170-b.)

Fe'l turkumiga oid dialektizmlar: *Ot xo'p unnab (urinib) ko'ribdi, lekin o'z tumshug'ini och bo'ridan ajratib ololmabdi*. (Bo'ri bilan mergan. "Och bo'ri", 35-b.); *"Endi seni bir bo'ldiqlatay (chayqatay)" deb kadini quyrug'iga mahkam bog'lab, buloq yoniga kelib sekin buloqqa solibdi*. (Bo'ri bilan mergan. "Kiyik bilan kadi", 25-b.); *"Bu qanday narsa ekan", deb turishganda, u narsa bir ho'kiz bo'b (bo'lib) chiqibdi*. (Oyjamol. "Botir echki", 150-b.); *Bir qancha yo'l bosgandan keyin, yetay-yetay deb qolishgani-da, haligi qatiqni chochib (sochib)*

yuborishibdi. (Oltin beshik. “Ilon og‘a”, 220-b.); *Men otimni qichab (qistab) shaharga ertaroq yetay-da, kelayotganingiz xabarini ota-onangizga bildiray.* (Oltin beshik. “Uch avliyo”, 16-b.); *Do‘lanangni to‘miraman (ag‘daraman, yiqitaman), Qonlaringni shimira (simira)man.* (Oyjamol. “Hiylagar bedana”, 165-b.); “*Endi senga pulni qaytarib bo‘p (bo‘lib)man, topar oyda olarsan!*” deb ko‘nglidan o‘tkazibdi-da, jo‘nab ketibdi. (Oyjamol. “Yaxshi niyat – yarim davlat”, 2-b.)

Ertak matnlarida dialektizmlar turli ijtimoiy-dialektal qatlamlarga mansub qahramonlarning nutqini farqlashga xizmat qiladi, bu esa uslubiy ko‘lamni kengaytiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek xalq ertaklarida dialektizmlar nafaqat leksik boylik sifatida, balki lingvopoetik omil sifatida ham xizmat qiladi. Ular milliy-estetik tafakkur mahsuli bo‘lib, xalq hayoti, ijtimoiy munosabatlari, dunyoqarashi va madaniyatini aks ettiruvchi til birliklari sanaladi. Xalq ertaklari matnida uchraydigan dialektizmlarni lingvistik va poetik jihatdan tahlil qilish, ularning adabiy tilga nisbatan o‘ziga xosligini, semantik-funksional va estetik imkoniyatlarini aniqlash hamda bu birliklarning xalq ertaklari poetikasidagi rolini ochib berishga imon beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq ertaklarida uchraydigan dialektizmlar nafaqat lingvistik jihatdan, balki madaniy, tarixiy va estetik qiymati bilan ham muhim til birliklaridir. Ular orqali xalqning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, dunyoqarashi va estetik qarashlari namoyon bo‘ladi. Dialektal birliklar xalq ertaklariga milliy kolorit, tilning badiiy ifoda salohiyati va ko‘p qatlamli semantik ruh baxsh etadi. Tadqiqotning lingvopoetik yondashuvi esa bu so‘zlarning matndagi badiiy-estetik funksiyalarini ochib berishga xizmat qildi.

O‘zbek xalq ertaklarida eskirgan so‘zlar

Har qanday milliy tilning tarixi uning jamiyatning tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar bevosita tilning leksik sathida aks etadi. Buni Y.Pinxasov quyidagicha tavsiflaydi: “Zamon o‘tishi, sharoit o‘zgarishi bilan ba’zi narsalar yo‘qoladi va shu bilan bir qatorda ularni ifodalaydigan so‘zlar ham iste’moldan chiqib qoladi”¹⁵¹. Bu jarayonda muayyan tushunchalarni ifodalash ehtiyoji yuzaga kelishi bilan birga, yangi leksemalar paydo bo‘ladi va tilning faol

¹⁵¹ Пинхасов Я. Хозирги ўзбек адабий тили: Лексиколосия ва фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 40.

lug‘at tarkibini boyitadi. Shu bilan birga, tilning sinxron holatida faolligini yo‘qotgan, ammo ma’lum davrda aynan shu tushunchalarni anglatgan leksik birliklar o‘z o‘rnini ushbu yangi birliklarga bo‘shatib beradi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, o‘zining kommunikativ funksiyasini ijro etishda faolligini yo‘qotgan bunday so‘zlarning eskirishi tabiiy lingvistik qonuniyat hisoblanadi. Diaxronik tahlil shuni ko‘rsatadiki, eskirgan so‘zlar faqatgina eskirib qolmay, davrlar o‘tishi bilan turli lingvistik manbalarda yangi ilmiy-tadqiqiy ahamiyat kasb etishi mumkin. Bu holat eskirgan leksikaning ilmiy tadqiq etilishi, ularning etimologiyasi, semantik evolyutsiyasi hamda muayyan yozma yoki og‘zaki manbalardagi o‘rni va funksional xususiyatlarini belgilash asosida yuzaga chiqadi. Xususan, folklor namunalari, jumladan, xalq ertaklari eskirgan leksikani saqlovchi va ularning tarixiy qatlami hamda kontekstual ma’nosini tiklashga xizmat qiluvchi noyob lingvistik korpus hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot folklor matnlarida uchraydigan eskirgan leksik birliklarni tahlil qilishni, ularning tilning umumiy leksik tizimida tutgan o‘rnini aniqlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Jahon tilshunosligida eskirgan leksikaning tabiati va dinamikasi ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Mazkur leksik-semantik hodisani tahlil qilishda tilning tarixiy rivojlanishi asosiy mezon sanaladi. Xususan, o‘tgan asrning boshlarida V.A.Bogorodiskiyning tadqiqotlari leksikaning diaxronik rivojlanishini o‘rganish uchun fundamental nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan. Olim tilning o‘zgaruvchanlik xususiyatini mutlaq qonuniyat sifatida e’tirof etib, quyidagi aksiomatik fikrni ilgari suradi: “Bizning nutqimiz, umuman olganda, o‘zining barcha qismlari bilan birgalikda vaqt o‘tishi bilan uzluksiz o‘zgarib boradi”¹⁵². Bu ta’kid tilning ijtimoiy-tarixiy hodisa ekanligini, uning sinxron va diaxron holatlarini bir-biridan ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. V.A.Bogorodiskiyning bu ilmiy yondashuvi leksik birliklarning eskirish jarayonini faqatgina alohida so‘zlar doirasida emas, balki butun leksik tizimning evolyutsiyasi kontekstida o‘rganish zarurligini metodologik jihatdan asoslaydi. K.G.Menges¹⁵³ning izlanishlarida turkiy tillarning etimologiyasi va tarixiy lug‘at tarkibini

¹⁵² Богородицкий В.А. Общий курс русской грамматики. – Казань. Типолиотография Императорскаго Университета, 1907. – С. 7.

¹⁵³ Menges. K.H. The Turkic languages and peoples: An introduction to Turkic studies. – Wisbaden: Otto Harrassowitz, 1968. – 248 s.

o'rganish, qadimgi turkiy manbalardagi leksikani tahlil qilishga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

B.A.Larinning tarixiy leksikografiya va arxaik leksikani tadqiq etishga oid ishlari, eskirgan so'zlarning stilistik funksiyasini kompleks o'rganish zarurligini ilmiy asoslab beradi. Olimning qarashiga ko'ra, tarixiy lug'at nafaqat tilning o'zgaruvchan leksik tarkibini qayd etadi, balki jamiyatning madaniy-tarixiy evolyutsiyasini aks ettiruvchi muhim manba ham ekanligi qayd etiladi. B.A.Larin bu fikrni quyidagicha ta'kidlaydi: "... tarixiy lug'at narsalar tarixi, tushunchalar tarixi bilan bir qatorda so'z-belgilar tarixini ham yoritib beradi"¹⁵⁴. Darhaqiqat, tarixiy va arxaik so'zlar shunchaki leksik relik (saqlanib qolgan qoldiq)lar bo'lmay, balki B.A.Larin aytganidek, ular ortida turgan tarixiy narsa-predmetlar va ijtimoiy-madaniy tushunchalar tarixi haqida ma'lumot beruvchi kognitiv vosita hisoblanadi. Bu so'zlar og'zaki ijod yoki badiiy adabiyot matnlarida qadimiylilik kartinasini yaratadi, uslubiy jihatdan tantanavorlik yoki milliylik bo'yog'ini beradi, ya'ni so'zning ekspressiv-stilistik salohiyatini ochib beradi. S.Ullmann¹⁵⁵ esa semantika sohasida eskirgan so'zlarning ma'no o'zgarishi jarayonlarini nazariy jihatdan asoslaydi.

O'zbek tilshunosligida eskirgan leksikaning badiiy matnda bajaradigan stilistik vazifasi doimiy tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Bu yo'nalishda E.Qilichev, L.Abdullayeva, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, M.Qurbonova, S.Karimov, M.Yo'ldoshev¹⁵⁶ kabi olimlarning mulohazalarida alohida ahamiyatga ega. Ushbu olimlarning mulohazalariga tayangan holda, o'zbek xalq ertaklari matnlaridagi eskirgan so'zlarning estetik qiymatini va badiiy xususiyatlarini tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Badiiy asarlarda muayyan davr voqealari tasvirlanganda, kontekstual autentiklikni ta'minlash uchun o'sha davrga xos bo'lgan eskirgan tushunchalar va leksik birliklarga murojaat qilish stilistik zarurat hisoblanadi. Biroq bu leksik vazifa xalq ertaklar uchun qisman boshqacha

¹⁵⁴ Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. Учебное пособие для студентов пед. ин-тов. Сост. проф. Б.Л.Богородский, проф. Н.А.Мещерский. – Москва: Просвещение, 1977. – С. 116.

¹⁵⁵ Ullmann S. The Principles of Semantics. Basil Blackwell Oxford Jackson, Son & Co Glasgow, – 1957. – 346 p.

¹⁵⁶ Қиличев Э. Архаизм в прозе Садриддина Айни. Автореф. дис. ...канд. филол.наук. – Ташкент, 1969. – 29 с.; Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.; Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Ташкент: Фан, 1979. – 150 с.; Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 59 б.; Курбонова М. Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунослиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 49 б.; Каримов С. Ўзбек тилининг бадийи услуби. – Самарқанд: “Зарафшон” нашриёти, 1992. – 140 б.; Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент, 2007. – 151 б.

lingvistik xususiyat kasb etadi. Chunki tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashilganda, ertaklar matnida uchraydigan eskirgan soʻzlar, koʻpincha, ertak matni uchun sof tarixiy soʻzlar yoki arxaik leksika hisoblanmaydi. Buning sababi shundaki, ertaklar yaratilib, asrlar osha avloddan avlodga ogʻzaki tarzda oʻtib kelinganda bu soʻzlar oʻz davrida faol qoʻllanish chastotasiga ega boʻlgan. Shu sababli ular ertaklarning badiiy tuzilishi va syujet toʻqimalariga mustahkam singib ketgan va matnning barqaror leksik yadrosiga aylangan sanaladi. Qayd etish joizki, S.Karimov: “Maʼlum tushunchalarni ifoda etuvchi birliklar qatoridagi biron bir soʻzning qoʻllanilish darajasi pasayib qolgan ekan, fakt faktligicha qoladi”¹⁵⁷, yaʼni qoʻllanish darajasi sustlashsa yoki umuman qoʻllanmasa, eskirgan soʻzlar qatoriga oʻtadi, degan fikrlariga qoʻshilgan holda ertak matnidagi eskirgan soʻzlar sinxronik tahlilda eskirgan boʻlsa-da, diaxronik tahlilda ular ertakning janr xususiyatini saqlovchi va anʼanaviy estetik taʼsirini taʼminlovchi leksik fond ekanligini alohida qayd etish lozim. Bu holat ertak tilining leksik barqarorligi va zamonaviy tilning oʻzgarishlariga nisbatan nisbiy immunitetini taʼminlaydi. Buni quyidagi ertak matnlarida koʻrish mumkin: *Keyin sarbozlar boshligʻi yigitni ushlab urib-urib, kundaga solib zindonga tashlabdi.* (Oltin beshik. “Ahmadjon bilan Luqmonjon”, 23-b.); *Zolim podsho saroydagilar bilan maslahatlashib bir mapa yasatibdi, u zaharlangan boʻlib, chiqqan kishi oʻsha zahoti oʻlishi kerak ekan.* (Oltin beshik. “Momir bilan Somir”, 84-b.); *Otinoyining qoʻlida oʻnga yaqin qiz bola oʻqir ekan. Bibixalfaning nomi Chinnioy boʻlib, Bibixalfa uning laqabi ekan.* (Oltin beshik. “Husniyabonu”, 187-b.); *Malika ketma-ket uch marta kamand tashlabdi, ammo kiyikni ilintirolmabdi. Qizlardan uyalib kiyikning orqasidan quvib ketibdi.* (Oltin beshik. “Ziyod botir”, 60-b.); *Malikaning bargohini oʻsha yerga tikishibdi.* (Oltin beshik. “Ziyod botir”, 61-b.); *Bixalfa ham yigitlar bilan karvonlar turgan sardobaga boribdi.* (“Oltin beshik. “Chinnioy bilan Baxtiyor”, 208-b.)

Ertak matnlaridagi ushbu misollarda berilgan “kunda” (bandilarning oyogʻiga uriladigan (solinadigan) maxsus yogʻoch asbob, taxta kishan), “mapa” (podshoni olib yuradigan ravoq), “otinoyi” (eski maktablarda qizlar oʻqituvchisi; din va shariat bilimdoni), “kamand” (bogʻov, sirtmoq; tuzoq; biror hayvonni tutish, bandi qilish, bogʻlash yoki biror narsaga ilintirib, balandga chiqish uchun ishlatiladigan sirtmoqli arqon), “bargoh” (podshoh saroyi, qabulxonasi; podshoh chodiri; maxsus ijozat

¹⁵⁷ Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: “Зарафшон” нашриёти, 1992. – Б. 118.

bilan kiriladigan joy, podshoh va xonlarning qabulxonasi) kabi eskirgan soʻzlar ertakdagi ayni davr koloritini yoritish uchun oʻziga xos stilistik vazifa bajaradi. Ushbu leksik fond ertaklarning yaratilgan davri va ogʻzaki anʼanasi uchun xos boʻlgan, faol lugʻat tarkibiga kirgan soʻzlardir. Bu kabi leksik qatlam ertakning badiiy tuzilishiga singib ketgan boʻlib, u tilning tarixiy davomiyligini taʼminlashga xizmat qiladi. Ular ertak qahramonlari, manzara va voqealarning kontekstual autentik, yaʼni haqiqiylikni mustahkamlash vositasi boʻlib, matnning janr estetikasi va anʼanaviy uslubini saqlashda muhim vazifa bajaradi. Ushbu metodologik yondashuvni oʻzbek xalq ertaklaridagi eskirgan soʻzlarga nisbatan tatbiq etish lozim. Ertaklar ham asrlar davomida avloddan avlodga ogʻzaki anʼana shaklida oʻtib kelganligi sababli, ulardagi eskirgan soʻzlar shunchaki lugʻaviy qoldiqlar emas, balki janrning barqarorlashuviga xizmat qiluvchi, syujet mazmunini taʼminlovchi va milliy ruhni aks ettiruvchi stilistik dominant hisoblanadi.

*Bir bor ekan, bir yoq ekan, qadim zamonda qoʻngʻiz **bikach** bor ekan.* (Boʻri bilan mergan. “Qoʻngʻiz Bikach”, 28-b.) misolidagi bikach ayrim hudud oʻzbek shevalarida bugungi kunda ham qoʻllanadi. *Bikach* (adabiy tilda “*bekach*”) tarixiy soʻz boʻlib, bekning va umuman hukmdorlarning, boyonlarning xotini yoki qizi. Ushbu soʻz arxaik xarakterga ham egaligi bilan ahamiyatli. Arxaik nuqtayi nazardan bu soʻz “xotin-qizlarga hurmat bilan murojaat qilishda ishlatilgan soʻz” maʼnosida ham qoʻllanadi. (OʻTIL. I jild, 215-b.) *Bikach* soʻzining emotsional-ekspressivligi berilgan ertak matniga asoslangan, yaʼni oddiy qoʻngʻizga nisbatan “*Bikach*” soʻzining qoʻllanishi personajga sarkazm, ulugʻlash yoki paradoksal hurmat maʼnosini yuklaydi, bu esa ertakdagi gʻayrioddiy holatni taʼkidlaydi.

Mana shunday aslida nominativlikka asoslangan, ertak matnida emotsional-ekspressiv vazifa bajarib kelgan quyidagi misollarga eʼtibor qaratamiz:

1. *Kampirning kasbi-kamoloti doimo baxshilik va **qoqinchilik** qilish edi.* (Boʻri bilan mergan. “Rustamzod va Sherzod”, 37-b.) 2. *Oʻgʻrilar, odatda, kunduzi hamisha **sallakalon** boʻlib, shayx boʻlib, xalqning koʻziga mard-boobroʻ boʻlib yurar edilar.* (Boʻri bilan mergan. “Rustamzod va Sherzod”, 40-b.) 3. *Bir zamonda Soqi mumsik bilan Boqi mumsik degan ikki kishi yashagan ekan. Ular oʻtaketgan **mumsik** ekanlar. Bir-birlariga suvni ham ravo koʻrmas ekanlar.* (Oyjamol. “Soqi mumsik bilan Boqi mumsik”, 104-b.) 4. *E, uying kuygur chol!*

Podshohlikdan bir gavhar yitib edi. (Bo‘ri bilan mergan. “Rustamzod va Sherzod”, 40-b.) 5. *Ey nuridiydam, bu hovli to‘g‘risida sendan boshqa odam gapirganida, tilini komidan sug‘urib olardim.* (Oltin beshik. “Husniyabonu”, 187-b.) 6. *Bir necha kundan keyin ular o‘sha tuyay olib ketgan daryo labiga borib, qo‘sh tashlabdilar.* (Oltin beshik. “Ahmadjon bilan Luqmonjon”, 24-b.)

Birinchi misoldagi **“qoqinchlik”** kasbi tarixda mavjud bo‘lib, bugungi kunda **“kinnachi”**, **“tabib”** nomlariga ko‘chgan. Ushbu leksema fonetik o‘zgarish asosida ertak matniga olib kirilgan bo‘lib adabiy tilda mavjud bo‘lgan, ma‘lum davrda *qoqinchilik* deb yuritilgan. **Qoqim** etnografizmi, ya‘ni afsun o‘qib va bemorning a‘zoyi badanini, qo‘l, oyoq, bel, bo‘yin, quloqlarini uqalash yo‘li bilan “davolash” usuliga **-chi** shaxs oti yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan “qoqim+chi”ning tarixiy variantidir. **Qoqimchi (qoqinchlik)** – qoqim qilib “davolovchi”, tabib. Ertak matnida qahramonning kasbiga afsungarlik, sirlilik va g‘ayrioddiy qudrat bo‘yog‘ini beradi. U oddiy tabibdan ko‘ra kuchliroq, balki jodugarlik bilan bog‘liq shaxs ekanligini ifodalaydi. Ikkinchi misoldagi **“sallakalon”** – arabcha *salla* + forscha *kalon*, ya‘ni “katta” so‘zlarining qo‘shilmasidan iborat bo‘lib, *obro‘li*, *davlat amaldori*, *diniy ulamo* ma‘nolarini anglatgan. Ertak kontekstida yuzaki baho, *ulug‘vorlik*, *hurmat maskasi* (o‘g‘rilarning niqobi)ni ifodalashga, shuningdek, tashqi ulug‘vorligini va soxta obro‘sini ko‘rsatishga xizmat qilgan. So‘zning o‘zi hurmat ma‘nosini bersada, “o‘g‘rilar”ga nisbatan qo‘llanishi kinoya bo‘yog‘ini kuchaytirishga xizmat qilgan. Uchinchi misoldagi **“mumsik”** – xasis, ziqna ma‘nosini ifodalaydi. Uning qahramon ismiga qo‘shib ishlatilishi (“Soqi mumsik”, “Boqi mumsik”) va takrorlanishi (“o‘taketgan mumsik”) ularning xasislik darajasini emotsional jihatdan kuchaytirib, ertakdagi bu xarakterga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirgan. To‘rtinchi misoldagi “yitmoq” so‘zi *yo‘q bo‘lib ketmoq*; *yo‘qolmoq* ma‘nolarini ifodalaydi va nafaqat jismoniy yo‘qotishni, balki qadrli, noyob narsaning qo‘ldan ketishi bilan bog‘liq og‘riq, tashvish yoki katta talafot hissiyotini kuchaytiradi. Beshinchi misoldagi og‘iz, tanglay; og‘zi bo‘shlig‘i ma‘nosida qo‘llangan **“kom”** arxaizmi **“tilini komidan sug‘urib olardim”** birikmasi asosida ekspressivlik kasb etib, o‘quvchida asl mazmuni payqashning imkoniyati borligi bilan ahamiyatlidir. Oltinchi misolda berilgan **“qo‘sh tashlamoq”** bir kun dam olmoq ma‘nosini ifodalab, ertakning kontekstual qurshovida alohida ruh bag‘ishlaydi.

Misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim leksik birliklar o'zining birlamchi nominativ vazifasiga ega bo'lishiga qaramasdan, ertak kontekstida qo'llanilganda, qo'shimcha emotsional-ekspressiv va poetik vazifalarni bajaradi. Bu esa ertak tilida bu kabi so'zlarning qo'llanilishini poetik vazifa nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Bundan anglashiladiki, eskirgan so'zlarning matnga kiritilishi ayrim hollarda uslubiy rang-baranglikni ta'minlaydi. Ba'zan so'zning o'zi neytral bo'lsa-da, ertak kontekstida qo'llanishi unga yuqori darajadagi ta'sirchanlik va ifodalilik yuklaydi.

“Eskirgan so'zlar badiiy adabiyot tilida ikki vazifani: nominativ hamda emotsional-ekspressiv vazifani bajarishga xizmat qiladi”¹⁵⁸. O'zbek xalq ertaklarida mavjud eskirgan so'zlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, tahlilga tortilgan 60 ta leksemdan 58 tasi nominativ xususiyatga ega.

Badiiy asarda qahramonning ichki olamini ochish muallif mahoratining muhim mezonidir. Ushbu tamoyil nafaqat bevosita nutq orqali, balki qahramonning ichki kechinmalari orqali ham amalga oshiriladi. “Yozuvchi faqat qahramonning tashqi nutqini yozmay, uni ichidan ham gapirtira bilishi kerak. Chunki ichki nutq faollashganidagina, qahramonning psixologik holati va botinan olami to'liq ochiladi”¹⁵⁹. Ertak qahramonlari obrazini yaratish va ularning ichki olami tasvirini yaratishda, zamon va makon kontekstual autentikligini ta'minlashda ertakchi eskirgan so'zlardan muhim stilistik vosita sifatida foydalandi. Ma'lumki, o'zbek tilida eskirgan so'zlar tarixiy va arxaik kabi ikki katta guruhga bo'linadi. Mazkur leksik guruhlar ertak an'anasining ajralmas qismi hisoblanib, ular ertak tili sathida yuqori badiiy-estetik qiymatga ega bo'lgan vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek xalq ertaklarida tarixiy so'zlarning tahlili asosida ma'lum ma'noviy guruhlarga ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog'liq tarixiy so'zlar. Bu guruhning o'zini ham a) sinflar, tabaqalar; b) mansab, amal, unvonlar nomlari; d) kasb-hunar, mashg'ulotlar nomlari kabi guruhlarga ajratish mumkin.

Sinflar, tabaqalarni ifodalovchi tarixiy so'zlar. **Sulton** Murod o'lgandan keyin o'rniga **Sulton** Fotih taxtga o'tiribdi. (Uch og'ayni botirlar. “Ziyod Botir”, 200-b.); *E, podshohim, farmoningiz bekam-uko'st o'z yerida qaror topgay, – deb navkarlari bilan shahardan*

¹⁵⁸ Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: “Зарафшон” нашриёти, 1992. – Б. 120.

¹⁵⁹ Qarag'ang: Ананьев Б.Г. Психология чувственного познания. Акад. пед. наук РСФСР. – Москва: Изд-во Акад. пед. наук РСФСР, 1960. – 486 с.

tashqariga chiqib ketibdi... (Oyjamol. “Donishmand cho‘pon”, 44-b.); *Qo‘qon xoni kelganda, qasd qilganda bizdan bitta eshak oladi-da.* (Oyjamol. “To‘lg‘onoy”, 22-b.); *Podshoning qizi har kuni kanizaklari bilan bog‘da sayr qilar ekan.* (Oyjamol. “Handalak polvon”, 123-b.); *Bu saroy shu yurtning xoni Oytug‘dixonning qizi Oyparcha beginning maxsus saroyi, men uning cho‘risiman.* (Oyjamol. “Bo‘z bola”, 28-b.); *Darveshlar kelsa kuylatib, ko‘rgan-kechirganlaridan so‘ylatib, shuning bilan ovunar ekan.* (Oyjamol. “Bo‘z bola”, 30-b.); *Shaharda Xoliqberdi boyvachcha degan juda katta boy bor ekan.* (Oyjamol. “Bo‘z bola”, 30-b.); *Sulton Fotih istambullik, Sulton xalifa Usmonning naslidan ekan.* (Oltin beshik. “Ziyod botir”, 57-b.); *Ha, ko‘p kelgan, ammo shaxmatda yengilib biri qarol, biri hammol, yana biri meshkob bo‘lib ishladi.* (Oltin beshik. “Gul Sanobarga nima qildi, Sanobar Gulga nima qildi?” 187-b.)

Mansab, amal, unvonlar nomlarini ifoda etgan tarixiy so‘zlar.
Yasovul shul ondayoq Mo‘tabarxonni ikkita singlisi va uydagi mehmonlari bilan birga podshoh oldiga olib keldi. (Bo‘ri bilan mergan. “Besh qiz”, 117-b.); *Luqmonjon kelgach, mirshablar uni mahkam ushlab olibdilar.* (Oltin beshik. “Ahmadjon bilan Luqmonjon”, 23-b.); *Shundan keyin podsho to‘xsobasini chaqirib, bolalarga ot minish, tirandozlik, qilichbozlik, ishqilib jangchiga nimaiki hunar kerak bo‘lsa, hammasini o‘rgat, debdi.* (Oltin beshik. “Bektemir botir”, 90-b.); *Orada yana janjal ko‘tarilibdi, xotin “besh ming beraman” desa, podshovachcha “o‘n ming berasan” dermish, oxiri qozining hukmi bilan xotin besh ming tilla beradigan bo‘libdi.* (Oyjamol. “Uch avliyo”, 10-b.); *Bir dehqon qo‘sh haydab turgan ekan, podshoning qushbegisi ot minib katta yo‘ldan o‘tib qolibdi.* (Oyjamol. “Dehqon”, 41-b.);

Kasb-hunar, mashg‘ulotlar nomlarini ifodalovchi tarixiy so‘zlar.
Kampirning kasbi-kamoloti doimo baxshilik va qoqinchilik qilish edi. (Bo‘ri bilan mergan. “Rustamzod va Sherzod”, 37-b.); *Jallod ancha vaqt o‘ylab: “Shuncha odamni o‘ldirdim, kel, endi shu ikki yosh go‘dakni qo‘yib yuboray”, – debdi.* (Oltin beshik. “Ahmadjon bilan Luqmonjon”, 20-b.); *Sayislar otni boylay desa ot oldidan kelganni tishlab, ketidan kelganni tepib, hech kimni tablaga kirgizmabdi.* (Oltin beshik. “Bulbuligo‘yo”, 38-b.); – *Ha, ko‘p kelgan, ammo shaxmatda yengilib biri qarol, biri hammol, yana biri meshkob bo‘lib ishladi.* (Oltin beshik. “Gul Sanobarga nima qildi, Sanobar Gulga nima qildi?” 187-b.); *Munshi vasiqa yozib muhrlatib beribdi. Cho‘pon vasiqani olib uyga qaytibdi.* (Oyjamol. “Donishmand cho‘pon”, 45-b.); *Podshoh tabib debdi, takkan*

(ba'zi shevalarda bugungi kunda "takkon" ko'rinishida uchraydi) *debdi, mulla debdi, dori-darmon: hech biridan shifo topmabdi.* (Oyjamol. "Savdogar bilan podachi", 54-b.); **Girandalar (ushlab keluvchilar)** *dehqonni ushlab, qo'lini orqasiga bog'lab, bek qoshiga olib kelishibdi.* (Oyjamol. "Dehqon", 41-b.); *Boyning zulmidan koranda (yollanma dehqon) uyiga ham bormas ekan.* (Bo'ri bilan mergan. "No'xatvoy", 66-b.)

2. Ayrim hujjat nomini ifodalovchi tarixiy so'zlar. *Ko'rdingki, o'tlab yuribdi ot, Ota-bobosidan qolgan xat, Senga kim qo'yibdi Uning vasiqasini o'qishni...* (Bo'ri bilan mergan. "Bo'ri bilan mergan", 8-b.); *Yerimning ana yog'i vaqf. Vaqfning tuprog'i yerimga qo'shilib qoladi, deb u yoqqa borganimda ho'kizimizning oyog'ini yuvaman.* (Oyjamol. "Savdogarning taxmini", 89-b.)

3. An'anaviy diniy ta'limga oid tarixiy so'zlar. **Otinoyining** *qo'lida o'nga yaqin qiz bola o'qir ekan. Bibixalfaning nomi Chinnioy bo'lib, Bibixalfa uning laqabi ekan.* (Oltin beshik. "Husniyabonu", 187-b.); *Keta turib bir mullavachchani uchratib qolibdi.* (Oyjamol. "Xafa bo'lish yo'q-a?" 187-b.); *Otasi o'lgandan so'ng o'z shahrida turolmay, Samarqandga borib, madrasada o'qibdi.* (Oyjamol. "Navoiy bilan cho'pon" 187-b.); *O'g'rilar, odatda, kunduzi hamisha sallakalon bo'lib, shayx bo'lib, xalqning ko'ziga mard-boobro' bo'lib yurar edilar.* (Bo'ri bilan mergan. "Rustamzod va Sherzod", 40-b.)

4. Kiyim-kechak, bezak va mato nomini ifoda etgan tarixiy so'zlar. *Bir mallapo'shga sotdim, boshida kulohi, bo'ynida ridosi bor.* (Oyjamol. "Domla bilan xizmatkor", 187-b.); *Podshovachcha ko'rpachaning yirtig'idan qarab tursa, xotini kimxob-u atlas ko'rpalarni tizza bo'yi qilib solib, haligi odamning oldiga kelib, erkalanib, quchoqlab, tizzasiga o'tiribdi.* (Oyjamol. "Uch avliyo", 187-b.); *Ular daryo yoqasiga bir sabza joyga gilamlar to'shadilar, kundoli ko'rpachalarni daryo tomonga soldilar.* (Bo'ri bilan mergan. "Rustamzod va Sherzod", 57-b.); *Mayna ayvonga chiqibdi-da, bo'z do'ppini qoziqqa ilib, boyning shoyi bo'rkini (oshlangan qorako'l teridan silindr shaklida tikilgan bosh kiyim) tomga qo'yib tushibdi-da, to'ppa-to'g'ri boyning og'ziga kirib ketibdi.* (Oltin beshik. "Mayna", 56-b.); *Shu vaqtda To'lg'onoy chiqib ariqning bo'yida beti-qo'lini yuvib, suv ichib turgan ekan, boshida zarrin dastor, belida tilla kamar, unga qilich bog'lagan bir sipohi kelib qolibdi.* (Oyjamol. "To'lg'onoy", 22-b.); – *Meni izlab sarson*

bo'lma, agar juda topmoqchi bo'lsang temir choriq kiyib, temir hassa tayanib izlaysan. (Oyjamol. "Jovur chol", 119-b.)

5. Harbiy sohaga oid tushunchalar, qurollar nomini ifoda etuvchi tarixiy so'zlar. *Keyin sarbozlar boshlig'i yigitni ushlab urib-urib, kundaga solib zindonga tashlabdi.* (Oltin beshik. "Ahmadjon bilan Luqmonjon", 23-b.); *Haligi ko'chmanchi turklarning ikki yuz xonadonidan bitta-ikkitadan odam chiqib, qo'liga choqmor, nayza olib xalifaga astoydil yordam beribdi.* (Oltin beshik. "Ziyod botir", 58-b.); *Hind shohining qizi erkaklardek kiyingan, boshida dubulg'a, egnida po'lat joma, bir qo'lida sipar, bir qo'lida shamshir, yonida bahaybat Rustam gurzisidek gurzi, nayzalar bilan qurollangan, yuziga niqob tortgan holda maydonga kirib kelibdi.* (Oltin beshik. "Momir bilan Somir", 80-b.); *Shundan keyin podsho to'xsoba (to'qsabo)sini chaqirib, bolalarga ot minish, tirandozlik, qilichbozlik, ishqilib jangchiga nimaiki hunar kerak bo'lsa, hammasini o'rgat, debdi.* (Oltin beshik. "Bektemir botir", 90-b.); *Eshon ketishi bilanoq malika shahar qo'rboshisini ayttiribdi.* (Oltin beshik. "Husniyabonu", 187-b.); *E, podshohim, farmoningiz bekam-u ko'st o'z yerida qaror topgay, – deb navkarlari bilan shahardan tashqariga chiqib ketibdi...* (Oyjamol. "Donishmand cho'pon", 44-b.); *Rustam yugurib borib qaroqchining qo'lidan shamshirini tortib olib, uni oldiribdi.* (Uch og'ayni botirlar. "Quyosh yerining pahlavoni", 125-b.)

6. Oziq-ovqat va unga aloqador xomashyolarni ifoda etgan tarixiy so'zlar. *Ikki dona ko'moch qilib, sizning ikki qo'ltig'ingizga qistirib qo'yamiz, – debdi enasiga qiz.* (Oyjamol. "Podshoning mot bo'lishi", 19-b.); *Keyin unga obdobi ichirib turdi.* (Bo'ri bilan mergan. "Rustamzod va Sherzod", 51-b.); *"Nima qilay, nima qilib beray?" deb so'raganda: "Qo'g'irmoch qilib bering", degin.* (Oyjamol. "Tohir va Zuhra", 35-b.); *Men shunchalik o'g'rilik qilaman-u hamma vaqt bir qoshiq yovg'onga zorman.* (Oyjamol. "Navro'z qaroqchi", 70-b.); *Boltaboy yerto'laga kirganda orqasidan bir kosa xo'rda bilan ikkita non olib kirib berishibdi.* (Oyjamol. "Xafa bo'lish yo'q-a?" 99-b.)


7. O'lchov va pul birliklarini ifoda etgan tarixiy so'zlar: *Bu bolaning og'irligi bir botmon, bo'yi ikki gaz emish.* (Oltin beshik. "Olmos botir", 13-b.); *Shahardan bir necha parsax yurgach, qo'ynidagi yoldan olib tutatgan ekan, ot yetib kelibdi.* (Oltin beshik. "Kenja botir", 53-b.); *Ko'z ochib yumguncha ular shahzodani yechib, bir pud og'irlikdagi tufli kiyib, ustiga eski etiklarni yopishtirishdi. Unga chorak kattalikdagi*

ketmon berib, orqasiga tepib... (Oltin beshik. “Oypari”, 172-b.); *Shaharga bir tosh yo‘l qolganda, karvon bir daryo bo‘yiga tushibdi.* (Oltin beshik. “Chinnioy bilan Baxtiyor”, 208-b.); *Lekin bir diramni ham cho‘ntagiga solmabdi. Halol sanab, niyatini ham buzuq xayollarga burmabdi.* (Oyjamol. “Yaxshi niyat – yarim davlat”, 2-b.); *Kalavangiz o‘n qadoq ekan. Qancha so‘raysiz?* (Oyjamol. “Tuhmat”, 64-b.); *Cho‘ntagiga qo‘l solsa, yarim so‘mlik so‘lkavoyi bor ekan. So‘lkovoyini olibdi.* (Oyjamol. “Uch ko‘knori”, 91-b.); – *Otaxon, bog‘dan bir misqol ham oltin topganim yo‘q, – debdi yigit.* (Oyjamol. “Ota vasiyati”, 106-b.)

8. Uy-ro‘zg‘or buyumlari, qurollar nomini ifodalovchi tarixiy so‘zlar. *Ot juvoz haydovchi, tuya yuk tashuvchi, it uy poylovchi, sigir sut beruvchi, qo‘y go‘sht-yog‘, ho‘kiz qo‘sh haydovchi ekan.* (Uch og‘ayni botirlar. “Mushuk, it va sichqon”, 178-b.); *Kampir sandal ustiga dasturxon yozib, ularga choy beribdi.* (Uch og‘ayni botirlar. “Mushuk, it va sichqon”, 178-b.); *Uyda birgina kampirim bor, u boyaqish charx yigirib ip qilib beradi...* (Uch og‘ayni botirlar. “Podachining qizi”, 23-b.); *...Charxini, dugini, bulg‘ovichini ayvonga chiqarib qo‘yib bir qozon atala qilibdi.* (Oyjamol. “Savdogar bilan podachi”, 53-b.); *Bola bozorda aylanib yurib bir nosvoy choqcha (qovoq, idish) sotadigan kishining oldiga borib...* (Oltin beshik. “Gul uzuk”, 150-b.)

9. Etnografik-maishiy va moddiy madaniyatga oid tarixiy so‘zlar. *Chanqagandirsizlar? – deb choralarda* (katta yog‘och tog‘ora) *qimiz quyib berib turibdi.* (Oltin beshik. “Ziyod botir”, 61-b.); *Endi siz bundoq qiling: kechqurun yaxshilab ziyofat tashkil qiling, bozordan bitta echki terisini sotib olib, uni sanoch qildirib, uni ichingizdan osib oling.* (Oyjamol. “Uch avliyo”, 8-b.); *Keyin sarbozlar boshlig‘i yigitni ushlab urib-urib, kundaga solib zindonga tashlabdi.* (Oltin beshik. “Ahmadjon bilan Luqmonjon”, 23-b.); *Ukasi ragisakka muhtalo bo‘lgan ekan...* (Oltin beshik. “Ahmadjon bilan Luqmonjon”, 22-b.)

Ushbu guruhlarda tahlilga tortilgan mavzuiy guruhlarda jami 77 ta eskirgan so‘zlar bo‘lib, quyidagicha statistikasi ifodalaydi:



6-rasm. Ertaklarida tarixiy soʻzlarning maʼnoviy guruhlari oʻrtasidagi nisbati

Ertak matnlaridagi istorizmlar turgʻun iboralar, birikmalardan iborat holda ham uchraydi: *Ey podshohi olam, sultoni bokaram, men ham arzimni aytay, eshiting, – deb yolvoribdi.* (Oyjamol. “Tuhmat”, 65-b.); *Podsho xizmatkorlari xotinni qopga solib, bir yuz sakson gazlik minoraning tepasidan: “Hukmi podsho vojib”, deb tashlab yuborishibdi.* (Oyjamol. “Tuhmat”, 66-b.); *Qush tushgan joyga borsalar, bir ulugʻ daryo labida xonlar saroyiga oʻxshash bir imorati oliy bor emish.* (Oyjamol. “Boʻz bola”, 27-b.); *Toʻxtang, taqsir, bu sahroyi yigit, arkoni davlatni koʻrmagan, shoshib tili tutilib qoldi.* (Oyjamol. “Til tigʻdan oʻtkir”, 108-b.); *Men shunchalik oʻgʻrilik qilaman-u hamma vaqt bir qoshiq yovgʻonga zorman.* (Oyjamol. “Navroʻz qaroqchi”, 70-b.); *“Bu yurishimdan foyda yoʻq. Bola-chaqam boʻlmasa, menga dunyoning nima keragi bor” deb, pirga qoʻl beribdi.* (Oyjamol. “Navoiy bilan mardikor”, 111-b.)

M.Yoʻldoshev toʻgʻri taʻkidlaganidek, “istorizm oʻzi ifodalayotgan hodisaning yagona nomidir”¹⁶⁰. Ertaklar tilidagi soʻzlarni guruhlash natijalari shuni koʻrsatadiki, qoʻllanilgan tarixiy soʻzlarning aksariyat ot soʻz turkumiga mansub boʻlib, ular oʻtmishdagi ijtimoiy-maishiy hayot, moddiy madaniyat, boshqaruv tizimi xos tushunchalarni yagona nomi sifatida ifodalagan. Koʻrib chiqilgan tarixiy soʻzlarning muhim qismi bugungi kunda adabiy tilda deyarli qoʻllanilmaydi. Chunki ularning nominativ birlik sifatida ifodalagan referentlari zamonaviy hayotdan chiqqan. Qayd etish lozimki, ayrim tarixiy soʻzlar adabiy tildan chiqib ketgan boʻlsa-da, ularning qoʻllanishi ayrim oʻzbek shevalari doirasida saqlanib qolgan. Bu holat tarixiy leksikaning leksik-semantik arxivi sifatida oʻrganilishi zarurligini koʻrsatadi.

Eskirgan soʻzlarning kattagina qismini arxaizmlar tashkil etadi. Tadqiqot davomida anglashildiki, xalq ertaklari tilida arxaizmlar istorizmlar kabi faol emas. Ammo butkul yoʻq deb boʻlmaydi. Taʻkidlash joizki, “Arxaizmlar badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhini taʻminlash maqsadida qoʻllaniladi”¹⁶¹. Ushbu mezon ertaklardagi arxaizmlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi va ularning matn yaxlitligi hamda tarixiy kontekstni yaratishdagi oʻrnini belgilaydi.

A.Hojiyev arxaizmlarni quyidagi guruhlari faol ekanligini taʻkidlaydi: “1) leksik arxaizmlar; 2) grammatik arxaizmlar; 3) frazeologik arxaizmlar”¹⁶². Xalq ertaklari tilida mavjud eskirgan soʻzlarning asosini leksik arxaizmlar tashkil etadi. Xususan, leksik-fonetik arxaizmlar: *Podshoh bir suruk tuyalarga javohirotlarni yuklab, oldiga qari kishilardan bittasini mindirdi.* (Boʻri bilan mergan. “Rustamzod va Sherzod”, 45-b.); *Devonaxon, bizning oldimizga har kuni ertalab salom vaqtida bir kelasiz-u shul gapni gapirib berasiz va xazinachidan bitta oltin olib ketasiz, – debdi.* (Oltin beshik. “Koʻkka tupursa, betga tushadi”, 126-b.); *Ahmadjon oʻziga ishonqiramay “Tushimmi bu, yo oʻngimmi? – deb, ul qizdan: – Rost ayt, sen kim boʻlding? – deb soʻrabdi.* (Oltin beshik. “Ahmadlar”, 138-b.) *Qarasa, yonib turgan toshdan qilingan uyning yonida bir kampir oʻltirgan emish.* (Oltin beshik. “Oypari”, 172-b.) kabi misollarda bir tovushning ortish hodisasi zamonaviy oʻzbek tilshunosligi talablari oldida eskirgan.

¹⁶⁰ Ўўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик тахлили асослари. – Тошкент, 2007. – Б. 73.

¹⁶¹ Ўўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик тахлили асослари. – Тошкент, 2007. – Б. 72.

¹⁶² Qarang: Хожиев А. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 149.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘zbek xalq ertaklarida leksik arxaizmlarni tashil etadi: *Bolani yaxshi yuvib-taramay, ozoda qilib qo‘ymay, bir chekkada, eski ko‘rpada yotqizib, uning qorni ochib non desa, urishib-ziriqtirib, (tumtaraqay qilib quvlamoq) bir tomonga uloqtirib xo‘rlabdi.* (Oyjamol. “Bo‘z bola”, 22-b.); *Har kuni chol cho‘lga o‘tinga chiqish vaqtida ikkita chavati (lochira) qilib berar ekan.* (Oyjamol. “O‘tinchi chol bilan tulki”, 128-b.); *Mana bu yigitning kiyimlarini darrov yechintirib, oyog‘iga choriq va egniga jomakor (karjoma) kiyimlardan kiyintiringlar.* (Oltin beshik. Gul Sanobarga nima qildi, Sanobar gulga nima qildi?” 181-b.); *Mayli bo‘lmasa, xo‘bchi (xirmonchi) kim bo‘ladi? – debdi.* (Bo‘ri bilan mergan. “Kiyik bilan kadi”, 27-b.); *Sen romchi eding, bir rom qarab qo‘ygin, ular qayda ekan?* (Bo‘ri bilan mergan. “Bo‘ri bilan mergan”, 8-b.)

Tahlilga tortilgan misollardan arxaik so‘zlarning aksariyati ot turkumiga doir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ertaklar tilida ertak manzarasini yoritish uchun sifat, olmosh, ravish va fe’l turkumiga oid ba’zi tarixiy so‘zlardan ham foydalanilgan. Jumladan: *Ko‘nglim o‘rtansin agar g‘ayriga (o‘zga, begona) parvo aylasa, Har ko‘ngil ham kim sening shavqingni paydo aylasa.* (Oyjamol. “Shoir sevgisi”, 106-b.); *Bu bobo o‘g‘rilardan olib kelgan murg‘imusammo (murg‘ fors tilida “qush”, musammo arabcha “osmoniy”, “samoviy”, ya’ni osmondan kelgan, ilohiy qush ma’nosini ifodalaydi) edi.* (Bo‘ri bilan mergan. “Rustamzod va Sherzod”, 45-b)

“Arxaizmlar badiiy asar tiliga kiritilar ekan, ijodkor, avvalo, uning ma’nosini, so‘ngra undagi ekspressiv-stilistik bo‘yoqning qay darajada ekanligiga alohida e’tibor berishi shart. Faqat shundagina arxaizmlar o‘zlarining haqiqiy estetik funksiyasini bajara oladi”¹⁶³. Ushbu ekspressiv-stilistik potensialni aktualizatsiya qilishda grammatik arxaizmlar ertak matnlarining strukturasi muhim rol o‘ynaydi. *Toza saqlang mirza yor. Mirza yordur o‘zingiz.* (Oyjamol. “Uch ko‘knori”, 96-b.); *Olib qochar dashtga tomog‘in bo‘g‘ib, Bu shaqollar meni xarob ayladi.* (Oyjamol. “Kampir bilan shaqol”, 145-b.); *Hajr dog‘i firoqi xasta ko‘nglim kuydirur, Charx ortiq zulmi birlan gul niholim so‘ldirur. Hasratim shulkim, senga aytsam fig‘onim boisi, Men o‘larman, charxi mehring endi kimni kuydirur.* (Oyjamol. “Shoir sevgisi”, 96-b.)

X.Abdurahmonov va N.Mahmudov ta’kidlaganidek, “Arxaizmlarning hozirgi tilda, albatta, sinonimi bo‘ladi. Ana shuning

¹⁶³ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 22.

uchun ham mavjud arxaizm ham ishtirok etgan sinonimlar qatoridan badiiy nutqqa yoki arxaik soʻz, yoki hozirgi tilga oid soʻz muayyan stilistik maqsad bilan tanlab olinadi. Shuning uchun ham arxaizmlar badiiy asar tilida alohida estetik vazifani bajaradi”¹⁶⁴. Mavjud sinonimik qatordan aynan arxaizمنىng yoki uning zamonaviy variantining kiritilishi muayyan stilistik maqsad bilan belgilanadi va shu asosda arxaizmlar badiiy diskursda alohida estetik funksiyani yuzaga chiqaradi. Darhaqiqat, ertak matnlari tili ushbu nazariyani tasdiqlovchi boy material hisoblanadi.

Arxaizmlar zamonaviy sinonimlar berolmaydigan qoʻshimcha emotsional-ekspressiv boʻyoq olib kiradi. Bu esa xarakterlar, vaziyatlar yoki harakatlarni tasvirlashda ularga oʻziga xoslik baxsh etadi, matnning turgʻun, anʻanaviy qismlarini jonlantiradi. Jumladan: *Sen bilan uchrashganda hasratimni aytsam gap yetmaydi, yozsam daryo quriydi, (juda uzoq, uzun (“gap”) degan edim.* (Uch ogʻayni botirlar. “Quyosh yerining pahlavoni”, 299-b.); *Besh-olti yil ichida Rustamning hamma yoqqa dongʻi ketibdi. U bilan bel ushlashadigan (kuch sinashmoq) odam boʻlmabdi.* (Uch ogʻayni botirlar. “Quyosh yerining pahlavoni”, 114-b.); *Oʻgʻlim, shuncha xotin olib berdim. “Birini oʻpoq, birini soʻpoq”, (yoʻq yerdan ayb topib, kamsitishga harakat qilmoq) deb haydab yubording.* (Oyjamol. “Uch avliyo”, 7-b.); *Kimyogarning oʻgʻli yana burnini torta-torta (xijolat boʻlib, boshini egib, oʻzini noqulay his qilib harakatlanmoq) uyiga kelibdi-da. onasiga...* (Oltin beshik. “Kimyogarning oʻgʻli”, 160-b.); *Ikkisi olishibdi, tutishibdi, bu kurashni uzoqdan har toli zulfi olam xirojiga teng (benihoya goʻzal) qiz – pari koʻrib, ola toyli bolaga madad tilab turibdi. yetti kecha-kunduz kurashib, oxiri bola devni oʻldiribdi.* (Oltin beshik. “Ola toyli bola”, 224-b.) *Qoʻqon xoni kelganda, qasd qilganda bizdan bitta eshak oladi-da. Bizning roʻzgʻorimizda, hoʻkiz shoxiga ilib chiqquday narsa boʻlmasa, (kambagʻal) toʻshab oʻtiradigan narsamiz yoʻq, turishimiz shu.* (Oyjamol. “Toʻlgʻonoy”, 22-b.); *Ey, qattigʻidan tutding-ku, (chorasiz qoldirmoq) – debdi, – boʻlmasa, mening ikki oyogʻimni mahkam ushla. Men uchib bulutlarning ustiga olib chiqaman.* (Oltin beshik. “Guliqahqah”, 19-b.) kabi misollardagi arxaik frazeologizmlar ertak matnining lingvopoetik imkoniyatini oshiradi. Ular asar tilini stilistik boyitish orqali matnning estetik zavq berish funksiyasini faollashtiradi, shu bilan birga matnga qadimiylik koloritini singdiradi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ertaklar tilidagi arxaik frazeologizmlar

¹⁶⁴ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 17.

shunchaki eskirgan iboralar emas, balki ertakning tarixiy, estetik va emotsional qimmatini oshiruvchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

“Arxaizmlardan foydalanish milliy tillarning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bu narsa milliy tilning o‘z ichki manbalari hisobiga rivojlanishini ta‘minlash bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Eskirgan so‘zlardan foydalanish tilimizga ikki tomonlama foyda keltiradi: birinchidan, turkiy so‘zlar hisobiga (agar arxaizm kelib chiqishi jihatidan sof turkiy bo‘lsa) tilimizning o‘ziga xosligi, milliyligi saqlanadi, ikkinchidan, hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan eski o‘zbek tilini bir-biriga yaqinlashtiradi, ular o‘rtasidagi tafovutni kamaytiradi”¹⁶⁵.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, xalq ertaklarida qo‘llanilgan eskirgan so‘zlar ertakning vaqt va makonini mifologik-tarixiy darajaga ko‘taradi. Eskirgan so‘zlar ertaklarning shakllanish davriga oid til tizimi bilan zamonaviy til o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, eskirgan so‘zlar, ayniqsa, tarixiy so‘zlar ertak voqealari tasvirlangan tarixiy davrning maishiy, ijtimoiy va madaniy muhitini, ya‘ni zamon va makon kontekstual avtentikligini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Bu so‘zlar o‘tmishdagi realiyalarning yagona nominativ nomlari bo‘lib, ertakning etnografik qadriyatini oshiradi. Arxaizmlar esa ertak tiliga o‘ziga xos tarixiy ruh, uslubiy ko‘tarinkilik bag‘ishlaydi. Ular ertak nutqining an‘anaviy, monumental xarakterini saqlashga xizmat qiladi. Eskirgan leksika qahramonlarning ijtimoiy mavqeyi va xarakterini aniqlashda muhim stilistik yuklama oladi. Shuningdek, eskirgan so‘zlar ertakni tinglovchi (o‘quvchi)ga lingvistik va madaniy xotiraga murojaat qilish orqali o‘ziga xos badiiy zavq ulashadi. Ular matnning emotsional-ekspressiv ta‘sirini kuchaytiradi va milliy tilning tarixiy uzviyligini ta‘minlovchi ko‘prik vazifasini bajaradi. Umuman olganda, o‘zbek xalq ertaklaridagi eskirgan so‘zlar nutqiy xato yoki tasodifiy hodisa emas. Ular ertaklarning davriyligini aks ettirish bilan birga, milliy tilning leksik zaxirasini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

¹⁶⁵ Курбонова М. Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунослиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 49 б.

BADIIY TASVIR VOSITALARI LINGVOPOETIKASI VA INTERTEKSTUALLIK

Xalq ertaklarida o‘xshatish vositalarining lingvopoetik vazifalari va badiiy-estetik imkoniyatlari

Ertaklarning mavzuiy ko‘lamiga asoslanib, til birliklarida ham estetik zavq beruvchi til birliklari ko‘plab uchraydi. Mana shunday birliklardan biri o‘xshatishlar hisoblanadi. N.Mahmudov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Insonning dunyo bilishida o‘xshatish, qiyoslash benihoya katta o‘rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullardan biri sifatida inson faoliyatining barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda o‘z aksini topadi”¹⁶⁶. Darhaqiqat, insoniyat tafakkurining yuksak mahsuli bo‘lgan o‘xshatishlar muayyan xalqning tarixiy-madaniy merosi, ma’naviy dunyoqarashi va estetik qarashlarini o‘zida mujassam etgan badiiy-obrazli vosita sifatida adabiyotshunoslik va lingvistik tahlil nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi hind eposlari poetikasining muayyan jihatlarini tadqiq etgan S.L.Nevelova o‘xshatishlarning tabiati haqida fikr yuritar ekan, qadimgi hind poetika-grammatik traktatlarida, xususan, Paninidan boshlab o‘xshatishning to‘rt unsurlik tarkibi mavjudligini alohida ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, ushbu tuzilma quyidagi komponentlardan iborat: “o‘xshatilayotgan narsa (subyekt); unga o‘xshatilayotgan narsa (obyekt); o‘xshatishga asos bo‘lgan umumiy belgi yoki xususiyat; o‘xshatishning mavjudligini bildiruvchi formal ko‘rsatkich”¹⁶⁷. O‘xshatishlarning ushbu unsurlari ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan aynan to‘rt unsurdan iborat ekanligi ta’kidlangan, ammo turli terminlar bilan atalgan holda tadqiqot obyekti sifatida qaralgan. Jumladan, M.Mirtojiyev va N.Mahmudov: “Har qanday o‘xshatish munosabati tilda aks etar ekan, u, albatta to‘rt unurni nazarda tutadi, ya’ni: 1) o‘xshatish subyekti, 2) o‘xshatish etaloni, 3) o‘xshatish asosi va 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi”¹⁶⁸, deb qayd etganlar. G.Jumanazarova ham F.Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlaridagi o‘xshatishlarni tadqiq qilar ekan, ushbu

¹⁶⁶ Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Дисс...док-ра филол. наук. – Тошкент, 1984. – С. 259.

¹⁶⁷ Qarang: Невелева С.Л. Вопросы поэтики древнеиндийского эпоса. Эпитет и сравнение. – Москва: Издательство “Наука”, 1979. – С. 38.

¹⁶⁸ Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 93.

unsurlarni o‘rinli deb topadi va quyidagicha tasnif etadi: 1) o‘xshatish subyekti (asosi); 2) o‘xshatish etaloni (timsoli); 3) o‘xshatish asosi (belgisi); 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi (vositasi)¹⁶⁹.

O‘zbek xalq ertaklari matnlarida o‘xshatishlar lisoniy ifoda vositasi sifatida keng qo‘llanilib, obraz yaratish, tasvirni kuchaytirish va estetik ta’sirni oshirishda muhim funksiyani bajaradi. Ushbu o‘xshatishlarning tahlilini samarali va izchil olib borish uchun ularning tarkibiy qismlarini aniqlashtirish, ifodada ixchamlik hamda tushunarlikka erishish zarur bo‘ladi.

O‘zbek xalq ertaklarida qo‘llanilgan o‘xshatishlar poetik ifoda vositasi bo‘lib, ular matndagi obrazlarni estetik va emotsional jihatdan kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, o‘xshatishning subyekti, ya’ni o‘xshatilayotgan narsa obrazli ifodaning markaziy semantik yadrosi hisoblanadi. U o‘xshatish hodisasi doirasida asosiy diqqat markazida turadi va boshqa bir predmet, voqea, holat yoki harakatga o‘xshatilib, uning xususiyatlari orqali yoritiladi. Subyekt bo‘lmasa, o‘xshatishning shakllanishi mumkin emas, chunki aynan subyekt o‘xshatishga sabab bo‘luvchi boshlang‘ich semantik birlikdir.

O‘xshatilayotgan narsa (subyekt). Ertak matnlarida o‘xshatish subyektlari, ko‘pincha, ot yoki otlashgan birliklar, otli yoki fe‘lli so‘z birikmalari shaklida ifodalanadi. Bu morfologik birliklar predmetlik kategoriyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, matndagi real yoki tasavvuriy shaxs va holatlarning badiiy timsollarini yaratishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, “*Jamoli oydek, qoshlari yoydek, yuzlari kundek, sochlari tundek qiz ekan* (Oltin beshik. “Qiron botir”, 28-b.) kabi ertak matnida bir nechta o‘xshatish hodisalari mavjud bo‘lib, ulardagi subyektlar: “*jamol*”, “*qosh*”, “*yuz*”, “*soch*” obrazli ta’riflanayotgan predmetlardir. Ular har biri o‘ziga xos estetik timsollar: *oy, yoy, quyosh (kun), tun* kabi obyektlar bilan qiyoslangan. Quyidagi jadval orqali bu misoldagi subyektlarni aniqlashtirish mumkin:

¹⁶⁹ Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – Б. 187.

“Jamoli oydek, qoshlari yoydek, yuzlari kundek, sochlari tundeK qiz ekan” misolidagi o‘xshatmalarning strukturaviy-semantik tahlili

O‘xshatish ifodasi	Subyekt (o‘xshatilayotgan narsa)	Obyekt (o‘xshatilayotgan timsol)	O‘xshatish asosi (belgi)	O‘xshatish vositasi
Jamoli oydek	<i>Jamol</i>	Oy	Yuzning chiroyliligi	-dek
Qoshlari yoydek	<i>Qoshlar</i>	Yoy	Qoshning ingichkaligi, egikligi	-dek
Yuzlari kundek	<i>Yuzlar</i>	Kun (quyosh)	Yorqinlik, nurli bo‘lishi	-dek
Sochlari tundeK	<i>Sochlar</i>	Tun	Qorong‘ilik, qop-qoralik	-dek

Xalq ertaklari matnida ketma-ket o‘xshatishlardan foydalanish obrazli ifoda kuchini oshirish, voqea-hodisalarni dinamik tasvirlash va tinglovchining e‘tiborini badiiy tafakkur orqali tortish vazifasini bajaradi. Bunday o‘xshatishlar odatda voqeaning shiddatini, personajning harakati yoki holatidagi kuchli emotsional va dinamik tusni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “*Tog‘ kelganda tovusdek, qor kelganda qarchig‘ aydek, daryo kelganda dovuldek uchib boraveribdi*” (Oltin beshik. Kenja botir, 46-b.) misolida bir nechta ketma-ket o‘xshatishlar uchraydi. Parchada o‘xshatish etaloni aniq bo‘lsa-da, o‘xshatish subyektini noma‘lum. Bu yerda bitta subyekt, ya‘ni noma‘lum personaj (*ertakdagi qahramon*) turli xil tabiiy muhit sharoitida harakatga kelayotgan holatini ifodalovchi obyektlarga tenglashtirilgan. Ularning har biri voqeaning turli holatida turlicha estetik timsollar bilan qiyoslangan bo‘lib, bu tasvirda ko‘rinayotgan obrazning harakat sur‘ati va kuchi tasvirlanadi. Ertak kontekstida subyekt avvalgi gap tarkibi (*Ot Kenjani ustiga mindirib, ko‘kka parvoz qilibdi*)dan anglashiladi. Bu esa matnni to‘liq tahlil qilish lozimligi va bu orqali o‘xshatish subyektini aniqlash imkonini beradi va quyidagicha izohlash imkonini beradi:

O‘xshatish subyektining noma’lum holda ifodalanishi

O‘xshatish ifodasi	Subyekt	Obyekt	O‘xshatish asosi	O‘xshatish vositasi
Tog‘ kelganda tovusdek	Qahramon (noma’lum)	Tovus	Salobat, joziba, go‘zallik bilan yurish	-dek
Qor kelganda qarchig‘aydek	Qahramon (noma’lum)	Qarchig‘ay	Chapparaklik, epchillik, chaqqonlik	-dek
Daryo kelganda dovuldek	Qahramon (noma’lum)	Dovul (bo‘ron)	Kuchli, to‘satdan harakat qilish	-dek

Ushbu o‘xshatmalarda ***bir xil subyekt*** turli shart-sharoitda (*tog‘, qor, daryo kabi muhitlarda*) har xil obrazli timsollar (*tovus, qarchig‘ay, dovul*) bilan qiyoslangan. Ta’kidlab o‘tish lozimki, o‘xshatish subyektidan anglashilayotgan leksik ma’no, predmet, harakat-holat mazmuniga ega bo‘lib, xalq ertaklarida qo‘llanilayotgan voqeliklardan mavjud bo‘lgan epik qahramonning muayyan faoliyatini yoki biror narsa va hodisani ifodalashga xizmat qiladi.

Chol darrov shu chuqurning ichiga tushib, o‘tinini chuqurning og‘ziga qozon qopqog‘idek yopib, bekinib yotaveribdi. (Bo‘ri bilan mergan. “Bo‘ri bilan mergan”, 7-b.); *Ko‘zlari shokosaday, shafaq bosgan, bo‘yni qing‘ir tolday yerga egilgan, cho‘qqisi qirday irg‘ib chiqqan, gapirishga ham madori qolmabdi.* (Bo‘ri bilan mergan. “Botir echki”, 17-b.); *Ko‘zini ochib qarasa, tangadek oftob tushib turganmish.* (Oltin beshik. “Bulbuligo‘yo”, 31-b.); *Podshoning o‘zi kelib qarasa, minoradek bo‘yli bir odam.* (Oltin beshik. “Ahmadlar”, 145-b.); *Sherzod qirq kecha-yu qirq kunduz uxlab, bir kun uyg‘onib qarasa, qorinlari tanobdek tortilib...* (Bo‘ri bilan mergan. “Rustamzod va Sherzod”, 49-b.); *Podsho qarasa, jamoli osmondagi to‘lgan oydek, o‘n sakkiz yoshlardagi chiroyli bir qiz emish.* (Oltin beshik. “Bektemir botir”, 90-b.) kabi misollarda o‘xshatish subyektining leksik-semantik mazmuni turli xil ekanligi va ertaklardagi o‘xshatish subyektini leksik-semantik guruhini

shartli ravishda quyidagi semantik maydonlar asosida tasniflash ma'lum samara berishi ayonlashdi:

a) ertak qahramonining portretiga aloqador tana a'zolari (*yuz, qosh, ko'z, bosh, kalla, tish, soch, qo'l, og'iz, bo'yin*);

b) ertak personajlarining tashqi ko'rinishi va ma'lum belgi ifodasi (*bo'y, gavda, xol*);

d) epik tasvirga jalb etilgan zoonim va fitonimlar (*mushuk, paxta, lavlagi, qovun, daraxt*);

e) epik tasvirga jalb etilgan turli narsa va buyumlar (*salla, qorin, tandir, qulf, kovush, qozon*);

f) personajlarning holati va xulq-atvorini ifodalovchi o'xshatish asosi (*ter, ko'z yoshi, jamoli, uchmoq, qo'rquv, chaqqonlik, yalqovlik, go'zallik ifodasi*).

O'xshatish timsoli (etaloni). O'xshatish timsoli yoki etaloni o'xshatilayotgan subyektни tasvirlashda xizmat qiluvchi, unga xos belgi va xususiyatlarni ramziy tarzda mujassamlashtirgan obrazning leksik ifodasidir¹⁷⁰. O'xshatishning ushbu komponentini "etalon" deb atashimiz bejiz emas. Chunki u o'xshatilayotgan subyektga xos bo'lgan muayyan belgini estetik jihatdan kuchaytiradi, unga badiiy ifoda baxsh etadi va shu orqali matnda obrazlilikni ta'minlaydi. Ertaklarda o'xshatish etaloni voqea-hodisani jonli, rang-barang va ifodali ko'rinishda tasvirlash, badiiy tafakkur mahsuli sifatida obrazli-estetik qiyofani yaratish uchun xizmat qiladi. *Shu kuni qattiq sovuq bo'lib, ho'kiz yotgan yerida shamday qotib qolibdi.* (Bo'ri bilan mergan. "Botir echki", 19-b.); *Har bir qo'li kattakon daraxt gavidasiday ekan.* (Oltin beshik. "Pahlavon Rustam", 11-b.); *Ko'zini ochib qarasa, tangadek o'ftob tushib turganmish.* (Oltin beshik. "Bulbuligo'yo", 31-b.); *Podsho xafa bo'lib, otxonaning eshigiga kalladek qulf soldiribdi.* (Oltin beshik. "Bulbuligo'yo", 38-b.) kabi misollardagi "shamday qotib", "daraxt gavidasiday", "tangadek o'ftob", "kalladay qulf", "g'ordek og'iz" kabi o'xshatishlardan anglashiladiki, xalq ertaklaridagi o'xshatish timsollarining aksariyati ot turkumiga doir leksemalarda o'z ifodasini topadi. Bu esa sezgi va tasavvur orqali subyektga nisbatan belgi-xususiyatni aniqroq va ta'sirchanroq ifodalash imkonini beradi.

Xalq ertaklari matnlarida shunday o'xshatish etalonlari mavjudki, ular orqali tinglovchi (yoki o'quvchi) ertakdagi voqea-hodisalarni nafaqat

¹⁷⁰ Bu haqida qarang: Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – Б. 188.

anglaydi, balki estetik zavq ham oladi. Bunday o‘xshatishlar xalq tafakkurining ramziy-majoziy ifodasidir. Ertaklarda uchraydigan o‘xshatishlar ko‘p hollarda umumxalq poetik tafakkurining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Bunday o‘xshatishlar xalqning estetik didi, poetik qarashi va ramziy tafakkuri asosida shakllanadi hamda ertak matnlariga badiiylik, obrazlilik, hissiy ta’sirchanlik kiritadi. Masalan: *Maydonda ikki tarafda ikki dengizdek lashkar saf tortib turibdi.* (Oltin beshik. Momir bilan Somir”, 80-b.) matnidagi “*dengizday lashkar*” ifodasi *poyonsiz, behudud, tugamaydigan* ma’nosini ifodalab, lashkarning ko‘pligini badiiy ifodalab kelmoqda.

F.Usmanov o‘xshatishlarda aks etuvchi lingvomadaniy kodlarni maishiy turmush realiyalari, fauna, flora, tabiat hodisalari va unsurlari, inson, diniy, mifologik va folklor personajlari hamda boshqa etalonlarga ajratgan holda tahlil qiladi¹⁷¹. Tadqiqot tahlili uchun jalb etilgan ertaklar matnlarida qo‘llanilgan o‘xshatish etalonlarining leksik-semantik mazmuni va obyektlari o‘zining boyligi, ko‘p qatlamliligi hamda semantik darajadagi rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bunday o‘xshatishlar orqali ertak matnining obrazlilik darajasi oshadi, badiiy-estetik ifoda vositalari kuchayadi va xalq tafakkurining umumlashtirilgan timsollari aks etadi. Shu nuqtayi nazardan xalq ertaklari matnlarida aksariyat o‘xshatish etalonlari quyidagi guruhlarni tashkil etadi:

a) somatizmlar bilan bog‘liq o‘xshatish etalonlari (*kaftdek, mushtday, kalladay* kabi);

b) hayvon va jonivorlar (*sherdek, itdek, tovusdek, qarchig‘aydek, mushukday, mushuk boladay, filning soniday, quyunday, pashshaday* kabi);

d) fitonimlar (*moshdek, makkajo‘xoriday, no‘xatday, daraxtday, chinorday, yong‘oqdek, tolday, naqsh olmaday, piyoz po‘stlog‘iday, somonday* kabi);

e) narsa va qurollar (*o‘qdek, qilichday, yoydek, shokosaday, shamday, tanobdek, qozonday, arg‘amchiday, ko‘zaday, shishaday, chinniday* kabi);

f) osmon jismlari va tabiat unsurlari (*oyday, yulduzdek, quyoshday, kunday, tunday, chaqmoqday, tog‘day, dovuldek, dengizdek, quyundek, g‘ordek* kabi);

¹⁷¹ Bu haqida qarang: Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 18.

g) qimmatbaho buyumlar va kimyoviy elementlar (*oltin kabi, po'latday, kumushdek, tangadek, simobday* kabi);

h) holatni ifodalovchi etalonlar (*muzdek, ko'mirdek, bezgak tutgan kishiday, zambardagi loyday* kabi).

Misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, ertaklarda qo'llanilgan o'xshatish etalonlari, asosan, *ot turkumiga* mansub bo'lib, ular orasida *fitonimlar, osmon jismlari* hamda *tabiiy muhit* komponentlari bilan bog'liq o'xshatishlar asosiy o'rinni egallaydi. Buning sababi, o'zbek xalqining tarixiy-iqtisodiy hayot tarzida dehqonchilikning muhim o'rin egallaganligi va xalq ongining tabiat bilan uzviy aloqada shakllanganligidadir.

O'xshatish asosi (belgi yoki umumiy xususiyat). O'xshatish asosi o'xshatishning semantik negizi, ya'ni o'xshatish belgisi hisoblanib, mazkur badiiy vositaning struktur tarkibida muhim komponentlardan biri hisoblanadi. U bir-biriga qiyoslanayotgan predmet, hodisa yoki tushuncha o'rtasidagi umumiylik belgilarining leksik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu komponent o'xshatishning subyekt va etalon (obyekt) qismlari orasidagi o'xshashlik munosabatini ta'minlovchi semantik vositadir. Shu bois ertak matnida o'xshatish asoslari, ko'pincha, ikki semantik obyektga xos bo'lgan umumiy holat, harakat, tashqi ko'rinish yoki emotsional-psixologik xususiyatlarni ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Ertaklarda mavjud o'xshatish asoslari xilma-xil kontekstual vaziyatlar, harakatlar va holatlarda qo'llanilgan turli predmetlarga tayanadi. Ularni mazmuniy-sintaktik vazifasiga ko'ra shartli ravishda quyidagi tematik-semantik guruhlarga ajratish mumkin:

1. Kinetik (harakat yoki harakat dinamikasini ifodalovchi) asosli o'xshatishlar. *Kiyik ham otgan toshday zirillab, uchar qushday pirillab ketaveribdi.* (Uch og'ayni botirlar. "Ziyod botir", 205-b.); *Sher g'or ichida o'qdek uchibdi.* (Uch og'ayni botirlar. "Quyosh yerning pahlavoni", 134-b.); ... *Butun asboblari bilan ot suratdek qotib turardi.* (Uch og'ayni botirlar. "Besh qiz", 98-b.); *Kenja yoniga qaramoqchi bo'lgan ekan, arslon mushukday sakrabdi.* (Oltin beshik. "Kenja botir", 52-b.); *Har ishga qadam qo'ysang, sherdek hayqirib qadam qo'y.* (Oltin beshik. "Bulbuligo'yo", 36-b.); *Ot to'ppa-to'g'ri haligi o'roqchilar tomonga quyundek uchib ketaveribdi.* (Oyjamol. "Xo'jamurod", 86-b.); *Bir vaqt orqalariga qarasalar, yalmog'iz kampir og'izlaridan o't sochib quyunday uchib kelyapti.* (Oltin beshik. "Jamila", 246-b.) *Tog' kelganda*

tovusdek, qor kelganda qarchig'aydek, daryo kelganda dovuldek uchib boraveribdi (Oltin beshik. Kenja botir, 46-b.) kabi misollarda harakat yoki harakat dinamikasi ot turkumidagi turli leksemalar orqali ifodalangan bo'lib, unday o'xshatishlar lingvopoetik tizimda obrazlilik, ekspressivlik va drammatizmni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "*quyunday uchib*" birikmasida o'xshatish asosini tashkil etuvchi kinetik komponent bevosita *tezlik* emas, balki *epchillik, chaqqonlik* va *hushyorlik* singari semantik xususiyatlarni aks ettiradi. Bu holatda o'xshatishning asosiy vazifasi harakatning intensivligini emas, balki harakat xarakterini, ya'ni *epchillikni* tavsiflashga qaratilgan. Ushbu o'xshatma matn kontekstida yalmog'iz obraziga nisbat berilgan. Yalmog'iz, odatda, "*kampir*" leksemasi bilan birga qo'llanilib, *yoshi katta, bukri, harakati sust* bo'lgan mifonim sifatida tavsiflanadi. Shu sababli agar bu obraz harakatining tezligi ifodalanmoqchi bo'lsa, "*burgutdek*", "*lochindek*", "*qarchig'aydek*" kabi yuqori tezlikni anglatadigan etalonlar qo'llanilgan bo'lar edi. Ammo "quyunday" leksemasining tanlanishi lingvopoetik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, tezlikdan ko'ra hushyorlik va epchillikka urg'u berilganligini anglatadi. Mana shunday ma'no nozikligini quyidagi misolda ham ko'rish mumkin: *Kenja yoniga qaramoqchi bo'lgan ekan, arslon mushukday sakrabdi* (Oltin beshik. "Kenja botir", 52-b.) Matnda yuzaga kelgan o'xshatish dastlab kitobxon uchun kutilmagan bo'lib tuyulishi mumkin. Chunki arslon, ko'pincha, *kuch, shiddat* bilan bog'liq o'rinlarda tasvirlanadi, mushuk esa *yengil* va *chaqqon harakatli* hayvon sifatida qaraladi. Biroq bu o'xshatishda arslonning kuchini emas, balki *birdan keskin harakat qilishi* ko'zda tutgan. Mushukka xos bo'lgan sezgirlik, epchillik va sakrashdagi elastiklik kabi xususiyatlar bu yerda o'xshatish asosi sifatida xizmat qilgan. Kitobxon bunday sakrashni ko'z oldiga keltirar ekan, u tasvirlangan voqeaning ichki dinamikasini, ya'ni bexosdan harakat qilinishi va xavfning yaqinlashuvini yanada yaqqol his etadi.

2. Vizuallik (rang, shakl tashqi ko'rinish va hajm)ga asoslangan o'xshatishlar. Bunday asosli o'xshatishlar o'zbek xalq ertaklarida qo'llaniladigan o'xshatishlarning muhim turlaridan biridir. Vizual o'xshatishlar perseptiv darajada qabul qilinadigan tasvirlarni yaratishda, voqelikni obrazli ko'rinishda aks ettirishda va badiiy ekspressivlikni kuchaytirishda muhim lingvopoetik vazifa bajaradi.



7-rasm. Vizuallikka asoslangan o'xshatishlarning semantik maydonlari

Rang belgisi. “Jamoli oydek, qoshlari yoydek, yuzlari kundek, sochlari **tundek qiz** ekan (Oltin beshik. “Qiron botir”, 28-b.); Xotining rangi **somonday sarg‘ayibdi, husni so‘libdi...** (Oyjamol. “Uch avliyo”, 13-b.); Qafasdagilarning hammasi yarim yalang‘och, murg‘ak badanlari **ko‘mir singari qorayib ketgan emish.** (Uch og‘ayni botirlar. “Quyosh yerning pahlavoni”, 137-b.)

Shakl belgisi. Ko‘zlari **shokosaday, shafaq bosgan, bo‘yni qing‘ir tolday yerga egilgan, cho‘qqisi qirday irg‘ib chiqqan, gapirishga ham madori qolmabdi.** (Bo‘ri bilan mergan. “Botir echki”, 17-b.); Imom sallasini **qozonday qilib, “Kim kelar ekan?” deb kavshanib o‘ltirgan ekan.** (Oltin beshik. “Oypari”, 165-b.);

Tashqi ko‘rinishga asoslangan. ... Uch akasi **qilichday bo‘lib, uning yonida turishgan emish.** (Oltin beshik. “Ermana mergan”, 233-b.); ... Cho‘qqisi **qirday irg‘ib chiqqan, gapirishga ham madori qolmabdi.** (Bo‘ri bilan mergan. “Botir echki”, 17-b.); ...Changalzordan odam tugul pashsha ham o‘tmaganmish, botqoqlikdagi balchiqlar bo‘lsa, **lo‘la bolishday, lo‘la bolishday pufaklar chiqarib vaqirlab qaynab yotganmish.** (Oltin beshik. “Oypari”, 170-b.); ...Parining qovog‘i soliq, ko‘zida **chaqmoqday yosh, xafa bo‘lib o‘tirgan emish.** (Oltin beshik. “Ermana mergan”, 220-b.); Tandirda bir gap borga o‘xshaydi, – deb uni ochib qarasa, bir qiz o‘tirgan emishki, **go‘yo hur paridek.** (Uch og‘ayni botirlar. “Podachining qizi”, 25-b.); Chol uyiga kirib qarasa bir yosh, chiroyli qiz uyni **chinnidek qilib supurib, axlatini olayotgan emish.** (Oltin beshik. “Bunyod polvon”, 132-b.)

Hajm va o‘lcham belgisi. Ko‘zlari **shokosaday, shafaq bosgan, bo‘yni qing‘ir tolday yerga egilgan, cho‘qqisi qirday irg‘ib chiqqan, gapirishga ham madori qolmabdi.** (Bo‘ri bilan mergan. “Botir echki”, 17-

b.); *Lavlagining har bittasi ko‘zaday-ko‘zaday bo‘lib yetilibdi.* (Oyjamol. “Dehqon”, 42-b.); *Jimjilog‘i tegsa tariqday maydalanib, sochilib ketasan, – deyishibdi.* (Uch o‘gayni botirlar. “Non qudrati”, 288-b.); *Bir yoqda po‘latdan qilingan eshik, unda xuddi filning soniday qulf solingan, biroq kaliti yonida turibdi.* (Oltin beshik. “Jamila”, 241-b.); *Hech bir bo‘yra cho‘pi siqqudek ochiq joy qolmasin, shunday mahkamlab bekiting.* (Oltin beshik. “Ilon og‘a”, 216-b.); *Podsho qutichani ochib qarasa, uning ichidan tilla taroq bilan yong‘oqdek soch chiqibdi. U sochni qulochlab ko‘rishsa qirq quloch chiqibdi.* (Oltin beshik. “Ermana mergan”, 230-b.); ... *Yalmog‘iz kampirning arg‘amchiday uzun sochlari bilan qo‘l-oyog‘ini sekin-asta bog‘lay beribdi.* (Oyjamol. “Jamila”, 246-b.); *“Yetdim deganda paranji, hassa, kovushga qaraysan, piyozning po‘stlog‘iday qolsa agar, shu – yetganing”, degan edi.* (Oltin beshik. “Ilon og‘a”, 217-b.); *Qurt sal vaqt o‘tmay bir yumalab, bo‘yinturuqday ilonga aylanibdi.* (Oltin beshik. “Gul uzuk”, 150-b.); *Kampir qarasa, shahzodalardek bir yigit.* (Oltin beshik. “Bektemir botir”, 95-b.)

Vizuallikka asoslangan o‘xshatishlar ertak matnlarida kam miqdorda maza-ta‘m, kamyoblik, munosiblik kabilar ham ifodalab, tasviriylikni kuchaytiruvchi, obrazni ko‘z oldida jonlantiruvchi, poetik ekspressiyani oshiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

3. Emotsional va psixologik asosli o‘xshatishlar. O‘xshatishlar obrazli ifoda vositasi bo‘lib, ular orqali bir predmet yoki hodisa boshqa bir predmet yoki hodisaning xarakterli belgilari bilan qiyoslanadi. Emotsional va psixologik asosli o‘xshatishlar insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati, kayfiyati va hissiyotlariga tayanadi hamda *qo‘rquv, hayajon, sog‘inch, g‘azab va g‘urur* kabilarni ifodalashda muhim estetik vazifa bajaradi. Masalan: *“gilvataga o‘xshaydi, “boldek erib”, “shaytonlagan odamday”, “chaqmoqday yosh”, “qo‘shoqlagandek qo‘shoq qilib, “simobday erib”, “bezgak tutgan kishiday”* kabi misollarda bunday holatlarni ko‘rish mumkin. Bu turdagi o‘xshatishlar, asosan, subyektiv qabul mahsuli bo‘lib, ertak obrazlarining psixologik holatini yoki ertak matnining estetik-emotsional munosabatini ifodalashda xizmat qiladi.

4. Holat va sezgi asosli o‘xshatish. *Sovuq toqqa tushgan maxluq muzday qotib qolganiga qaramasdan, urinib-turtinib bolaning oldiga kelib...* (Uch og‘ayni botirlar. “Non qudrati”, 287-b.); *Unda qirq temir qoziqqa qirq kokil boylangan, katta xumdagi muz singari sovuq suvga ikki oyog‘i tizzasiga qadar tiqilgan...* (Uch og‘ayni botirlar. “Quyosh

yerning pahlavoni”, 124-b.); *Ikki aka-uka qattiq quchoqlashib ko‘rishganlaridan qovurg‘alari chaqmoq chaqqandek qars-qurs qilib ovoz chiqaribdi.* (Oltin beshik. “Momir bilan Somir”, 80-b.); *Qiz uyg‘onsa, ko‘zi chiroqdek ochilibdi, hamma yoqni dur bosib ketibdi.* (Uch og‘ayni botirlar. “Podachining qizi”, 26-b.) Bu turdagi o‘xshatishlar inson sezgilarining hissiy ta‘sirini kuchaytirish orqali ertak matniga jonlilik baxsh etadi.

5. Ekspressiv va baholovchi o‘xshatishlar. Bunday o‘xshatishlar muayyan qiymat, kuch, sifat yoki baho bildirish uchun qo‘llanadi. Masalan: *Boshi o‘tovdek, og‘zi eshikdek ekan.* (Oltin beshik. “Zar kokilli yigit”, 114-b.); *Uning uchta o‘g‘li bor ekan, uchovi ham o‘qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari oyday, o‘zlari tog‘day, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekanlar.* (Uch og‘ayni botirlar. “Uch og‘ayni botirlar”, 152-b.); *E, Qosimboy, berahmlik bilan nohaq tuhmat qilgan ekansan-da, bu minoradan tashlagan odamlar parcha-parcha bo‘lib, zambardagi loyday yoyilib ketar edi.* (Oyjamol. “Tuhmat”, 66-b.); *Boshqa o‘g‘illariga qaraganda Bektemir shersavlat, bahodir taxlit yigit bo‘lib o‘sibdi.* (Oltin beshik. “Bektemir botir”, 90-b.); *Ayiqlar qo‘y podasidek oldinga intilganda Somir yana bir zarb bilan ularni orqaga qaytaribdi.* (Oltin beshik. “Momir bilan Somir”, 77-b.); *O‘zining kuchini ko‘rgan Somir, o‘z-o‘zicha: “Nega devlar minorday gavdalari bilan mendan kuchli emaslar?” deb o‘ylabdi.* (Oltin beshik. “Momir bilan Somir”, 77-b.); *G‘orday og‘izlariga, Men o‘zimni urdim.* (Oltin beshik. “Mayna”, 56-b.); *Shahzoda borib qutini qo‘liga olsa, o‘n to‘rt kechalik oydek barq urib, malika yotganmish.* (Oltin beshik. “Bulbuligo‘yo”, 35-b.) kabi ertak matnlarida ekspressiv va baholovchi o‘xshatishlar personajning tashqi ko‘rinishi, ichki sifati, kuch-qudrati, ijtimoiy yoki axloqiy maqomini belgilashda keng qo‘llanadi. Bunday o‘xshatishlar orqali muayyan *baho, kuch, qiymat, salobat, go‘zallik, yovuzlik* yoki *buyuklik* darajalari obrazli tarzda ifodalanadi.

Ekspressiv va baholovchi o‘xshatishlar o‘zbek xalq ertaklarida tasviriy-estetik vosita sifatida nafaqat badiiy ifodaning kuchayishiga, balki xalqning axloqiy-etik me‘yorlari, ideallashtirilgan obrazlar tizimini yaratishda ham faol xizmat qiladi. Ular orqali xalqning qahramonlik, go‘zallik, kuch, adolat haqidagi qarashlari tasvirlanadi va estetik mezonlar shakllanadi.

“O‘xshatish etalonlarida o‘xshatish subyektiga bo‘lgan konnotativ, ya‘ni subyektiv-emotsional, ekspressiv munosabatlar ham darajalangan

holda ifodalanishi mumkin”¹⁷². Darhaqiqat, ayrim emotsional-psixologik o‘xshatishlar kinetik (asosan, shakliy) o‘xshatishlarga yaqin turadi, ammo kontekstdagi emotiv xususiyatlari bilan ushbu guruhga mansubligi anglashiladi. Masalan: *Qul achchig‘lanib bolani ko‘tarmoqchi bo‘libdi, lekin uni ko‘tarolmay ikki marta silkibdi, ko‘ldan makkajo‘xoriday ter chiqib ketibdi.* (Oltin beshik. “Ermana mergan”, 227-b.) matnida “makkajo‘xoriday ter” shakliy o‘xshashlikka asos bo‘lsa-da, aslida emotsional-psixologik asosli o‘xshatish hisoblanadi, chunki u insonning ichki kechinmasi va jismoniy-emotsional holatining obrazli ifodasidir. Kontekstda hissiyot va holat ifodasi yetakchilik qilib, obrazning achchig‘langan, ya’ni hissiy holatda ekanligi, harakat (silkishi) muvaffaqiyatsizlik bilan tugagani, bu esa uni yanada g‘azabga solgani natijasida ter (makkajo‘xoriday) chiqqanligini ayonlashadi.

O‘xshatishni ifodalovchi vosita (shakliy ko‘rsatkich). “O‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi o‘xshatish qurilmasidagi o‘xshatish munosabatini shakllantiruvchi leksik, grammatik, stilistik, semantik elementlar yig‘indisidan tashkil topuvchi unsur sanaladi”¹⁷³. M.Mukarramov o‘xshatish ifodalovchi vositalarga affikslar, yordamchi so‘zlar, leksik vositalar, morfologik-leksik vositalarni tavsiya etadi va shu tarzda tasnif qiladi. M.Mukarramov va G.Jumanazarovalar tavsiya etgan o‘xshatish ko‘rsatkichlarining o‘zbek xalq ertaklarida uch turi, ya’ni affiksial (-day, -dek) yordamchi so‘zlar (*kabi, singari, xuddi, taxlit, bamisoli*) hamda morfologik-leksik vositalar (-ga o‘xshaydi) turlari ko‘p ekanligiga guvoh bo‘ldik. Bularning ichidan eng sermahsuli affiksial ko‘rsatkich (asosan, -day, -dek), yordamchi so‘zlar orqali ifodalangan o‘xshatishlar bo‘lib, morfologik-leksik kamunum ekanligi kuzatildi. Masalan: *Onasiga qarasa odamga o‘xshaydi, otasiga qarasa, qop-qora yungli, hech odamga o‘xshamaydi.* (Oyjamol. “Handalak polvon”, 123-b.); *Hasan, Hasan emas, qizga o‘xshaydi, ko‘zi qizlarning ko‘zidek, o‘zi erkak emas, asli qizdir, – debdi.* (Oyjamol. “Tuhmatga uchragan kelin”, 49-b.); “*O‘sha bolalar o‘lmay, katta bo‘lgan ekan-da, o‘zi ham xuddi otasiga o‘xshaydi*”, deb ko‘ngliga tugib qo‘yibdi. (Oyjamol. “Hasan va Zuhra”, 58-b.) Misollardan anglashiladiki, ushbu shakliy ko‘rsatkich,

¹⁷² Махмудов Н.М., Худойберганова Д.С. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли лугати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 13.

¹⁷³ Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – Б. 197.

asosan, ijtimoiy-maishiy ertaklarda uchrab, insonning insonga o‘xshashini ifodalash uchun qo‘llangan.

Morfologik ko‘rsatkichli o‘xshatishlar turli narsa-predmetni, hayvonlarni, tabiat hodisalarini va ularning belgisini, xususiyatlarini, shuningdek, ma‘lum harakat-holatini ifodalash uchun qo‘llangan.

Ertak matnlarida yordamchi so‘zli ko‘rsatkichlar obyekt va subyekt o‘rtasidagi o‘xshashlikning juda yaqinligini ifodalashi ayonlashadi. Bu esa tinglovchini etalonni aniq tasavvur qilish imkonini beradi. Masalan: *Kuchuklar xuddi odamdek yig‘lar emish.* (Uch og‘ayni botirlar. “besh qiz”, 83-b.); *Sigirning tuyoqlari bir g‘alati kavush bo‘libdiki, xuddi qoshiqqa o‘xsharmish...* (Uch og‘ayni botirlar. “Podachining qizi”, 23-b.); *To‘rda bir katta xona bo‘lib, toshdan yasalgan supa kabi taxta o‘rnatilgan emish.* (Uch og‘ayni botirlar. “Halol mehnat”, 34-b.); *Tohirning onasi kabi qon-qon yig‘lasin.* (Oyjamol. “Tohir va Zuhra”, 36-b.); ... *Tog‘ning ichidan mash‘al singari yorug‘ chiqib, tog‘ning damonasiga urib turgan emish.* (Oyjamol. “Kambag‘al qurandoz”, 78-b.); *Murg‘ak badanlari ko‘mir singari qorayib ketgan emish.* (Uch og‘ayni botirlar. “Quyosh yerning pahlavoni”, 34-b.); *Boshqa o‘g‘illariga qaraganda Bektemir shersavlat, bahodir taxlit yigit bo‘lib o‘sibdi.* (Oltin beshik. “Bektemir botir”, 90-b.); *Bir zamon boyagi ko‘ringan nur, bamisoli oftobdek yarqirab, hamma joyni yoritib, machitga yaqin kelib qolibdi.* (Oyjamol. Uch ko‘knori”, 95-b.); *Kuyov kelinning jamolini ko‘rib, bamisoli simobday erib...* (Oyjamol. Uch ko‘knori”, 95-b.) kabi misollarda o‘xshatishlar o‘ziga xos badiiy xususiyatlari, semantik ko‘lamning kengligi, tasviriylikning boyligi, emotsional ta‘sirchanlik hamda obrazlilik kabi lingvopoetik funksiyalarni ifodalashi bilan ajralib turadi.

Xalq ertaklarida o‘xshatishlar nafaqat tasviriy vosita, balki personaj ruhiyati va voqea dramatzimini ifodalovchi lingvopoetik omil sifatida xizmat qiladi. Ayrim hollarda o‘xshatishlar orqali semantik ziddiyat yaratilib, oksyumoronlik effekti hosil qilinadi. Bunday holat ertak tilining badiiy qatlamini boyitadi va obrazlar tizimiga ichki dramatzim bag‘ishlaydi. Mazkur holat “Uch og‘ayni botirlar” ertagidagi quyidagi parchada yaqqol namoyon bo‘ladi: *Chol betoqatlanib atrofga qarabdi va uni chaqiribdi. Bu chaqiriq xuddi na‘ra kabi o‘tinchlar qulog‘iga borib yetibdi. O‘tinchilar oldinma-ketin chopib kelib, chol atrofiga yig‘ilibdilar.* (Uch og‘ayni botirlar. “Quyosh yerining pahlavoni”, 123-b.) Ushbu parchadagi “*xuddi na‘ra kabi o‘tinch*” o‘xshatmasi ertaklarga xos

bo'lgan badiiy-estetik ifoda vositasi sifatida alohida e'tiborga loyiq. O'xshatmadagi "na'ra" va "o'tinch" so'zlari o'zaro semantik qarama-qarshilikda turgan birliklardir. "Na'ra" tovush jihatdan keskin, zo'r berilgan, tajovuzkor yoki vahimali ohangni anglatadi, "o'tinch" yalinish, yuvoshlik, muloyim va yumshoq ohang bilan bog'liq. Shu bois bu ikki birlikni "kabi" o'xshatish vositasi orqali bog'lash ularning ziddiyatli semantik maydonini badiiy drammatizmga aylantiradi. Bu oksyumoronlikning tipik namunasidir. Chunki ushbu leksemalar orqali *keskinlik* bilan *yalinish*, *zo'ravonlik* bilan *yumshoqlik*, *shovqin* bilan *sokinlik* bir obrazda jamlanadi. Matndagi "chaqiribdi" oddiy so'z emas, u yurakdan chiqqan, ichki og'riq bilan to'lib-toshgan, shunchaki gap emas, balki yurakning nidosi sifatida talqin etiladi.

Tilshunoslikda o'xshatishlarning bir necha xil tasniflari mavjud: poetik tabiatiga ko'ra, qo'llanishiga ko'ra, tuzilishga ko'ra, sezgi va tasavvurlar orqali yuzaga kelishiga ko'ra, tuzilishga ko'ra esa sodda, murakkablashgan va murakkab o'xshatishlarga bo'lib o'rganiladi¹⁷⁴. M.Mukarramov o'xshatish turlari haqida so'z yuritganda, ularning sezgilar va tasavvurlar orqali yuzaga kelishiga ko'ra, *konkret* va *abstrakt*, qo'llanishi jihatidan *an'anaviy (traditsion)* va *individual*¹⁷⁵ o'xshatishlarga ajratadi. M.Yo'ldoshev o'xshatishlarning tarkibidagi o'xshatish etaloni (timsol)ning original yoki original emasligiga ko'ra, *an'anaviy* va *xususiy-muallif* o'xshatishlari¹⁷⁶ kabi guruhlar asosida tahlil qilish samarali ekanligini ta'kidlaydi. N.Mahmudov: "O'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi, ya'ni: 1) *individual-muallif* o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) *umumxalq yoki turg'un (doimiy)* o'xshatishlar farqlanadi"¹⁷⁷, – deya qayd etadi.

A.Abdullayev o'xshatishlarni o'ziga xos lingvistik vositalar yordamida va ular ishtirokisiz ham hosil qilinishini ta'kidlab, *vositali o'xshatish (ya'ni lisoniy vositalar yordamida)* hamda *vositasiz o'xshatish (ya'ni o'xshatish vositalari ishtirokisiz)*¹⁷⁸ kabi ikki guruhga ajratadi.

¹⁷⁴ Qarang: Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоник хусусиятлари: Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 257 б.

¹⁷⁵ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 25-27.

¹⁷⁶ Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 57-58.

¹⁷⁷ Махмудов Н.М., Худойберганова Д.С. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли лугати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 5.

¹⁷⁸ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 31.

G.Jumanazarova F.Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlari tilida mavjud o‘xshatishlarning kelib chiqishiga ko‘ra turini: 1) *an’anaviy*, 2) *xususiy-muallif (favqulodda)* o‘xshatishlar¹⁷⁹ga ajratib o‘rganishni ma’qul topadi. Ta’kidlash joizki, tahliliga jalb etilgan ertaklar tilidagi o‘xshatishlarni kelib chiqishi jihatini yuqorida qayd etilgan guruhlariga ajratish mushkul. Chunki ertaklar ma’lum bir ijodkorning tafakkur mahsuli bo‘lmay, xalq tafakkurining umumlashma tasviridir. Mana shunday jihatlarni inobatga olgan holda o‘zbek xalq ertaklari tilidagi o‘xshatishlarni kelib chiqish nuqtayi nazardan 1) *an’anaviy*; 2) *situativ* o‘xshatishlar guruhi asosida tahlil qilishni maqsad qildik.

An’anaviy o‘xshatishlar. Bunday o‘xshatishlar yozma yoki xalq og‘zaki ijodida barqarorlashgan, takrorlanuvchi, ma’lum xalq tafakkuriga mansub poetik birliklardir. Ular, ko‘pincha, tashqi belgi, holat, sifat asosida shakllanadi va umumxalq estetik me’yorlarini aks ettiradi. An’anaviy o‘xshatishlar xalq ertaklari tilida ham ko‘p uchraydi. Bu holat, ayniqsa, shaxs (ko‘proq qizlar)ning tashqi go‘zalligini, poetik qahramonning imkoniyatlari va xarakter-xususiyatini ifodalashda keng foydalaniladi. *Jamoli oydek, qoshlari yoydek, yuzlari kundek, sochlari tundek; sherdek hayqirib, somonday sarg‘ayibdi, o‘n to‘rt kechalik oydek, to‘lgan oydek* kabi matnlarda an’anaviy o‘xshatishlar xalq estetik tafakkurida barqarorlik kasb etgan poetik stereotiplar sifatida namoyon bo‘ladi.

Situativ o‘xshatishlar. Situativ o‘xshatishlar muallif pozitsiyasini, poetik tafakkurning spontan (rejalashtirilmagan, tabiiy) namoyonini ifodalovchi, kontekstga xos bo‘lgan obrazli ifodalardir. Ular, ko‘pincha, morfologik-leksik shaklda ifodalanadi. Situativ o‘xshatishlar kontekst asosida paydo bo‘lgan, badiiy matnning muayyan holatida, muallif (bunda asosiy e’tibor ertakni hikoya qiluvchi, ertakchi mahorati, hududiy xoslik kabilar nazarda tutiladi) yoki xalqning poetik tasavvuriga ko‘ra yaratilgan original, nostandart va bevosita emotsional-funksional yuklamaga ega o‘xshatmalardir. Ular aniq bir holat, ruhiy kechinma, kontekstdagi g‘aroyiblik, yumor, dramatism yoki hayratlanarli vaziyatni ifodalashga xizmat qiladi va ko‘pincha, an’anaviy poetik qoliplar doirasidan chiqib ketadi. Masalan: *Sigirning tuyoqlari xuddi qoshiqqa o‘xsharmish*. (Uch og‘ayni botirlar. “Podachining qizi”, 23-b.) misolida o‘xshatish hayvonning tana qismiga (tuyoq) va kundalik maishiy

¹⁷⁹ Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – Б. 191.

predmetga (qoshiq) asoslangan. Ularning o‘zaro bog‘liqligi shakliy yaqinlikka tayanadi. Bu g‘ayrioddiy o‘xshatish, ya’ni konkretlikdan poetiklikka o‘tish, xalq tasavvuridagi vizual obrazlilikning ijodiy namunasidir. Quyidagi misolda esa o‘xshatish va ironiyaning tasvir obyektiga aylanishi o‘ziga xos badiiylik keltirib chiqaradi. *Bir yoqda po‘latdan qilingan eshik, unda xuddi **filning soniday qulf** solingan, **biroq kaliti yonida turibdi**.* (Oltin beshik. “Jamila”, 241-b.) Ertak matnidagi “*filning soniday*” o‘xshatmasida filning soni bilan *eshikdagi qulf* taqqoslanmoqda. Bunday o‘xshatish xalq og‘zaki ijodida keng tarqalmagan va aytish mumkinki, konkret sahna, predmet va holatga mos holda yaratilgan. “Filning soni” kattalik, og‘irlik timsoli. Odatda odam soni bilan emas, aynan filning soni bilan taqqoslash orqali qulfning hajman haddan tashqari katta, g‘ayritabiiy darajada salobatli ekani tasvirlanadi. Bu usul yordamida matnda vizual giperbola, ya’ni tasvirni hajman kattalashtirib berish orqali tahayyur uyg‘otuvchi obraz yaratiladi. Matnning keyingi qismida “*biroq kaliti yonida turibdi*” deyiladi. Bu yerda fil soniday ulkan qulf bo‘lishi, lekin kalitning bemalol mavjudligi orqali ironik ziddiyat hosil qilinadi.

Soch obrazi xalq poetik tafakkurida, mumtoz adabiyotda, shuningdek, zamonaviy adabiy namunalarda eng ko‘p murojaat qilinadigan estetik subyektlardan biri hisoblanadi. U turli xil obrazlar, timsollar va o‘xshatishlar orqali poetik ifoda topadi. Sochning go‘zallik, nafislik, sirli joziba belgisi sifatida talqin qilinishi bu obrazning poetik imkoniyatini namoyon etadi. O‘zbek xalq ertaklari tilida ham sochga oid shunday o‘xshatishlar mavjudki, bunday o‘xshatishlar badiiy-situativlikni keltirib chiqaradi. Jumladan: *Podsho qutichani ochib qarasa, uning ichidan tilla taroq bilan **yong‘oqdek soch** chiqibdi. U sochni qulochlab ko‘rishsa, qirq quloch chiqibdi.* (Oltin beshik. “Ermana mergan”, 230-b.) misolida uchrayotgan “*yong‘oqdek soch*” semantik konstruksiyasi g‘ayrioddiy bo‘lib, situativ xarakterga ega. Ya’ni bu tasvir an’anaviy emas, balki muayyan hodisa va kontekstga mos holda xalq tafakkurining ijodiy mahsuli hisoblanadi. Qayd etish joizki, “Yong‘oq” ixchamlik, silliqlik, mustahkamlik va tabiiylik timsoli. Sochning “yong‘oqdek” deb ta’riflanishi esa sochning yig‘ilgan shakli, ya’ni dumaloq, ixcham, silliqligi bo‘lib o‘ralgan holatini ifodalaydi. Bu o‘xshatish orqali vizual konkretlik, ya’ni badiiy idrok qiluvchi uchun ko‘z oldida aniq tasvir paydo bo‘ladi. Shuningdek, matnda poetik paradok mavjud, ya’ni “*yong‘oqdek*” deb tasvirlangan soch keyinchalik “qirq quloch” deb

o'lganadi. Bu kutilmagan uzunlik va ixchamlik o'rtasidagi ziddiyatli munosabatni bildiradi.

Xalq ertaklarida situativ o'xshatishlar muhim poetik vosita sifatida keng qo'llanadi. Bunday o'xshatmalar matnda bevosita kontekstga xos, individual holatlar asosida shakllanib, obrazlarning vizual, emotsional va semantik kuchini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, "tangadek oftob", "minorday bo'y", "chaqmoqday yosh", "quyundek uchmoq", "moshdek xol", "arg'amchiday uzun", "ko'zaday-ko'zaday qovun", "oltindek bola" kabi ifodalar xalq poetik tafakkurida paydo bo'lgan kutilmagan badiiy tasvirlar bo'lib, ular orqali mazmuniy rang-baranglik, obrazli dinamika va estetik hayrat kuchaytiriladi. Bu kabi o'xshatmalarda, ko'pincha, kuchsiz birlik (*soch, xol, yosh, bola*) kuchli timsollar (*chaqmoq, oltin, minor, tanga*) bilan qiyoslanadi. Bu esa giperbola, oksyumoron kabi poetik mexanizmlar orqali obrazli tafakkurning faoliyatini ifodalaydi. Shu bois situativ o'xshatishlar xalq ertaklari poetikasida an'anaviylikdan tashqariga chiqqan lingvopoetik yangilik va stilistik erkinlik sifatida alohida o'ringa ega.

Situativ o'xshatishlar o'zbek xalq ertaklarining obraz yaratishdagi ijodiy qatlamini tashkil etadi. Ular kontekstga xos bo'lib, har bir epizodga individual estetik rang beradi. An'anaviy poetik qoliplar doirasidan chiqib, xalq tasavvurining hayrat, hazil, hayajon, iliqlik kabi ko'p qirrali emotsiyalarini ifodalaydi. Situativ o'xshatishlar orqali xalq tafakkurining ijodiy elastikligi, emotsional ifoda vositalariga boyligi va badiiy erkinligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq ertaklarida o'xshatishlar tasvirning emotsional-ta'sirchanligini kuchaytirish, obrazlar ifodasini jonlantirish va matnga badiiy-estetik mazmun yuklashda muhim vazifa bajaradi. An'anaviy va situativ o'xshatmalar orqali xalqning estetik tafakkuri, madaniy qarashlari va badiiy dunyoqarashi aks ettiriladi. Ertak tilidagi o'xshatishlar orqali real hodisalar mo'jizaviy timsollar orqali ifodalanib, voqelikning estetik talqini yaratiladi. Shu bilan birga, o'xshatishlar xalq og'zaki ijodining poetik imkoniyatlarini keng namoyon etadi.

O'zbek xalq ertaklarida giperbolaning obraz yaratishdagi o'rni

Xalq og'zaki ijodi xalqning tarixiy, madaniy va ruhiy tajribasining badiiy, estetik nuqtayi nazardan ifodalangan shaklidir. Og'zaki ijodi o'zining ifodaviy xususiyatlari bilan xalqning falsafiy, etik va estetik

qadriyatlarini, shuningdek, uning o'ziga xos dunyo tasavvurini namoyon qiladi. Shuningdek, u inson va tabiat, jamiyat va ijtimoiy munosabatlar, axloqiy-etik me'yorlar haqida xalqning g'oyaviy va estetik tushunchalarini yanada chuqurroq va boyroq tasvirlaydi. Bunda badiiy-tasvir vositalari asosiy ekspressivlik vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu vositalar orasida giperbola xalq ijodida muhim stilistik figura sifatida ajralib turadi. U.Keyti XVI asr adabiyotshunosligida dramaning rivojlanishi haqida fikr bildirib, giperbola ushbu turda muhim vazifa bajarganligini quyidagicha izohlaydi: "Dramalarda giperbola ko'pincha kuchli hissiyot yoki ehtirosni ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi"¹⁸⁰. Badiiy ijod namunalarida, nafaqat dramada, balki xalq og'zaki ijodining doston, ertak kabi janrlarida ham bu holatni kuzatish mumkin. Bu holat, aksariyat hollarda, yor go'zalligi yoki asosiy obrazning qahramonliklarini ifodalashda qo'l keladi. Quyidagi ertak matnida ushbu holatning tasviri o'ziga xos badiiy-estetik vazifa bajargan: *Otning tuyog'i yerga dam tegarmish, dam tegasmish, shamoliga daryolar dam muzlarmish, dam muzidan tusharmish. Qushni quvib o'tibdi, shamolni shoshib o'tibdi, oxiri ko'z ochib yumguncha to'rt ko'chaning muyulishiga olib boribdi* (Oltin beshik. "Oypari", 169-b.) Rendolf Kirk rahbarligida yaratilgan ingliz tili grammatikasida ham giperbolaning hissiyotni ifodalovchi badiiy-tasvir vositasi ekanligiga urg'u berilib, quyidagicha qayd etiladi: "Hissiyotlarni ifoda etuvchi so'zlar va iboralarni batafsil o'rganish uchun taqqoslash, giperbola va ironiya kabi badiiy ifoda vositalarini tahlil qilish lozim"¹⁸¹.

Ertak bolalar janri bo'lganligi uchun har qanday giperbolani qo'llash orqali ularni ishontirish mumkin, degan g'oya noto'g'ri. Giperbolaning har qanday nutqdagi roli haqida L.Jeffri quyidagi fikrni bildiradi: "Giperbola tinglovchining ishonchsizligi tufayli o'z ta'sirini yo'qota boshlasa, unda qarama-qarshi yo'nalishga o'tish foydali taktika bo'lishi mumkin, ya'ni shunday ifodalarni ishlatish kerakki, ular haqiqatda aytilishi mumkin bo'lgan gaplardan anchayin pastroq ko'rinsin. Shunda ular mubolag'a deb qabul qilinmaydi va ishonchni tiklashga xizmat qiladi"¹⁸². Haqiqatdan ham, "mubolag'a va kichraytirish san'atini amalga

¹⁸⁰ Wales Katie. A Dictionary of Stylistics. New York: Longman Linguistics, 1983. – P. 202.

¹⁸¹ Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A comprehensive grammar of the english language. New York: Longman Group Limited, 1985. – P. 1415.

¹⁸² Geoffrey L. Principles of Pragmatics. New York: Longman, 1983. – P. 146.

oshirishda qiyoslash obyektlari o‘rtasida muvofiqlik bo‘lmog‘i lozim, aks holda mantiqsizlik yuz berishi mumkin”¹⁸³.

U.Keyti: “Giperbola haqiqatni buzib, ortiqcha (bo‘rttirib) gapirish orqali ishlaydi. Ammo giperbola yolg‘on emas, ya‘ni bu yerda tinglovchini aldash maqsad qilinmaydi, aksincha, tinglovchi bu bo‘rttirish ortida asl holatni tushunib oladi”¹⁸⁴ deya ta‘kidlaydi. Olimning ushbu qarashlari to‘g‘ri. Haqiqatdan ham, giperbolada aldashga urinish bo‘lmaydi, asosiy maqsad kuchli hissiyotni ifodalash, suhbatga jo‘shqinlik va qiziqarlilik qo‘shish uchun ishlatiladi. *Bir payt olamni qorong‘i zimiston bosib ketibdi. Yonar tog‘ning alangasi osmonga yetibdi, muz tog‘ning muzi erib olamni tutibdi.* (Uch og‘ayni botirlar. “Non qudrati”, 288-b.) Ushbu parcha giperbolaning ko‘plab misollarini o‘z ichiga oladi, bu esa matnning ekspressivlik darajasini oshiradi. Jumladan: *“Yonar tog‘ning alangasi osmonga yetibdi”* gapidagi *“alangasi osmonga yetishi”* olovning kattaligi va kuchini oshirib ko‘rsatish, voqea drammatizmini kuchaytirish uchun ishlatilgan. Keyingi gapdagi *“muz tog‘ning muzi erib olamni tutibdi”* esa semantik giperbola asosida gapning mazmuniy to‘liq bo‘lishi uchun xizmat qilgan. Bu paralellizm va giperbolaning kombinatsiyasi bo‘lib, o‘quvchi (tinglovchi)ni A.Floriya ta‘rifi bilan aytganda “sukunat figurasi”¹⁸⁵ dan qo‘rquv va hayajon uyg‘otuvchi tomonga olib o‘tadi.

Giperbola ham disfemizm, evfemizmlar kabi vaqt o‘tishi bilan o‘zining ilk semantik ta‘sirini yo‘qotadi, natijada uni yana yangisi bilan almashtirish ehtiyoji tug‘iladi. Buning asosiy sababi esa ushbu tasviriy vositalarining ommalashib, oddiylashib qolishidadir. Masalan, ertak matnlarida *“tug‘moq”* fe‘li *“dunyoga keltirmoq”*, *“ko‘zi yorimoq”* kabi fe‘llar bilan ifodalanmaydi. Bu holatda *“tug‘moq”* fe‘lining uzoq asrlardan beri qo‘llanib, ertak tinglovchisi (o‘quvchisi)ning aksariyati bolalar bo‘lganligi sababli evfemik ifodalarni anglamasligi mumkinligi o‘laroq, *“tug‘moq”* fe‘lining qo‘llanishi bilan bog‘lash mumkin. Bu esa ushbu tushunchaning oddiylashib (ommalashib) salbiylik xususiyatini yo‘qota borayotganligidan dalolat berdi. Ertak matnlarida *“o‘lmoq”*, *“qabriston”*, *“qabr”*, *“ko‘r”* kabi leksemalar haqida ham shunday deyishimiz mumkin. Tadqiqot doirasida ko‘rib chiqilgan giperbolik birliklarda ham ayrim holatlarda o‘ziga xos takrorlanish va ma‘lum

¹⁸³ Каримов С.А. Бадийий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994. – Б. 39.

¹⁸⁴ Wales Katie. A Dictionary of Stylistics. New York: Longman Linguistics, 1983. – P. 203.

¹⁸⁵ Флория А.В. Русская стилистика. – Орск: Издательство ОГТИ, 2011. – С. 405.

giperbolik tasvirlarning hayajonsiz, ya'ni minimal emotsional ta'sir bilan qabul qilinishi kuzatiladi. Bu holatlarning yuzaga kelishida ikki asosiy sabab mavjud.


1. Takroriylik va giperbola saturasi (to'yinganlik). Matnda bir xil yoki o'xshash giperbolik ifodalarning takrorlanishi ularning ta'sir kuchini susaytiradi. Aynan bir giperbola dastlabki qo'llanganda o'quvchi yoki tinglovchi ong orqali holatni tasavvur qilib ulguradi va bu kuchli badiiy effekt yaratdi. Takrorlanganda o'quvchida yoki tinglovchida saturatsiya (psixologiyada ba'zan bir xil ta'sir yoki ma'lumotning takrorlanishi natijasida sezgi yoki idrokning pasayishi) holati yuzaga keladi va badiiy tasvirlarning ta'sirchanligi kamayadi. *Ikki aka-uka qattiq quchoqlashib ko'rishganlaridan qovurg'alari chaqmoq chaqqandek qars-qurs qilib ovoz chiqaribdi* (Oltin beshik. "Momir bilan Somir". 80-b.) misolidagi *"qovurg'a chaqmoq chaqqandek qars-qurs qilishi"* insonning quchoqlashuvi kuchini haddan tashqari oshirib tasvirlaydi. Biroq bu ifoda adabiy tilimizda keng tarqalganligi sababli o'quvchi tomonidan giperbola o'rniga, an'anaviy ifoda sifatida qabul qilinadi.

2. Giperbolaning normativ badiiy qabul qilinishi. Ma'lum giperbolik ifodalar adabiy til va madaniyat doirasida keng tarqalganligi sababli, ularni o'quvchi yoki tinglovchi hayajonlarsiz, oddiy bir badiiy vosita sifatida qabul qiladi, ya'ni giperbolik tasvir xalq og'zaki va adabiy ijod namunalarida qayta-qayta qo'llanishi natijasida an'anaviy ko'rinish oladi. Bunday giperbolalar natijasida paydo bo'lgan bo'rttirilgan tasvirlar vaqt o'tishi bilan stilistik normaga aylanadi. *Somir bu odamlarning o'ziga qasd qilayotganini ko'rib, archa daraxtini ildiz-pildizi bilan ko'chirib olib, ularga otibdi...* (Oltin beshik. "Momir bilan Somir". 79-b.) misolida qahramonning kuchi va jasorati hayratlanarli darajada oshirib ko'rsatilgan. Giperbola badiiy bo'rttirish orqali qahramonning g'ayrioddiy kuchi tasvirlangan bo'lishiga qaramay, matnda hayajonsiz qabul qilinishi mumkin. Bunday giperbolik birliklar o'zbek xalq og'zaki ijodida qoliplashgan holda namoyon bo'ladi.

Giperbola yordamida obrazlar nafaqat jonli va yorqin tasvirlanadi, balki xalqning ijtimoiy-axloqiy ideallari, orzu-intilishlari va qadriyatleri ham aks ettiriladi. Giperbola stilistik figura bo'lib, ma'lum bir hodisa, predmet yoki shaxsning xususiyatlarini haddan tashqari kuchaytirib tasvirlash orqali emotsional-ekspressiv ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Bu vosita leksik-semantik darajada amalga oshadi va asosan, ko'rsatkich darajadagi orttirma sifatlardan, keskin o'xshatishlardan,

ko'plik son birliklaridan va magnituda ifodalaydigan sonlardan foydalaniladi. Masalan, "to'qqiz qo'yning go'shtini bir o'tirishda yeb", "sabzi yesa biqinidan ko'rinadi", "kattaligidan bulutlarning suvini shimib icharkan" kabi bo'rttirilgan tasvirlar ertaklarda personajning o'lchami, qudrati yoki haddan tashqari qobiliyatlarini ifodalashda qo'llaniladi va ular orqali muayyan badiiy g'oya, xalqona istehzo yoki ma'lum axloqiy-estetik baho beriladi. S.Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Mubolag'aning obyektini tasvir etish tarzi o'zbek tili badiiy uslubining xalq og'zaki ijodi janri ko'proq mos keladi"¹⁸⁶. Jumladan, ertaklardagi giperbolik tasvirlar, avvalo, qahramon obrazini ideallashtirishga xizmat qiladi. Bu yerda xalqning orzu qilgan qahramon timsoli *jasur, dono, kuchli, mehnatkash, adolatparvar* inson sifatida gavdalantiriladi. Masalan: *Kenja bola shu yerda otasi bergan qirq botmonlik o'q-yoyini bir aylantirib o'q uzib, qirq devni bir-biriga yopishtirib, yana yo'lini davom ettiraveribdi* (Oltin beshik. "Sunbul qush", 197-b.) misolida qahramonning bir urinishdayoq devlarni yengib chiqishi uning g'ayritabiiy kuch-qudratga ega bo'lganini anglatmaydi, balki bu orqali xalq orzu qilgan yetuk insonning ramziy ifodasi yaratiladi. Bu esa epik obrazning hosil bo'lishiga olib keladi. Xalq ertaklarida bunday qahramonlar talaygina, jumladan, *Rustamxon, Qiron botir, Muqbil toshotar, Ermana mergan, Qilichqora, Qironog'a, Ziyod botir* kabilarning tavsifida giperbolik tasvirlar orqali ularning nafaqat jismoniy va aqliy kuchi, balki xalqning orzusidagi adolatparvar yetakchi sifatidagi qarashlari mujassamlashadi. Shuningdek, aksiologik nuqtayi nazardan, giperbola yordamida ertaklarda ijtimoiy yovuzlik *dev, yalmog'iz, ajdarho* kabi salbiy obrazlar ham kuchaytirilgan shaklda tasvirlanadi. Bu kabi obrazlar orqali xalq nafrat qilgan illatlar: *zolimlik, yolg'on, hiyla, zo'ravonlik* ifodalanadi. (Bu haqida batafsil to'xtalamiz) Giperbola ertak matnida stilistik jihatdan bir necha vazifalarni bajaradi.

¹⁸⁶ Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд, 1994. – Б. 37.



8-rasm. Ertak matnida giperbolaning asosiy stilistik vazifalari

Giperbola faqat estetik vosita bo'lib qolmay, balki xalq dunyoqarashining timsollarini yaratishga xizmat qiladi. *Maxluq otidan yerga tushgan ekan, yer titrab ketibdi. Oyog'i tizzasigacha yerga botib ketibdi.* (Uch og'ayni botirlar. "Non qudrati", 287-b.) misolida aniq mifologik obraz ko'rsatilmagan bo'lsa-da, o'quvchi (tinglovchi)ning aksariyati ushbu obrazni **dev** sifatida qabul qiladi. Bu holat o'zbek xalq tafakkurida dev obrazining nihoyatda g'ayritabiiy kuch va miqyosga ega, yerni larzaga keltira oladigan qudratli mavjudot sifatida tasavvur qilinishi bilan bog'liqdir.

Giperbolik birliklar, ko'pincha, semantik ziddiyat asosida quriladi. Masalan, *kuchli-qo'rqinchli, katta-kichik, tez-sekin* kabi qarama-qarshi semantik juftliklar yordamida matnda kontrast kuchaytiriladi. Bu esa antiteza usulini yuzaga keltiradi va giperbola orqali badiiy tasvir yanada aniqroq bo'ladi. Bu esa giperbolaning diskursiv strategiya sifatida ham ishlashini, ya'ni u ertakdagi asosiy g'oya va axborotni ta'sirchan shaklda yetkazishga xizmat qilishini ham ko'rsatadi. Ertak matnlarini tahlil qilish davomida shu narsa aniqlashdiki, giperbolik birliklar quyidagi semantik ziddiyat asosida qurilgan: (Tahlillar davomida beriladigan giperbolik misollari bilan cheklanamiz)



9-rasm. O‘zbek xalq ertaklaridagi giperbolik birliklarning asosiy semantik ziddiyat turlari

Dastlab mubolag‘a faqat shaxslarga sifatlarini bo‘rttirish uchun xizmat qilgan, ayni zamonda tasvir obyekti bo‘lgan turli voqea-hodisa hamda boshqa mavjudotlarning xususiyatlarini xoh ijobiy, xoh salbiy tarzda oshirib ko‘rsatish uchun ham ishlatiladi¹⁸⁷. Bu holat xalq ertaklarida ham ko‘p uchraydi. *Rustam borib qarasa, sher kiradigan g‘orning og‘zida ho‘kizdan katta chayon turgan emish.* (Uch og‘ayni botirlar. “Quyosh yerning pahlavoni”, 131-b.) Parchada voqeaning dramatik keskinligi va tahlikalilik darajasini oshirish uchun giperbola vositasi qo‘llanilgan. Kontekstda “*Ho‘kizdan katta chayon*” aslida chayonning haqiqiy kattaligidan sezilarli darajada katta ekanligi ta’kidlanadi. Bu oshirib ko‘rsatish o‘quvchida jiddiy tahlikani va voqeaning xavfli tabiatini jonliroq his qilishiga yordam beradi. “*Ho‘kizdan katta chayon*” ifodasi tasvirga ekspressivlik va emotsional rang beradi. Bu orqali o‘quvchi voqeaga yanada chuqurroq kirib boradi.

Giperbola ertak matnlarida o‘quvchini voqeaga jalb qilish, uning diqqatini tortish va qahramonning oldidagi xavfni ta’kidlash uchun xizmat qiladi. Ilmiy nuqtayi nazardan, xalq ertaklaridagi giperbolalar mazmun va maqsadlariga ko‘ra turli toifalarga ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Jumladan, ularni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1. Shaxsga qaratilgan giperbola. Bu turdagi giperbolalar ertak qahramonining jasorati, kuchi, dono yoki mardligini bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan, qahramonning juda ulkan kuchga

¹⁸⁷ Рўзимбоев С., Рўзметов Х, Фольклор атамалари қисқача луғати. – Урганч, – 2007. – Б. 28.

ega ekanligi yoki mantiqdan tashqari darajada jasoratli bo'lishi ta'kidlanadi. Bu orqali qahramon ideallashtiriladi va uni o'quvchi yoki tinglovchi ongida yodda qolarli qiladi. *“Uning jamoli qop-qorong‘i tunni yoritib yuboribdi”* yoki *“Yetti qavat harir parda tutgan qizni ko‘rgach, ne-ne yigitlar behush yiqilarkan”* (Oltin beshik. “Kenja botir”. 50-b.) kabi. Birinchi matnda *“jamol”* (go‘zallik) *“qop-qorong‘i tunni yoritadi”* degan giperbolik ifoda orqali qahramonning go‘zalligi me’yordan ortiq, hatto yorug‘lik beruvchi darajada deb baholanib, semantik giperbolani vujudga keltirmoqda. Ushbu tasvir arxetipik motivlarga, ya’ni *yorituvchi, najot beruvchi* obrazlarga murojaat qiladi. Ikkinchi misolda giperbola *“yetti qavat harir parda”* orqali ayol obrazining *ilohiy go‘zalligi, nafosatini* zabt etuvchi kuch sifatida ifodalanadi. Yigitlarning *“behush yiqilishi”* esa ularning ichki holati: *hayrat, sevgining kuchi* va *zaiflik* darajasini kuchaytirib ko‘rsatadi. Ikki misol ham bir ayol obrazining tavsifi bo‘lib, obrazning odatdagi inson emas, balki afsonaviy, g‘ayritabiiy fazilatlariga ega bo‘lgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Bunday misollar ertak qahramonlarining ertak syujetida muhim o‘rin turishi bilan bog‘liq o‘rinlarda badiiy-estetik vazifa bajaradi. *Rustam cholni yelkasiga mindiribdi. Chol o‘zining gavdasiga qaraganda ming marta og‘ir ekan.* (Oltin beshik. “Pahlavon Rustam”, 9-b.); *Nihoyat kampir o‘g‘il tug‘ibdi. Bu bolaning og‘irligi bir botmon, bo‘yi ikki gaz emish.* (Oltin beshik. “Olmos botir”, 13-b.) kabi misollarda ham shaxs tasvirida giperbolaning o‘rni katta ekanligini ko‘rsatadi.

2. Narsa-predmet va tabiat hodisalariga oid giperbola. Ertaklarda turli buyumlar, ashyolar yoki tabiat hodisalarining o‘lchami, kuchi yoki sifati, ko‘pincha, giperbolik tarzda beriladi. Bunday tasvirlar ertak matniga badiiy-estetik ruh bag‘ishlash bilan birga, ertak syujetini rivojlantirishda, asosiy qahramonlarni sinovdan o‘tkazishda, kuch hamda imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda muhim badiiy vosita ham hisoblanadi. *Bu yerda bulutlar bilan o‘pishgan ikki tog‘ bo‘lib, ular kecha-kunduz bir-birlari bilan jang qilib yotganmish. Shovqin-suron va zilzilaning sababi ham shu ekan.* (Oltin beshik. “Kenja botir”. 50-b.) Parchada *“Bulutlar bilan o‘pishgan ikki tog‘”* ifodasi orqali tog‘larning nihoyatda ulug‘, baland ekani, hatto osmonga yaqin bo‘lib, bulutlarga tegib turgani giperbolik yo‘sinda tasvirlangan. Reallikda bu holat imkonsiz bo‘lsa-da, u tasviriy-estetik vosita sifatida xizmat qilgan. Bu giperbolik ifoda orqali tog‘lar shunchaki tabiiy obyekt emas, balki insoniy sifatga ega faol kuchlar sifatida tasvirlanadi. Bu antropomorfizatsiyaning

giperbola orqali badiiy ifodalanishidir. Tog'larning janglari "shovqin-suron" va "zilzila" kabi tabiiy hodisalarga sabab bo'lishi tasviri giperbolaning semantik yukini oshiradi. Bunda giperbola tabiatdagi real voqealar (zilzila, shovqin) uchun ertagona sabab sifatida xizmat qiladi.

Sehrlil ertaklarda qahramonlarga yordamchi narsa va predmetlar, aksariyat hollarda, giperbola vositasida badiiylashtiriladi. *Endi yetay-yetay deganda yigit qayroqni tashlab yuboribdi. Ko'z ochib yumguncha bulutdan baland sip-silliq bir tog' paydo bo'libdi.* (Oltin beshik. "Jamila", 246-b.) Tabiat hodisalarining bo'rttirilishi, aksariyat hollarda, ertak kompozitsiyasi bilan bog'liq holda tasvirlanadi. *Bir necha kun yo'l yurib, yo'lning yarmiga kelganda, yomg'ir yog'a boshlabdi. Yomg'irdan keyin qor yog'a boshlabdi, qordan keyin tosh yog'a boshlabdi.* (Uch og'ayni botirlar. "Qirq kuyov", 219-b.)

3. Zoonim va ornitonimlarga qaratilgan giperbola. Bu turdagi giperbolalar hayvon va qushlarning qobiliyatlari, kuchi, jasorati va boshqa sifatlarini me'yordan ortiq darajada kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. *Qushning tumshug'i yoqutdan, oyoqlari zabarjaddan, qanotlari durri marjondan ekan. U chunon sayrabdiki, zamini-zamon larzaga kelibdi.* (Oltin beshik. "Bulbuligo'yo". 32-b.); *Qamchi otning jon-jonidan o'tdi, bir kishnab, qanot bog'lab osmonga uchdi.* (Bo'ri bilan mergan. "Bektemir botir", 77-b.) Birinchi misolda qushning anatomik a'zolari qimmatbaho toshlarga taqqoslangan: *tumshug'i yoqut, oyoqlari zabarjad, qanotlari durri marjon.* Bu klassik giperbola bo'lib, hayvonning go'zalligi va noyobligini haddan tashqari oshirib ko'rsatadi. Qushning "sayrashi" esa zamon va makonni larzaga keltirishi bilan yanada dramatik tasvirlangan. Bunda giperbola uning ovozi kuchi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchi misoldagi "*qamchi otning jon-jonidan o'tdi*" degan ifoda otga qamchining juda kuchli va og'riqli zarbasi berilganini giperbolik uslubda ifodalaydi. Amalda qamchi hech qachon jon-jonidan o'ta olmaydi, ammo bu bo'rttirish orqali zarbaning zo'ri, hayvonning chidamliligi va kuchi ta'kidlanadi. "*Qanot bog'lab osmonga uchdi*" tasviri esa otning erkinligi va tezligini fantastik darajada oshiradi, unga inson parvoz qilish qobiliyatini yuklab, xayoliy kuchaytirish yo'li bilan giperbola tashkil qiladi. Aytish mumkinki, giperbolik ta'riflar orqali hayvonlar realistik chegaralardan chiqarilib, afsonaviy, sehrlil va kuchli qahramonlar sifatida tasvirlanadi.

4. Mifonimlarga qaratilgan giperbola. Bunday giperbolalar ertakdagi afsonaviy, sehrlil yoki mistik mavjudotlarning xususiyatlarini

oshirib ko'rsatadi. Masalan, ajdaho, jinlar, parilar kabi mavjudotlarning kuchi yoki ulug'vorligi bo'rttiriladi, bu esa ularning o'quvchilar ongida mavhum va ajoyib obrazini yaratadi. Masalan: "Bulbuligo'yo" ertagida jodugar mifonimi quyidagicha ta'riflanadi: *Og'zidan o't sochib, otxonaga kiribdi. Shahzoda ko'rsa, bo'yi minordek, har kifti chinordek, og'zi g'ordek, burni misli tandirdek, badani filning badaniga o'xshagan bir bahaybat narsa emish.* (Oltin beshik. "Bulbuligo'yo", 36-b.)

5. Holatning sifatini bo'rttirishga qaratilgan giperbola. Hodisalarning o'ziga xosligi, yuzaga kelgan vaziyat yoki jarayonlarning keskinligi, kutilmaganligi yoki ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, *Ot quloqlarini chimirib, qanotlarini yoyday ochibdi-da, o'qdek yer ostiga uchib tusha boshlabdi.* (Oltin beshik. "Kenja botir", 51-b.); *Shu payt Ahmad kamalakdor tog'ning bir qoyasini kamalakka joylab ajdar makoniga qarab otibdi. Ajdar yashayotgan tog' tag-tugi bilan yo'q bo'lib ketibdi.* (Oltin beshik. "Malikai Birmisqol", 84-b.); *Qilich botir bo'zchini ko'tarib chunon uribdiki, haligi bo'zchi qo'ltig'igacha yerga kirib ketibdi.* (Oltin beshik. "Qilich botir", 72-b.) kabi misollarda esa epik qahramonlarning kuch-qudrati amalga oshirgan ishlaridan keyingi holatlaridagi mubolag'aviy tasvirlar orqali badiiylashtirilgan.

Badiiy asarda har bir til birligi u leksik, stilistik yoki kompozitsion bo'ladimi umumiy estetik manzarani yaratishga xizmat qiladi. Bu haqida H.Abdurahmonov va N.Mahmudovlar shunday deydi: "Estetik butunlik bo'lgan badiiy asar ijodkori uchun esa "narsalarning qat'iy, yalang'och mohiyati" emas, balki ularning yuksak badiiy ifodasi, yaxlit obrazi ahamiyatlidir"¹⁸⁸. Mazkur nuqtayi nazardan kelib chiqib, ertaklarda qo'llanilgan giperbolani faqat emotsional bo'yoq emas, balki struktura elementidir, desak xato bo'lmaydi. Garchi giperbola birinchi navbatda emotsional-ekspressiv vosita sifatida qaralsa-da, u ertak matnlarida badiiylikning ichki tizimini shakllantiruvchi asosiy bo'g'inlardan biridir.

O'zbek xalq ertaklarida giperbola vositasining qo'llanishi personajning ijobiy yoki salbiy xarakteriga bevosita bog'liq bo'lgan holda shakllanadi. Bu esa giperbolaning semantik va estetik yuklamasi obrazlar orqali farqlanishini ta'minlaydi. Ertaklarda ijobiy obrazning tashqi ko'rinishi ta'rifida ko'p giperboladan foydalanilmaydi. Asosan, ularning g'ayritabiiy kuchi ezgulik uchun kurashuvchanlik g'oyalari tavsifida giperboladan foydalaniladi. Bu xususiyatlar ko'proq salbiy obrazlarga qaratilgan bo'ladi. Quyidagi matnda ham ertak qahramonining nutqi

¹⁸⁸ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 40.

orqali devlarning xususiyat (tashqi ko‘rinishi)lari mubolag‘a qilinadi. *Minorday gavdalari bilan mendan kuchli emas.* (Oltin beshik. “Momir bilan Somir”, 77-b.)

Ertak matnlarida ishlatiladigan giperbolalarni shu jihatda ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin:

6-jadval

Ertaklardagi giperbola vositasining xarakterga asoslangan tasnifi

T/R	Obraz turi	Leksik-semantik xususiyatlari	Badiiy vazifasi
1	ijobiy obrazlar uchun xoslangan giperbola	Yorqin musbat bo‘yoqlardagi mubolag‘alar tasvirlanadi	qahramonning kuch-qudratini, jasoratini yuksaltirish
		estetiklik, go‘zallik	favqulodda fazilatlarini ideallashtirish
		kuch-qudrat va go‘zallik ulug‘lanadi	obrazga ilohiylik, betakrorlik, noan‘anaviy go‘zallik singari ideal fazilatlar yuklaydi
2	salbiy obrazlar uchun xoslangan giperbola	ziddiyatli, kulgili yoki nafrat uyg‘otuvchi mubolag‘alardan foydalaniladi	salbiy obrazni kamsitish, kulgiga aylantirish, o‘quvchi (tinglovchi)da unga nisbatan salbiy munosabat uyg‘otish
		grotesk, nomutanosiblik, jismoniy nuqsonlar bilan tavsiflanadi	salbiy jihatlarni oshirib ko‘rsatish orqali obrazning g‘ayritabiyligiga urg‘u berish
			insoniylikdan uzoq, g‘alati yoki jirkanch ko‘rinish hosil qilish orqali obrazga salbiy baho berish

Ijobiy yoki salbiy obrazlar uchun xoslangan giperbolada o‘xshashlik ham mavjud bo‘ladi. Bu o‘xshashlikni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:



10-rasm. Ijobiy yoki salbiy obrazlar tavsifida qo'llaniladigan giperbolaning o'xshash jihatlar

Bunday obrazlar o'rtasidagi o'xshashlik gap qurilishida ham uchraydi. Lekin takror holda salbiy mazmunning qo'llanishi salbiy obrazning xususiyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Bu og'ir kurashdan keyin yaxshilab hordiq chiqarmoqchi bo'libdi. 1. *To'qqiz qo'yning go'shtini bir o'tirishda yeb qo'yibdi.* (Oltin beshik. "Pahlavon Rustam", 12-b.); 2. *Har qaysisi yetti ko'za qatiq bilan yetti tandir nonni yebdi.* (Oltin beshik. "Olmos botir", 15-b.) Birinchi misol ijobiy qahramon (Rustam)ning pahlavonligini ko'rsatish uchun qo'llangan bo'lsa, "yetti ko'za qatiq" va "yetti tandir non"ning takror qo'llanishi salbiy obraz (dev)larning ochofatliligini ko'rsatish uchun qo'llangan.

Shuni ham qayd etish joizki, ertakdagi ijobiy va salbiy qahramonlarning xususiyatlari giperbola asosida ta'riflanar ekan, ularning shaxsiyatiga xos narsa va predmetlari, yordamchi kuchlari ham poetik mahorat bilan giperbola vositasida tavsiflanadi. Masalan, ertak qahramoni ijobiy obraz Kenja botirning qilichi ham o'ziga xos tarzda mubolag'a qilinishi quyidagi matnda o'z ifodasini topgan. *Yigit epchillik bilan yig'sa bir gaz, yozsa qirq gaz bo'ladigan qilichini qinidan sug'uribdi.* (Oltin beshik. "Gul Sanobarga nima qildi, Sanobar Gulga nima qildi?" 188-b.) "Jamila" ertagidagi quyidagi matnda kampirning harakatlaridagi giperbolik tasvirdan uning salbiy obraz ekanligi shu matnning o'zidayoq tinglovchi tomonidan seziladi. *Ko'z ochib yumguncha bulutdan baland sip-silliq bir tog' paydo bo'libdi. Kampir jahli chiqib yarmidan sirilib qaytib tushibdi, achchig'idan bir tishini*

sug‘urib bolta, bir tishini sug‘urib tesha qilib hash-pash deguncha pillapoya yasab tog‘dan oshib yana quvib qolibdi. (Oltin beshik. “Jamila”, 246-b.);

Giperbola tasvirni ataylab bo‘rttirib berish orqali ma’lumotning ta’sirchanligini kuchaytirish, obrazning muhim jihatlarini ajratib ko‘rsatish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu boisdan, xalq ertaklarida personajlarning tashqi qiyofasi, xarakteri va ijtimoiy-axloqiy mohiyati, ko‘pincha, giperbolik ifodalar orqali yoritiladi. Bunday usul tinglovchiga personajning o‘zgacha tabiatini, ko‘rinishini, xarakter-xususiyatini darhol ilg‘ashga imkon beradi. *Shu payt yelkasi chiqqan, bukri, oyoqlari qiyshiq, soqoli o‘sgan, bo‘yi bilan enining farqi bo‘lmagan bahaybat bir odam bilan yetmish yoshlarda, qo‘lidagi hassasidan burni uzun, soqol o‘rnida o‘n ikki dona tukidan boshqa hech narsasi yo‘q chol kirib kelibdi.* (Uch og‘ayni botirlar. “Quyosh yerning pahlavoni”, 124-b.) Mazkur parchada giperbola orqali obraz bo‘rttirilgan. “*Bo‘yi bilan enining farqi bo‘lmagan bahaybat odam*” bu yerda giperbola personajning haddan tashqari semizligini ifodalab, bahaybatligini ikkinchi darajaga tushiradi. Giperbola vositasidagi bunday o‘xshatmalar xalq tafakkurida mavjud bo‘lgan majoziy obraz yaratish qobiliyatining mahsuli hisoblanadi. Ayniqsa, “*bo‘yi*” va “*eni*” kabi tana o‘lchamlarining bir xil deb ta’riflanishi orqali personajning grotesk qiyofasi chiziladi. Matndagi ikkinchi giperbola, ya’ni “*burni hassadek uzun*” esa burunning hassaga qiyos qilinishi orqali yuzaga chiqqan. Bu yerda tashbih orqali personajning qariyapti, ya’ni qarilik belgilarining (burunning cho‘zilib ketganligi) giperbola bilan ifodalangani kuzatiladi. Bu kabi tasvirlar personajlar orasidagi jismoniy va estetik qarama-qarshilikni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Bahaybat, g‘ayritabiiy ko‘rinishdagi birinchi obraz bilan juda zaif, ojiz ikkinchi obraz qarama-qarshi qo‘yiladi. Quyidagi misolda esa bir insonning xususiyatlari o‘xshatish orqali emas, balki g‘ayritabiiy kuchga egaligi muhim jihatlarini asosida ajratib ko‘rsatiladi. *Mening ko‘zim o‘tkir edi. Ming chaqirim joydan pashshani, yetti tosh joydan qumursqani, yerning ostida nima bor-u, tog‘ning ichida nima bor, hammasini ko‘rar edim.* (Uch og‘ayni botirlar. “Non qudrati”, 299-b.)

Giperbola ertak voqealaridan kelib chiqib, qo‘shma gap ko‘rinishida (har ikkala gap tarkibida alohida giperbolik birlik asosida) kelish holati ko‘p kuzatiladi. Bu esa voqea-hodisalarning ketma-ket yoki bir vaqtda ro‘y berayotganini, shaxs tavsifida esa, poetik obraz yoki personajning xususiyatlarini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. *Bir zumda*

hovuzning suvi kengayibdi, haligi ochilib turgan gullar chakanak tikanga aylanib yigitning yo'lini to'sibdi. (Oltin beshik. "Gul Sanobarga nima qildi. Sanobar Gulga nima qildi?" 186-b.)

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq ertaklarida obrazlarni tasvirlashda giperbola muhim poetik vosita bo'lib, u personajlarning ichki va tashqi qiyofasini ta'kidlash, ularni esda qolarli qilish hamda voqealarning drammatizmini oshirishga xizmat qiladi. Bunday mubolag'ali ifodalar xalqning badiiy tafakkuri, voqelikni baholash mezonlari va estetik qarashlarini aks ettiradi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, giperbola xalq ijodidagi lingvopoetik boylik bo'lib, uning tahlili xalq estetik didining shakllanish jarayonlarini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Ertaklarda litota

O'zbek xalq ertaklari xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va mazmunan teran janrlaridan biri sifatida, nafaqat ma'naviy tarbiya vositasi, balki poetik tasvirlarning boy xazinasini sifatida ham alohida o'rinni egallaydi. Bu janrda ishlatilgan badiiy ifoda vositalari: o'xshatish, metafora, litota, giperbola, ironiya, personifikatsiya va boshqa poetik unsurlar xalq estetik tafakkurining boyligini aks ettiradi. Xususan, litota vositasi orqali ertakdagi voqealar, obrazlar va hodisalar kichraytirish orqali berilib, estetik va semantik ifoda kuchaytiriladi. Litota adabiyotshunoslik lug'atida quyidagicha izohlanadi: "Litota 1) narsa-hodisaga xos xususiyatni uning aksini inkor qilish orqali ifodalashga asoslangan uslubiy figura, mohiyatan kinoyaga yaqin turadi. Litota kundalik muloqotda ham ancha faol qo'llanadi. Masalan: "bu kishim ham ahmoq emas" – aqli-hushi joyida; "uyam shahar ko'rmaganmas" – sodda emas, ishiga pishiq va h.k.; 2) tasvirlanayotgan narsa-hodisa, unga xos belgilarni o'ta kichraytirishga asoslanuvchi badiiy usul, stilistik figura"¹⁸⁹. Tilshunoslikda badiiy tasvir vositasi sifatida narsa-hodisa va unga xos belgilarning kichraytirilishi aksariyat olimlar tomonidan tan olinadi. S.Karimov litotani giperbolaning ko'rinishi sifatida baholab, quyidagi fikrlarni bildirib o'radi: "Mubolag'a va uning bir ko'rinishi – kichraytirish badiiy uslubning xalq og'zaki ijodi va klassik adabiyot namunalari xos"¹⁹⁰. Haqiqatdan ham, litota stilistik figura bo'lib, unda

¹⁸⁹ Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademiya nashr, 2010. – Б. 156.

¹⁹⁰ Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994. – Б. 67.

biror predmet yoki hodisa kichraytirib, past darajada ko‘rsatish orqali badiiy maqsadga erishiladi.

Ertaklarda litota vositasi ifoda intensivligini pasaytirish orqali obrazning real holatini kinoyaviy va tasviriy tarzda yoritish uchun ham xizmat qiladi. Buni S.Karimov quyidagicha izohlaydi: “Juda ozaytirib, kamaytirib ko‘rsatish yo‘li bilan mubolag‘a qilinadi, ya’ni inson, jonivor, predmet voqea-hodisadagi ma’lum belgi-xususiyatining haddan tashqari ko‘pligiga ishora qilinadi”¹⁹¹. Bu holat, ayniqsa, ertaklarda qahramonning ojizligi, bechoraligi, zaifligi yoki achinarli ahvolini tasvirlashda ko‘p kuzatiladi. Masalan: *Echki bunday qarasa, bu sho‘ring qurg‘ur sovliq bechoraning holi xarob, bag‘ri kabob ko‘rinibdi. Oriq, terisi borib suyagiga yopishib, har qovurg‘asi “manaman” deb sanalib turibdi.* (Bo‘ri bilan mergan. “Botir echki”, 15-b.) matnida “*terisi borib suyagiga yopishgan*” litota vositasida esda qolarli tasvir yaratilgan. Ushbu litotik birlikning denotativ ma’nosi hayvonning nihoyatda oriq bo‘lib, mushak to‘qimalari yo‘qolgan va teri suyakka yopishganligini ifodalasa, konnotativ va poetik ma’no yuklamasi bu holatda hayvonning zaifligi va nochorligini ochib beradi Bu esa o‘quvchi ongida achinish tuyg‘usini uyg‘otadi. Kontekstdagi “*qovurg‘asi “manaman” deb sanalib turibdi*” personifikatsiyalangan litota asosida qovurg‘alarning “*gapirayotgandek*” tasviri ularning haddan tashqari ko‘rinib turganini ifoda etadi. Bu jarayonda *personifikatsiya+litota* birikib, ironik vizual effekt hosil qilgan.

Aksariyat hollarda bu badiiy vosita taqqoslash, rad etish yoki qarshi qo‘yish shaklida yuzaga keladi. Xalq ertaklarida litota vositasida yaratilgan obrazlar ijtimoiy muhit, sinfiy tafovut yoki qahramonning ijtimoiy pozitsiyasini aniq ko‘rsatishga xizmat qilishi bilan ham xarakterli. Masalan: *Bizlar podshoh bolasi emasmiz. Otamiz boy ham emas.* (Uch og‘ayni botirlar. “Uch og‘ayni botirlar”, 162-b.) misolida litotik tuzilma shaxsiy maqomni rad etish orqali o‘zini ijtimoiy iyerarxiyadan pastda ko‘rsatish harakati sifatida namoyon bo‘ladi. Gapda ikki baravar rad etish mavjud: 1) “*podshoh bolasi emasmiz*”; 2) “*otamiz boy ham emas*”. Har ikkisi ham semantik maydonning ijtimoiy holat komponenti bilan bevosita bog‘liq. Bu rad etish orqali qahramonlar o‘zlarini ijtimoiy jihatdan oddiy, kambag‘al, oddiy xalq vakili sifatida tasvirlaydi. Litotaning muhim xususiyatlaridan biri kichraytirish

¹⁹¹ Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994. – Б. 38.

(ozaytirish) orqali vaziyat ishtirokchilarining xususiyatlarini kuchaytirishga qaratilishi bilan ham tavsiflanadi.

Dan Sperber va Deirdre Wilson kinoya, meiosis (bilinmas darajada kichraytirish) va litota (badiiy pasaytirish)¹⁹² kabilarni bir guruhga kiritishadi. O‘zbek tilshunosligida litotaning darajalanish ko‘p holatlarda farqlanmaydi. Lekin bu ko‘rinishdagi, ya’ni o‘ta darajadagi kichraytirishlar ham mavjud. *Podshoning bir o‘n sakkiz yashar qizi bor, oy desa og‘zi bor, kun desa ko‘zi bor, shakardan shirin so‘zi bor, **suv ichsa tomog‘idan, sabzi yesa biqinidan** ko‘rinadi.* (Oltin beshik. “Ermana mergan”, 226-b.) Kontekstning badiiy jihatdan obrazli tizilmasi litota va giperbolaning birlashmasi (*litota+giperbola: “suv ichsa tomog‘idan, sabzi yesa biqinidan ko‘rinadi”*) orqali berilgan.

Litota evfemistik kontekstlarda yumshatish vositasi sifatida xizmat qilishini, noqulay haqiqatlarni yengillashtirish uchun ishlatilishini tadqiq etib, litotani xushmuomalalik strategiyasi sifatida ko‘rib chiqqan L.Jeffri quyidagi fikrlarni ta’kidlaydi: “Biz allaqachon giperbola va litota uchun o‘zini oqlash va xushmuomalalik bo‘lgan holatlarni uchratganmiz. Tabiiyki, odobli e’tiqodlarni oshirib ko‘rsatish (giperbolik intensifikatsiya) va odobsizlik, nomaqbullik holatlarini pasaytirib ifodalash (litotik mitigatsiya) nutq etiketi va ijtimoiy maqbullik mezonlariga mos keluvchi strategiyalar hisoblanadi”¹⁹³. L.Jeffrining qarashlarida o‘rinli. Chunki o‘zini oqlash, o‘zidan ustun kimsaga xushmuomalalik bilan murojaati asosida o‘zining turli holat (ijtimoiy ahvoli, sinfiy tafovuti, mansabi, mavqeyi va h.k.)larini litotik tasvirlar asosida ifodalash holatlari kuzatiladi. Bunda litota muhim vazifa bajaradi. Masalan: – ***Men bir iqlimning podshohiman, otangiz qo‘l kuchi bilan tarbiya qilib, sizday botirlarning otasi bo‘lgan ekan, mendan nima kamligi bor? Haqiqatda, mendan ortiqdir.*** (Uch og‘ayni botirlar. “Uch og‘ayni botirlar”, 165-166-b.) Mazkur misolda podshoning o‘z mavqeyini xushmuomalalik tamoyili asosida litotik tarzda past ko‘rsatishga intilishi kuzatiladi.

Yuqoridagi tahlilda ko‘rib o‘tgan holatning aksi ham ko‘p uchraydi, ya’ni o‘z mavqeyini yuqori ko‘tarish uchun o‘zgalor mavqeyini ozaytirish, nazar qilmaslik kabi. Ma’lumki, litota badiiy matnda ifoda obyektini kamsitish, uni nazarga ilmaslik yo‘li bilan ham hosil bo‘ladi. Ushbu uslubiy figura orqali biror narsa yoki shaxsning qadr-qimmati,

¹⁹² Sperber D., Wilson D. *Precis of Relevance: Communication and Cognition*. Behavioral and Brain sciences (1987) 10, 697-754 Printed in the United States of America. – P. 708.

¹⁹³ Geoffrey L. *Principles of Pragmatics*. New York: Longman, 1983. – P. 145.

mavqe yoki nufuz darajasi ataylab pasaytiriladi. *Ammo podshoh qizlariga mamlakatning turli viloyatlaridan kelgan sovchilarni “U mening tengim emas, men qizlarimni o‘zimdanda ham a‘loroq shon-shuhratga ega bo‘lgan kishilarga beraman”, deb qaytara berar ekan.* (Bo‘ri bilan mergan. “Ayiqqolvon”, 125-b.) Ertak matnida “tengim emas” ifodasi o‘z nufuzini ko‘tarish asnosida o‘zga nufuzini pasaytirish orqali yuzaga kelgan. Bunda shon shuhratga ega bilan ega emas tushunchalari o‘zaro qarama-qarshi qo‘yiladi. Natijada “*ega emas*” birligi litotaning o‘ziga xos namunasi sifatida oydinlashadi. U podshohning ijtimoiy mavqe va shaxsiy nufuzini yuqori ko‘rsatish orqali boshqalarni kamsitish, ularga past nazar bilan qarash kabi ma‘noni yuzaga chiqaradi. Bu holat nafaqat obrazning ichki xarakterini, balki ertakda mavjud ijtimoiy-g‘oyaviy qatlamlarning ham aks etishini ko‘rsatadi.

Estetik butunlik bo‘lgan badiiy asar ijodkori uchun esa “narsalarning qat’iy, yalang‘och mohiyati” emas, balki ularning yuksak badiiy ifodasi, yaxlit obrazi ahamiyatlidir¹⁹⁴. Chunki badiiy matn voqelikni aynanligicha emas, balki uni san‘atkorga xos estetik idrok orqali tasvirlaydi. *Agar malol kelmasa, menga shu shahardan besh ho‘kiz terisidek yer bersangiz”, – debdi.* (Uch og‘ayni botirlar. “Donishmand cho‘pon”, 232-b.) Ushbu misolda an‘anaviy o‘lchamlar bilan berilishi mumkin bo‘lgan yer miqdori oddiy matematik ifoda orqali emas, balki “*besh ho‘kiz terisidek*” tarzda tasvirlangan. Mazkur o‘rinda “*ho‘kiz terisi*” birlik sifatida ishlatilgan bo‘lib, mazmunsizlik yoki aniq o‘lchovning yo‘qligini emas, balki zarur yerning kichikligini ko‘rsatish vositasidir. Bu ifoda litota san‘atiga tayanilgan bo‘lib, talab etilayotgan yer miqdorini *kam, arzimas, deyarli ahamiyatsiz* hajmdagidek ko‘rsatadi, shuningdek, “*besh ho‘kiz terisi*” faqat real o‘lchov emas, balki quyi baholash orqali tasvir obyektining *kamtarligini, istovchining soddaligini va muloyimligini* ifodalaydi. Ushbu litotik ifoda vositasida so‘zlovchi obrazda xushmuomalalik, oddiylik, kamtarlik va ayni paytda donishmandlik aks ettirilgan.

Litoaning asosiy belgilari hudud (yuqoridagi misolda ko‘rib o‘tilganidek), vaqt va hajm o‘lchovini kichraytirib, qisqartirib, ozaytirib ko‘rsatishga ham asoslanadi. Quyidagi misolda vaqt o‘lchovining ozaytirib ko‘rsatilishi FB yordamida yuzaga chiqqan: ***Ko‘z ochib-yumguncha, Ko‘hiqofga yetib borishibdi.*** (Oltin beshik. “Olmoq bitir”, 15-b.) Misolda litota vaqt o‘lchovi qisqarishiga sabab bo‘lgan. “Ko‘z

¹⁹⁴ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 40.

ochib-yumguncha” FB orqali voqeaning tezligi haddan tashqari g‘ayrioddiy tarzda qisqa vaqt ichida sodir bo‘lishi ertagona shaklda namoyon bo‘lgan.

Litota ham boshqa tasviriy vositalar kabi an‘anaviy poetik modelga ega bo‘lib, xalq og‘zaki ijodida, xususan, ertak matnlarida o‘zining estetik yuklamasi bilan ajralib turadi. Ushbu figuraning semantik-barqaror shakllari og‘zaki nutqda hamon faol qo‘llanilayotgan bo‘lib, ularning asosiy vazifasi mavqe, ijtimoiy yoki jismoniy nisbatlarni bosiqlik bilan, kamtarona va bilvosita ifodalashga xizmat qilishidadir. Xususan, “pashshadek” ifodasi og‘zaki nutqda inson yoki narsa-voqeani kattalik yoki ahamiyat jihatdan past ko‘rsatish maqsadida ishlatiladi. Bu birlik ayrim hollarda ko‘chma ma‘no kasb etmasdan, to‘g‘ridan to‘g‘ri hajmiy nisbat sifatida estetik obrazni kuchaytirish vazifasini bajaradi. “*Kenja botir nahangning oldida pashshadek ekan.* (Oltin beshik. “Kenja botir”, 50-bet) matnidagi litotik birlik, ya‘ni “*pashshadek*” qiyosiy-tasviriy shaklda ishlatilib, gigant va inson obrazlari o‘rtasidagi haddan tashqari disproportsiya (o‘zaro nisbatning buzilishi)ni ko‘rsatishga xizmat qilgan. Ayniqsa, ushbu matndan ilgari nahang tasviri berilgan bo‘lib, u sakkiz uy hajmidagi mavjudot sifatida tasvirlanadi. Aynan Kenja botirning “*pashshadek*” litotasi orqali qayta ifodalanishi, ya‘ni “*nahang+sakkiz uydek+pashshadek*” formulasi nahangning qanchalik kattaligini aniq tasavvur qilish mumkinligini ko‘rsatishga xizmat qilgan.

Litota mumtoz adabiyotda tafrit, tasg‘ir deb nomlanib, aksariyat hollarda, ikki narsa o‘rtasidagi qiyos orqali birining xususiyati kamaytiriladi. Ertaklarda qahramonlarning kuchini yoki xususiyatlarini tasvirlashda bu usul keng qo‘llanadi. *Muqbil yo‘lbarsni mahkam bo‘g‘ib olib, mushuk boladay qo‘lda o‘ynatib, bir-ikki marta yerga uribdi* (Oltin beshik. “Muqbil toshotar”, 111-b.) misolida yo‘lbarsning kuchli va ulkan jismoniy holati kichraytiriladi va kichik, mayda va zaifroq holatga, ya‘ni mushukka aylantiriladi. Bu usul yordamida, o‘quvchi qahramonning kuchiga baho berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘quvchida paradoksal taassurot uyg‘otadi. Litota bu o‘rinda ko‘proq qiyoslash orqali amalga oshirilgan. Tasvir fonida litotaning muhim elementi hisoblangan kulgi effekti ham paydo bo‘ladi. Bu jarayonda shiddatni pasaytiriladi, kulgili va hayajonli effekt kuchaytiriladi hamda o‘quvchi (tinglovchi) uchun badiiy ta‘sir kuchli bo‘lib qoladi. Bu usul o‘quvchiga real va sehrli voqea o‘rtasidagi farqni tushuntirishga yordam beradi.

Ertak matnlarida litotik vositalar, ya'ni tasvir obyektini sun'iy ravishda kichraytirish orqali ifodalash usuli keng qo'llanadi. Bu stilistik figura odatda qahramonning jismoniy jihatdan ojiz, lekin ruhan kuchli, jasur va bardoshli obrazini yaratishda samarali badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Jahon xalq ertaklarida ham litota usuli orqali yaratilgan qator obrazlar mavjud. Masalan, rus ertaklaridagi "Malchik-spalchik", X.K.Andersenning "Dyuymovochka"si, turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi "No'xatvoy", "Yortiquloq", "No'xatpolvon" kabi personajlar bunga misol bo'la oladi. "No'xatvoy" nomli o'zbek xalq ertagida quyidagi jumla orqali litota vositasidan foydalanilganini kuzatamiz: *Bolamiz xuddi no'xatday, ko'zga ko'rinmaydi.* (Bo'ri bilan mergan. "No'xatvoy", 68-b.) Ushbu tasvir lingvopoetik jihatdan metaforik litota hisoblanadi. Ya'ni bu yerda "no'xat"dan tashbehli obraz vositasi sifatida foydalanilib, bola hajman nihoyatda kichik qilib tasvirlangan. Bu kichiklik faqat jismoniy emas, balki ko'zga ilg'amaslik darajasidagi vizual noaniqlikni ham anglatadi. Bu yerda u bola hajmining nihoyatda kichikligiga kinoya tarzida asosiy o'xshatish etaloni sifatida tanlangan. Ota-onaning yoki aytuvchining kulgi bilan aytgan "*ko'zga ko'rinmaydi*" degan ifodasi matnga yumoristik, mehr bilan yo'g'rilgan, pozitiv emotsional ohang kiritadi. Bu esa xalq og'zaki ijodiga xos ifoda estetikasini yoritadi. Ertak qahramonining tasvirlanishida "no'xat"ning tanlanishi antitezali qiyos asosida kontrast yaratishga asoslanib, qahramon hajman juda kichik bo'lsa-da, u ertak davomida yengilmas, aqlli va jasur obrazga aylanadi.

Ertak janrida obrazlarning o'zgaruvchanligi, fantastik metamorfozlar va qiyosiy o'lchovlar orqali voqealarning drammatizmi kuchaytiriladi. *Maymun bir yumalab otga aylanibdiki, buning oldida boyagi ot xachircha ham bo'lmay qolibdi.* (Oltin beshik. "Bulbuligo'yo", 36-b.) Jumladagi "buning oldida boya ot xachircha ham bo'lmay qolibdi" ifodasi litotaning ko'rinishidir. Ayrim tadqiqotchilar litotani biror narsa yoki hodisaning xususiyatini sun'iy ravishda zaiflashtirish orqali emotsional-ironik ta'sir kuchini kuchaytiruvchi stilistik vosita hisoblaydi.

B.Umurqulov o'xshatishlarni poetik nutqning ajralmas, estetik ta'sir kuchini oshiruvchi asosiy vosita sifatida baholab, "Yangi-yangi original o'xshatishlar poetik nutqning badiiy qimmatini yanada oshiradi. Poetik fikrning kitobxonlar yodida mustahkam o'rtnashib qolishi uchun zamin yaratadi"¹⁹⁵, deya ta'kidlaydi. Ushbu fikr o'zbek xalq ertaklaridagi litotalarning o'xshatishlar, asosan, qiyosiy holatida yaqqol ko'zga

¹⁹⁵ Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 72.

tashlanib, poetik nutqdagi badiiylikni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyatini yoritib beradi. Darhaqiqat, xalq ertaklarida qo'llangan litotalar o'xshatishlar asosida obrazlarni yanada jonli, estetik va emotsional jihatdan kuchliroq ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, ular orqali voqelik san'atkorona ifodalanadi, obrazlar orasidagi ichki aloqa mustahkamlanadi. Masalan: *Podsho uyqudan uyg'onib qarasa, yana bir mirilik chaqadek barg yo'q emish.* (*Oltin beshik. "Bulbuligo'yo", 83-b.*) Bu o'xshatishda **litota** "yana bir mirilik chaqadek barg yo'q". "Mirilik chaqa" tangalarning eng kichik birligi, ya'ni juda mayda obyekt. Quyidagi misolda esa ijtimoiy turmush bilan bog'liq holatning litota yordamida badiiylik kasb etganligini guvohi bo'lamiz: *Semurg' so'rabdi:*

– *Yer qanday ko'rinayotir?*

Kenja botir:

– **Bo'yraday,** – *debdi.*

Semurg' yana ko'tarilibdi.

– *Endi-chi,* – *deb so'rabdi Semurg'.*

– **Gugurt qutisiday.**

Yana ko'tarilibdi.

– *Endi-chi?* – *debdi Semurg'.*

– **Angishvonaday,** – *debdi.* Misolda bo'yoqdor so'zlarga e'tibor qaratilmagan bo'lib, oddiy so'zlashuv nutqiga xos birliklar asosida badiiy matn yaratilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, kichraytirishni hosil qilishning muhim belgilaridan biri litota sifatida qabul qilinayotgan subyektning obyektga nisbatan qismlilik, umuman, litotik holati qandayligi bilan o'lchanishida namoyon bo'ladi. Berilgan ertak matnida ifodaning xalqonaligi badiiy-estetik manzarani yaratishga xizmat qilgan.

Litotalarning, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek tilshunosligida asosiy xususiyati, ya'ni kichraytirish jihatlariga asosiy e'tibor qaratib kelingan. Tahlillarimizdan shu narsa ayonlashdiki, tilshunoslikda to'liq bo'lmagan litotalar ham mavjud bo'lib, gap yoki jumla ma'nosidan anglanish holatlari ko'zga tashlanadi. Quyidagi misolning tahlili orqali bu aniqroq ko'rish mumkin: *Bechora devona bunday lazzatli ovqatlarni umrida yemagan, tushida ham ko'rmagan ekan: oldiga surib qo'yilgan ovqatlardan oz-oz yeb, to'yib qolibdi.* (Oyjamol. "Ko'kka tupursa, betga tushadi", 127-b.) Mazkur ertak parchasida litotaga xos jihatlar mavjud, lekin to'laqonli litota emas, balki stilistik element sifatida litotik ifodadan foydalanilgan, ya'ni kuchsiz, noaniq litotik vosita mavjud. Vosita "tushida ham ko'rmagan" bilvosita ifoda, ya'ni tasvir obyektining

(ovqatning lazzatliligi yoki devonaning kambag'alligi) o'ta past holatda bo'lganini ifodalaydi hamda "shunchalik kambag'alki, lazzatli ovqatni nafaqat yemagan, hatto tushida ham ko'rmagan" degan xulosaga kelishga asos bo'ladi. "*Oz-oz yeb, to'yib qolibdi*" jumlasida esa kam miqdorda ovqat yeyish orqali to'yish holati semantik jihatdan litotikdir, ya'ni bevosita ovqatning miqdori kichik, ammo ta'siri katta sifatida berilgan. Tahlil asosida aytishimiz mumkinki, matnda ifodalangan litota to'liq grammatik konstruksiya sifatida emas, balki lingvopoetik vosita sifatida shakllangan. Demak, "*tushida ham ko'rmagan*" va "*oz-oz yeb, to'yib qolibdi*" ifodalari semantik litota vositalari sifatida baholanishi mumkin.

O'zbek tilshunosligida litotaning unsurlaridan biri, ya'ni narsahodisaga xos xususiyatni uning aksini inkor qilish orqali ifodalashga asoslangan uslubiy figura sifatidagi talqiniga ko'p e'tibor qaratilmagan. U.Keyti litotada inkor shakl yetakchi o'rinni egallashini ta'kidlab, quyidagi fikrni bildirib o'tadi: "Litota, ko'pincha, inkor shaklidagi ibora orqali aslida uning qarama-qarshi ma'nosini ifodalashda ishlatiladi"¹⁹⁶. Bunday inkor shakli o'zbek tilida ham mavjud bo'lib, qadimdan xalq tafakkuri orqali nutqida o'z ifodasini topib kelgan. Masalan, maqtashda: *Otajon, bu yigit jinni emas, yomon ham emas*. (Oyjamol. "Dono yigit va uning qaylig'i", 4-b.) misolida *yigit aqlli, dono, yaxshi* hamda tanqidida: *U: "Qorong'i kechada o'rmonda yurish yaxshi emas, kechani shu kavakda yotib o'tkazayin", deb o'ylabdi* (Uch og'ayni botirlar. "Egriboy va To'g'riboy", 237-b.) kabilarni bunga misol qilish mumkin.

Ijtimoiy nuqtayi nazardan litota, ko'pincha, kamtarlik yoki odobni saqlash uchun foydali tasvir vositasi hisoblanadi. Masalan, fikrni yumshatish uchun litota eng maqbul vosita hisoblanadi. Quyidagi ertak matnida "o'lib ketgan" ifodasi o'rniga "omon ketmagan" ifodasi qo'llanganligini ko'rish mumkin. *Bu yerda yotgan odam hech omon ketgan emas*. (Oyjamol. "Uch avliyo. 14-b.) tarzida yoki nazarda tutmaslik: *Buni zindonga solaylik, to'rt yil, besh yil hech narsa emas, o'tib ketadi*. (Oyjamol. "Kambag'al qurandoz", 78-b.)

Ba'zi holatlarda kentekstdan kelib chiqib, litota aynan fikrni yumshoq tarzda emas, "*yarim yumshoq*" tarzda ifodalashi mumkin. *Tosh supaga yoyilgan vahshiy hayvonlar terisi o'z xizmatlarini ado etib, chirib ketgan ekan*. (Uch og'ayni botirlar. "Quyosh yerning pahlavoni", 124-b.) Matndagi "*o'z xizmatlarini ado etib, chirib ketgan*" aslida vahshiy hayvonlar terisining holatining yomonlashganini anglatadi. Bu yerda

¹⁹⁶ Wales Katie. A Dictionary of Stylistics. New York: Longman Linguistics, 1983. – P. 254.

inkor (terining xizmatini ado etishi) orqali holat yumshatilgan. Demak, bu yerda salbiy fikrning teskari yoki yumshoq ifodasi litota orqali namoyon bo'lgan, ammo "chirib ketgan" birligi litotik birlikning to'liq yumshoq tarzda namoyon bo'lishiga to'sqinlik qilgan. Bu esa ushbu litotik birlikni "yarim yumshatishli" litota shaklida qarashga asos bo'ladi.

Yuqorida tahlil qilingan litotalar tashqi ko'rinish, sezgi a'zolari orqali his qilish bilan bog'liq ko'rish, sezish orqali his qilish mumkin bo'lgan holatlar bilan bog'liq o'rinlar tahlilga tortildi. Jahon tilshunosligida litotalar "yashirin" ma'no ifodalash vazifasini ham bajarishi ta'kidlaydilar. "Litotaning asosiy ma'nosi, deb ko'rsatadi Merete Birkelund, – bilvosita (yashirin) ma'nodadir. So'zlovchi litota orqali o'z fikrini ochiq aytmasdan, uni salbiy element yordamida kamaygan shaklda ifodalaydi. Bu salbiy unsurning asosiy vazifasi ochiq bayon etilgan fikrni inkor qilishdir"¹⁹⁷. Darhaqiqat, litotalar so'zlovchi salbiy nuqtayi nazarni bildirayotgandek ko'rinadi, holbuki, asl nuqtayi nazari yashirin, yumshoq ifoda orqali ko'rsatishga intilib, ochiq bayon etilgan salbiy fikrga zid yoki teskari ma'noni anglatishi mumkin. Shu jihati bilan litotalar evfemizmlarga yaqin turadi. O'zbek tilshunosligida litotalarning ushbu xususiyatlarini aniqlash va evfemizmlar bilan aniq chegarasini belgilab berish muhim vazifalardan birini qo'ymoqda. Shu ma'noda, quyida litota va evfemizm o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatishga harakat qildik. Litota va evfemizmlar har ikkisi ham tilda *yumshoq*, *nozik*, *bilvosita* ifoda vositalari sifatida ishlatiladi. Ular o'zaro yaqin bo'lsa-da, har biri o'z vazifasi va semantik jihatiga ko'ra farqlanadi.

1. Litota tilda inkor shakli orqali fikrni yumshatib, uni bilvosita tarzda ifodalash usulidir. Ko'pincha, salbiy ko'rinadigan lekin aslida ijobiy yoki neytral ma'no anglatuvchi ifodalardir. Litotalar orqali ko'tarinki fikrni pasaytirish, tanqidni yumshatish yoki bo'rttirishning teskari usuli orqali ma'no kuchaytiriladi. Masalan: *Erali bobo yetmish yoshga yaqinlashib qolgan chol ekan. Lekin hali ukasidan **ancha tetik, soqoli ham uncha oqarmagan** ekan.* (Uch og'ayni botirlar. "Hunarli yigit", 31-b.) Ushbu parchada "**Uncha oqarmagan**" bu inkor shaklida berilgan litotik ifoda bo'lib, inkorning yengil shakli orqali ijobiy ma'no ifodalangan. Odatda "oqarmagan" so'zi "qarilik" bilan bog'liq bo'lsa-da, bu yerda "unchalik oqarmagan" degan birlik orqali qarilik belgilari kamligi aytilmoqda. U ijobiy holatni (yosh ko'rinish, tetiklik) bilvosita

¹⁹⁷ Birkelund M. Litotes – an ironic or polyphonic figure of speech? The Sign of the V Papers in Honour of Sten Vikner. Department of English School of Communication & Culture Aarhus University, 2019. – P. 65.

bildiradi. Ya'ni yoshi qarilik yoshiga yetgan bo'lsa-da, bevosita "soqoli hali to'liq oqarmagan", bilvosita esa "u hali yosh ko'rinadi" yoki "qarilik belgilari unchalik sezilmaydi". Litotaning mazkur matnda ro'yobga chiqishida "ancha tetik" baholovchi ifodasi holatni bevosita, bo'rttirishsiz ifodalash uchun xizmat qilgan.

2. Evfemizm noqulay, qo'pol yoki og'riqli holatni yumshoq, ijtimoiy maqbul shaklda ifodalash vositasidir. Ular ko'proq axloqiy-ijtimoiy me'yorlar, hissiy sezuvchanlik sababli ishlatiladi. Masalan: *Chol-kampir judayam kambag'al, bechora bo'lganidan mushuk, it va sichqonga ovqat topib berishga qiynalishar ekan.* (Uch og'ayni botirlar. "Mushuk, it va sichqon", 178-179-b.) Ertak matnidagi "bechora", leksemasi evfemistik xarakterga ega. Ya'ni ular real qiyinchilikni yumshoq shaklda ifodalab, og'ir hayot kechayotganlikni sezdiradi. "Kambag'al" ham evfemistik kontekstda ishlatilmoqda, ammo *it, mushuk va sichqonga ovqat topishga qiynalishi* ijtimoiy kam ta'minlanganlikni ko'rsatib, litotaga ishora qiladi. Shu ma'noda, litota va evfemizm o'rtasidagi farqlarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

7-jadval

Litota va evfemizmning asosiy farqli jihatlari


Belgilar	Litota	Evfemizm
Ma'no ifodasi	Bilvosita inkor yoki pasaytirish orqali	Yomon, og'riqli holatni yumshoq so'z bilan berish
Ko'rinishi	"Kam emas", "yomon emas" kabi teskari ifodala	"Bechora", "olamdan o'tgan", "yo'qchilikda yashaydi"
Vazifasi	Yumshatib tanqid qilish yoki istehzo bilan ma'no berish	Yomon holatni ijtimoiy maqbul shaklda ifodalash
Uslubiy holat	Ko'pincha, satirik yoki kinoyali	Ko'proq hissiy, axloqiy, ijtimoiy ohangda

Litotik tasvirlar FBlar asosida ham berilishi mumkin. Obrazli iboralar biron obyekt yoki voqea-hodisani boshqasiga o'xshatish yo o'sha haqda mubolag'a qilish usuli bilan yaratilgandir¹⁹⁸. *Ko'pdan beri ochlik va tashnalikka duchor bo'lganlari uchun suyaklari badanini yorib chiqqandek ko'rinarmish.* (Uch og'ayni botirlar. "Quyosh yerning pahlavoni", 138-b.) Matnda "suyaklari badanini yorib chiqqandek"

¹⁹⁸ Пинхасов Я. Хозирги ўзбек адабий тили. Лексиколосия ва фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 58.

iborasi orqali tananing haddan tashqari ozib ketgani, ochlikdan odamning suyaklari teridan “*teshib chiqqandek*” bo‘lib qolishi bo‘rttirilgan tarzda kichraytirish orqali tasvirlangan. Bu yerda litota kamaytirish vositasi orqali keskin muqoyasa va drammatizm hosil qilingan. “*Suyaklar teridan yorib chiqqandek*” degan ifoda real holat emas, balki ramziy bo‘yoqli tasvir bo‘lib, bu orqali qahramonlarning ochlik holatining ayanchli darajasini chuqur his ettiradi. Bu maqsadli ***giperbola va litota sintezidir***, ya’ni kuchli ozg‘inlik kamaytirish bilan ifodalansa-da, ta’siri kuchaygan bo‘ladi. Badanning suyakka yopishib ketganligi orqali ochlikning halokatli ko‘lami tasvirlanadi. Bunday litotik tasvir orqali nafaqat ochlik darajasi, balki inson tanasining zaiflashuvi badiiy tarzda ochiladi. Bu kabi ifodalar xalq ertaklarida ko‘p uchraydi va ular orqali folklor estetikasi, ya’ni real emas, ammo tasavvur orqali kuchli obraz yaratish maqsadi ko‘zlanadi.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, xalq ertaklarida litotalar quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:



11-rasm. Litotaning ertak matnidagi vazifasi

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o‘zbek xalq ertaklarida litota vositasi badiiylikni kuchaytiruvchi, obrazlarni estetik kontrastda ifodalovchi muhim stilistik birlik hisoblanadi. U orqali oddiylik, ojizlik, beozorlik ortidagi ichki qudrat, g‘aroyib kuch yoki kutilmagan fazilatlar bo‘rtib chiqadi. Litotalarning xalq ertaklaridagi qo‘llanishi, xalqning so‘z san’atiga, kinoyaviy tafakkurga va estetik obrazlilikka ega ijodiy tafakkurini yaqqol namoyon etadi. Shu bois litota vositasi o‘zbek xalq og‘zaki ijodining poetik tizimida alohida lingvopoetik qiymat kasb etadi.

Ertaklarda intertekstuallik

Intertekstuallikning xalq ertaklaridagi ahamiyati ularning boshqa matnlar, madaniyatlar va tarixiy kontekstlar bilan o‘zaro aloqasi orqali yanada chuqurroq ma’no kasb etishidir. Matnlar orasida nafaqat yaxlit butun matn, balki uning parchasi (havola) yoki unga ishora qiluvchi birliklar (allyuziya) uchrashi mumkin. Mana shu hodisa dunyo ilm-fanida bugun intertekstuallik atamasi ostida tadqiq qilinmoqda¹⁹⁹.

Intertekstuallik atamasi ilk bor fransuz olimasi Y.Kristeva tomonidan 1967-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan. U bu tushuncha orqali har qanday matn o‘zidan oldingi matnlar bilan bevosita yoki bilvosita aloqadorligini, ya’ni matnlararo bog‘liqlik va iqtibosiy mohiyatga ega ekanligini nazarda tutadi. Y.Kristeva intertekstualizmni M.Baxtinning “dialogizm” va “polifoniya”²⁰⁰ konsepsiyalariga asoslangan holda rivojlantiradi va bir matn boshqa matnlar bilan “suhbat”da bo‘lishini ilmiy asosda izohlaydi. Y.Kristeva intertekstuallik hodisasining, avvalo, yozma matnlar, xususan, ilmiy va badiiy adabiyotlarda yuzaga kelishini ta’kidlaydi. Ammo u bu hodisa, ayniqsa, badiiy matnlarda o‘zining kuchli estetik va semantik imkoniyatlari bilan ajralib turishini alohida qayd etadi.

Intertekstuallik o‘zbek adabiyoti, xususan, mumtoz badiiy merosimiz uchun mutlaqo yangi hodisa emas. Mumtoz adabiyotda keng qo‘llanilgan irsoli masal (maqol keltirish), talmeh (ishoraviy eslatma), tazmin (boshqa shoir misrasini she’rga qo‘shish), nazira (mavjud asarga o‘xshatib asar yaratish) kabi badiiy san’at turlari intertekstuallik tamoyillarining o‘ziga xos milliy ifodasidir.

O‘zbek tilshunosligida intertekstuallik muammosiga bag‘ishlangan tadqiqotlardan eng muhimi M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi” mavzusidagi tadqiqoti hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda olim intertekstuallikni badiiy matnning tuzilish jarayonida muhim pog‘ona sifatida baholaydi hamda: “Muayyan badiiy matn tarkibida o‘zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi shu matnning intertekstualligidir”²⁰¹, – degan o‘rinli xulosani beradi. D.Xudoyberganova esa “Biror matn tarkibida boshqa matn yoki uning unsurlarining ochiq yoki yashirin tarzda mavjud bo‘lishi”, intertekstual matni “Tarkibida to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki assotsiativ tarzda anglashiluvchi

¹⁹⁹ Хомидова М. Бадий матн перцепциясида интертекстуаллик. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2021. – Б. 12.

²⁰⁰ Qarang: Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог и роман. Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму. – Москва, 2000. – С. 427- 457.

²⁰¹ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 116.

o‘zga matn yoki uning unsurlari mavjud bo‘lgan matn”²⁰², deya ta’kidlaydi. Bu ta’rifda muhim jihat shundaki, D.Xudoyberganova intertekstual matnni faqatgina boshqa matn yoki uning unsurlarining aniq ko‘rinishi sifatida emas, balki ular orasidagi bog‘lanishning turli darajalari va shakllarini hisobga olgan holda aniqlaydi. Ochiq intertekstuallik, albatta, o‘zaro aloqalar aniq ko‘rinadigan holatlarda, masalan, biror matnda boshqa matnning bevosita keltirilishi yoki aynan muayyan san’atlardan iqtibos keltirilishida ko‘rinadi. Bunday holatlarda, o‘quvchi yoki tinglovchi aloqani darhol anglab yetishi mumkin. Yashirin intertekstuallik esa, ko‘proq assotsiativ, ya’ni subyektiv talqinlarga yo‘l qo‘yadi. Bunda o‘quvchi boshqa matnning unsurlarini sezishi mumkin, ammo ularning qanday aloqada ekanligini har doim aniqlab bo‘lmaydi. Bu holatda, matnning semantik imkoniyatlari kengayadi, chunki o‘quvchi o‘zi yaratgan kontekstda matnni tahlil qiladi va uning o‘ziga xos shaxsiy qarashlarini ifodalaydi. Bu holatda muayyan intertekst **“esga tushirish”** mexanizmi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi, ya’ni ma’lum ishoraga ega intertekst avvaldan mavjud matn voqea-hodisani eslatish uchun ishlatiladi.

M.Xomidova tadqiqot ishida “badiiy matn muallifi intertekstual vosita sifatida, odatda, xalq orasida mashhur bo‘lgan asarlardan parchalar yoki milliy mentalitet va madaniy xususiyatlardan kelib chiqqan holda folklor namunalaridan foydalanishini”²⁰³ qayd etadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, yozma badiiy ijod namunalarining og‘zaki ijod shakllaridan keyinroq shakllanganligi ularning mazmun va shakl jihatdan folklor manbalariga murojaat qilinishini, ular asosida yangi estetik qatlamlar yaratilishini taqozo etadi. E’tiborga molik jihatlardan biri shuki, xalq og‘zaki ijodi, xususan, ertaklarda ham o‘ziga xos intertekstual elementlar, ya’ni boshqa matnlarga ishoraviy yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat shakllari mavjud.

Ertaklardagi intertekstuallik faqat alohida matn parchalari yoki iqtiboslar emas, balki kengroq madaniyat va tarixiy kontekstlardan olingan, ko‘pincha, xalq hayoti va uning voqealari bilan bog‘liq bo‘lgan fragmentlardir. Ushbu fragmentlar faqat o‘sha davrning madaniy va tarixiy xususiyatlarini aks ettirib qolmay, balki ertak matniga kiritilgan badiiy elementlar yordamida keng ma’no qamroviga ega bo‘ladi. Bu

²⁰² Худойбергано́ва Д. Лингвокультуро́логия терми́нарининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зiуо, 2015. – Б. 24.

²⁰³ Хомидова М. Бадий матн перцепциясида интертекстуаллик. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2021. – Б. 13.

intertekstuallik mexanizmi, shuningdek, ertakning mazmuniy idrokini chuqurlashtirishga yordam beradi, chunki tinglovchi ushbu intertekstdan xabardor bo‘lganda, ertakdagi muayyan voqeliklarni tushunish va ularga nisbatan hissiy yoki intellektual munosabatda bo‘lish osonlashadi. Masalan, Navoiyning yaratgan baytlari xalq orasida mashhur bo‘lib, badiiy qiymati, estetik ta’siri natijasida ertak matniga olib kiriladi hamda ertakning rivojiga hissa qo‘shadi. “Kanizak bilan podsho” ertagida podsho eng suyukli rafiqasi Sarvigulning ismini aytish qat’iy taqiqlayadi. Sarvigulning bevaqt vafotidan so‘ng ushbu fojiani hech kim podshoga yetkazishni istamaydi. Jarayon ertak matnida shunday izohlanadi: *Avvalgi ismini aytib xabar qilingan taqdirda podsho o‘z farmoniga muvofiq xabar bergan kishini jazolashi turgan gap ekan. Podshoga ma’lum qilinmabdi. Lekin o‘likning yota berishi mumkin emas-ku. Buning ustiga, o‘z vaqtida xabar berilmagani uchun saroydagi kishilar yana jazolanishi mumkin.* Natijada podshoning dono kanizaklaridan biri podshoga shunday ma’lum qiladi:

Sarvigulning soyasida so‘ldi gul, netmoq kerak?

Podsho bu misrani eshitgach, g‘am ostida qolib javob beribdi:

Bargidan tobut yasab, guldin kafan etmoq kerak. (Oyjamol. “Kanizak bilan podsho”, 43-b.) Bu yerda Navoiy va Bayqaro o‘rtasidagi yozishmaning mashhur satrlari intertekstual aloqalar sifatida aynan o‘zgarishsiz taqdim etilgan. Bu intertekstual matn, ertak matnida kanizakning donishmandligi tasvirini obrazli ifodalash maqsadida amalga oshirilgan. Baytning to‘liq matni ertakda qayta tiklanib, uning semantik va stilistik ko‘lamini kengaytirgan.

Matnning yaxlitligi va butunligini ta’minlashda sarlavhaning o‘rni katta. Sarlavha matnning semantik va estetik mohiyatini aks ettiruvchi, ayni paytda matnni tashkil etuvchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi. Lingvistik nuqtayi nazaridan, sarlavha matnning nomi bo‘lib, u o‘z navbatida matnning identifikatsiyasi va struktural asosining boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi.

Xalq ertaklarida sarlavha matnning mazmuniy qatlamlarini ochib berishda, ko‘pincha, maqollardan intertekstual birlik sifatida foydalanilganini kuzatish mumkin. Tilshunos Z.Turayeva “Sarlavhani bevosita badiiy zamon sohasining o‘zagi sifatida baholash lozim”²⁰⁴ deb ta’kidlaydi. Haqiqatan ham, har qanday davr folklor matnlarida,

²⁰⁴ Тураева З.Я. Лингвистика текста. Учеб. пособие для студентов пед. ин-тов по спец. – Москва: Просвещение, 1986. – С. 93.

jumladan, ertaklarda xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi va zamon ruhiga mos keluvchi umuminsoniy qadriyatlar asosidagi maqollar sarlavha funksiyasini bajarganini lingvopoetik tahlil orqali aniqlash mumkin. Jumladan, “Oltin beshik” to‘plamiga kiritilgan *“Nima eksang, shuni olasan”*, “Oyjamol” to‘plamidagi *“Yaxshi niyat – yarim davlat”*, *“Tan sihatlik – tuman boylik”*, *“Til tig‘dan o‘tkir”*, *“Yaxshisi ham til, yomoni ham til”*, *“Otangga qilsang, bolangdan qaytadi”*, “Oltin tarvuz” to‘plamida *“Do‘stlik sinovda chiniqar”*, *“Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar”*, *“Har kimning mehnati o‘ziga shirin”* kabi maqollarning sarlavha sifatida tanlanishi ertakning mazmunini qisqa, ixcham shaklda, lekin asosiy g‘oyani yo‘qotmasdan ifodalash vazifasini bajaradi. Xususan, *“Nima eksang, shuni olasan (o‘rasan)”* maqolini o‘quvchi persepsiya jarayonidayoq ertakdagi g‘oyaviy xulosani matnda bevosita aytilmagan ma‘noni kontekst yoki mantiqiy xulosaga asoslanish yo‘li bilan anglaydi. Mazkur maqolda aks etgan *“Harakat natijasiga yarasha mukofot topasan”* tarzidagi propozitsional mazmun ertakning badiiy-konseptual g‘oyasini ochib berishga xizmat qiladi.

Sarlavha sifatida tanlangan ayrim maqollar hududiy-dialektal xoslanganligi bois ularning semantik mazmuni yoki leksik shakli umumxalq tilida to‘laqonli tanish bo‘lmasligi mumkin. Shunga qaramay, bunday maqollar ham intertekstual birlik maqomiga ega bo‘lib, mintaqaviy kod sifatida matnning badiiy-estetik tuzilishida muhim vazifa bajaradi. Masalan, *“Ko‘kka tupursa, betga tushadi”* maqoli umumxalq tilida keng qo‘llanmasa-da, adabiy tildagi *“Shamolga tupursang, yuzingga qaytadi”* yoki *“Ko‘kka kul sochma, ko‘zingga tushadi”* kabi maqollar bilan semantik jihatdan sinonim hisoblanadi. Ushbu maqol ertak uchun sarlavha sifatida tanlanganda, yuqorida tahlil qilingan sarlavhali maqollardan farqli ravishda kuchli ramziy ma‘no hosil qilmaydi. Natijada *“maqol+sarlavha”* konstruksiyasi orqali o‘quvchi mazmunni darhol va bevosita anglash imkoniga ega bo‘lmaydi. Biroq M.Yo‘ldoshev ta‘biri bilan aytganda, bunday maqol “matnning motivatsion yaxlitligi va kompozitsion butunligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi funksional birlik”²⁰⁵ vazifasini bajaradi. Zero, mazkur maqol ertak syujeti doirasida devona personaji tilidan berilib, voqea rivojiga motivatsion asos yaratadi, shu orqali badiiy matnning struktural birligi va semantik uyg‘unligini mustahkamlaydi.

²⁰⁵ Ўўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоетик таҳлили асослари. – Тошкент, 2007. – Б. 17.

Intertekstuallik jarayonida maqollarning funksional-semantik roli faqat sarlavha pozitsiyasida namoyon bo‘lish bilangina chegaralanmaydi. Aksariyat hollarda yakuniy xulosani taqdim etish vazifasini ham bajaradi. Masalan, “Kenja botir” ertagida qahramonning bardoshi va sabr-toqati aforistik birlik sifatida keltirilgan **“Yigit bo‘lsang, yiqilmaysan, bardam bo‘lsang, bardosh berasan”** maqoli orqali lingvopoetik tarzda yoritiladi. “Pahlavon Rustam” ertagida esa voqealar yakunida didaktik mazmuni ifodalovchi **“Birovning yurtida shoh bo‘lgandan, o‘zingning yurtingda gado bo‘l”** maqoli xulosa sifatida qo‘llanadi. Shuningdek, “Tan sihatlik – tuman boylik” ertagida intertekstuallik ikki maqol asosida yuzaga keladi: **“Sog‘ tanda, sog‘ aql”** va **“Kishining tan-joni sog‘ligi – tuman boyligi”**. “Otangga qilsang, bolangdan qaytadi” ertagida esa ertakchi nutqida **“Otangga qilganingni o‘g‘lingdan, onangga qilganingni qizingdan ko‘rsan”** maqoli yakuniy xulosa sifatida keltiriladi. Bu holatlar maqollarning motivatsion-kompozitsion birlik sifatida ertak matnining struktura yaxlitligini ta‘minlashdagi o‘rnini tasdiqlaydi hamda **“bekorga aytmaganlar”**, **“deganlari shu ekan”**, **“elda bir maqol bor”**, **“deganlar”** kabi ifodalar orqali ertak matni va intertekst o‘rtasidagi aloqaning yaxlitligini ta‘minlanadi.

Keltirilgan misollar tahlilidan ko‘rinadiki, ertak matnlarida intertekstual birlik sifatida kiritilgan maqollar, asosan, syujet yakunida voqealar rivojidan kelib chiqadigan didaktik xulosani ifodalash vazifasini bajaradi. Bunday maqollar ertak voqealari davomida shakllangan g‘oya va mazmuni umumlashtiradi hamda o‘quvchi yoki tinglovchining ongida asarning asosiy ma‘naviy-estetik mazmunini mustahkamlaydi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarda bugungi kunda ko‘chma ma‘no kasb etib, maqol shaklida mustahkamlangan til birliklari ham uchraydi. Ushbu hodisani baholash jarayoni, albatta, muayyan darajada munozaralidir. Chunki ertak matnida hozirgi kunda maqol ko‘rinishida mavjud bo‘lgan birlik, agar asliy matnda kontekstual vazifani bajarib kelgan bo‘lsa, uni intertekstual birlik sifatida talqin etish masalasi shubha uyg‘otadi. Mazkur fikrni izohlash uchun quyidagi matnga murojaat qilamiz:

Bir shudgorga kelsalar, bir parcha quyruq yotgan ekan. Och qolgan bo‘ri shoshilib tulkiga:

– *Men shu dumbani yeyman, – debdi. Tulki:*

– *Yema! – debdi. Bo‘ri:*

– *Nega yema deysan? – deb g‘azablanibdi. Tulki:*

– “*Bir balosi bo‘lmasa, shudgorda quyruq na qilur*”, uni yemagin, – debdi. (Oyjamol. “Bo‘ri bilan mergan”, 120-b.) Matndagi quyruqning shudgorda tuzoq sifatida qo‘yilganligi voqelikdagi real tajriba va kuzatishga asoslangani sababli, mazkur birlikni intertekstual maqol sifatida talqin qilish, ilmiy intertekst sifatida qarash noo‘rin.

Ba‘zi maqollarning semantik talqini va etimologik izohi borasida turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Xususan, “*Gap ko‘p, ko‘mir oz*” maqoli ham shunday munozarali birliklardan biridir. Maqolning etimologiyasi haqida xalq orasida: “O‘tmishda uzundan uzoq qish kechalarida qo‘ni-qo‘shnilar, yor-do‘stlar bir uyga yig‘ilib, tancha atrofida o‘tirib olib, gurunglashardilar. Shunda suhbat haddan tashqari cho‘zilib ketsa, uy egasi yoxud suhbatdoshlardan biri “yarim hazil, yarim chin” qabilida: “Yetar endi, vaqt ham allamahal bo‘ldi, uy-uyingizga jo‘nangiz endi”²⁰⁶ degan izohi mavjud. Ertaklar tilida mazkur maqol intertekstual birlik sifatida qo‘llangan: – *Ey, og‘ayni, gapirsam gap ko‘p, ko‘mir oz. Dardimni yorsam tugamaydi, yozsam daryo suvi quriydi, – debdi.* (“Uch og‘ayni botirlar”. “Non qudrati”, 295-b.) Mazkur maqol evfemik xarakterga ega bo‘lib, vaqtning cheklanganligi va suhbatning nihoyasiga yetishini ifodalagan. Maqolning mazkur kontekstdagi qo‘llanilishi uning intertekstuallik funksiyasini namoyon qiladi, ya‘ni xalq og‘zaki ijodidagi mavjud bir matn bo‘lagi ertak matniga kirib kelib, unda muayyan g‘oyaviy va kompozitsion vazifani bajaradi. E.Vohidov “So‘z latofati” kitobidagi “Ko‘mirga aylangan umr” ruknida ushbu maqolning semantik transformatsiyasi haqida shunday fikr bildiradi: “Bu ibora aslida gap ko‘p-ku, umr oz bo‘lgan. -ku yuklamasining keyingi so‘zga qo‘shilib ketishi natijasida umr so‘zi ko‘mirga aylangan. Asliyatini tiklasak, dunyoning dardini aytishga umr yetmaydi, degan falsafiy xulosa chiqadi”²⁰⁷. Demak, bu izoh maqolning falsafiy-semantik asosini vaqtning o‘tkinchiligi va inson umrining chegaralanganligi bilan bog‘laydi.

Ko‘rib chiqilgan ikki izoh ikki xil etimologik va semantik yondashuvni ifodalasa-da, ularning mazmuniy yadrosi **vaqtning g‘animatligi** g‘oyasiga asoslangan. Ertak matnida maqolning intertekstual qo‘llanilishi esa ushbu ikki talqinning ham mohiyatini mujassamlashtiradi: birinchidan, suhbatning tugatilishini bildiruvchi

²⁰⁶ Шомакмутов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. – Б. 81.

²⁰⁷ Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 22.

pragmatik vazifa, ikkinchidan esa inson umrining qisqaligi haqidagi falsafiy ma'noni anglatadi.

Ertaklarda maqollarning intertekstual rolini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Tadqiqot davomida anglashildiki, maqollar, ko'pincha, ertaklarning tahliliy va didaktik jihatlarini kuchaytirish maqsadida ertak matniga olib kiriladi.

Ertakchi o'zining hikoya qilish jarayonida, madaniy va tarixiy kontekstlardan kelib chiqqan holda, mazkur intertekstual elementlarni muayyan ijtimoiy-tarixiy voqealar bilan bog'lab, tinglovchiga nafaqat o'ziga xos badiiy dunyo yaratadi, balki unga ma'lum bir bilim yoki tasavvur ham beradi. Ertakning tinglovchisi, bu intertekstual aloqalarni anglab, o'zining madaniy xotirasini yangilab, o'zi yashayotgan jamiyat va uning tarixiga bo'lgan tushunchasini kengaytiradi. Bunday jarayonda intertekstuallikning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida pretsedent birliklar alohida ahamiyat kasb etadi.

Pretsedent birliklar, xususan, pretsedent nomlar milliy ongda mustahkam joylashgan va tinglovchiga oldindan tanish bo'lgan real yoki mifologik shaxs, joy, hodisa nomlarini o'z ichiga oladi. O'zbek xalq ertaklari matnida, ko'pincha, islomiy qarashlar ta'sirida shakllangan aksariyat og'zaki ijod namunalarini uchun umumiy bo'lgan diniy-mifologik tushunchalar obrazlashtiriladi. ***Munkar va Nakir, Jabroil, Azroil, Hotami toy, Xizr, Hazrat Ali*** kabilar ertak matnlarida pretsedent nom sifatida namoyon bo'ladi. Quyida mazkur teonim va mifoantroponimlarning o'zbek xalq ertaklari matnlarida intertekstuallikni yuzaga keltiruvchi pretsedent nom sifatida namoyon bo'lish holatlari, ularning kontekstual-semantik funksiyalari hamda lingvopoetik vazifalarini ko'rib o'tamiz.

Munkarnakir gurzisi bilan bir urganda, agar sher bo'lsa ham necha dumalab ketadi. (O'zbek xalq ertaklari. "Susambil", 14-b.) misolida ***Munkar va Nakir*** diniy-mifologik tasavvurlarda qabrda *so'roq qiluvchi* va *jazolovchi* farishtalar nomi sifatida namoyon bo'lib, tilshunoslikda mifoantroponim sifatida tasniflanadi²⁰⁸. Ushbu kontekstdagi qo'llanish onomastik metafora funksiyasini bajaradi, ya'ni harakatdagi kuch va ta'sir darajasi jihatidan voqea ishtirokchisi ertakdagi personaj – ho'kiz Munkar va Nakir obraziga qiyoslanadi. Bunday qiyos badiiy matnda ekspressivlikni kuchaytiradi, obrazning semantik ko'laminini kengaytiradi va kitobxon ongida yanada jonli, ta'sirchan tasavvur uyg'otishga xizmat

²⁰⁸ Ахмаджонов Н. Бадий услубда қўлланган прецедент номларнинг лингвопоетик таҳлили. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – Б. 23.

qiladi. *Men xudoning yuborgan Azroiliman. Shu joyda qirqta dev bor ekan. Shularning jonini olaman, – debdi.* (Oyjamol. “O‘tinchi chol bilan tulki”, 128-b.) misolida jon oluvchi farishtaga ishora qilsa, quyidagi matnda Hotami toy aynan poetonim sifatida berilib, saxiylik etalonini ifodalab keladi: – **Hotam men bo‘laman.** *Podshoh aytgan otni bisotimda boshqa narsa bo‘lmaganidan, kecha so‘yib, sizga ovqat qildim. Siz oshiq yigit ekansiz, siz uchun bitta bosh emas, mingtasi ham qurbon bo‘lsin, – deb Muqbil oldiga tiz cho‘kib, boshini tutibdi.* (Oltin beshik. “Muqbil toshotar”, 112-b.)

Ertaklar o‘zining an’anaviyligi, xalq og‘zaki ijodining uzluksizligi hamda ajdodlar merosining ifodasi sifatida tarixiy va madaniy kontekstni saqlab qolganligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ularda qo‘llangan matnlarni tahlil qilish va intertekstual aloqalarini ko‘rib chiqish ertaklarning yaratilgan davrini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ertak matnlaridagi teonim, mifonimlar bilan bog‘liq pretsedent nomlar emas, balki tarixiy shaxslarning ertak matnlaridagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Intertekstuallik, avvalo, bir matnning boshqa matnlar bilan bog‘lanishini, ya’ni o‘zaro aloqalarini, ta’sirlar va taqlidlarni o‘rganishni anglatadi. Xalq ertaklari turli zamon va makonda shakllangan badiiy va madaniy aloqalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Xususan, “*Ibn Sino va tarbiya*”, “*Navoiy bilan cho‘pon*”, “*Navoiy va Husayn*”, “*Navoiy bilan mardikor*” kabi ertaklar **Ibn Sino, Navoiy, H.Bayqaro** haqida yozilgan ertaklar, ularning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq tarixiy faktlarga asoslanib, keyingi davrda shakllanganligi ko‘rinadi. Masalan, Ibn Sino va Navoiy haqidagi ertaklar uning falsafiy, ilmiy tarbiyaga oid asarlaridan tashqari, ramziy jihatlarni o‘z ichiga oladi.

“Adabiyotshunoslikda adabiy parodiya deb ataluvchi asarlar matnlari ham intertekstuallikdan holi bo‘lmaydi”²⁰⁹. Adabiy parodiya ma’lum bir asar, muallif yoki janrning uslubini, xususiyatlarini hazil, kinoya yoki tanqid qilish maqsadida taqlid qilishdir. Parodiya kulgili vaziyatlar yaratish orqali asl matnga yangicha nazar bilan qarashga undaydi. Parodiya shaklidagi ertaklar ham mavjud bo‘lib, ular ma’lum bir asar, syujet yoki obraz tizimini qayta jonlantirish, uni badiiy transformatsiya qilish orqali yangi ma’no qatlamlarini hosil etish hamda tinglovchi yoki o‘quvchida yangicha estetik idrok uyg‘otish maqsadida yaratilganligini kuzatish mumkin. Bunda xalq ertaklari tarkibida ba’zan yozma adabiyot

²⁰⁹ Ёўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент, 2007. – Б. 132.

namunalaridan, xususan, bolalar adabiyotiga mansub asarlardan intertekstual parchalar kiritilish holatlari uchraydi. “Noshud bola” nomli xalq ertagida G.G‘ulomning “Shum bola” (1936) qissasining ba’zi syujet elementlari va obraz xususiyatlarining takrorlanishini kuzatish mumkin. Ertak 1956-yilda yozib olingan bo‘lib, u davrga kelib “Shum bola” asari xalq orasida keng tarqalgan va o‘quvchilar xotirasida o‘z o‘rnini topgan edi. Bu holat ertakdagi intertekstual aloqaning shakllanishiga zamin yaratgan, ya’ni og‘zaki matn yozma manbadan oziqlangan. Ertakdagi bosh qahramonning nohud, sarguzashtlarga moyil, me’yorlardan chetga chiqadigan xarakteri “Shum bola”dagi Qoravoy obrazini eslatadi. Ayniqsa, ayrim epizodlar, jumladan, *qushlarga qatiq berish, eshakni so‘yib yuborish* kabi qissadagi o‘xshash syujetlarga bevosita ishora qiladi. Bu esa intertekstuallikning ko‘rinishlaridan biri – parodiya ko‘rinishda namoyon bo‘lganligidan dalolat beradi. Ushbu syujet transpozitsiyasi og‘zaki va yozma adabiyot o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmini ko‘rsatadi. Shuningdek, intertekst sifatida ishlatilgan matn (bu holda – “Shum bola”dan ayrim epizodlar) allaqachon auditoriya (tinglovchi yoki o‘quvchi)ning lisoniy va madaniy xotirasida shakllangan bo‘lganligi sababli, u ertakda tanishlik hissini uyg‘otadi. Bunday adabiy parodiya “Andijonlikning hikoyasi” ertagi epizodlarida kuzatiladi. Xususan, ertak syujeti va poetik kompozitsiyasida “Shum bola” qissasiga xos voqea epizodlarning badiiy transformatsiyasi amalga oshirilgan: *boyning uyida xizmat qilish, kafanchiga (qissada – o‘lik yuvuvchilar; ertakda – kafan tikuvchilar) yordam berish* sahnalari hamda *tom ustidan qochish* voqealari qayta semantizatsiyalanib, ertakning estetik butunligi tarkibiga singdirilgan.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, intertekstuallikning xalq og‘zaki ijodiga ham tadbiiq etilishi mumkin. Bu esa xalq ertaklarining yozma adabiyot bilan o‘zaro bog‘liqligi, ularning doimiy evolyutsion holatda ekanidan dalolat beradi. Demak, ertaklar nafaqat qadimgi madaniy qatlamlarni, balki zamonaviy adabiy kontekstni ham o‘zida aks ettiradi.

M.Yo‘ldoshevning intertekstuallikni “Muayyan badiiy matn tarkibida o‘zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi”²¹⁰ sifatida talqin etishi va D.Xudoyberganovanning ushbu yondashuvni qo‘llab-quvvatlab, “Pretsedentlik intertekstuallikning namoyon bo‘lish shakllaridan biri bo‘lib, til egalarining asosiy qatlamiga yaxshi tanish

²¹⁰ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 116.

ekanligi, nutqda qayta-qayta qo‘llanishi bilan xarakterlanadi”²¹¹, degan qarashlari ilmiy jihatdan asosli va dolzarbdir. Zero, pretsedent birliklar til egalarining xotirasiga singib ketgan bo‘lib, ular matnlararo aloqadorlikni faollashtiradi, nutqda esa qayta-qayta qo‘llanishi orqali semantik rezonans (aks-sado) hosil qiladi. Ushbu hodisa, ayniqsa, antroponimlar, maqollar, aforizmlar va folklor elementlarining badiiy matn tarkibida ishlatilishida namoyon bo‘ladi. Shunga asoslanib, pretsedent birliklarni intertekstuallikning faol mexanizmlaridan biri sifatida o‘rganish muhimdir.

Intertekstuallikning muhim ko‘rinishlaridan biri allyuziya hisoblanadi. Allyuziya hodisasini D.Gudkov shunday izohlaydi: “Allyuziv nomlar mashhur adabiy yoki tarixiy-madaniy faktga ishora qiluvchi nomdir”²¹². Darhaqiqat, allyuziya, odatda, ma’lum tarixiy shaxs yoki voqeaga, madaniy hodisaga bilvosita ishora tarzida namoyon bo‘lib, matnning semantik qatlamini boyitadi hamda o‘quvchi ongida assotsiativ maydon hosil qiladi. O‘zbek xalq ertaklarida allyuziya keng qo‘llanilmaydi, biroq ayrim hollarda tarixiy-madaniy kontekstlarga yoki ijtimoiy-siyosiy voqeliklarga ishora shaklida uchrashi kuzatiladi. Bunday intertekstual birliklar matnning yashirin ma’nosini kengaytirib, uni o‘quvchi madaniy xotirasi bilan bog‘lash orqali kontekstual-semantik maydon hosil qiladi. Quyidagi ertak matnida ushbu holatni ko‘rish mumkin:

Bunyod askarlarni, bir saf qilib tizibdi-da, birin-ketin sanab chiqibdi. Hamma askarlar soni o‘ttiz mingga yetibdi. Podsho butun askarlarga qurollar beribdi. Bunyod podshoning ruxsati bilan askarlarni bo‘libdi, ulardan o‘n mingini chegaraning o‘ng tomoniga, o‘n mingini chegaraning chap tomoniga qo‘yib tayyorgarlik qilib turishganda, uzoqdan chang ko‘tarib kelayotgan otliq askarlarga ko‘zlari tushibdi. (Oltin beshik. “Bunyod polvon”, 133-b.)

Berilgan ertak matnida bayon etilgan jangovar taktikalar, oddiy xalq og‘zaki ijodi parchasiga o‘xshasa-da, ularda sarkarda A.Temurning “To‘lg‘amo” jang usulining ayrim jihatlariga nisbatan alluziya mavjud. Bu harbiy jang san’atini A.Oripov quyidagicha ko‘rsatadi:

*To‘lg‘amo deb atalguvchi bir yo‘limiz bor,
Yetkazingiz o‘ng qanot-u ham so‘l qanotga.
Mironsho-u Shohruh Mirzo ikki tarafdan*

²¹¹ Худайберганава Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2015. – Б. 153.

²¹² Гудков Д.П. Теория и практика межкультурной коммуникации. – Москва: Гнозис, 2003. – С. 149.

*Yog‘iylarni o‘rab olsin!*²¹³

Ertak qahramoni Bunyod podshohning 30 ming kishilik qo‘shinini uch qismga bo‘ladi: 10 ming kishilik ikki qanotni chegaraning o‘ng va chap tomonlariga joylashtiradi, uchinchi qism esa markazda qoladi. Bu bo‘linish A.Temur qo‘shinining asosiy tarkibiy qismlarini eslatadi: **qul-qon va qul-yarog‘ (o‘ng va chap qanotlar) va qo‘l (markaz)**. Ertakdagi oddiy taqsimot, aslida, temuriy sarkardalik san‘atining murakkab strategik tuzilishining soddalashtirilgan ko‘rinishidir. Bunyodning qo‘shinni strategik taqsimlashi va dushmani kutib turib zarba berishga tayyorlanishi bevosita “To‘lg‘ama” nomini tilga olmasa-da, Temuriy harbiy san‘atga xos xususiyatlarga ishora qilinishi alluziyadir.

O‘zbek xalq ertaklari matnlaridagi mashhur obrazlar: **Zumrad, Qimmat, Hotamtoy, Tohir va Zuhra, Qorabotir, Susambil, Ko‘hi Qof** kabilar keyingi davr ijodkorlari uchun etalon vazifasida kelishi kuzatiladi. Chunki ertak matnlarida ifodalangan poetik obrazlar, aksariyat hollarda, ertakda aynan nomlarning o‘z ma‘nosida, ishorasiz qo‘llanishi orqali ko‘rsatiladi. Masalan, *Zumrad – mehnatkashlik, Qimmat – yalqovlik, Hotamtoy – saxiylik, Tohir va Zuhra – oshiq-ma‘shuqlar, Qorabotir – raqib, Susambil – farovon yurt, tinch makon, Ko‘hi Qof – uzoq o‘lka, Xizr – homiy, g‘ayritabiiy ko‘makchi* etalonlarini ifodalab keladi. Shu o‘rinda aytish joizki: “Badiiy matnga pretsedent nomni kiritish allyuziya orqali amalga oshiriladi. Allyuziv nomlar yashirin mazmun ifodalash vositalaridan biri bo‘lib, ular matnda biror filologik yoki ijtimoiy-tarixiy faktlarga ishora qilib keladi”²¹⁴. Ertaklarda muhim etalon xususiyatlarini o‘zida jamlagan obrazlar allyuziv ko‘rsatkichga ega bo‘lib, ma‘lum maqsadda yozma badiiy adabiyot namunalarida qo‘llanilishi mumkin. Masalan, H.Olimjon “Oygul bilan Baxtiyor” dostonida badiiy maqsadda aynan Tohir va Zuhraga murojaat qiladi:

*Esimda o‘sha damlar:
O‘zi uchar gilamlar.
Tohir-Zuhra, Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh...*²¹⁵.

²¹³ Орипов А. Танланган асарлар. II жилд. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: Ф.Фулум, 2001. – Б. 425.

²¹⁴ Ахманова О., Гюббенет И. “Вертикальный контекст” как филологическая проблема // Вопросы языкознания. – Москва, 1977. – № 3. – С. 47-54.

²¹⁵ Olimjon H. Oygul bilan Baxtiyor: Dostonlar. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 1999. – B. 33.

Ushbu parcha orqali asarning bosh qahramonlari (Oygul bilan Baxtiyor)ning taqdiri bevosita Tohir va Zuhraning taqdiriga o‘xshamasda, muhabbat yo‘lida sobitqadam tura olishiga ishora qiladi²¹⁶.

Allyuzivlik masalasi tilshunoslikda alohida ilmiy e‘tibor talab etuvchi hodisa bo‘lib, bu borada D.Xudoyberganova quyidagi ta‘rifni beradi: “Obrazli qilib aytganda, allyuziv nom matndagi yashirin mazmunga olib kiruvchi eshik bo‘lsa, o‘quvchining bilimi bu eshikni ochib beruvchi kalitdir”²¹⁷. Ushbu fikr allyuziyaning mohiyatini ochib beradi, ya‘ni allyuziya matnda yashirin, bilvosita anglashni talab etadigan intertekstuallik vositasi bo‘lib, uni to‘liq anglash uchun o‘quvchi yoki tinglovchining ma‘lum kompetensiyasi ega bo‘lishi zarur.

Ertaklarda shakllangan ayrim obrazlar keyinchalik yozma adabiyotda pretsedent nom sifatida qo‘llanib, allyuzivlikning asosiy manbayiga aylanadi. Masalan, “Tohir va Zuhra” ertagining asosiy personajlaridan biri bo‘lgan Qorabotir obrazi xalq ongida **“raqib”**, **“g‘anim”** etaloni sifatida shakllangan pretsedent nomdir. Agar ushbu obrazning semantik va madaniy-etnopoetik asoslari yaxshi ma‘lum bo‘lmasa, zamonaviy adabiy matnlardagi uning allyuziv ko‘rinishlarini to‘liq tushunish mushkul.

*“Sevgilim,
sevgini sevmagan zotlar
Qaro aylasalar oq asotirni,
(Darg‘azab pishqirsa quturgan otlar)
Go‘rdan chiqarsalar **Qorabotirni...**”*²¹⁸

Bu misralarda Qorabotir xalq ertagidagi **“raqib”** obrazini ramziy tarzda tiklab, uni allyuziv indikator sifatida qo‘llash orqali she‘rning semantik maydonini kengaytiradi. She‘rning badiiy mazmunini to‘liq anglash uchun o‘quvchi **“Qorabotir”** nomining xalq og‘zaki ijodidagi mazmuniy ildizlarini bilishi lozim.

Badiiy matnda **“Zumrad va Qimmat”** ertagidagi *Zumrad* antroponimi o‘zbek xalqining ongida shakllangan oqilalik va mehnatsevarlik etaloni sifatida namoyon bo‘ladi. Sh.Xolmirzayev ijodida esa **“Zumradday”** shaklidagi qo‘llanish ushbu ertak qahramoni nomini pretsedent birlik sifatida aktualizatsiya qilib, allyuziya darajasiga ko‘taradi. Muallifning

²¹⁶ Bozorov H. O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Termiz, 2023. – B. 81.

²¹⁷ Худайбергано́ва Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентриқ талқини. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2015. – Б. 138.

²¹⁸ Mirzo I. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. – B. 60.

“Afsuski, ertak – ertak-da... Ammo Shukurjon, bizga Zumradday suyukli bo‘ladigan o‘zbek qizlarimizning obrazini ham yaratib berishingiz kerak! Bilmadim-ov Zumraddakasi yo‘g‘-ov...” kabi iqtibosida ertakdagi obraz poetik ideal sifatida talqin qilinib, zamonaviy adabiy kontekstga ko‘chiriladi.

Adabiyot tarixida nazirachilik an‘anasi, adabiy ta‘sir natijasida muayyan asarga o‘xshatma tarzida yaratilgan asarlar mavjud. Bunday badiiy matnlarda ham, albatta, intertekstuallik hodisasi voqe bo‘ladi, ya‘ni ta‘sir etgan matn mazmuni va shakli muayyan darajada intermatn sifatida ularda ishtirok etadi²¹⁹. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, H.Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni voqealarining aksariyat o‘rinlari, jumladan, Oygulning sandiqqa solinishi, baliq ichidan chiqishi, Baxtiyor va otasiga baliq ichidan olgan boylikni berishi, Jurjon voqealari “Malikayi Husnobod” ertagiga nazira tarzida yozilgan. Dostonda “Malikayi Husnobod” ertagidagi ba‘zi intermatnlar uchraydi. Quyidagi matnlar orqali ertak va dostondagi matnlarning intermatnlilik holatini tahlil qilish mumkin:

1. Chol ust-boshini yechib o‘zini daryoga tashlabdi, sandiqni tortib chiqaribdi. Uni qayerdan ochishni bilmabdi. Nihoyat, urinib-urinib o‘roq uchi bilan sandiqni ochibdi. Qarasa, husnda tengi yo‘q bir qiz yotgan emish.

*2. U yo‘q edi o‘zida:
Bir sandiq suv yuzida
Lopillab kelar edi,
To‘lqinda yelar edi.
Olmayin ikki ko‘zin,
Yechina solib darhol
Sandiq ketidan o‘zin
Daryoga tashladi chol.
Birpasda tutib oldi,
Qirg‘oq sari chiqardi.
Sandiqni ochmoq uchun
Sarf etdi butun kuchin.
Sira ocha olmadi,
Toqati hech qolmadi.
Eng so‘ngra o‘roq soldi,
Teshdi-yu, hayron qoldi...*

²¹⁹ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент, 2007. – Б. 131.

Mazkur misollar shuni ko‘rsatadiki, doston muallifi xalq ertagidagi epizodlarni intertekstuallik tamoyillari asosida qayta talqin qilib, ularni yangi badiiy tizimga moslashtirgan. Natijada ertakdagi motiv va obrazlar dostonda lingvopoetik ma’no kasb etib, xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot o‘rtasida intermatnli aloqadorlikni yuzaga keltirgan.

Ertaklarda mavjud obrazlarning pretsedentlik etaloni va pretsedent birliklarning ertak matnlarida qo‘llanishi, shuningdek, ertakdagi poetik obrazlarning allyuziv ko‘rsatkichga ega bo‘lishini quyidagicha izohlashimiz mumkin:

8-jadval

Ertak matnlaridagi pretsedent birlik va allyuzivlikning asosiy vazifalari

Belgisi	Pretsedentlik	Allyuziya
Kelib chiqishi	O‘zbek xalqining madaniy xotirasida, xalq tilida doimiy ishlatiladi	Badiiy uslub vositasi sifatida matnda qo‘llanadi
Vazifasi	Yodga tushirish, tanish madaniy kodni faollashtirish	Yashirin ishora orqali ma’no berish
Tinglovchi bilimi	Odatda keng jamoa uchun tanish	Ko‘pincha, madaniy va adabiy bilim talab qiladi
Misol	<i>Munkarnakir gurzisi bilan bir urganda, agar sher bo‘lsa ham necha dumalab ketadi.</i>	(Darg‘azab pishqirsa quturgan otlar), <i>Go‘rdan chiqarsalar Qorabotirni</i>

Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq ertaklarida intertekstuallik hodisasi nafaqat badiiy-estetik boylik, balki xalq xotirasining bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Maqollar, baytlar, pretsedent nomlar va tarixiy obrazlar orqali ertak matni boshqa matnlar bilan muloqotga kirishadi, bu esa o‘quvchida tanishlik hissini uyg‘otadi. Xalq ertaklari yozma adabiyot bilan uzviy bog‘lanib, o‘zbek madaniyatining uzluksiz rivojlanishida muhim vositaga aylanadi. Intertekstuallik orqali ertaklar nafaqat o‘tmishni eslatadi, balki zamon bilan hamohang bo‘lib, yangi estetik qatlamlarni yaratadi.

ERTAK MATNINING LINGVOFOLKLORISTIK XUSUSIYATLARI

Topishmoqlar: til va folklor uyg'unligi

Jahon folklorshunosligida topishmoq janri keng qamrovli tadqiqot obyektiga aylangan. Fundamental izlanishlar natijasida topishmoqlarning poetikasi va pragmatik funksiyalari bo'yicha salmoqli nazariy va amaliy yutuqlarga erishildi. Bundan tashqari, ushbu janrning genezisi, xalqaro tipologiyasini va syujet-turlari, ramziylik ifodasi, mavzusi va badiiy-lisoniy hamda lingvistik modellari, tuzilish va stilistik jihatlari, o'yin va ijro kontekstidagi o'rni, strukturasiga, konteksti va tarixiga oid zamonaviy kompleks yondashuviga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirildi²²⁰. O'zbek tilshunosligida topishmoqlarning folklor²²¹ va lingvistik²²² jihatlari, shuningdek, qiyosiy tadqiqi²²³ doirasida yirik tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu esa ushbu janrning lingvofolkloristik tadqiqini amalga oshirish uchun yetarlicha manba borligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, topishmoq o'zbek folklorining qadimiy janrlaridan biri bo'lib, Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida topishmoq terminining "tabuzug'" atamasi va "tabuzug' tabuzdim", ya'ni "Men undan bir topishmoqni so'radim" birikmasining qayd etilishi XI asrdayoq

²²⁰ Robert Petsch. Neue Beiträge zur Kenntnis des Volksrätsels. – Berlin: Mayer & Müller, 1899. – 152 s.; Arne A. Vergleichende Rätselforschungen. – Borgå: Kalevala Society, 1919. – 216 s.

Taylor A. English riddles from oral tradition. Berkeley and Los Angeles. University of California press, 1951. – 959 s.; Roger D. Abrahams Deep Down in the Jungle... Negro Narrative Folklore from the Streets of Philadelphia. Pennsylvania – Philadelphia: Published, 1964. – 287 p.; Dan Ben-Amos. Folklore Genres. Austin & London: University of Texas Press, 1981. – 291 p.; Пермяков Г.Л. Основы структурной паремииологии. – Москва: Наука, 1988. – 236 с.; Журицкий А.Н. Семантическая структура загадки. – Москва: Наука, 1989. – 128 с.; Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Наука, 1970. – 387 с.; Мелетинский Е.М. О литературных архетипах / Российский государственный гуманитарный университет. – Москва: 1994. – 136 с.; Annikki Kaivola-Bregenhøj. Riddles: Perspectives on the Use, Structure, and History. – Helsinki: Finnish Literature Society, 2001. – 186 p.

²²¹ Хусаинова З. Основные особенности и источники узбекских народных загадок. Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967. – 233 с.; Жўраева М. Ўзбек халқ топишмоқларининг генезиси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.афтореф. – Тошкент, 2017. – 51 б.

²²² Саитбаева М.Н. Именное сказуемое в узбекских народных загадках. Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 135 с.; Абдуллаев Ж.Х. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 20 с.; Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 125 б.; Қобулова У.С. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 121 б.

²²³ Nurmatova Sh. O'zbek va Xitoy folklor namunalari qiyosiy tadqiqi (ertak, maqol va topishmoq janrlari misolida). Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.aftoref. – Toshkent, 2017. – 55 b.; Abdujabborova Sh. Ingliz va o'zbek tillarida topishmoqlarning lingvopragmatik va lingvokulturologik tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.aftoref. – Andijon, 2024. – 56 b.; Xudoyev S. O'zbek va nemis topishmoqlari tipologiyasi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.aftoref. – Buxoro, 2025. – 50 b.

topishmoq aytish an'anasi keng rivojlanganligidan dalolat beradi²²⁴. Bu esa topishmoq janrining o'zbek folklorida qadimdan mavjud ekanligini, xalq og'zaki ijodining tarixiy janri ekanligini isbotlaydi.

Ta'kidlash joizki, topishmoqlarning ertak kontekstidagi integratsiyasi va funksional yuklanmasi lingvofolkloristik aspektida keng qamrovda o'rganilmagan. Shuningdek, mazkur janrning ertaklar syujetida **“sinov elementi”** yoki **“mantiqiy yechim”** sifatida namoyon bo'lishining lingvistik mexanizmlari tadqiqot obyekti sifatida shakllanmagan. Shu nuqtayi nazardan, ertaklar tarkibidagi topishmoqlarning lingvofolkloristik tadqiqi, ularning kognitiv asosi, lingvistik strukturasi, ertak qahramonlarining kommunikativ strategiyasidagi roli va matn ichidagi janrlararo sintez masalalarini yoritish nuqtayi nazaridan hozirgi folklorshunoslik va tilshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi ilmiy yo'nalishni ochib beradi.

Topishmoqlar, aksariyat hollarda, poetik tasvir va metaforaga asoslangan bo'ladi. Unda predmet yoki hodisa bilvosita, majoziy ma'noda ta'riflanadi. Topishmoq so'roq shaklida bo'lib, javob esa matnning mantiqiy yechimi yoki qahramonning aqli-farosatini, topqirligini, mantiqiy fikrlash qobiliyatini sinash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, an'anaviy-maishiy sinovlarda so'z o'yinlaridan keng foydalaniladi: *Otajon, siz podshoning oldiga borib savolini yeching va yurtni zulmdan qutqaring. Birinchi savolga:*

Qadim zamonda bir podsho o'tgan ekan. Kunlardan bir kun podsho o'z eliga ikkita savol beribdi.

– Shirindan shirin nima? Achchiqdan achchiq nima?

Podsho bu savolni yechish uchun odamlarga qirq kun muhlat beribdi. (Oyjamol. “Dono qiz”, 6-b.) misolida qahramonning topqirligi sinovdan o'tkaziladi. Mazkur topishmoqning asosini **“shirin”** va **“achchiq”** leksemalari tashkil etadi. Bu sifatlar odatda ta'm bilish sezgisini ifodalasa-da, ertak kontekstda ular metafora orqali aksemiologik ma'noni ifodalamoqda: shirindan shirin – *eng oliy ne'mat, hayotiy totlilik, zavq, muhabbat, baraka*. Bu superlativ daraja semasi eng yuksak qadriyatni izlashga chorlasa, achchiqdan achchiq – *eng og'ir fojia, azob, kulfat, noilojlikni* ifodalaydi. Bu ham orttirma daraja bo'lib, mavjudlikning eng yomon ko'rinishini belgilaydi. Savollar nominal so'roq gaplar tarzida shakllangan. Aytish mumkinki, podshoning topishmog'i leksik-

²²⁴ Bu haqida qarang: Жўраева М. Ўзбек халқ топишмоқларининг генезиси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореп – Тошкент, 2020. – Б. 11.

grammatik parallelizm asosiga qurilgan bo‘lib, savollarning ritmik tuzilishini ta‘minlaydi va ularni eslab qolishni osonlashtiradi. Shuningdek, mazkur topishmoq antiteza asosida shakllangan bo‘lib, turkiy xalqlarning dunyoqarashida azaldan mavjud bo‘lgan dualistik falsafani ifodalaydi. Topishmoq javoblari, ya‘ni “bola” va “o‘lim”da ham semantik qarama-qarshilik mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Ushbu topishmoq nafaqat ko‘ngilochar, balki falsafiy-didaktik xususiyatga ega. Uning podsho tomonidan berilishi ertakning strukturasi etiologik (kelib chiqish sababi) va siyosiy-ijtimoiy ruh bag‘ishlaydi. Xalq ertaklaridagi kabi topishmoqni yechish zulmdan qutulish yoki yurtning taqdiri bilan bog‘lanadi, bu esa uning gnoseologik ahamiyatini oshiradi.

“Oyjamol bilan kal” ertagi to‘liq topishmoq asosida qurilgan. Oyjamol tomonidan berilgan topishmoq an‘anaviy folklor motivi hisoblangan sinov motivi yuzaga chiqaradi.

Oyjamol: – Uzun-uzun hamyon, undan uzun hamyon, uni toping dilbarim? – debdi. (Oyjamol. “Oyjamol bilan kal”, 60-b.) Matndagi “Uzun-uzun hamyon, undan uzun hamyon” topishmog‘i folklorning noyob namunasi. Unda makon bilan bog‘liq tabiiy hodisalar: *tutun* va *bulut* kundalik hayotdagi oddiy buyum: “*hamyon*” orqali metaforik tarzda ifodalangan. Topishmoqdagi “*uzun*” leksemasi vizual sifat bo‘lib, obyektlarning vertikal yo‘nalishdagi cheksiz cho‘ziluvchanligini ifodalaydi. “Hamyon” metafora vositasida qo‘llanilgan. Topishmoqning “*tutun*” va “*bulut*” javoblarini berilishida ramziylik mavjud bo‘lib, asl o‘xshatish va o‘xshatilmish o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash uchun hamyon so‘zining ma‘nolariga diqqat qilish talab etiladi. Hamyon – 1) pul solib, yonda, cho‘ntakda olib yuriladigan xaltacha; karmon; 2) cho‘ntak, ya‘ni pul solinadigan joy; 3) kimsaga tegishli pul, mablag‘. [O‘TIL. V. 498-b.] Mazkur izohlardagi pul solib, yonda, cho‘ntakda olib yuriladigan xaltacha bulutga, pul, mablag‘ esa tutunga qiyos qilingan. Shuningdek, “*uzun*” topishmoqning markaziy tushunchasi bo‘lib, bulut va tutun o‘rtasidagi ramziy ifodalarni yaratishga asos bo‘lgan. Xususan, bulut doimiylik, yomg‘ir (ne‘mat, baraka) va cheksiz fazo ramzi hisoblanadi. U tutundan ustun, chunki u butun osmonni qamrab olishi mumkin. Bu esa bulutning mutlaq uzun ekanligini ko‘rsatadi. Tutun esa, bir tomondan, hayot ishorasi, ya‘ni o‘choq, issiqlik, ovqat pishirish, boshqa tomondan esa, vaqtinchalik, uchuvchanlik ramzi. Chunki tutun o‘z-o‘zidan yo‘qoladi (tugaydi), bu esa dunyo narsalarining o‘tkinchiligiga ishora

qiladi. Topishmoq komparativ kuchaytirish modelida shakllangan bo‘lib, bu uning poetik tuzilishini belgilaydi:

A – X/ uzundan uzun/ A – Y

Bu yerda A – “hamyon” metaforasi, X – “tutun”, Y – “bulut”. Y obyektining X obyektidan ko‘proq cho‘ziluvchan, ya’ni mutlaq ustunlikka ega ekanligi “undan uzun” orqali ta’kidlanadi.

O‘zbek xalqining yetuk tafakkur egasi ekanligi bevosita ertakda, aql-farosati va zakiyligini ifodalashda esa ertakda sinovchi va sinaluvchi o‘rtasidagi topishmoqlarning saviyasi va so‘z topqirligida namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi ertak qahramoni Oyjamolning topishmoqni badiiy tarzda ifodalashi hamda Kal obrazining javobida ham bu holatni keyingi o‘rinlarda davom etganida ko‘rish mumkin:

Oyjamol:

Qamish uchi qaltiroq, igna uchi yaltiroq, buni toping, dilbarim? – debdi.

Kal:

– Qamish uchi qaltiroq – shamol aning emasmi, Igna uchi yaltiroq – chiroq aning emasmi? Topdimmi, dilbarim, topmadimmi, dilbarim? – debdi. (Oyjamol. “Oyjamol bilan kal”, 60-b.)

Topishmoq o‘zaro bog‘liq, ammo bir-biridan farq qiladigan ikkita narsa asosida qurilgan: tabiat elementi – “qamish” va maishiy, sun’iy element – “igna”. Bu ikki obyektning umumiy xususiyati ularning uchiga qaratilgan. **“Qaltiroq”** va **“yaltiroq”** sifatlari topishmoqning asosi hisoblanadi. Xalq ijodining mahorati, didi har bir elementning eng kichik detallariga e’tibor berilishi bilan o‘lchanadi. Jumladan, havola etilayotgan topishmoqdagi *qaltiroq* sifati harakatni, beqarorlikni, noziklikni ifodalaydi. Uning birinchi qatorda qo‘llanishi kinestetik sezgini yuzaga keltiradi. *Yaltiroq* sifati esa yorug‘lik bilan bog‘liq bo‘lib, barqarorlik, porlash, kichiklikni anglatadi. Uning qo‘llanilishi vizual sezgisiga ta’sir qiladi.

Matn “ot + ot + sifat, ya’ni “qamishning uchi + qaltiroq”; “igna uchi + yaltiroq” parallel a’zolar orqali shakllangan: Bu tuzilish topishmoqqa ritmiklik va jarangdorlik beradi. Eng muhimi, bu yerdagi fonetik parallelizm kuchli badiiy tasvir vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Topishmoqning gnoseologik vazifasi insonning ko‘rish idrokini faollashtirishdan iborat. Kichik va nozik obyektlarning harakati va yorug‘ligini kuzatish orqali tabiatdagi murakkab jarayonlar soddalashtiriladi. Ertak kontekstidagi quyidagi topishmoqqa e’tibor

qaratilsa, Oyjamol va Kal obrazi orqali o‘zbek xalqi tafakkurining o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi:

Takur-tukur takrabo, ichi to‘la mehribo, uni toping dilbarim? – debdi. Kal:

– *Takur-tukur takrabo* – **beshik** aning emasmi, *Ichi to‘la mehribo* – **bola** aning emasmi? (Oyjamol. “Oyjamol bilan kal”, 60-b.) Ushbu topishmoq o‘zbek xalq og‘zaki ijodining maishiy-ijtimoiy mavzuga bag‘ishlanganligi bilan e‘tiborli. Topishmoq semantik maydonini taqlid hamda sifat so‘z turkumi tashkil etadi. “*Takur-tukur*” taqlid so‘zi beshikning tebranishi natijasida chiqaradigan ritmik va bir xil tovushini ifodalaydi. Bu so‘z matnga auditiv sensor elementini olib kiradi va topishmoqning birinchi qismiga kinestetik (harakatga keltiruvchi) ma‘no beradi. “*Takrabo*” leksemasi tak – “yakka”, rabo – “jalb etuvchi”, “*mehribo*” leksemasi esa “mehr” hamda “quyosh” ma‘nosini ifodalaydi. Bundan kelib chiqadiki, “Yakka o‘zi takir-tukurlab jalb etadi, ichi quyosh nuridek mehrga to‘la”. Birinchi qismda “*Takur-tukur takrabo*” alliteratsiyani hosil qilib, ritmiklikni oshirib, go‘yo bevosita beshikning tebranish tovushini eslatishga xizmat qilgan.

Sassiq ko‘lda it hurar, uni toping dilbarim? – debdi. Kal.

– *Sassiq ko‘lda it hurar* – **baqa** akang emasmi? (Oyjamol. “Oyjamol bilan kal”, 60-b.)

Topishmoq bir-biridan uzoq, ammo umumiy qiyos orqali bog‘langan uchta asosiy leksik birlik: “*sassiq ko‘l*”, “*it*” va “*hurar*”dan tashkil topgan. Bunda “*sassiq ko‘l*” topishmoqning makoniy va hid bilish kodini beradi. “Sassiq” sifati ko‘lning botqoqligi, zaxligi, noxush hid taratishini bildiradi. Bu esa yashirin obyekt (baqa)ning yashash joyi haqida aniq ma‘lumot beruvchi muhim belgidir. “*It*” topishmoqdagi markaziy elementidir. Bu yerda itning o‘zi emas, balki uning harakati – hurishiga ishora qilingan. “*Hurar*” fe‘li baqaning qanday tovush chiqarishini emas, balki tovushning mavjudligini ta‘kidlash orqali tovushga taqlid vazifasini bajargan.

Aytish mumkinki, bu kabi topishmoqlar matnning didaktik va estetik qiymatini oshiradi, tinglovchini faollikka undaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq ertaklaridagi topishmoqlar shunchaki lingvistik shakl emas, balki til va madaniyat o‘zaro aloqasini ko‘rsatuvchi muhim lingvofolkloristik hodisadir. Ular ertak matnini boyitib, qahramonning xarakterini ochishga yordam beradi, tinglovchida

esa mantiqiy fikrlashni, topqirlikni va ona tilining majoziy ifodalarini anglashni rivojlantiradi.

Xalq ertaklari tilida mavjud qarg‘ishlarning lingvofolkloristik tadqiqi

Nutqning shakllanishi, ya’ni lingvistik vositalar va nutqiy janr tanlovi bevosita muloqotning predmet-mazmuniy vazifasidan kelib chiqib belgilanadi²²⁵. Bu vazifa va pozitsiyada inson tuyg‘ularini ifodalovchi til birligi sifatida qarg‘ishlar alohida ahamiyatga ega.

O.Safarov “Devonu lug‘otit turk” hamda “Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati”ga asoslanib, “qarg‘ish” leksemasining etimologiyasini: “Qarg‘a” fe’lining “la’natlamoq”, “haqoratlamok” ma’nolarini, “Qirg‘a” fe’lining esa “koyimoq, so‘kmoq, urishmoq” ma’nolarini ifoda etuvchi va asosidagi “Qir” fe’lining “yo‘qot”, “yo‘q qilib yubor” degan ma’nolarni “qarg‘ish” so‘zining kelib chiqishiga asos bo‘lgan”²²⁶ligini qayd etadi.

Qarg‘ishlar jahon ilm-fanida turli fanlar doirasida o‘rganilgan bo‘lib, asosiy e’tibor qarg‘ishlarining evolyutsiyasi, ijtimoiy xavf-xatar bilan bog‘liqligini, turli madaniyatlardagi yomon istaklar va ulardan himoyalanih, xurofiy qarashlarning qarg‘ishlarga yaqinligi turishi, shuningdek, qarg‘ishlar va arvohlar qasosi tushunchalarini antropologik jihatlariga qaratilgan²²⁷. Qayd etish lozimki, qarg‘ishlarning lingvistik, folkloristik va qiyosiy tadqiqi²²⁸ o‘zbek olimlari tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, lingvofolkloristik jihatdan monografik planda tadqiq etilmagan.

Tadqiqot davomida xalq ertaklarida qo‘llanilgan qarg‘ishlarning turli lingvistik va pragmatik belgilariga asoslangan holda uch asosiy guruh asosida tasnif qilish mumkin.

²²⁵ Бахтин М. Проблема речевого жанра. Литературно-критические статьи. – Москва: Художественная Литература, 1986. – С. 188.

²²⁶ Bu haqida qarang: Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – B. 159.

²²⁷ Evans-Pritchard E.E. Nuer Curses and Ghostly Vengeance // Cambridge University Press, 1949. Vol. 19, Iss: 4, pp 288-292.; Dundes A. The Evil Eye, a Folklore Casebook. New York: Garland Pub. 1981. – 312 p.; Eidinow E. Oracles, Curses, and Risk Among the Ancient Greeks. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 534 p.; Крюкова И. Речевой акт проклятия и лексико-грамматические средства его осуществления: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ставрополь, 2011. – 21 с.; Jeff S. Anderson. The Blessing and the Curse: Trajectories in the Theology of the Old Testament. – Eugene, OR: Cascade Books, 2014. – 416 p.;

²²⁸ . Саримсоков Б. Ўзбек фольклори очерклари. III жилдлик, I жилд. – Тошкент: Фан, 1986. – 216 б.; Омонтурдиев А. Профессионал нутк эвфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006. – 232 б.; Эшбоева Ф. Ўзбек халк каргишларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол.фан. номз. ... дис. – Тошкент, 2008. – 179 б.; Умарова М. XX аср ўзбек насри намуналарининг урду тилидаги таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2022. – 57 б.; Zakirova D. O‘zbek va rus tillarida qarg‘ish nutqiy janrining qiyosiy tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Andijon, 2023. – 57 b.

1. Qarg‘ishlarning qo‘llanish usuli va kommunikativ maqsadiga ko‘ra. Ushbu guruhning o‘zi quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

a) aniq bir dushman yoki raqibga nisbatan salbiy oqibat keltirishni maqsad qiladigan qarg‘ishlar. Bu kabi qarg‘ishlar agressiv xarakterda bo‘ladi. Masalan: *Quturmay o‘lgir, kimyogar boyning o‘g‘li. Otangdan qolgan tillalar mast qildimi?! (Oltin beshik. “Kimyogarning o‘g‘li”, 157-b.)* Misoldagi “*quturmay o‘lgir*” o‘lim tilash bilan birga, subyektning aqldan ozganlik yoki haddidan oshganlik holatini ifodalovchi “quturish” fe‘lining salbiy konnotatsiyasini, ya’ni “quturgan holda” olish ma’nosini o‘z ichiga olgan. Bu kabi qarg‘ishlarga haqorat so‘zlar ham qo‘shilib, salbiy ta’sir kuchi oshirilish o‘rinlari ham uchraydi: *Juvon o‘lgur yetimcha, Charximni qilding parcha! (Bo‘ri bilan mergan. “Bektemir botir”, 73-b.)* Qayd etish lozimki, bu guruh qarg‘ishlarning aksariyati salbiy qahramonlar nutqida namoyon bo‘ladi.

b) yaqin kishilari yoki o‘z oila a’zolariga yomonlik ta’sir qilmasligi uchun bildiriladigan, aks-himoya xususiyatiga ega qarg‘ish ifodalar: *Har kishin vaslin tamanno aylasam novmid o‘lay, Har kishi hamki sening vasling tamanno aylasa. (Oyjamol. “Shoir sevgisi”, 113-b.); Voy o‘lay, boy bo‘lgur, qayoqdagi gaplarni gapirasan emish-a! Axir, kecha bir o‘g‘il tug‘dim. (Bo‘ri bilan mergan. “No‘xatvoy”, 67-b.)*

d) hazilga asoslangan qarg‘ishlar. Xotin bolaga qarab: “*Sen no‘xatday o‘lgurni tug‘ib darmonim ketib qoldi... (Bo‘ri bilan mergan. “No‘xatvoy”, 66-b.)* Misolda anglashilganidek, bu kabi qarg‘ishlarda maqsad yomonlik keltirish emas, balki nutqiy o‘yin yoki hazil elementlarini o‘zida mujassam etgan, jiddiy pragmatik kuchga ega bo‘lmagan ifodalar kiradi.

2. Mazmun prinsipiga asoslangan qarg‘ishlar. Ushbu guruhni ertak matnlaridagi qarg‘ishlardan kelib chiqib, shartli ravishda to‘rt guruhga bo‘lish mumkin:

a) fiziologik zarar tilashni ifodalovchi qarg‘ishlar. Bunda obyektning sog‘lig‘iga putur yetkazish, jarohat yoki kasallik keltirishga asoslangan qarg‘ishlar.

– *He, ko‘zing ko‘r bo‘lsin! – degan ekan, o‘g‘rining ko‘zi ko‘r bo‘lib qolibdi. (Oyjamol. “Tuhmatga uchragan kelin”, 49-b.)*

b) ijtimoiy zarar yetkazishga qaratilgan qarg‘ishlar. Shaxsning oilasiga, avlodiga yoki ijtimoiy mavqeyiga, davlatiga salbiy ta’sir o‘tkazish, urug‘-aymog‘iga ziyon yetkazishni istash. Bu kabi qarg‘ishlar ertak matnlarida ham uchraydi. Masalan: *Sho‘rginam qursin, qizim! Seni*

otang sotmay o'lsin, – deb onasi qizi bechoraga achinib, yopishib yig'labdi. (Oyjamol. "Ilon og'a", 216-b.); *Sening zarbingni yeb alamiga kuygan, xonavayron bo'lgur shahar hokimi bizlarni erkaklarimiz, bolalarimiz bilan chaqirib, tayoqlari bilan urib, erkaklarimizni zindonga, bolalarimizni qafasga solib, oftob tushadigan joyga osib qo'ydi*. (Uch og'ayni botirlar. "Quyosh yerning pahlavoni", 119-b.)

d) halokatga uchrashni tilab qilingan qarg'ishlar. Bunday qarg'ishlar obyektiga o'lim, falokat yoki hayotdagi keskin yo'qotishlarni tilash orqali eng og'ir oqibatni ko'zlaydi: *Enasi o'ylab turib: "Tuvaloqni xudo olgur Xo'jamurodga pishirib berguncha, uni aldab, o'ynashlarimga tayyorlaydigan oshimning ustiga bosganim yaxshi emasmi", deb tuvaloqni yaxshilab pishirib, berkitib qo'yibdi*. (Oyjamol. "Xo'jamurod", 85-b.)

e) ma'lum bir kamchiligi mavjud shaxsning o'ziga o'xshashini tilab qilingan qarg'ishlar. Masalan: *Charxim sinsa, go'rga-ya, Bir labimdan ayrildim! Oqbilakka yetmasdan, Sen ham bo'lg'in mendaycha...* (Bo'ri bilan mergan. "Bektemir botir", 74-b.) Keltirilgan matn parchasidagi qarg'ishni "*nusxalash qarg'ishi*" yoki "*o'xshatish qarg'ishi*" deb qabul qilish mumkin. Ushbu qarg'ishning asosiy psixologik mexanizmi zarar ko'rgan shaxsning adolatni o'ziga o'xshash jarohat orqali tiklash istagidan kelib chiqadi. Bunda intiqom olish yetakchi o'rinni egallaydi, dushman yoki raqibning ham aynan shu jismoniy nuqsondan aziyat chekishini talab qiladi. Bunda asosiy e'tibor raqibga o'zining jismoniy yoxud ruhiy azobini nusxalash orqali emotsional regressiya va jismoniy shikast yetkazish maqsad qilinadi.

3. Manzil tamoyiliga asoslangan qarg'ishlar. Ushbu qarg'ishni ikki asosiy guruhga ajratgan holda tadqiq qilish samarali.

a) manzili aniq qarg'ishlar. Bu guruh qarg'ishlar aniq bir shaxsga yoki belgilangan kishilar guruhiga, masalan, qo'shnilar, zolimlar, amaldorlar va h.k.larga qaratilgan bo'lishi mumkin. Ertaklarda aksariyat hollarda hayvonlar, qushlar guruhiga qaratiladi: *Qurib ketgur yetimcha! Senga kim o'rgatdi buni? Voy voy, qo'lim kuydi, – deb o'g'lini qarg'abdi*. (Oyjamol. "Tohir va Zuhra", 35-b.)

b) generalizatsiyalashgan yoki manzili abstrakt bo'lgan qarg'ishlar. Bu kabi qarg'ishlar biror noma'lum kuchga yoki umumlashgan salbiy hodisaga qaratilganligi bilan ahamiyatli. *Keyin: "Pisht, hay pisht, yer yutgur, pisht", deganicha qichqirib, qarg'ab tomning orqasiga yugurib qolibdi*. (Oyjamol. "Xo'jamurod", 85-b.) Matndagi "yer yutgur" qarg'ish

birliги noma'lum kuchga yoki keng qamrovli salbiy hodisaga yo'naltirilgan disfemik vokativlar sirasiga kiradi. Mazkur qarg'ishning semantik yadrosida, asosan, "o'lim tilash" yoki "yo'q bo'lib ketishni istash" ma'nosi yotadi. "Yer yutgur" subyektning jismonan mavjud bo'lmasligini talab qiluvchi perlokutiv kuchga ega. Chunki qarg'ishdagi "yer" matnda kosmik obyekt yoki tabiat kuchi sifatida emas, balki joy va inson tanasini qabul qiluvchi so'nggi manzil (qabr, halokat makoni) sifatida namoyon bo'ladi. U destruktiv kuch, ya'ni vayron qiluvchi qudratning umumlashgan simvoli bo'lib xizmat qiladi. "Yutgur" leksemasi esa istak mayli shakli bo'lib, harakatning darhol va so'zsiz amalga oshishini ifodalaydi. U illokutiv akti kuchaytiradi va uni katastrofik natija (halokat)ga yo'naltiradi. Matnda qarg'ishning qushga nisbatan ishlatilishi uning lingvistik tahlili uchun asosiy shartlarni belgilaydi. Masalan, qarg'ishning obyekti (qush) aniq, ammo qarg'ishning amalga oshishi kerak bo'lgan manzil (yer) abstrakt tarzda umumlashtirilgan. Uning birlamchi denotativ ma'nosi (yer yutib yuborishi) emas, balki konnotativ ma'nosi (tezroq yo'q bo'lib ket!) dominantlik qiladi.

9-jadval

Manzili abstrakt bo'lgan qarg'ishlarning semantik-pragmatik tasnifi

Semantik mezon	Asosiy illokutiv maqsad	Folkloriy birliklar	Abstrakt manzil
Kosmik hamda tabiiy halokatga yo'naltirish	Obyektning tezda, izsiz yo'q bo'lishini talab qilish	"Yer yutgur", "Ko'kka uchgur", "Qurib ketgur".	Bunda subyekt tabiatning to'rt elementi: yer, havo, o't, suvga murojaat qilib, inson ixtiyorida tashqari bo'lgan kosmik kuchga murojaat qiladi.
Birovning ixtiyoriga bog'liq	Obyektning hayotiy jarayonlarining bekor	"Nomardga yo'liq", "Boying qurigur",	"Qurilgur" komponenti qurish, barham topish ma'nosini

bo‘lmagan tugallanish	ketishini, samarasiz bo‘lishini tilash.	“Nasling qurigur”.	bildiradi. Bu yerda manzil ijtimoiy yoki oilaviy davomiylik doirasiga, maqsad moddiy yoki ma’naviy “nasl”ning yo‘q bo‘lishiga e’tibor qaratiladi.
Diniy hamda mifologik jazo	Obyektning eng yomon, eng tuban joyga tushib ketishini tilash.	“Jahannamga ket”, “Asfalasofilinga ket”, “Go‘rga kir”.	Bu qarg‘ishlar mifologik yoki diniy lug‘atga asoslangan. Jumladan, “Asfalasofilin” (eng past tabaqa) tushunchasi halokatning eng chuqur nuqtasi sifatida abstrakt manzilni ifodalaydi.

Bu kabi qarg‘ishlar ertak matnlarida kam qo‘llaniladi. Tahlil natijalaridan anglashiladiki, qarg‘ishlarning aksariyati hayotiy-maishiy ertaklar turkumidan o‘rin olgan. Bu esa qarg‘ishlarning ertak matnidagi o‘rnini belgilashga asos bo‘ladi.

Qarg‘ishlar, asosan, buyruq yoki tilak maylidagi fe’llar bilan ifodalanadi va *yomonlik*, *halokat*, *kasofat* kabi salbiy ma’nolarni anglatadi. Ular kuchli emotsional kuchga ega bo‘ladi.

Ma’lumki, o‘zbek xalqi orasida qarg‘ishlarning evfemali ko‘rinishda ham uchraydi. Bu haqida A.Omonturdiyev quyidagicha ta’kidlaydi: “Qarg‘ishlarning evfemaligi, odatda, shubhali tuyuladi. Bunday hollarda ham konnotatning evfemaligi denotatga nisbat berilib aniqlanadi”²²⁹. Qarg‘ishlarning evfemik ko‘rinishi, qayd etish kerakki, ertaklarida

²²⁹ Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 49.

uchramaydi. Tadqiqot davomida aniqlashildiki, o‘lim bilan bog‘liq qarg‘ishlarning aksariyati desfemistik xarakterga ega: *Xotin: “Qurib ketgur, kampir mening o‘chgan o‘timni yondirib, yuragimni kuydirdi...”, deb o‘ylabdi.* (Oyjamol. “Tuhmat”, 35-b.); *Harom o‘lgur, qo‘shning ola mushugi juda yaramas chiqdi...* (Oyjamol. “Xo‘jamurod”, 85-b.); *Sizlarga tayyorlagan palovimni, ajalingdan besh kun avval o‘lgur chol bilan uning yetimcha o‘g‘li mazza qilib yedi qo‘ydi, – debdi.* (Oyjamol. “Xo‘jamurod”, 87-b.); *“Ha, tezroq o‘lgin-a. Lagalaga otamning aytganlari rost ekan-a”, deb girdikapalak bo‘laveribdi.* (Oyjamol. “Xo‘jamurod”, 88-b.); *Shunda qo‘shnisining xotini ko‘rib, “kisht-kisht, qirilgurlar, kisht”, deb otashkurakni otib yuboribdi.* (Oyjamol. “Susambil”, 158-b.)

Qarg‘ishlar xalq og‘zaki ijodidagi adolat va jazo motivlarini aks ettirishda muhim til vositasi hisoblanadi. Xususan, ertakda qarg‘ishlar biror nohaqlik qurboni bo‘lgan shaxslarning og‘zidan aytiladi. Ular, odatda, sehrli kuchga ega bo‘lib, ertak syujetida keskin burilish yasaydi yoki baxtsizlikka sabab bo‘ladi. Masalan, *g‘amgin ona, tuhmatga uchragan kelin* yoki *ayol*, shuningdek, kampir obrazlarining qarg‘ishi tufayli qahramon boshiga jismoniy (shol, pes, ko‘r) yoki ruhiy, shuningdek, moddiy kulfat tushadi.

Masalan: *Kelinning arzi-dodiga karvonlar quloq solmay, uni o‘zlari bilan birga olib ketibdilar.*

Kelin ketayotib, o‘g‘riga qarab: “Sen pes bo‘lgin!” deb qarg‘agan ekan, o‘g‘ri pes bo‘lib qolibdi. (Oyjamol. “Tuhmatga uchragan kelin”, 49-b.) Keltirilgan ertagi fragmentida keltirilgan qarg‘ish: *“Sen pes bo‘lgin!”* o‘zbek folklori amaliyotidagi yuqori darajada konnotatsiyalashgan nutqiy birlikdir. Qarg‘ish iborasi sodda, ammo yuqori darajada emotsional-ekspressiv xarakterga ega buyruq gap shaklida qurilgan. *“Sen”* qarg‘ishning aniq bir subyektga (o‘g‘riga) qaratilganligini, ya‘ni uning referensial aniqligini ta‘minlaydi. *“Pes bo‘lgin”* qarg‘ishning markaziy predikativ birligi bo‘lib, fe‘l negiziga buyruq maylining kuchaytirilgan shakli qo‘shilgan. *“-gin”* affiksi buyruqning yoki tilakning keskinligi, majburiy va istisnosizligini ifodalovchi intensifikator vazifasini o‘tagan. U oddiy buyruq (“bo‘l”)ga nisbatan qahr-u g‘azab konnotatsiyasini yuklaydi. Ushbu qarg‘ish disfemik xarakterga ega bo‘lib, balki obraz tilidan ochiq va keskin ifodalanadi.

Kelinning qarg‘ishi shaxsiy adovatdan ko‘ra, adolatsizlikka qarshi norozilikning kulminatsiyasi hisoblanadi. U o‘z sha‘ni va haqligini so‘z kuchi orqali tiklashga qaratilgan kompensator, ya‘ni “qoplash” vazifasini bajaradi. Ertak matnida qarg‘ishning ijro etilishi nafaqat lisoniy akt, balki magik xatti-harakat sifatida namoyon bo‘ladi: “...qarg‘agan ekan, o‘g‘ri pes bo‘lib qolibdi”. Bu zudlik bilan qarg‘ishning obyektga o‘tishi ertak janriga xos bo‘lgan *logomagiya* prinsipini tasdiqlaydi. Oddiy inson so‘zi emas, balki poklik va beayb qahramonning so‘zi ilohiy adolat yordamida zudlik bilan voqelikka aylanadi. Peslik kasali tabiiy yo‘l bilan emas, balki g‘azab bilan aytilgan so‘z ta‘sirida yuzaga kelishi qahramon (kelin)ning ilohiy homiylik ostida ekanligini, uning ma‘naviy ustunligini ifodalaydi.

“Qarg‘ish xalqning yovuzlikka qarshi nafrati”²³⁰ni ifodalaydi. Quyidagi misolda o‘zbek ayolining sha‘nini himoya qilish uchun aytgan qarg‘ishi misolida ko‘rish mumkin: *Hasan, Hasan emas, qizga o‘xshaydi, ko‘zi qizlarning ko‘zidek, o‘zi erkak emas, asli qizdir, – debdi.*

Kelin o‘g‘riga qarab:

– *He, ko‘zing ko‘r bo‘lsin!* – degan ekan, o‘g‘rining ko‘zi ko‘r bo‘lib qolibdi. (Oyjamol. “Tuhmatga uchragan kelin”, 49-b.) Mazkur misolda kelinning o‘ziga nisbatan aytilgan shubhaga javoban ifodalangan qarg‘ishi lisoniy ekspressivlik va folkloristik jazoning yorqin namunasi bo‘lib, buyruq gap shaklida namoyon bo‘lgan. “Ko‘zing” leksemasidagi egalik kategoriyasi bu so‘z qarg‘ish obyektining ma‘lum bir tana a‘zosiga lokalizatsiyalanganligi (daxldor qilinishi) bilan ahamiyatlidir. Qarg‘ishning ijrosi, ya‘ni ko‘zning ko‘r bo‘lishi, o‘g‘ri obrazining aybini aniqlashga xizmat qilgan a‘zosining bevosita jazolanishini anglatadi. Kelin obrazining qarg‘ishini uning tajovuzga qarshi qaratilgan keskin mudofaa reaksiyasi sifatida talqin qilishga hamda mazkur qarg‘ish obrazning nomusni himoya qilishga qaratilgan agressiv nutqiy akti sifatida baholashga asos bo‘ladi. Ko‘rinadiki, qarg‘ish yo‘llovchi subyektning yoshi, tajribasi, ruhiy holati, oiladagi va ijtimoiy mavqei muhim rol o‘ynaydi.

F.Eshboyeva to‘g‘ri ta‘kidlaganidek: “Qarg‘ish – biror kishiga ziyon-zahmat yetkazishga ehtiyoj sezilgan paytda aytuvchining qarg‘ish qaratilgan shaxsga nisbatan bo‘lgan yomon niyatining ifodasi sifatida ijro etiladigan folklor asaridir. Bu janr o‘ziga xos belgilari va aytuvchi istagini ifoda etishiga ko‘ra so‘kish, olqish janrlariga yaqin turadi”²³¹. Xalq

²³⁰ Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Тошкент: Fan, 2006. – Б. 150.

²³¹ Эшбоева Ф. Ўзбек халқ қарғишларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол.фан. номз. ... дис.. – Тошкент, 2008. – Б. 30.

ertaklarida ham qarg‘ishga yaqin turadigan so‘kish yoki haqorat so‘zlar uchraydi. Aytib o‘tish joizki, so‘kishda hukm keskinlik asosida, qat‘iy ohang bilan haqorat so‘zlar orqali yuzaga keladi. Qarg‘ishlar esa so‘z magiyasiga asoslangan yomonlikni tilashga qaratilgan xohish-istak shaklida yuzaga keladi. Masalan: *Akalarining biri “voy qornim”, ikkinchisi “voy boshim”, deb uylariga kirib borishibdi. Otasi ularni ko‘rib, qo‘rqoqlar, yaramaslar, ukalariningni yolg‘iz qoldirib, qaysi yuz bilan bu yerga keldinglar, mening sizlarday o‘g‘illarim yo‘q, deb haydab yuboribdi.* (Uch og‘ayni botirlar. “Non qudrati”, 290-b.); *Bu qanday gap bo‘ldi, manjalaqi!* (Oyjamol. “Uch avliyo”, 9-10-b.) Birinchi misoldagi “qo‘rqoqlar” va “yaramaslar” haqoratga asoslangan so‘kishlar bo‘lib, ikkinchi misoldagi “manjalaqi” so‘zining so‘kish ko‘rinishidagi haqorat ekanligini bilish uchun ertak voqeasini bilish lozim. Chunki “manjalaqi” 1) hech kimga so‘z bermaydigan, janjalkash, shallaqi; 2) noto‘g‘ri yo‘lga kirgan; buzuq (ayollar haqida) [O‘TIL.II.536] ma‘nolarini ifodalab keladi. Ertak matnida ayolning yomon yo‘lga kirganligi ayonlashib, ushbu leksemasining qo‘llanishi haqoratga asoslangan so‘kishni yuzaga keltiradi. Bu kabi birliklar magiyaga asoslanmagan. Shu jihatdan qarg‘ishlardan farq qiladi. Quyidagi misolda haqoratga va so‘kishga asoslangan, ohang jihatidan shunday birliklarga yaqin turadigan qarg‘ishni kuzatish mumkin: *Enasi ichida: “Osh yemay zaharni yegin!” debdi-da, jahl bilan tovoqni olibdi.* (Oyjamol. “Xo‘jamurod”, 86-b.) *“Osh yemay zaharni yegin!”* haqorat yoki so‘kishga asoslanmagan, shuningdek, magiyaga tayanilmagan. Ammo ushbu o‘rinda qarg‘ishni vujudga keltirib chiqargan, chunki bu birlik asosida “o‘l” semasi yetakchi o‘rinni egallagan.

O‘zbek xalqi nutqida xatosini anglagan kishi, yaqin kishisini yo‘qotganda alamidan o‘ziga qaratilgan qarg‘ishlar ham uchraydi: *Muqbil Hotamning mardligini ko‘rib, yig‘lab yuboribdi. So‘ngra bunday debdi:*

– *Yo‘q! Sizning boshingizni kesadigan qo‘lim qirqilsin!*

Podshoh qizini bermasa, bermay qo‘ya qolsin. Men sizdek saxiyning qurboni bo‘lay! (O‘zbek xalq ertaklari. “Muqbil toshotar”, 65-b.)

Ertaklarda yovuz, adolatsiz qahramonlarning og‘zidan aytilgan qarg‘ishlar ham uchraydi. Ijobiy obrazlar nutqidan aytilgan qarg‘ishlardan farqli o‘laroq, bunday qarg‘ishlarning ro‘yobi, aksariyat hollarda, o‘z isbotini topmaydi. Buni Afrikaning Nuer jamiyatidagi ayrim shaxslarning qarg‘ishlari borasida tadqiqot olib borgan olim Evans-Pritchard quyidagicha izohlaydi: “Qarg‘ishlar (la‘nat) agar ularga

nisbatan zulm qilinganlarga nisbatan yo‘llansa, samarali deb hisoblanadi. Agar ular asossiz la‘natlar (cuong) aytsalar, la‘natlar aytilganlarga zarar yetkazmaydi, balki samarasiz bo‘ladi yoki ularni aytuvchilarga zarar yetkazadi²³². Yuqorida tahlil qilingan “Tuhmatga uchragan kelin” ertagidagi ayolning haq ekanligi uchun qarg‘ishining ro‘yobga chiqishi kuzatilgan bo‘lsa, “Xo‘jamurod” ertagida Xo‘jamurod haq bo‘lganligi uchun unga nisbatan “yo‘llangan” qarg‘ishlar ro‘yobga chiqmaydi.

Tahlillardan ayonlashadiki, qarg‘ishlar folklorda alohida o‘rin tutuvchi birliklar bo‘lib, ularning lingvistik-grammatik asosi, asosan, buyruq-istak mayli kategoriyasiga tayanadi. Ertaklar tilida uchraydigan qarg‘ishlarning aksariyati, gapning asosiy konstruktiv qismi kesim tomonidan shakllantiriladi. Kesim tarkibida esa buyruq maylidagi fe‘l dominant rol o‘ynaydi. Qarg‘ishlarning grammatik asosi yorqin ekspressiv va performative (harakatni bajarish) kuchga ega bo‘lish uchun, asosan, I-II-III shaxs buyruq maylidagi fe‘llar orqali voqelanadi:

10-jadval

Qarg‘ishlarning grammatik asosi va yo‘naltirilgan asosiy maqsadi

Shaxs	Qo‘shimchalar	Ifodalanadigan maqsad
I shaxs (istak)	-ay (ko‘plikda: -aylik)	O‘ziga nisbatan istak/nafrat (ertak matnida kam qo‘llaniladi)
II shaxs (buyruq-istak)	-gin, -kin, -g‘il, -kin	To‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat va buyruq (qarg‘ish)
III shaxs (istak)	-sin	Uchinchi shaxsga nisbatan kuchli istak yoki qarg‘ishning yo‘naltirilishi

Bundan tashqari, tahlil qilingan matnlarda qarg‘ish leksemalar tarkibidagi *-gir (-kir)*, *-gur (-kur, -g‘ur)* qo‘shimchalari aslida buyruq maylining maxsus, yanada kuchliroq hissiy-ekspressiv yoki emotsional-modal bo‘yoqqa ega shakllari sifatida namoyon bo‘ladi. Bu qo‘shimchalar, odatda, fe‘l asosiga qo‘shilib, shiddatli, qahrli yoki kuchli istak ma‘nosini yuklaydi. Bunday holatlarda fe‘lning asosiy leksik ma‘nosi saqlanib qolgan holda, uning pragmatik kuchi ortadi.

²³² Evans-Pritchard E.E. Nuer Curses and Ghostly Vengeance // Cambridge University Press, 1949. Vol. 19, Iss: 4, pp 288-292.

Xulosa qilib aytganda, ertak tilida mavjud qarg‘ishlarning lingvofolkloristik tadqiqi ertak matnining pragmatik dinamikasini tushunishda markaziy ahamiyat kasb etadi. Ertak tilidagi qarg‘ishlarning aksariyat disfemik vokativlarni jamlab, odatda syujetni harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi, salbiy qahramonning taqdirini belgilaydi. Ular so‘zning magik qudrati haqidagi arxaik e‘tiqodlarni aks ettiradi. Bunda qarg‘ish bevosita halokatga aylanadi. Shu bilan birga, qarg‘ishlarning semantik tahlili xalqning axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar tizimini hamda qabul qilingan jazoning og‘irligi haqidagi etnomadaniy tasavvurlarini yuzaga chiqaradi.

Olqishlar lingvofolkloristikasi

Insonlar orasida muloqot vositasi bo‘lgan til paydo bo‘lgandan keyin odamlar so‘zning sehrli qudratiga alohida e‘tibor bilan qaraganlar. Inson ruhiga ta‘sir qilishning muhim vositasi sifatida tildagi imkoniyatlardan foydalanganlar²³³. Bu bevosita insonlarning qarg‘ishdan qo‘rqish, kelajagining porloq bo‘lishi uchun duo, olqish olish kabi tushunchalarning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Bular ichidan olqishlar alohida ahamiyatga ega. Olqishlar buyruq yoki istak maylidagi fe‘llar bilan ifodalanib, qarg‘ishlardan farqli o‘laroq *yaxshilik*, *baxt*, *omad*, *uzoq umr* kabi ijobiy ma‘nolarni anglatadi. Ular ijobiy hissiyotlarni ifodalaydi va ko‘pincha chiroyli, poetik iboralar bilan bezatilgan bo‘ladi.

“Olqishlar” qadimdan marosim folklori, qutlovlar, rasmiy-odat undov shaklida namoyon bo‘lib, kichik folklor janrlaridan o‘rin olib kelgan. Olqishning asl mohiyatini anglash uchun uning janriy tabiatini anglash muhim. Chunki olqish janri so‘z sehriga ishonchdan shakllangan janrlardan biri hisoblanadi. Bu esa olqish janrining bugungi o‘zbek adabiy tilidagi *olqishlamoq* – *maqta* tushunchalaridan kengroq ma‘no ifodalashini ko‘rsatadi.

“Olqish” so‘zi *alqamoq*, *samimiyat bildirmoq*, *sharaflamoq* kabi ma‘nolarni anglatib, ushbu janr nihoyatda ommaviylik kasb etadi²³⁴. Ushbu leksemaning qadimgi turkiy tildagi *xursand qil-*, *maqta-* ma‘nolarini anglatgan *al-* fe‘liga takror ma‘nosini ifodalovchi *-qa* qo‘shimchasining *-bi* shaklini va *-sh* harakat nomi qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan hamda ma‘no taraqqiyoti natijasida harakat nomi otga ko‘chgan. O‘zbek tilida *a* unlisi *â* unlisiga almashgan, *bi* unlisining

²³³ Rўzimбоев С., Рўзметов Х. Фольклор атамалари қисқача луғати. – Урганч, 2007. – Б. 31.

²³⁴ Rўzimбоев С., Рўзметов Х. Фольклор атамалари қисқача луғати. – Урганч, 2007. – Б. 31.

qattiqlik belgisi yo‘qolgan. Natijada *al+qʻi alqʻi+sh=alqʻish*²³⁵ yuzaga kelgan. Ayni shu fikrni B.Sarimsoqov ham ilgari suradi hamda “*sharaflamoq*”, *yuksaklikka ko‘tarmoq*”, “*maqdamoq*”²³⁶ fe‘l o‘zaklariga aynan Sh.Rahmatullayev talqinidagi qo‘shimchalar qo‘shilishidan hosil bo‘lganligini qayd etadi.

Olqishlar alohida folklor janrlaridan o‘rin olar ekan, ijro etilishi marosimiy kontekst bilan uzviy bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi. Olqishlarning lingvofolkloristik xususiyatlari marosimlarda muqaddas yoki ijtimoiy mazmun kasb etishi bilan o‘lchanadi. Chunki olqishlar, ko‘pincha, magik funksiyaga ega bo‘lib, yaxshilikka yo‘naltirilgan kuchli intensional nutq hisoblanib kelingan. Keyinchalik jamiyat evolyutsiyasi va ijtimoiy ongning o‘zgarishi natijasida bu janrlar marosimiy doiradan ajralib chiqib, keng ommaviylashish tendensiyasini boshdan kechirgan. Janrning semantik yadrosi (*yaxshi niyat, duo*) saqlanib qolgan holda, uning ijro vaziyatlari kengaygan.

Qadimdan olqishlar jahon tilshunos va folklorshunoslarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. O‘tgan asrda ushbu nutqiy birlikning ilmiy tadqiqi amalga oshirildi. Jahon tilshunosligida “Olqishlar”, asosan, folklorshunoslik obyekti sifatida tadqiq qilingan. Turkiy xalqlarda olqishlarning sehrli kuchi, ishga baraka berishi qadimdan ta’kidlanib kelingan. Xususan, “Qutadg‘u bilig”da: “Dunyo taomilida shunday qonuniyat mavjud: baxilga haqorat, saxiyga olqish tegadi”; “Kimki o‘z xizmatiga loyiq ish tutsa, uning javobiga keladigan narsa – maqto‘v va olqish deyiladi”²³⁷ deya qayd etiladi. O‘zbek olimlari tomonidan ham

²³⁵ Qarang: Raḥmatullayev Sh. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 254.

²³⁶ Qarang: Kўчқоров Н. Ўзбек халқ олқишларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол.фан.номз. ...дисс. – Самарқанд, 1994. – Б. 9-10.

²³⁷ Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Hozirgi o‘zbek tilida bayon qiluvchi To‘xliyev B. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – B. 94, 123.

ushbu janrning asosiy xususiyatlari folklor²³⁸ nuqtayi nazardan, qisman lingvistik obyekt²³⁹ va qiyosiy²⁴⁰ aspektda tadqiq etilgan.

Olqishlar tilak va duolar farqlanadi. Chunki olqish va duolar umumiy verbal amaliyot sifatida ijobiy intensiyaga ega bo'lsa-da, ularning illokutiv kuchi, murojaat obyekti va perlokutiv samarasi jihatidan jiddiy ilmiy-nazariy farqlar mavjud. Bu haqida S.Mirzayeva: “Xalq olqishlarini diniy ruhdagi duolardan farqlash, ularning insonga ruhiy dunyosiga ko'rsatajak ta'sirlarini to'g'ri baholash, ularning har biriga alohida-alohida munosabatda bo'lish zarur”²⁴¹, deb to'g'ri ta'kidlaydi.

11-jadval

Olqishlar va duolarning farqlari

Obyekt	Olqish (ezgu tilak)	Duo (diniy-marosimiy)
Murojaat obyekti	Ijtimoiy yoki insoniy-an'anaviy kuchlar, hodisalar, yoki bevosita qahramonning o'zi.	G'ayritabiiy, muqaddas kuch, ya'ni Alloh yoki oliy qudrat.
Illokutiv kuch (nutq niyati)	Asosan yo'naltiruvchi, majburiyat oluvchi. Obyektni ma'lum bir yaxshilikka yo'naltirish yoki kelajakdagi baxtni “prognozlash”.	Ekspressiv va ilohiy iltijo. Oliy kuchdan yordam so'rash, unga tavakkal qilish va o'z ehtiyojini bildirish.
Kontekstual bog'liqlik	Marosimiy bo'lmagan, ijtimoiy vaziyatga xos.	Marosimiy va diniy ruhdagi. Namoz, ibodat

²³⁸ Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – 216 б.; Саримсоқов Б. Олқишлар // Ўзбек фольклори очерклари. III томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 128-143; Қўчқоров Н. Ўзбек халқ олқишларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол.фан.номз. ...дисс. – Самарқанд, 1994. – 128 б.; Сафаров О., Ўраева Д. Маросим олқишлари ҳақида // Ўзбек маросим фольклорини ўрганишнинг янги таъмоийллари мавзудаги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Навоий, 2007. – Б. 15-18; Ўраева Д., Розикова Ф. Маросим олқишлари бадиияти // Адабиёт ва таржима. – Тошкент: Зарқалам, 2006. – Б. 104-106; Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклорининг жанрий таркиби, генезиси ва бадиияти: Филол.фан.док-ри. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 304 б. Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 506 b.

²³⁹ Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006. – 232 б.; Ашуров Д. “Алпомиш” достонининг лингвокултурологик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Наманган, 2021. – 155 б.

²⁴⁰ Умарова М. XX аср ўзбек насри намуналарининг урду тилидаги таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2022. – 58 б.; Арипов М. Турк тилидаги тилак, олқиш ва дуоларнинг лингвомаданий ва лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2022. – 57 б.; Ниязова М. Инглиз ва ўзбек адабиётида олқишларнинг бадиий-эстетик вазибалари типологияси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Бухоро, 2022. – 155 б.

²⁴¹ Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун-дуоларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. – Тошкент: Истиклол, 2005. – Б. 5.

	To'y, bayram yoki oddiy uchrashuvdagi samimiy muloqot.	yoki diniy marosimlar, jumladan, aza, Haj amali doirasida amalga oshiriladi.
Perlokutiv samara (ta'sir)	Psixologik-ijtimoiy. Obyektga ruhiy quvvat, motivatsiya berish, jamoaviy odob va rag'batni mustahkamlash.	Metafizik ta'sir. Taqdirni o'zgartirish, ofatdan himoyalanih, oxiratdagi mukofotga erishishga umid qilish.
Leksik-sintaktik xususiyat	Ko'pincha, oddiy sintaktik konstruksiyalar, kuchli ekspressiv leksika va mahalliy urg'ular qo'llaniladi.	Yuqori darajada standartlashgan, arxaik yoki diniy-adabiy leksikaga ega, ko'pincha, arabcha yoki forscha so'zlar mavjud.

Olqishlar hozir ham o'zining hayotiy vazifasini to'la ado etib kelayotgan janr hisoblanadi. O'zining asriy an'analari va udumlariga to'la amal qilib kelayotgan har bir o'zbek o'zining kundalik turmushida ko'p martalab olqish janriga murojaat etadi. Bunday munosabatga esa olqishlarning kishilarga baxt-saodat, sog'liq, uzoq umr, oilaviy tinchlik, faoliyatida esa samaradorlik tilashdan iborat ezgu istaklar tilashdek g'oyaviy yo'nalish sabab bo'ladi²⁴². Bu esa D.O'rayeva hamda M.Gadoyeva taklif etgan *“uzoq umr ko'rish olqishlari, salomatlik olqishlari, boylik va farovonlik olqishlari, nikoh va to'y olqishlari, avlodning davom etishi va o'sishi to'g'risidagi olqishlar, yangi tug'ilgan chaqaloqqa aytiladigan olqishlar, baxt va shodlik olqishlari, janoza olqishlari va xonadonlarga aytiladigan olqishlar”*²⁴³ning vujudga kelishiga zamin yaratgan.

Tahlillardan anglashiladiki, olqishlar qadimidan o'zbek xalqi nutqining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Buni M.Umarova quyidagicha ko'rsatadi: “Olqish so'zlari tarixan shakllangan, yillar osha vujudga kelgan so'z birikmalari sanaladi²⁴⁴.”

²⁴² Kўчқоров Н. Ўзбек халқ олқишларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол.фан.номз. ...дисс. – Самарқанд, 1994. – Б. 3.

²⁴³ O'rayeva D., Gadoyeva M. Ingliz va o'zbek madaniyati olqishlarida somatizm semantikasi // “Science and Education” Scientific Journal / ISSN 2181-0842. VOLUME 2, ISSUE 11 NOVEMBER 2021. – P. 894. <http://www.open science.uz/>

²⁴⁴ Umarova M. XX asr ўзбек насри намуналарининг урду тилидаги таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2022. – Б. 20.

Ertaklarda olqishlar turli maqsadlarni ko‘zlagan holda qo‘llanilib, ertak matnini boyitadi. Olqishlar ertaklardagi adolatli, mehribon, yordam bergan qush, turli hayvonlar, chol, kampir kabi yordamchi personajlarga sharafiga aytiladi. Ular ham sehrli kuchga ega bo‘lib, qahramonning baxti, omadi yoki g‘alabasi uchun zamin yaratadi. Olqishlar qahramonning sa’y-harakatlarini ijobiy yakunlanishini ta’minlaydi. ***Ofarin, Quyosh yerining pahlavoniga! – debdi.*** (Uch og‘ayni botirlar. “Quyosh yerning pahlavoni”, 126-b.)

Safarga kuzatish bilan bog‘liq olqishlar ertaklarning asosiy nutqiy birliklaridan biridir: *Otasi podshovachchadan qolgan oltinlardan sotib qirq tuyaga mol qilib, qiziga uch ot berib, ikki mardikor qo‘shib, “Oy borib, omon kelgin”, deb yo‘lga solib yuboribdi.* (Oyjamol. “Uch avliyo”, 14-b.) Ko‘rinadiki, xalq ertaklaridagi olqishlarning aksariyati “yoshi nisbatan ulug‘roq kishilar tomonidan aytiladigan kundalik maishiy olqishlar”²⁴⁵ dan iborat. Buni quyidagi misollarda ham ko‘rish mumkin: *Bu so‘zlaring ma‘qul, barakalla.* (Uchar gilam. “Luqmoni hakim”, 141-b.); ***Rahmat, qizim, murodingga yet, qo‘shganing bilan qo‘sha qari,*** – debdi va ayolning farosatiga tahsin o‘qib, qishlog‘iga ravona bo‘libdi. (Uchar gilam. “Tadbirli ayol”, 158-b.); ***Barakalla, o‘g‘lim, barakalla, sen mard yigit bo‘libsan, men sizlarni sinash uchun ajdar qiyofasiga kirgan edim, deb tushuntiribdi chol.*** (Oltin beshik. “Pahlavon Rustam”, 8-b.)

Xalq dostonlaridan farqli ravishda ertaklarda mifonim, teonimlarning qahramonlarni olqishlashi kam kuzatiladi, ammo butkul yo‘q deb bo‘lmaydi: *Chol kishi Xizr edi. Shu zamon ikki qo‘lini ochib, qiblaga qarab: “Xudo murodingga yetkazsin!” deb fotiha o‘qidi.* (Uchar gilam. “Bektemir Botir”, 78-b.)

Ko‘pchilik ertak o‘z qahramonlari oldiga hayotiy sinov va ulkan maqsadlarni qo‘yadi. Bu maqsadlarga erishida “duoyi xayr (olqish)”²⁴⁶ yoki ustoz-murabbiysi ulug‘vor so‘zlar bilan yoshlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, duo qiladi, olqishlaydi: *Baxt qushini ushlamoq uchun baxt oviga chiqing. Oq yo‘l sizlarga, o‘g‘illarim, – debdi.* (Uch og‘ayni botirlar. “Uch og‘ayni botirlar”, 153-b.) Matndagi “oq yo‘l” olqishi FB shaklidagi olqish bo‘lib, yo‘lga chiqayotgan kishiga xavf-xatarga yo‘liqmasligini tilab aytiladi. Ko‘rinadiki, olqishlarning ifoda shaklida FBlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

²⁴⁵ Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – B. 156.

²⁴⁶ Qarang: Ашу́ров Д. “Алпомиш” достонининг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Наманган, 2021. – Б. 39.

Ba'zan olqishlar subyektning o'ziga (o'zlariga) qaratilishi mumkin. Quyidagi ertak matnida aynan shu holat kuzatilgan: *Boboni ko'ra solib "ovimiz baror oldi", deb uni aldab, talamoqchi bo'ldilar.* (Bo'ri bilan mergan. "Rustamzod va Sherzod", 36-b.) Mazkur misoldagi "*Oving baror olsin*" olqishi folklor janrlariga xoslangan bo'lib, o'zbek tilidagi ovchilik folklori va an'anaviy turmush tarzi bilan bevosita bog'liq. Bugungi kunda ushbu olqish ko'chma ma'noda turli ishlarning rivojini tilash maqsadida ishlatiladi. Ta'kidlash joizki, olqishning asosini "**baror**" leksemasi tashkil qilib, *muvaffaqiyatga erishishni tilash* ma'nosini ifodalaydi. Baror – mevali; mahsuldor; foydali. Ishning o'ngidan kelishi, rivoji. [O'TIL.I.171]

Biror ish boshlanganda aytiladigan an'anaviy olqishlar ertak matnlarida ko'p uchraydi. Bu olqish janrining samimiyat bildirishni ifoda etuvchi birliklar orqali ifodalanishida ko'zga tashlanadi. Bu kabi olqishlarning aksariyati rasmiy-odat undov so'zlar orqali ifodalanadi: *Dalada ikki marta "Hormang", desam ham "Bor bo'ling", demading, – debdi.* (Oyjamol. "Dehqon", 41-b.); – *Assalomu alaykum, qozi domla! – debdi. Qozi:*

– *Vaalaykum assalom, keling, ota, xizmat? – deb so'rabdi* (Uchar gilam. "Tadbirli ayol", 154-b.) misollaridagi "*Hormang+bor bo'ling*", "*Assalomu alaykum+vaaleykum assalom*" kabilar kundalik maishiy olqishlarning ko'rinishlaridan biridir.

Ba'zan olqishlar aynan bir so'z yoki so'z birikmasi orqali ifodalanmasligi mumkin. Bunda olqish umumiy kontekst fonidan sezilib turadi hamda aynan olqish janriga tegishli bo'lmagan so'z bilan emas, balki boshqa leksema yordamida ifodalanishi mumkin.

Podshoh:

– *Men bir iqlimning podshohiman, otangiz qo'l kuchi bilan tarbiya qilib, sizday botirlarning otasi bo'lgan ekan, mendan nima kamligi bor? Haqiqatda, mendan ortiqdir. Tarbiyangiz orqasida jahon podshohlari oshiq bo'lib yig'lab yurgan qizlarning otasi sizga o'z qizlarini yig'lab tutadi.* (Uch og'ayni botirlar. "Uch og'ayni botirlar", 165-166-b.) Parchada podshoh botirlarning otasining tarbiyasini o'zining podshohligidan ustun qo'yib, madh etmoqda. Bu katta e'tirof va olqishning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Matndagi "*Tarbiyangiz orqasida jahon podshohlari oshiq bo'lib yig'lab yurgan qizlarning otasi sizga o'z qizlarini yig'lab tutadi*" gapida botirlarning obro'si va qadr-qimmatini balandligini, uning tarbiyasi oldida eng yuqori martabali odamlar

(podshohlar) ham past ekanligi ifodalanadi. Bu ham botirlarga ham ularning tarbiyasiga qaratilgan yuksak baho hisoblanadi. Bu esa olqishning asosiy mazmun va mezonini belgilovchi muhim unsur hisoblanadi.

Bolalar folklori haqida M.Murodova fikr yuritar ekan: “*Yasha*”, “*Balli*”, “*Ofarin*”, “*Rahmat*” kabi erkalovchi, olqishlovchi soʻzlar bolalarga quvonch bagʻishlovchi²⁴⁷ birliklar ekanligini taʼkidlab oʻtadi. M.Murodovanning fikrlari oʻrinli. Shuni ham qoʻshimcha qilish lozimki, ushbu birliklar yoshi kattalar tomonidan yosh avlodga, oʻzlaridan kichik yoshdagi shaxslarga nisbatan yoki aksincha, qoʻllanishi mumkin. Bu jihat ertak matnlarida koʻplab uchraydi: *Buyrugʻingizni bajo keltirdim, – debdi. Vazir kulib: – Balli, ishni muhlatidan bir kun ilgari tamom qilding, – debdi.* (Uchar gilam. “Hasan va Zuhra”, 53-b.); *Oq podshoh suyunganidan kalning peshanasidan oʻpadi. – Mening obroʻyimni olib beribsan, koʻp yasha, kal, deb yelkasiga qoqadi.* (Uchar gilam. “Vospiroxun”, 107-b.); *Podshoh haqiqatlar ayon boʻlgach, ularning zakovatiga “ofarin” deb, botirlarning oldiga kiribdi.* (Uch ogʻayni botirlar. “Uch ogʻayni botirlar”, 165-b.); *Rahmat sizga, boy ota, men mana bu pulni haligi nokastaga berib, kelishda aldar xaltamni olib kelaman.* (Oyjamol. “Aldarkoʻsa va boy”, 44-b.)

H.Axmedov toʻy marosim olqishlari haqida fikr bildirar ekan “Olqish” janrining turli marosimlar bilan bogʻliq turlari juda koʻp²⁴⁸, ekanligini taʼkidlab oʻtadi. Kuzatishlarimizdan ayon boʻldiki, xalq ertaklari matnida toʻy va aza marosimlari bilan bogʻliq, shuningdek, diniy shaklidagi olqishlar deyarli uchramaydi, asosan, safarga chiqishdan oldingi, biror ishdan minnatdorlikni ifodalovchi soʻz va soʻz birikmalar bilan ifodalanuvchi kundalik maishiy olqishlar koʻp uchraydi.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, vaqt oʻtishi bilan olqishlar marosimiy-magik funksiyadan umumbashariy-ijtimoiy, yaʼni tabriklash, ragʻbatlantirish, ruhlantirish funksiyaga oʻtgan. Natijada olqishlarning ijrosi majburiy marosimga emas, balki, misollar asosida koʻrib oʻtganimizdek, ixtiyoriy vaziyat, yaʼni *ogʻzaki nutq, kundalik muloqot, kichik tadbirlarga* moslashgan. Ertak matni olqishlarining lingvofolkloristik tahlilidan ayonlashdiki, olqishlarning tili murakkab metafora va eskirgan leksikadan koʻra, tushunarliroq, ekspressiv va taʼsirchan soʻzlar bilan boyitilgan.

²⁴⁷ Murodova M. Фольклор ва этнография. – Тошкент, 2007. – Б. 85.

²⁴⁸ Ахмедов Х. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б. 192.

Xulosa qilib aytganda, ertak matnining lingvofolkloristik tahlili shuni ko‘rsatadiki, unda nafaqat oddiy nutq, balki topishmoqlar, qarg‘ishlar va olqishlar kabi kichik janrlar orqali so‘zning sehrli kuchi namoyon bo‘ladi. Bu elementlar matnning strukturasi va dinamikasini belgilaydi, ya‘ni topishmoqlar sinovni, qarg‘ishlar kulfatni, olqishlar esa yechimni keltiradi.

O‘zbek xalq ertaklaridagi folklor motivlarining lingvofolkloristik tahlili

O‘zbek xalq ertaklaridagi folklor motivlarini ilmiy klassifikatsiyalashda turli yondashuvlar mavjud. Motivlarni tadqiq qilishda G‘arb va rus folklorshunosligidagi umumiy tizimlar, masalan, V.Propp va A.N.Veselovskiy²⁴⁹ning nazariyalari o‘zbek ertaklariga ham tatbiq etiladi. O‘zbek xalq ertaklarida motiv xalq og‘zaki ijodining asosiy semantik birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Jahon folklorshunosligida syujet va motiv o‘rtasidagi bog‘liqlik va farqlar xususida turli qarashlar mavjud. Ushbu qarashlarning ichida A.N.Veselovskiyning g‘oyalari alohida ahamiyatga molik. Unga ko‘ra, motiv adabiy matnning genetik va strukturaviy jihatdan eng eski va eng asosiy qurilish materiali hisoblanadi. Syujet esa ma‘lum bir tarixiy va madaniy sharoitlarda ushbu motivlar zanjirining o‘zaro bog‘lanishi, qo‘shilishi va natijada paydo bo‘lgan yangi (ikkilamchi) kompozitsion shakldir. Uning bu nazariyasi adabiy matnlarni motivlar darajasida tahlil qilishga asos solib, ularning tarqalishi va o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganishga imkon beradi²⁵⁰. Folklorshunoslikda motiv tushunchasi voqelikning muayyan epizodik modelini ifodalovchi, takrorlanadigan birlik sifatida qaraladi. Bunday qarashlar V.Propp va E.M.Meletinskiy²⁵¹ tadqiqotlarida ham ko‘zga tashlandi. J.Garry va Hasan El-Shami ham “motiv xalq og‘zaki adabiyotida takrorlanadigan kichik hikoya birligi”²⁵² ekanligini qayd etib o‘tishadi. Xalq ertaklari ana shunday kichik hikoyalardan biri hisoblanib, unda takrorlanuvchan motivlar markaziy o‘rin tutadi, voqealar rivojini ta‘minlaydi, syujetni qurishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan kelib chiqib

²⁴⁹ Веселовский А.Н. Избранное: Историческая поэтика. – СПб: Университетская книга, 2011. – 687 с.

²⁵⁰ Пропп В.Я. Морфология сказки. Изд. 2-е. – Москва: Главная редакция восточной литературы издательства “Наука”, 1969. – С. 17-18.

²⁵¹ Мелетинский Е.М. Происхождение героического эпоса: Ранние формы и архаические памятники / Е.М. Мелетинский. – 2-е изд., испр. – М.: Вост. лит. 2004. – 462 с.

²⁵² Garry J., El-Shami H. Archetypes and Motifs in Folklore and Literature. M.E.Sharpe Armonk, Nyu-York, London, Angliya. – 2004. – P. 31.

aytishimiz mumkinki, motiv ertakning syujet dinamizmini shakllantiruvchi yadroviy unsur bo‘lib, u xalqning axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy ideal va mifopoetik tafakkurini badiiy shaklda ifodalaydi. Shu bois o‘zbek xalq ertaklaridagi motivlar janr tabiatiga ko‘ra bir necha yirik turkumlarga ajraladi: sehrli, maishiy va hayvonlar (zoofolklorik) haqidagi ertaklar. Ushbu turkumlar turli motivlarni o‘zida mujassamlaydi hamda ushbu motivlarning ro‘yobga chiqishida o‘ziga xos til vositalaridan foydalaniladi.

Sehrli ertaklardagi mifopoetik motivlar. Sehrli ertaklarda motivlar qadimiy mifologik arxetiplar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular, ko‘pincha, “*ajdarho bilan kurash*”, “*sehrli yordamchi topish*”, “*yovuz kuch ustidan g‘alaba*”, “*sirli buyum yordamida najot topish*” kabi shakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan, “Malikayi Husnobod” yoki “Zumrad va Qimmat” ertaklarida yordamchi jonzot motivi (masalan, sehrli ot, donishmand kampir) qahramonning maqsad sari harakatida vositachi vazifasini bajaradi. E.M.Meletinskiy: “Turli mamlakatlarning arxaik folklorida ko‘plab mifologik motivlar takrorlanadi. Bular arxetipik motivlardir”²⁵³, – deb ta’kidlaydi. Olim sehrli ertak motivlarida **mifologik dualizm**, ya’ni *yaxshilik va yovuzlik, yorug‘lik va zulmat, hayot va o‘lim* o‘rtasidagi ziddiyatlar asosiy semantik oppozitsiya sifatida mavjudligiga e’tibor qaratadi. Bu dualizm aksariyat o‘zbek ertaklarida “ezgulikning tantanasi” motivi orqali poetik shakl topgan. Lingvofolkloristik nuqtayi nazardan qaraganda, sehrli ertaklardagi motivlar **formulaviy tildan** foydalanish orqali sintaktik izchillikka ega: “*bor ekan, yo‘q ekan*”, “*bir podsho bor ekan*”, “*qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilib, murod maqsadlariga yetishibdi*” kabi formulalar tinglovchida kognitiv tayyorgarlik hosil qiladi. Bu ifodalar, M.Y.Lotman²⁵⁴ ta’biri bilan aytganda, ertakning semiotik kodiga aylangan.

Maishiy ertaklardagi ijtimoiy-axloqiy motivlar. Maishiy ertaklarda motivlar xalq hayotining ijtimoiy realizmi va axloqiy didaktikasi asosida shakllanadi. “Dono qiz”, “Halol mehnat”, “Uch og‘ayni botirlar”, “Egriboy va To‘g‘riboy”, “Tuhmat” kabi ko‘plab ertaklarda “*adolat uchun kurash*”, “*aqlli kambag‘alning g‘alabasi*”, “*hiylakorlikning fosh bo‘lishi*” kabi motivlar ustuvorlik qiladi. Mazkur ertaklardan Egriboy *yolg‘on, makr* va *adolatsizlik* timsoli, To‘g‘riboy *halollik* va *adolat* ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yerda antiteza

²⁵³ Мелетинский Е.М. От мифа к литературе. Учебное пособие по курсу “Теория мифа и историческая поэтика повествовательных жанров”. – М.: Российский государственный гуманитарный университет, 2001. – С. 23.

²⁵⁴ Qarag: Lotman Ю.М. Об искусстве. – Санкт-Петербург: “Искусство – СПб”, 1998. – С. 429.

qahramon nomlari orqali ham, ularning nutqi va xatti-harakatlari orqali ham ifodalanadi. Maishiy ertaklarda qahramonlarning axloqiy fazilatlari, ko‘pincha, baholovchi epitetlar orqali ifodalanadi. “Dono qiz” ertagida qiz obraziga nisbatan quyidagi sifatlovchi birliklar ishlatiladi: *dono qiz, aqlli qiz, topqir qiz*. Bu motivlar xalqning ma’naviy refleksiya sifatida namoyon bo‘lib, jamiyatdagi tabaqalanish, mehnatsevarlik, sadoqat va halollik kabi qadriyatlarni estetik tarzda ifodalaydi. Maishiy ertak motivlarining o‘ziga xos jihati shundaki, ular real ijtimoiy vaziyatlarni ramziy shaklda ifodalaydi, shu orqali xalqning jamoaviy axloqiy tajribasini badiiy kodga aylantiradi. Bu turdagi motivlarda til vositalari aniq, hayotiy va xalqona. Ular dialogik sintaksisga asoslanadi, ya’ni qahramonlar o‘rtasidagi so‘z almashinuvi orqali ijtimoiy ziddiyat ifodalanadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklardagi motivlar. A.N.Veselovskiy: “Motiv – nafaqat syujetni hosil qilib, hikoyaga aylanadigan va xalqlar orasida ko‘chib yuradigan, balki madaniy hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi savolni ham ko‘zda tutadigan formuladir”²⁵⁵, – deb ta’kidlaydi. Ushbu qarashlar ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklardagi motivlarda o‘zining yorqin ifodasini topadi, chunki bu motivlar nafaqat syujet asosini tashkil etadi, balki turli xalqlar madaniyati va an’analaridagi umumiylikni ko‘rsatuvchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Hayvonlar haqidagi ertaklarda motivlar qadimiy totemistik va animistik qarashlarning badiiy in’ikosi hisoblanadi. Bu ertaklarda hayvonlar insoniy fazilatlar bilan siylanadi. Ular so‘zlaydi, aldashadi, sadoqat ko‘rsatadi yoki adolat uchun kurashadi. “Bo‘ri va tulki”, “Mushuk, it va sichqon”, “Laylak, tulki va bo‘ri”, “Ovchi, ko‘kcha va dono” singari ertaklarda “*aqlli, ammo kuchsiz ramziy ma’nodagi obrazning g‘alabasi*” motivi asosiy o‘rinni egallaydi. Bunday motivlar “*zoofolkloristik arxetiplar*” hisoblanib, xalq ongi uchun tabiiy dunyo va insoniy xulqning chegarasini yo‘qotuvchi poetik mexanizm vazifasini o‘taydi.

Xalq ertaklaridagi motivlar syujet harakati va qahramon vazifasiga ko‘ra ham bir qancha turlarga bo‘linadi. Ushbu guruhlardan eng qiziqarli va qadimiy turi hisoblangan sehrli ertak motivlari quyidagi sayyor motivlar asosida ertak matniga ajoyibot, tilsim va g‘ayritabiiy kuchlarni olib kiradi:

Taqiq (tabu) motivi. Ertak qahramoniga ma’lum bir ishni qilish, joyga kirish yoki narsaga tegish taqiqlanadi. Bu taqiqning buzilishi esa,

²⁵⁵ Веселовский А.Н. Избранное: Историческая поэтика. – СПб: Университетская книга, 2011. – С. 38-39.

odatda, syujetdagi barcha jiddiy voqealar zanjirini keltirib chiqaradi. *Nariroqda bir katta hovuz bor ekan. Qizcha yugurib borib suv ichaman deganda, opasi: Ichma, kiyik bo‘lib qolasan! – deb qichqiribdi.* (Oltin beshik, “Oltin beshik”, 247-b.); *Hech bir bo‘yra cho‘pi siqqudek ochiq joy qolmasin, shunday mahkamlab bekiting. Mening niqobimni yostiq ostidan olmang, agarda ko‘zimdan nari bo‘lsa, mendan umid qilmang, kaptar bo‘lib uchib ketaman.* (Oltin beshik, “Ilon og‘a”, 216-217-b.)

Safar (yo‘l) motivi. Qahramonning uzoq, mashaqqatli yo‘lga otlanishi, ko‘pincha, uch yo‘ldan birini tanlashi yoki to‘siqlarni yengib o‘tishi kabi kichik motivlar bilan bog‘lanadi. *Karvon yurib-yurib bir joyga kelibdi. Bu joyda uch yo‘l bor ekan. Biri – “borsa kelmas”, biri – “borsa xatar”, yana biri – “borsa kelar” ekan. Karvonboshi qaysi yo‘lga yurishni bilmay, o‘ylab qolibdi.* (Oyjamol. “Tohir va Zuhra”, 39-b.) Mazkur parchadagi an’anaviy “uch yo‘l” motivi “qahramon sinovi oldidagi vaziyat” yoki “tanlov zarurati” vazifasini bajaradi. Bunda Karvonboshi oldida turgan uch yo‘l safar motivi bilan birgalikda syujetni rivojlantirish uchun asosiy turtki hisoblanadi. Karvonboshining “o‘ylab qolishi” esa uning boshqaruvchi va mas’uliyatli qahramon ekanligini anglatadi. Safar motivning madaniy va arxaik ma’nosi, asosan, yo‘llarning nomlanishida lisoniy birliklarda kodlangan. Har bir yo‘lning nomida ramziy ma’no kasb etadi:

12-jadval

An’anaviy “uch yo‘l” motivining lisoniy ifodasi

Yo‘l nomi (lisoniy ifodasi)	Grammatik tuzilishi	Semantik ma’nosi	Madaniy-arxaik bog‘liqligi
“Borsa kelmas”	“Bor-“ fe’li + “-sa” (shart mayli) + “kelmas” (inkor, sifatdosh)	Mutlaq o‘lim, halokat, ortga qaytmaslik.	Qadimgi marosimiy tushunchalarda “o‘liklar dunyosi”, “Jahannam” yoki “yo‘q bo‘lish” ramzi.
“Borsa xatar”	“Bor-“ fe’li + “-sa” (shart mayli) + “xatar” (ot)	Xavf-xatar, jiddiy qiyinchilik, sinov.	Hayot sinovlari, kurash, katta ziyon ko‘rish ehtimoli. Bu

			yo‘ldan o‘tish qahramonlik talab qiladi.
“Borsa kelar”	“Bor-“ fe’li + “-sa” (shart mayli) + “kelar” (tasdiq, sifatdosh/fe’l)	Muvaqqat safar, muvaffaqiyatli yakun, omon qolish.	Tiriklik, najot, muvaffaqiyat, g‘alaba. Bu yo‘l “to‘g‘ri yo‘l”ni anglatadi, lekin u, ko‘pincha, eng oson yo‘l bo‘lmaydi.

Ushbu lisoniy tahlil o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan “borish-kelish” antagonizmi ustiga qurilgan. Yo‘llarning nomlari sintaktik parallelizm usuli bilan, ya’ni “borsa...” asosida tuzilgan bo‘lib, bu ularning qiyosiy jihatdan bir-birini inkor etishini kuchaytiradi. Yo‘l nomidagi **“kelmas”**, **“xatar”**, **“kelar”** so‘zlari nafaqat jismoniy harakat, balki insonning taqdiri (*o‘lim, sinov, najot*) bilan bog‘liq bo‘lgan arxaik tushunchalarni ifodalovchi ramziy motivlar vazifasini bajaradi. Safar motivi an’anaviy “uch yo‘l” motividan iborat bo‘lmay, ertak matnida *“Baxt qushi”ni izlash*, (*“Uch og‘ayni botirlar”*) *kuchini sinashish va dunyo kezish* (*“Qilich botir”*) *savdo-sotiqni o‘rganish* (*“Hunarli yigit”*) maqsadidagi safarlarni ham ifodalab keladi.

Sehrli vosita (yordamchi) motivi. Qahramonga g‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lgan narsa, hayvon yoki shaxs yordam beradi. *Uchar gilam, sehrli tayoq, qaynar xumcha, urto‘qmoq, ochildasturxon, Quliqahqah, sehrli olma, Semurg‘* qushining ertakning g‘aroyib muhitini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu motivda sehrli (yordamchi) vositalarni ishga tushirish uchun maxsus so‘zlar yoki duolar ishlatiladi. Masalan, *“Qayna, xumcha”*, *“Ochil, dasturxon”*, *“Ey gilamcha, cholning hurmati, meni egarchining oldiga yetkaz!”* kabi xayoliy buyruq va duolarni misol qilish mumkin. Bu formulalar ayni bir ertak matnida doimiy takrorlanib kelishi bilan ajralib turadi. Bu tipdagi motivlarda yordamchi hayvonlar va shaxslar, ko‘pincha, giperbolik sifatlar bilan tasvirlanadi. Masalan, Semurg‘ – afsonaviy, qanotli, baland tog‘da yashovchi, Dev – ulkan, g‘ayritabiiy kuchga ega, yovuzlik ramzi sifatida tasvirlanadi. Sehrli vosita (yordamchi) motiv ifodasining o‘zida alohida guruhlar mavjud.

Ertaklardagi vosita (yordamchi) kuchlarning turlari

Yordamchi turi (kategoriya)	Ta’rifi	Vakillari (misollar)	Asosiy vazifalari
Sehrli buyumlar (vositalar)	G‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lgan narsalar.	Uchar gilam, sehrli tayoq, uzuk, qamchi, ko‘zgu, sandal, urto‘qmoq, ochildasturxon.	Tez sayohat qilish, yovuzlikni yengish, g‘ayritabiiy kuch berish, boylik keltirish, vazifalarni bajarish.
Hayvonlar-yordamchilar (zoomorf homiylar)	Qahramonning sa’y-harakatlari evaziga homiylik qiluvchi yoki maslahat beruvchi g‘ayritabiiy hayvonlar.	Semurg‘, gapiruvchi yoki uchuvchi ot, bo‘ri, ilon, baliq.	Yo‘l ko‘rsatish, tashish (uchish/yugurish), maslahat berish, dushmanlardan himoya qilish, sehrli buyumlar berish.
Afsonaviy shaxslar (antropomorf homiylar)	Inson qiyofasidagi yoki yarim inson/yarim ilohiy g‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lgan personajlar.	Xizr, pari, sehrgar chol yoki kampir, jodugar, maston va boshqalar.	Sinovdan o‘tkazish, yordam berish, yo‘l ko‘rsatish, sehrli vositalar taqdim etish, sirlarni oshkor qilish.

Transformatsion yoki metamorfoza motivi. Mazkur motivda qahramon yoki boshqa obrazlar shaklini o‘zgartirishi. Masalan, *kabutarga aylanish*, (“Ilon og‘a” ertagida Ilon og‘aning) *kiyikka*, (“Oltin beshik” ertagida qizcha obrazi) *maynaga* (“Mayna” ertagida o‘gay o‘g‘il) yoki boshqa personajlarning ma’lum bir sabab, sehrli ta’sir, taqiqni buzish

yoxud qahramonga yordam berish maqsadida o‘z antropomorf shaklini boshqa zoomorf yoki obyekt shakliga o‘zgartirishini anglatadi. “Bulbuligo‘yo” ertagida *mifomorf* (pari)ning *zoomorf* (maymun)ga aylanish hodisasi kuzatiladi. Bu esa transformatsion motivlarning keng qamrovli ekanligini ko‘rsatadi. Bu motivning ildizlari odamlar va hayvonlar orasidagi chegara aniq bo‘lmagan qadimiy mifologik tasavvurlarga borib taqaladi. O‘z navbatida, ushbu motiv o‘zbek xalqining tabiat va uning ruhlari bilan bog‘liq qadimgi e‘tiqodlarini aks ettiradi. Transformatsion motivi o‘zbek sehrli ertaklari poetikasida markaziy o‘rin tutuvchi, syujetning rivojlanishini ta‘minlovchi va qadimiy mifologik qatlamlarni aks ettiruvchi fundamental unsurlardan biridir. Ushbu motivning lingvofolkloristik xususiyatlari personajlar shaklini o‘zgartirishi bilan bog‘liq bo‘lib, matn darajasi va xalq madaniyati kontekstida namoyon bo‘ladi. Motivning ildizlari qadimgi animistik va totemistik e‘tiqodlarga borib taqaladi. Insonlar va hayvonlar orasidagi chegara aniq bo‘lmagan qadimiy mifologik tasavvurlar bu transformatsiyaning madaniy asosini tashkil etadi.

Qilmish yoki baho motivi. Bu motiv sayyor motivlar sirasiga kirib, qahramonlarning aniq bir harakati, jumladan, yaxshilik, yomonlik, hiyla, o‘zini tanitmaslik, kurashish orqali voqealar rivojlanishi natijasida hosil qilinadi. Masalan, *dehqonning farzandi, mardikor* yoki *yetimning o‘z aqlli hiylasi* bilan boy yoki podshoni yengishi kabilar ushbu motivda yetakchilik qiladi hamda baholovchi leksik birliklar hamda sabab-natija munosabatini ifodalovchi sintaktik konstruksiyalar orqali namoyon bo‘ladi. Bunda, ko‘pincha, ***kambag‘al – boy, aqlli – ahmoq, oddiy odam – podsho*** kabi ijtimoiy-semantik oppozitsiyalar qahramonning aql-idroki va topqirligini ta‘kidlashga xizmat qiladi. Masalan, “Donishmand cho‘pon” ertagida cho‘ponning hiylasi va aqli tufayli *“besh ho‘kiz terisidek yer”* butun podsholik yerini olishiga sabab bo‘ladi.

Niqoblash motivi. Xalq ertaklarida qiziqarli motivlardan biri *o‘zini tanitmaslik* yoki *niqoblash* motivi hisoblanadi. Ushbu motiv G‘arb ertakchilik an‘analarida ham mavjud. Bu tur o‘zbek xalq ertaklarida yetakchi motiv hisoblanmasa-da, ertak matnlarida, voqealar rivojida uchraydi. *Kechalari xalqimiz nima ishlar bilan mashg‘ul bo‘lar ekan, bir sinaylik, – debdi. Vazir bu so‘zni ma‘qul ko‘ribdi. Ikkalasi savdogar kiyimlarini kiyib, ikkita otni minib shaharni aylanib yurib, Mo‘tabarxonlarning mahallasiga kelib qolibdi.* (Uch og‘ayni botirlar. “Besh qiz”, 82-83-b.) Bu motiv bevosita sehr bilan bog‘liq o‘rinlarda

“Bulbuligo‘yo” ertagida maymun niqobidagi parining bosh qahramonga yordam berishi, “Ilon og‘a” ertagida shahzodaning ilon qiyofasida namoyon bo‘lishida ko‘zga tashlanadi. Hayotiy ertaklarda ham bu motivdan foydalaniladi. “Chinnioy va Baxtiyor” ertagida Bixalfa obrazining yigit qiyofasiga niqoblanib olishi va bu orqali turmush o‘rtog‘ining xatolarini ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘yishi holati ifodalandi.

Adolatga erishish motivi. Ushbu motivda qahramonning o‘z mehnati, halolligi hamda aql bilan ijtimoiy adolatsizlikni yengib o‘tishi bosh mavzuga aylanadi. Bu guruhning o‘zi o‘gay qiz²⁵⁶, shuningdek, T.Rahmonov ilgari surgan “begunoh jabrlanganlar” turkumidagi ertaklarda o‘z ifodasini topadi. Ushbu motivda kambag‘alning boylik topishi, (Uch og‘ayni botirlar) yetimning martabaga erishishi, (Zumrad obrazi) podsholik martabasiga ko‘tarilishi (“Donishmand cho‘pon” ertagidagi cho‘pon obrazi) kabilar yetakchilik qiladi. Adolatga erishish motivida lingvofolkloristik formulalar mavjud bo‘lib, *“baxtli hayot kechirishibdi”, “shod-xurramlik bilan umr kechiribdilar”, “qirq kechayu qirq kunduz to‘y berib, ikki yosh murod-maqsadlariga yetishibdi”* kabi qoliplashgan til birliklari orqali namoyon qilinadi. Obrazlar tavsifida til unsurlari personaj xarakterini ochib berishda giperbola, frazeologizmlarning mubolag‘aviy tasviri muhim rol o‘ynaydi. Jumladan: *Uyning ichida, xuddi yozning tiniq kechasida osmonda o‘n to‘rt kunlik to‘lin oy yorug‘ berib turgani kabi Mehrinigoroyning chehrasi yetmish qavat parda orasidan ko‘rinib turgan ekan. Bu uyda o‘tirgan mehmonlarning og‘zi ochilib, aqli lol bo‘lib, angrayib o‘tirgan joylarida qotib qolibdi.* (Oltin beshik. “Chinnioy bilan Baxtiyor”, 206-b.) Shuningdek, sa‘jdan unumli foydalaniladi. *Chinnioyning o‘zi xipchadan kelgan, bo‘yi uncha uzun emas, oq yuzli, shirin so‘zli, har narsaga aqli yetadigan, xushsurat juvon ekan.* (Oltin beshik. “Chinnioy bilan Baxtiyor”, 203-b.) kabi misollarda ijobiy obrazlar tavsifidagi til unsurlarida o‘ziga xos ijobiy mazmundagi leksik birliklardan foydalaniladi. Ertak matnida salbiy obrazlar tavsifi uchun xoslangan til birliklari ham folklor an‘anasiga xos qoliplashgan ifodalardan, sa‘jlangan, murakkab qo‘shma gaplar hamda uyushiq bo‘laklardan keng foydalaniladi: *Devorlarda yarog‘-aslahalar terib qo‘yilgan, bir tomonda yigirma chog‘li odam davra qurib o‘tirar, ularning peshonalari*

²⁵⁶ Bu haqida qarang: Содиқова М.А. Ўғай қиз типидagi туркум эртақларнинг спецификаси, генезиси ва бадийяти. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2003. – 151 б.

qaqqaygan, ko‘zlari chaqchaygan, ko‘ngillari qora, yuzlari ola, o‘ylaganlari yomonlik ekan. (Uch og‘ayni botirlar. “Uch og‘ayni botirlar”, 157-b.); Uning yomon bir xotini bor ekan. O‘zi tug‘mas ekan, podsho boshqa xotin olay desa qo‘ymas ekan. Qitmir, badkirdor ekan. Yuzi oq bo‘lsa ham ichi qora ekan, undan ko‘plarning ko‘ngli yara ekan. (Oyjamol. “Dono xotin”, 60-b.)

Sinov motivi. Lingvofolkloristika fanlararo yo‘nalish bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi asarlari tilini, ulardagi lisoniy birliklarning voqelanishi, semantikasi va estetik funksiyasini o‘rganadi. Ushbu tadqiqotda o‘zbek ertaklari syujetining ajralmas qismi bo‘lgan sinov motivining strukturaviy-semantik va lisoniy-poetik xususiyatlari muhim hisoblanadi. Chunki o‘zbek folklorida sinov motivlari katta o‘rinni egallaydi. Sinov motivi V.Y.Proppning nazariyasiga ko‘ra, ertakning muhim harakatlar tizimiga kiradi²⁵⁷. Sinov, aksariyat hollarda, poetik obrazlarning boshlang‘ich holati va uyidan chiqib ketishidan so‘ng yuzaga keladi. O‘zbek xalq ertaklarida mavjud sinov motivlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:



12-rasm. O‘zbek xalq ertaklaridagi sinov motivlarining guruhlari

Topshiriq ko‘rinishidagi sinov. Bu sinov motivida qahramonning malika, podsho (ko‘pincha, vazirning maslahati asosida), yovuz kuch tomonidan topshiriqlar beriladi. Masalan, “Malikayi Gulozor” ertagidagi malikaning sehrli buyum topib kelishga topshiriq berishi, “Quyosh yerining pahlavoni” ertagida Rustamning ajdarni yengishi, “Qirq kuyov” ertagida kenja botirning ajdarhodan malikani olib kelish topshirig‘ini, “Quliqahqah” ertagida shahzodaning qirq qozon va oynayi jahonnamani olib kelishi, “Olmos botir” ertagida Olmos botirning Ko‘hiqofda

²⁵⁷ Qarang: Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1986. – 370 с.

Bulbuligo‘yoni olib kelish sinovlari aynan ushbu motiv asosida qurilgan. Bu kabi ertaklarning **“qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadigan joylar”**, **“qirq kecha-yu qirq kunduz yo‘l yurib”**, **“gar (haq) saloming bo‘lmaganda, ikki yamlab bir yutardim”** kabi birliklar an‘anaviy tarzda uchraydi.

Tabiiy yoki g‘ayritabiiy to‘siqlardan iborat sinov. Bu sinov motivida qahramonning yo‘lida duch keladigan tabiiy yoki g‘ayritabiiy to‘siqlar, masalan, jarlikdan o‘tish, sehri bog‘ni buzib o‘tish, sirli kuchlarni yengish tasviri namoyon bo‘ladi. **“Pahlavon Rustam”** ertagida Rustanning vatandoshlarini qutqarishi uchun devlarni yengib o‘tishi g‘ayritabiiy to‘siqlardan o‘tishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, **“Susambil”** ertagi qahramonlari, **“Zumrad va Qimmat”** ertagidagi Zumradning qiyinchiliklarni yengib o‘tishi, **“Hasan va Hurliqo”** ertagidagi Hurliqoning hayot sinovlaridan o‘tishi voqealarida tabiiy, hayotiy to‘siqlarni yengib o‘tishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu motivda ertakchi voqealarni rivojlantirish uchun qo‘shma gaplardan, leksik takrorlar hamda sa‘jdan keng foydalanadi: **Ziyod botir yo‘l yurib, cho‘l yurib, tog‘ bosib, qir oshib, bir necha kun deganda bir toqqa yetibdi.** (Oltin beshik. **“Ziyod botir”**, 59-b.); **Boraveribdi, yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi, necha suvsiz cho‘l yuribdi, o‘rdak ko‘ngan ko‘l yuribdi, xullas, bir joyga yetib, otidan tushibdi.** (Oltin beshik. **“Qiron og‘a”**, 177-b.); **Chol qir oshibdi, soy kechibdi, uzoq yo‘l yuribdi.** (Uch og‘ayni botirlar. **“Quyosh yerning pahlavoni”**, 112-b.)

An‘anaviy-maishiy sinov. Bu motiv qahramonning o‘zini tutishi, mehribonligi, halolligi sinovdan o‘tadigan holatlar, masalan, o‘ziga yordam so‘rab kelgan mo‘ysafidga yoxud hayvonga og‘ir kunlarida yordamlashishiga asoslanadi. **“Halol mehnat”** ertagida yigitning halol non topish uchun sinovdan o‘tishi, **“Muqbil toshotar”** ertagidagi Hotami toyning Muqbilni sinovdan o‘tkazishi, **“Yaxshi niyat – yarim davlat”** ertagida nuroniy cholning yigitni sinashi, **“Dono yigit va uning qaylig‘i”** ertagida qizning dono yigitni so‘z o‘yini asosida yoki **“Oyjamol bilan kal”** ertagida Oyjamolning topishmoq orqali kuyov uchun nomzodlarni sinovdan o‘tkazishida ushbu motiv yetakchilik qiladi. An‘anaviy-maishiy sinovlarda so‘z o‘yinlaridan keng foydalaniladi: *Qizimning ayblari shu: – ko‘zi ko‘r, qulog‘i garang, oyog‘i lang.*

– *Shundaymi? – debdi yigit va bir oz o‘ylanib qolibdi, yigit o‘zicha: “Ko‘zi ko‘r degani yomonni ko‘rmagani, qulog‘i garang degani*

yomonni eshitmagani, oyog‘i langligi yomon yo‘lga yurmagan bo‘lsa kerak. Bu gaplarni qiz o‘rgatgan” – debdi-da, mezbonga:

– *Mayli, men shu qizni o‘zimga loyiq ko‘rdim, ketidan afsusim yo‘q, – debdi. (Oyjamol. “Dono yigit va uning qaylig‘i”, 6-b.); Bir kuni podsho vazirining donoligini sinamoqchi bo‘lib:*

– *Bir yemakka nima yaxshi? – deb savol beribdi. Vazir ham og‘zidan chiqishi bilan yoqasiga yopishtirgandek:*

– *Tuxum! – deb javob beribdi. Podsho jilmayibdi. Oradan bir yil o‘tganidan so‘ng yana so‘rabdi:*

– *Nima bilan?*

Vazir bu savolni kutib turgandek:

– *Tuz bilan, – deb javob beribdi. (Oyjamol. “Hozirjavob vazir”, 107-108-b.);*

Hayotiy ertaklarda an‘anaviy-maishiy motivlarning o‘ziga xos so‘z o‘yinlari mavjud bo‘lib, maqollar, matallardan, qochirim va kinoyalardan, keng foydalaniladi. Masalan, quyidagi ertak matnida qizning aql-farosatini sinovdan o‘tkazish uchun podsho quyidagi topshiriqni beradi: **“Borib ayt, o‘sha qiz ho‘kizni bolalating bersin”**, – debdi. Bir qancha kundan keyin podsho odamlari qizning oldiga kelib: “Ho‘kizni bolalatingmi?” deb so‘rabdilar. Shunda qiz: **“Dadam hammonga tuqqani (ertak matnishi shaklda) ketgan, kelsa javobini aytaman”**, debdi. Kelgan odamlar qah-qah urib kulishib: “Hech vaqt erkak kishi ham tug‘adimi?” deganda, qiz: **“Ho‘kiz bolalaganda, nima uchun erkak kishi tug‘masin?”** deb odamlarni mot qilibdi. (Oyjamol. “Dono qiz”, 6-b.); *Shu go‘sh t qo‘zi go‘sh t ekan, biroq shu qo‘zi it emib katta bo‘lgan ekan... Mana shu shinnidan odam isi keladi... Shu nonni taxlagan kishining otasi novvoy ekan, taxlovchi novvoyning o‘g‘li ekan. (Uch og‘ayni botilar. “Uch og‘ayni botirlar”, 162-163-b.)* Bu kabi sinov motivlarining ko‘pchiligi, misollarda anglashilganidek, dialog shaklida bo‘ladi.

S.Y.Nikitina folklor matnlarini tahlil qilishda so‘zlarning xalq dunyoqarashining stereotipik va arxetipik shakllarini namoyon qiluvchi vosita sifatida baholaydi²⁵⁸. S.Y.Nikitinaning fikrlari o‘rinli bo‘lib, an‘anaviy-maishiy sinovlarda turkiy-arxetipik belgilarga alohida ahamiyat berilishi ko‘zga tashlanadi. Masalan: birgina “qirq” soni bilan bog‘liq sinovlar (“Qirq vazir”, “Qirq kunlik yo‘l”, “Qirq kunlik to‘y”) muqaddaslashtirilgan va ommaviy xarakterini belgilaydi. Masalan: *Birinchi sharti – atrofni qirq kunda aylanib chiqish mumkin bo‘lgan*

²⁵⁸ Никитина С.Е. Устная народная культура и языковое сознание. – Москва: Наука, 1993. – С. 85.

hovuzga ovqat to'ldirilgan bo'ladi... uchinchi sharti – yerni shudgor qilib qirq qop bug'doy, **qirq qop tariqni** aralashtirib sepib, o'shani bir dona qoldirmay bir kunda bug'doyini bug'doyga, tarig'ini tariqqa ajratib, **qirq qopga** to'ldirsa (Oyjamol. "Handalak polvon", 125-b.); Yo'qolgan narsani qayerdan topib beraman, o'rniga **qirq qatlama** beraman, – debdi. (Oyjamol. "Tulkiboy", 146-b.); Podsho bu savolni yechish uchun odamlarga **qirq kun muhlat** beribdi. (Oyjamol. "Dono qiz", 146-b.); Ikki aka-uka **qirq tuyaga** zar-u zarboflardan yuklab, yana bir qancha tilla-yu kumushlardan olib, ikki aka-uka katta va o'rtancha maxluqni bu joyga boshliq qilib, kichkinasini o'zlari bilan olishib, yo'lga tushibdi. Yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham oz emas, ko'p emas, **qirq kecha-yu qirq kunduz** yurishibdi. (Uch og'ayni botirlar. "Non qudrati", 291-b.) Bu shakldagi ertak shar sinovlarida, aksariyat hollarda, K.Beknazarov to'g'ri ta'kidlaganidek "shartni bajara olmaganlar o'limga hukm qilinadi"²⁵⁹. Bu kabi sinov motivlarida ertak strukturasi barqaror bo'ladi.



13-rasm. Xalq ertaklaridagi sinov motivlarining funksional zanjiri

Ertaklardagi sinov matnlarida an'anaviy folklor janrlariga xos imperativ, ya'ni buyruq va shart fe'l shakllari hamda qahramonlar, asosan, bosh obrazlarni rag'batlantiruvchi leksemalar ustunlik qiladi. Bu, yuqorida ta'kidlaganimizdek, dialogik matn doirasida sinovning "majburiy xarakteri"ni ko'rsatadi. ...Mabodo **o'ldirib qo'ysang**, uning har bir tomchi qonidan lak-lak maxluqchalar paydo bo'lib, seni o'ldirmay qo'yishmaydi... (Uch og'ayni botirlar. "Non qudrati", 289-b.); Qizim, yana bir kun **yo'l yursang**, falon yerda katta daryo bor, o'sha daryoga yetganda yetti dona **toshni tashlasang**, yetti ariqqa bo'linadi. (Uch og'ayni botirlar. "Hasan va Huriliqo", 289-b.)

Xulosa qilib aytganda, o'zbek ertaklari motivlarini lingvofolkloristik tahlil qilishdan ayonlashdiki, har bir motiv ma'lum leksik-semantik

²⁵⁹ Бекназаров К. Ўзбек халқ маиший эртаклари (ўрганилиши, таснифи, поэтикаси). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1993. – Б. 16.

maydonni shakllantiradi. Bunda xalq og‘zaki ijodining obrazli tafakkuri til vositasida ifodalanadi.

Xalq ertaklari obrazlarining lingvofolkloristik talqini

O‘zbek xalq ertaklari xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va sermazmun janrlaridan biri sifatida xalq tafakkuri, hayot falsafasi, estetik qarashlari hamda axloqiy me‘yorlarini o‘zida mujassam etadi. Ertaklarda ifodalangan obrazlar esa nafaqat voqeani harakatga keltiruvchi personajlar, balki ma‘lum bir badiiy-falsafiy tushunchalarning ramzlari sifatida ham maydonga chiqadi. Ayniqsa, ijobiy va salbiy xarakterga ega obrazlar orqali xalqning ezgulik va yovuzlik, adolat va zulm, sadoqat va xiyonat kabi tushunchalar haqidagi qarashlari, qadriyatlarini yoritiladi. Ertaklardagi *yovuz kampir*, *dev*, *ajdarho*, *zolim podsho* kabi salbiy obrazlar, shuningdek *jasur yigit*, *donishmand chol*, *mehribon ona* kabi ijobiy obrazlar orqali xalq tomonidan yaratilgan ramziy timsollar ifodalanadi. Ushbu obrazlar nafaqat syujetning rivojida muhim rol o‘ynaydi, balki ular orqali xalq hayoti, urf-odati, diniy-falsafiy qarashlari va estetik didi ham o‘z ifodasini topadi.

Obrazlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan o‘ziga xos ilmiy yondashuvlar mavjud. Xususan, V.Propp folklor obrazlariga strukturalizm nuqtayi nazardan yondashgan va ertaklarda obrazlar ma‘lum funksiyalarni bajaradi, – degan g‘oyani ilgari surgan²⁶⁰. Bu qarash bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Obrazga psixoanalitik yondashgan K.G.Yung obrazlar inson ong osti ehtiyojlarini ifodalashini ta‘kidlaydi hamda “Bolalik dunyosi eng xilma-xil tasvirlarga to‘la va fantaziya bolaga o‘zi uchun tashqi dunyo uni ba‘zan rad etadigan virtual haqiqatni yaratishga imkon beradi. Ammo asta-sekin hayotning haqiqiy talablari insonni o‘zining xayoliy olamini real dunyo bilan o‘lchash, iloji bo‘lsa, yoshi va jamiyatdagi mavqeyiga mos voqelikka moslashish zaruratiga olib keladi. Shunga qaramay, ko‘p odamlar haqiqat tamoyiliga hurmat ko‘rsatib, xayolot olamida qoniqish izlashdan voz kechmaydilar va hatto unga bajonidil sho‘ng‘ishadi. Ba‘zida hayot qiyinchiliklari va o‘zlarining haqiqiy o‘zini o‘zi anglash yo‘lidagi har qanday to‘siqlar bo‘lsa, shunchaki o‘zlarining ruhiy dunyosiga chekinadilar”²⁶¹, deya qayd etadi. Bu esa insoniyatning psixikasi bilan

²⁶⁰ Qarang: Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. Научная редакция, текстологический комментарий И.В.Пешкоба. – Издательство “Лабиринт”, – Москва: 2000. – 336 с.

²⁶¹ Юнг К.Г. Символы трансформации. – Москва: Аст Москва, 2008. – С. 23.

bog‘liq holda obraz yaratishdagi xayolot mahsuli yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

O‘zbek adabiyotida bugungi kunda obrazlar xarakteri va o‘ziga xos tomonlarini ochib beruvchi bir qator ishlar amalga oshirilmogda²⁶². Bundan tashqari, o‘zbek folklori namunalaridagi obrazlarning folkloriy²⁶³ va qiyosiy²⁶⁴ jihatdan tadqiqi borasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ham xalq og‘zaki ijodi namunalariga bo‘lgan qiziqishning oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Ta’kidlash joizki, o‘zbek tilshunosligida xalq ertaklari obrazlarining lingvistik, lingvofolkloristik tadqiqi amalga oshirilmagan. Ertaklardagi obrazlar: *botir yigit, dono qiz, yovuz dev, mehribon kampir, jodugar ayol, sodiq jonivorlar* kabi timsollar xalqning jamoaviy ongida shakllangan qadimiy arxetiplar, stereotip tasavvurlar va ramziy ifodalar tizimini o‘zida mujassam etadi. Bu obrazlar faqatgina personaj sifatida emas, balki xalqning axloqiy-me’yoriy qarashlarini, orzu-istaklarini, haqiqat va adolatga bo‘lgan ehtiyojini aks ettiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ertaklardagi anglanishi qiyin bo‘lgan tushunchalar xalq tafakkuri mahsuli yordamida assotsiativ obrazlar orqali namoyon qilinadi. Badiiy obrazning muhim xususiyatlaridan biri ko‘pma’nolilik (metaforiklik va assotsiativlik)dir²⁶⁵. D.Quronov: “Assotsiativ obraz –

²⁶² Рамазонов Н. Алишер Навоий ижодида фақр талқини ва фақир образи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2019. – 168 б.; Раҳмонова З. XII-XV асрлар ўзбек мумтоз адабиётида муршид ва мурид образлари. – Тошкент, 2020. – 167 б.; Умурзаков Р. XX аср ўзбек киссаларида бола образи: давр ва рухият. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.авторреф.. – Фарғона, 2021. – 56 б.; Алламбергенов А. Ўзбек адабиётида Абу Райҳон Бериуний образи талқинларининг қиёсий таҳлили (насрий асарлар мисолида). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2022. – 130 б.; Акрамов Ш. Истиклол даври ўзбек киссаларида миллий озодлик курашчилари образи талқини. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Қарши, 2022. – 132 б.; Zaripova Z. Qoraqalpoq qahramonlik dostonlarida alp xotin-qizlar obrazining tadrijiy bosqichlari. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Nukus, 2023. – 51 b.; Shomurodova S. O‘zbek folklorida milliy kiyimlar obrazining poetik talqin xususiyatlari. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Nukus, 2023. – 62 b.; Ulug‘murodova K. O‘zbek mumtoz she‘riyatida Layli obrazining badiiy talqini. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Toshkent, 2024. – 54 b.; Payzullayeva R. Sirojiddin Sayyid ijodida vatan obrazining poetik talqini. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Jizzax, 2023. – 56 b.; Barotova X. “Boburnoma”da xotin-qizlar obrazi talqini. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Buxoro, 2024. – 60 b.; Ziyayeva Y. Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazlarining poetik takomili. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Toshkent, 2023. – 55 b.; Yokubova S. O‘zbek jadid she‘riyatida obraz va ramzlar poetikasi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Toshkent, 2024. – 53 b.

²⁶³ Эшонкулов Ж. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1996. – 158 б.; Эшанова З. Ўзбек халқ дostonларида тоғ образи: генезиси ва бадий талқинлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2018. – 164 б.; Ризоева М. Ўзбек халқ мифологик афсоналари (ўзига хос хусусиятлари, таснифи ва образлар тизими). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – 140 б.; Сайиткулов И. Ўзбек халқ тарихий насрида эпик сюжет ва образ эволюцияси (“Темурнома” мисолида). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – 163 б.

²⁶⁴ Жумаев А. Ўзбек ва немис эртакларида кушлар образи типологияси ҳамда спецификаси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.авторреф. – Бухоро, 2022. – 48 б.; Джумаева Н. Инглиз ва ўзбек халқ эртакларида сеҳрли предметлар образлантирилишининг мотивацион хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Бухоро, 2022. – 152 б.

²⁶⁵ Yokubova S. O‘zbek jadid she‘riyatida obraz va ramzlar poetikasi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 11.

narsa-hodisa va tushunchalar orasidagi ilg'ab olinishi qiyin bo'lgan aloqalarga asoslangan, ularni kutilmagan tarzda biriktirish (qiyoslash, chog'ishtirish, qarshilantirish) orqali voqe bo'luvchi va shu tufayli yuksak darajadagi metaforik, subyektivlik kasb etuvchi obraz. Aslida, assotsiativlik har qanday obraz tabiatiga xos xususiyatdir"²⁶⁶, – deya ta'kidlaydi. O'zbek xalq ertaklari xalqning tarixiy xotirasi, estetik ideallari va ijtimoiy-axloqiy qarashlarini ifodalovchi janr hisoblanganligi sababli undagi assotsiativ obrazlar xalqning tafakkur tarzini, tasavvur doirasini va lingvistik tafakkurini yoritishda muhim vositadir.

Ertaklarda assotsiativ obrazlar qahramonning turli xususiyatlarini ifodalash uchun qo'llanadi. Masalan: *Tulkiboy*: “*Yig'lama oydin qiz, yig'lama, hozir uyga yetamiz*” deb, *qadamini ildam tashlab uyga yetib kelibdi*. (Oyjamol. “Tulki bilan bo'ri”, 147-b.) Ushbu misolda “Oydin” assotsiatsiyasi orqali go'zallik, hayotiylik ifodalanyapti, ya'ni “Oydin qiz” birikmasidagi “*oydin*” o'zbek tilida *yorug'lik, ravshanlik, tozalik, poklik* bilan bog'liq so'z. U, ko'pincha, *oy nuri, go'zallik, umid* va *hayotiylik* ramzi sifatida ishlatiladi. Ertak matnida “oydin” so'zi qiz obrazining tashqi go'zalligini emas, balki ichki ma'naviy yuksakligini ham ifodalab, unga *nurli, musaffo, beozor, muqaddas* kabi ma'nolarni yuklaydi. Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, assotsiatsiya bir obraz, voqea yoki so'z boshqa bir tushuncha yoki tasavvur bilan bog'lanish jarayonidir. Tilshunoslikda assotsiativ obrazlar matnda yashirin yoki ochiq tarzda o'quvchi ongida qo'shimcha ma'nolarni uyg'otuvchi birliklarda namoyon bo'ladi. Buni quyidagi ertak matnida ham kuzatish mumkinki, bunda folklor tilida, asosan, qizlarga nisbatan qo'llaniladigan o'xshatish etaloni o'g'il bolaga nisbatan qo'llanilganligini kuzatiladi: *Oxirida xotin ikkiqat bo'lib, bir o'g'il tug'ibdi, oydek bola ekan*. (Oyjamol. “Bo'z bola”, 25-b.) Mazkur misoldagi “oy” etaloni an'anaviy folklor janrida qizlarning go'zallik, chiroy, yorug'lik va poklik ifodasi sifatida berilish an'anasi, ya'ni gender chegarasi buzilgan. Bu o'zgarish ertak qahramonining favqulodda go'zalligidan tashqari, boshqa bolalardan ustunligi, noyobligi va ertak janriga xos usul bo'lgan “*kelajakka ishora*” shaklida qo'llangan.

Ertak matnidagi aynan bir obraz bir nechta assotsiatsiyalarni tashishi mumkin. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagida kampir obrazi Qimmatga bo'lgan munosabatda salbiy assotsiatsiya tashisa, Zumradga

²⁶⁶ Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 39-40.

bo‘lgan munosabatda *sinovchi*, *tarbiyachi* sifatida ikkinchi bir assotsiatsiyani yuzaga chiqaradi.

O‘zbek xalq ertaklaridagi assotsiativ obrazlarni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

14-jadval

O‘zbek xalq ertaklaridagi assotsiativ obrazlar

Asosiy assotsiativ obrazlar	Obraz	Assotsiatsiyalar
Tabiat obrazlari orqali assotsiatsiya	Tog‘	kuch, sabr, bardavomlik
	Daryo	hayot manbayi, tozalik
	Qarg‘a	salbiy ba‘zan ijobiy (uzoq umr, sovuq xabar)
Hayvonlar obrazlari	Tulki	makkorlik, ayyorlik obrazlari
	Sher	adolat va kuch (ijtimoiy ideallarni ifodalaydi).
Afsonaviy obrazlar	Dev, ajdarho, yovuz va ayyor kampir	sinov, yovuz kuchlar, ma‘naviy to‘siqlar
	Xizr, mehribon ayol (kampir)	nur, yordam, ijobiy kuchlar
Kishilar va ularning xatti-harakatlari	Oqsoqol	donishmandlik
	Kampir ikki qirrali obraz	mehribon ona
		yovuz jodugar
	Yetim bola yoki qiz	sinovlardan o‘tuvchi, axloqiy idealni ifodalaydi
O‘gay ona	hasadgo‘ylik, xusumat, zulm va sinov yaratuvchi	

Obraz badiiy asarning asosiy mazmuniy-estetik unsurlaridan biri bo‘lib, u muallifning dunyoqarashi, estetik ideali, ijodiy niyati va davr ruhini o‘zida mujassam etadi. Obrazlar xilma-xilligi ularning shakllanishida ishtirok etuvchi turli omillar: estetik ideal, ijodiy metod, tasvir uslubi, til vositalari hamda funksional-belgilar bilan belgilanadi. Shunga asoslanib, ertak obrazlarining guruhlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

Ijodiy metodga ko‘ra obrazlar *realistik, romantik, naturalistik, modernistik* va boshqa yo‘nalishlarda hosil qilinadi.

Realistik obrazlar hayotiylik, tabiiylik, aniq ijtimoiy-psixologik motivatsiyalilik bilan ajralib turadi. Bunday obrazlar xalq ertaklarida kam bo‘lsa-da, ular, ko‘pincha, hayotiy tajribaga asoslangan, mehnatkash, donishmand, oqil odamlar sifatida gavdalanadi. Jumladan, xalq hayotida ijobiy (ko‘p holatda) tomonlari bilan nom qozongan shaxslar xalq tilida ertak matnlari qahramoni sifatida olib kiriladi hamda ertakda “*yarim prototip*” obraz vazifasini o‘taydi. Bu esa bu kabi obrazlarning folklor janri, ya‘ni ertakka olib kirilishi va ularning nutqi ham folklorga xoslanishiga olib keladi. Masalan, “*Ibn Sino va tarbiya*”, “*Navoiy bilan cho‘pon*”, “*Navoiy va Husayn*”, “*Dunyoda nima lazzatli?*” ertaklardagi ibn Sino, Navoiy, Husayn Boyqaro kabi obrazlar bunga misol bo‘la oladi. Bunday obrazlarning asosiy xususiyatlari haqiqiy hayotdan olingan insonlar timsolining kiritilishi, sehrlil vositalarsiz harakat qilishi, ijtimoiy qatlamlar, xususan, *dehqon, cho‘pon, boy, xizmatkor, kambag‘al, o‘gay ona* kabilarning ishtirokida namoyon bo‘lib, ko‘pincha, axloqiy tarbiya, ijtimoiy tanqid, donolik g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu kabi obrazlarning nutqi folklor tiliga xos leksemalar va ifodalar bilan ertak matniga olib kirilib, folklor uslubiga uyg‘unlashtiriladi. Masalan: *Husayn mirzoning qirq vaziri bor ekan. Qirqinchisi Alisher Navoiy ekan. Bir kam qirq vazir Navoiyni Husayn mirzoga yomonlay beribdi.* (Oyjamol. “Dunyoda nima lazzatli?” 112-b.) Mazkur misolda real-tarixiy obrazlar orqali o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlari aks ettirilgan. Bunda an‘anaviy folklor janrlariga xos bo‘lgan “*qirq*” raqamining simvolik asosi kontekstga ertaklarga xos xarakter, jumladan, salbiy guruh va yagona qahramon qarama-qarshiligini ko‘rsatishga qaratilgan.

Romantik obrazlar esa ideallashtirish, orzular olamiga intilish, g‘ayritabiiylik va emotsional kuch bilan xarakterlanadi. Bunday obrazlarga *Rustam, Muqbil toshotar, Qilich botir* kabi obrazlar bunga misol bo‘ladi. Bu obrazlar, ko‘pincha, tasvirning stilistik vositalari: *epitet, o‘xshatish, metafora, simvol, mubolag‘ali* tasvir orqali badiiylashtiriladi. Jumladan, “Eng katta zulm” ertagida shahzodaning kigiz kiygan qizni sevib qolishi, “Tohir va Zuhra” ertagida Tohir va Zuhra, “Bo‘z bola” ertagidagi Bo‘z bola va Oyparcha o‘rtasidagi muhabbatni, shuningdek, zulm va adolatsizlikni o‘zlariga odat qilgan, yovuz kuchlarga qarshi tura oladigan ertak qahramonlari ushbu guruh obrazlarining asosiy elementi hisoblanadi: *Shunda shabada kelib, yuzidagi niqobini ko‘tardi, Bektemir*

botir uning o‘n to‘rt kunlik to‘lgan oyday yuzini ko‘rib: “Oh!” deb yiqildi. Qizlar chuvurlashib qoldi. Malika: “Folbin aytgan vafodor yor shu bo‘lsa kerak!” deb xayoldan o‘tkazdi-da, qizlarga buyurib, Bektemir botirni ko‘tartirib, Eram bog‘iga olib kirib, gullar orasiga tilla so‘riga yotqizib, yuziga suv septirdi. (Uchar gilam. “Bektemir botir”, 73-b.) Matnda romantik muhitni yaratish uchun qo‘llangan an’anaviy folklor janrlariga xos **niqob** sir, yashirin go‘zallik simvolini, **niqobning ko‘tarilishi** esa sirning ochilishi, haqiqatning namoyon bo‘lishini ifoda etgan. “**O‘n to‘rt kunlik to‘lgan oyday yuz**” romantik ertaklarga xos doimiy epitet va metafora hisoblanadi. Bektemir botirning hushdan ketishdan oldingi “Oh” undovining qo‘llashi o‘zbek xalqining yaratuvchanlik mahorati bilan matnga o‘ziga xos hissiyot va muhit baxsh etgan. Bu emotsional reaksiyaning maksimal ifodasi bo‘lib, oshiq (botir)ning jismoniy kuchi uning ma’naviy (sevgi, hayrat) ta’siri oldida ojiz qolganini ko‘rsatadi. Bu holat sevgi hissini jismoniy sinov darajasiga olib chiqadi. Ma’shuqaning *Bog‘i Eramda* yashashi va oshiqni ushbu bog‘ga olib kirishida ham ramziy ma’no mavjud. Chunki *Eram bog‘i pok* va *go‘zal makon, jannat timsoli* bo‘lib, romantik uchrashuv joyi, sinovdan keyin taskin topish va sevgining yanada rivojlanishi uchun ideal joy hisoblanadi.

Yaratilish usuliga ko‘ra obrazlar **fantastik, grotesk, allegorik, simvolik** va boshqa ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Fantastik obrazlar ertaklarning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, ular orqali voqelik ramziy shaklda ifodalanadi. Grotesk obrazlar esa mubolag‘a va kinoyaviy kontrast asosida vujudga keladi. Bu usul odatda Yevropa ertaklarida obraz yaratishda keng qo‘llanilgan. O‘zbek xalq ertaklarida bunday obrazlar yetakchi o‘rinni egallamaydi, ammo ijtimoiy tanqid, satira vositasi sifatida ayrim ertak matnlarida uchraydi. Masalan, *ajdarho, yalmog‘iz kampir* kabi personajlar *bir necha boshli, og‘zidan olov purkaydigan, yer yutadigan, xunuk* va *qiyofasiz* kabi sifatdash va sifat leksemalaridan foydalaniladi. Alogizm ham bu obraz tiplarida muhim rol o‘ynaydi. Alogizm – folklor asarlarida ishlatiladigan nomantiqiy tasvir va iboralar nomi. Masalan, “*Uch oylik yo‘lni uch kunda bosib o‘tdi*” kabi²⁶⁷. Bunday tasvir vositalar ertak matnlarida juda ko‘p uchraydi. Simvolik obrazlar esa ertaklar tilida ko‘p qo‘llanib, turli ko‘rinishda, xususan, mifonim, demonim, zoonim, ornitonim, teonim va boshqa ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

²⁶⁷ Рўзимбоев С., Рўзметов Х, Фольклор атамалари қисқача луғати. – Урганч. – 2007. Б. 5.

Estetik-belgi va xarakter xususiyatlariga ko‘ra esa obrazlar *tragedik, satirik, yumoristik, epik, lirik* singari guruhlar asosida lingvofolkloristik tahlilini amalga oshirish ma’lum samara beradi. **Tragedik obrazlar** odatda fojiali taqdir, ichki ziddiyat, halokatli ijtimoiy-tarixiy voqealar fonida gavdalanadi. “Ertaklarning yakuni ijobiy xarakter kasb etishi lozim” degan konsepsiya bunday tip ertaklarning o‘zbek xalqida kam ekanligini ko‘rsatadi. “Tohir va Zuhra” ertagidagi Tohir, Zuhra obrazlarini tragedik obraz sifatida qarash mumkin: **Tohir ustidan qizil gul, Zuhra ustidan oq gul, ular o‘rtasida yotgan Qorabotir ustidan esa qora tikan o‘sib chiqibdi.** (O‘zbek xalq ertaklari. “Tohir va Zuhra”, 59-b.) Mazkur misoldagi **“Tohir+qizil”, “Zuhra+oq”, “Qorabotir+qora”** konsepsiyasi Tohir obrazining qizil rang (gul) bilan mujassamlashuvida *“ehtirosli muhabbat”* dan tashqari *“azob-uqubat”* ramzi ham ifodalangan. Qorabotir ustida o‘sib chiqqan *“qora tikan”* da *“yovuzlik”, “qabihlik”* ramzi ifodalangan²⁶⁸. Zuhra obrazining *“oq gul”* tasvirida ifodalanishida esa *“poklik”* ramzi sifatida namoyon bo‘lgan. Demak, *“Tohir+qizil= ehtirosli muhabbat”*; *“Zuhra+oq=pok muhabbat”*; *“Qorabotir+qora=qabihlik”* ma’nosini ifoda etgan.

Satirik obrazlar esa ijtimoiy illatlarni fosh qilish, kulgili va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. **Yumoristik obrazlar** esa xalqona donishmandlik, sodda kulgi, ijobiy hazil orqali badiiy ta’sir kuchini oshiradi. “Jonon piyola” ertagidagi kal obrazi, “Bo‘z bola” ertagidagi bo‘z bola aynan yumoristik obraz sifatida gavdalanadi hamda nutqidagi leksemalarning yumorga boyligi bilan ajralib turadi. **Lirik ko‘rinishdagi ertaklar** o‘zbek xalq ertaklari uchun xos emas, ya’ni to‘laligicha lirik shaklda bayon etilgan ertaklar kam uchraydi. “Kampir bilan shaqol” ertagi lirik shaklda bo‘lib, kampir va shoqol obrazlarining o‘zaro suhbatii lirik tarzda bayon etilgan. Lirik shakl ertak matnlari rivojida personajlar nutqida, ayniqsa, dialoglarda, savol-javob shaklidagi so‘z o‘yinlarida, shuningdek, ayrim ertakning boshlanmasida uchraydi:

*Bor ekan-u yo‘q ekan,
Och ekan-u to‘q ekan.
Bo‘ri bakovul ekan,
Tulki yasovul ekan,
Qarg‘a qaqimchi ekan,*


²⁶⁸ Bozorov H. O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 132.

*Chumchuq chaqimchi ekan.
Ko‘chmanchilik zamonda,
Atoqli boy bor ekan.
Sevib olgan yoridan,
Sevinchog‘i yo‘q ekan.
Davlat desang hisobsiz,
Yilqi, qo‘yi sanoqsiz.
Shuncha davlatda, esiz,
Bir o‘g‘ilga zor ekan.*

(Oyjamol. “Bo‘z bola”, 24-b.)

Tasvir planiga ko‘ra ertak matnlaridagi obrazlar *inson obrazlari, hayvonot (jonivor) obrazlari, narsa-buyumlar obrazlari* tarzida tasniflanadi. Inson obrazlari – badiiy asarlarning markaziy figuralari bo‘lib, ularning xarakteri, psixologiyasi, harakati va qarorlarida muallifning g‘oyaviy-estetik niyatlari mujassam bo‘ladi. Jonivor obrazlari xalq ertaklarida muhim o‘rinni egallaydi. Ular, ko‘pincha, insoniy sifatlar bilan antropomorfik shaklda ifodalanadi hamda jonlantirish orqali ertak matniga xos folkloriy xususiyat baxsh etadi. Bu holat lingvistik nuqtayi nazardan semantik transpozitsiya, ya’ni til birliklarining ma’no ko‘chishi orqali yuzaga keladi. Narsa va buyum obrazlari esa ramziy ma’noga ega bo‘lib, ular asar semantikasini chuqurlashtiradi. Masalan, “*oltin uzuk*” sadoqat, “*temir eshik*” to‘siq, “*ko‘prik*” esa yo‘l, bog‘lovchi vosita sifatida talqin qilinadi.

O‘zbek xalq ertaklaridagi obrazlarning o‘ziga xos tomonlarini aniqlashda leksik-semantik vositalar tahlili muhim ahamiyatga ega. Jumladan, ertaklar tilida epitelar (*jasur yigit, mehribon ona, oydek qiz*), metaforalar (*hayot karvoni, qalb shamoli*), stereotipik ifodalar (*qora ko‘zli, dilbar qiz, borsa kelar, borsa xatar, borsa kelmas*), arxaik va dialektal so‘zlar (*ko‘hna, sabiy, kosagul, kadi*) obrazlarning estetik ta’sirini kuchaytiradi. Shu bilan birga, obrazlar semantik tarmoq tarzida o‘zaro bog‘langan holda mavjud bo‘lib, ular orqali asar ichida motivlar tizimi, semantik maydon vujudga keladi. Bu maydonlar tahlil qilinishi obrazlararo munosabatlarni aniqlash va asar mazmunining muhim qatlamlarini ochishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbek xalq ertaklarida an’anaviy obrazlar guruhi azaldan ertak matni uchun muhim bo‘lib kelgan. Shu ma’noda ertaklardagi obrazlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:



14-rasm. Ertaklarida an'anaviy obrazlar

O'zbek xalq ertaklarida mavjud asosiy an'anaviy obrazlar o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, azaldan unga ism, xalq-atvorini belgilovchi leksik birliklar tanlanadi hamda folklor badiiyati sezilib turadi: *Devorlarda yarog'-aslahalar terib qo'yilgan, bir tomonda yigirma chog'li odam davra qurib o'tirar, ularning peshonalari qaqqaygan, ko'zlari chaqchaygan, ko'ngillari qora, yuzlari ola, o'ylaganlari yomonlik ekan. Xullas, bular talonchilar to'dasi ekanligi, bu joy ularning to'planadigan makoni ekani ma'lum bo'libdi.* (Uch og'ayni botirlar. "Uch og'ayni botirlar", 157-b.) Shundan kelib chiqib, ertaklardagi obrazlarning lingvofolkloristik xususiyatlarini quyidagicha tavsiflashga asos bor:


Nomlash va nisbat berish. Obrazlarga maxsus nomlar beriladi: *Rustam, Botir, Qilich, Zumrad.*

Tavsiflovchi so'zlar. "Jasur yigit", "dono chol", "oqsoch kampir", "qora dev", "yovuz ajdar" kabi sifatlar orqali obrazlar aniqlanadi.

Formulalar va takrorlar. Obrazlar harakatlarida doimiy formulalar ishlatiladi ("Yetti tun, yetti kun yuribdi", "qirq kecha-yu qirq kunduz to'y berdi").

Obraz ertakdagi shaxs, jonzot, kuch, buyum yoki holat bo'lib, u ma'lum xarakterga ega va ertakdagi voqelikni anglatish yoki ifodalashda xizmat qiladi. Shunga asoslanib, xalq ertaklaridagi obrazlarning vazifasi va semantik yuklamalarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Obrazlarning funksional va semantik jihatlari



15-rasm. Ertaklardagi obrazlarning funksional va semantik jihatlari

Xulosa o‘rnida aytish joizki, ertaklarda obrazlar xalq turmush tarziga, mentalitetiga mos holda shakllanadi. Masalan, “g‘amxo‘r ona”, “kamtar yigit”, “sabrli qiz” o‘zbek oilaviy qadriyatlari bilan bog‘liq obrazlar. Ijobiy qahramonlar sabr, mehnat, halollik, iymon bilan yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi. Har bir obrazga chuqur ma‘no anglatish vazifasi yuklanadi. Masalan, “yo‘l” – hayot sinovlari ramzi, “cho‘l” – yolg‘izlik, iztirob” kabi holatlarni ifodalovchi an‘anaviy tuzilmalardan biridir. Bu holatni quyidagi ertak matnida ko‘rishimiz mumkin: “*Bechora qiz cho‘l kezib, tog‘lar oshib, daryolar kechib, uzoq tun va kunlar horib-charchab yo‘l yuribdi. Yo‘l yursa ham mo‘l yurib, boshqa bir mamlakatga kirib boribdi*”. (Oyjamol. “Eng katta zulm”, 31-b.)

Ijobiy obrazlar tasvirida folklor an‘analarining o‘rni

Obrazlar orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, axloqiy ideallari va orzu-umidlari ifodalanadi. Ular real hayotdagi kasblar, ijtimoiy mavqelar, oilaviy munosabatlar, mehnatga munosabat, e‘tiqodlar va xatti-harakatlar asosida yaratilgan. Masalan, ertaklarda katta o‘rinni egallovchi **dehqon, cho‘pon, hunarmand, temirchi** obrazlari, asosan, erkak obrazida ifodalanib, o‘zbek xalqining mehnatkash, halol va sabrli insonlar haqidagi tasavvuri natijasida vujudga kelgan. “**Donishmand cho‘pon**” ertagida cho‘pon aqli bilan podshoni yengadi. Bu obraz xalq orasidagi *aqlning kuchi* g‘oyasini ifodalaydi. Tavsiflovchi sifatlar sifatida ushbu ertaklarda *ustidagi eski chopon, oyog‘idagi yirtiq chorig‘, odil podsho bo‘lib...* kabi lingvofolkloristik birliklar orqali ifodalanadi.

Ertaklarda xalqning estetik qarashlari bilan obraz o‘rtasidagi munosabatga ko‘ra, ular **ijobiy** va **salbiy** obrazlarga ajratiladi. **Ijobiy obrazlar**, ko‘pincha, yozuvchining yoki xalq og‘zaki ijodining estetik

qarashlarini ifoda etadi: jasorat, vatanparvarlik, mehr-shafqat kabi fazilatlar ularda asosiy xususiyat sifatida ko'rsatiladi. **Salbiy obrazlar** esa yovuzlik, xiyonat, haqsizlik, g'azab, jaholat kabi illatlarni fosh etuvchi vosita bo'lib xizmat qiladi hamda salbiy va ijobiy obrazlar xarakterini ifodalovchi leksemalar alohida tadqiqot obyektiga aylanadi²⁶⁹.

Ijobiy obrazlar xalqning orzusidagi qahramonlarni yaratishga bo'lgan intilishi natijasida vujudga kelgan. Buning zamirida ijobiy qahramonlarning xalq hayotini yengillashtirishga, ular uchun xizmat qiladigan qahramonlarga qaratilgan g'oya yotadi. Shu ma'noda, ijobiy qahramonlarning asosiy belgilari xalq tomonidan ilgari surilgan g'oyalar asosida stereotiplashadi. Masalan, "Ziyod Botir" ertagidagi Ziyod, "Zumrad va Qimmat" ertagidagi Zumrad, "Halol mehnat" ertagidagi yigit obrazlarning zukkoligi, ozodaligi, halolliigi kabi xususiyatlari yosh avlodni tarbiyalashga qaratilganligi, bu xalq-atvor orqasidan mukofotga etishishi targ'ib qilinadi: *Otasi o'g'liga hunar o'rgatmoqchi bo'lib, "O'g'lim, ko'zim ochiqligida hunar o'rganib olgin", debdi. Ziyod botir ko'p vaqt o'tmasdan otasining hunarlarini o'rganib olibdi;* (Uch og'ayni botirlar. "Ziyod botir", 201-b.) *Zumrad ozoda qiz bo'lgani uchun uyni supurib-sidirib, oynalarni artib-surtib, hamma yoqni chinniday qilib qo'yar ekan.* (Uch og'ayni botirlar. "Zumrad va Qimmat", 247-b.); *Halol mehnat evaziga topilgan pulni sarflab, olgan nasihatlarini yigitni boy-badavlat, farog'atda yashashiga sabab bo'lgan ekan.* (Uch og'ayni botirlar. "Halol mehnat" 38-b.)

Ertak tilida ijobiy qahramonlarning sifatlari ta'rifi berilar ekan, bu jarayonda qahramonlar folklor janrlariga xos belgilar bilan tavsif etiladi.

²⁶⁹ Bozorov H. O'zbek xalq ertaklaridagi obrazlar: lingvopoetik, badiiy va falsafiy tahlil // FarDU. Ilmiy xabarlar. №4. Volume 31 Issue 4, 2025-yil. – B. 103. https://doi.org/%2010.56292/SJFSU/vol31_iss4/a99. <https://journal.fdu.uz>



16-rasm. Ertaklardagi ijobiy qahramonlarning asosiy stereotipik belgilari

Ertak matnlarida ko'p qo'llaniladigan obrazlar ichida ayollar obrazlari ijobiy qahramon sifatida mehribon ona, ko'proq sadoqatli yor, mehnatkash yoki jabrlangan qiz sifatida namoyon bo'ladi. Bu obrazlar o'zbek oilasidagi an'anaviy qiz (ayol) idealiga asoslanganligi bilan xarakterlanadi. Xususan, "Zumrad va Qimmat" ertagida Zumrad mehnatkash va itoatkor sifatida ifodalanib, mukofotlanadi. Ayol obrazlari "gul yuzli, sipo, muloyim, nozik" kabi sifatlar bilan tasvirlanadi: *Zumrad nihoyatda chiroyli, odobli, muloyim va aqlli qiz ekan. Uni bir ko'rgan kishi yana ko'rsam deb orzu qilar ekan. Xullas, u juda ajoyib qiz ekan.* (Uch og'ayni botirlar. "Zumrad va Qimmat", 244-b.)

Ertaklardagi kampir obrazi ifoda xususiyatiga ko'ra mukammal ayol obrazlar sirasiga kiradi. **Kampir** obrazi an'anaviy folklor tiliga xoslangan holda ertaklarda ham salbiy va ijobiy xarakter kasb etadi. Xususan, "Zumrad va Qimmat" ertagidagi *qushlar tilini biladigan kampir*, "Podachining qizi" ertagidagi *oppoq sochli kampir* sifatida tasvirlanadi. E'tiborlisi, ijobiy xarakterdagi kampir obrazi "Chol va kampir" birligi asosida *kambag'al, nochor, befarzand* sifatlari bilan tasvirlanadi. Kampir obrazi yakka holda qo'llanganda ertak qahramoniga ko'makchi, sehr kuchiga ega tarzida tasvirlanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ertaklardagi ijobiy obrazlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Botir qahramonlar *alp botir, kenja shahzoda, kambag'al yigit, kenja botir* ko'rinishida jasorat, matonat, adolatparvar, halollik kabi

fazilatlarni ifodalovchi til birliklari, asosan, sifat turkumiga mansub soʻzlar bilan tavsiflanadi.

2. Donishmand obrazlarga *Xizr, Hotam* kabi mifonimlar, *chol, kampir, dono vazir, avliyo, donishmand qariya* qiyofasida namoyon boʻlib, hikmat, maslahat, yordam berish, gʻayritabiiy bilim sohibi ekanligi bilan ajralib turadi.

3. Yordamchilar. Ushbu guruhning oʻzini tabiiy va gʻayritabiiy yordamchilarga ajratish mumkin. Jumladan, tabiiy ijobiy obrazlarga *oqsoqol, ot, qush*; gʻayritabiiy yordamchi obrazlarga *Semurgʻ, pari, qushlar, sehrli ot, sehrli kiyik, urtoʻqmoq, sehrli olma, nay, kuloh, gul uzuk, oynayi jahonnamo, sangilsopoltoʻsh* kabilar. Bu kabi obrazlar ertak motivlarida sodiqlik, minnatdorchilik, qahramonning harakatlarini va gʻalaba yoʻlidagi intilishlarini qoʻllab-quvvatlash vazifasini bajaradi.

4. Ayol obrazlar *mehnatkash qiz, vafoli yor, uzoq yoʻl bosib kelgan bosh qahramonlarga yoʻl koʻrsatuvchi va uyidan joy beruvchi anʻanaviy kampir* koʻrinishda namoyon boʻladi. Bu obrazlar mehnatkashligi, tashqi va ichki goʻzalligi, vafodorligi, zukkoligi, mehribonligi bilan folkloristik xarakter kasb etadi hamda shu xususiyatlarni ifodalovchi til birliklari yetakchi oʻrinni egallaydi.

Bu guruh obrazlarining tavsifi lingvofolkloristik tahlil qilinar ekan, bunda koʻtarinki, dabdabali uslubga xos soʻzlar, jumladan, *bahodir, botir, sulton, oy yuzli*, shuningdek, “*oy desa ogʻzi bor*”, “*togʻni ursa talqon qiladigan*” sifatlovchi FBlardan keng foydalaniladi. Shuningdek, epitet va metaforalar orqali obrazlarning tashqi koʻrinishi va fazilatlari mubolagʻali tarzda tavsiflanadi. Quyidagi misollarda ushbu jihatlarni koʻrish mumkin: *Jamoli osmondagi oydan oʻtadi, ikki koʻzi ohuning koʻzidan qoralik qiladi.* (Uchar gilam. “Bektemir botir”, 65-b.); *Husnining shuʻlasiga qorongʻi kecha kunduzdagidek boʻlib ketibdi.* (Oyjamol. “Uch avliyo”, 12-b.); *Oqbilak oyim bunday qarasa, attor qaddi-qomati kelishgan, koʻrinishi juda ham istarali jonon bir yigit ekan.* (Oltin beshik. “Bektemir botir”, 97-b.); *Bir gʻorga duch kelibdi. Gʻorning ichi charogʻon yorugʻ emish. Toʻrda bir nuroniy kampir oʻtirgan emish.* (Oltin beshik. Olmos botir”, 14-b.); *Boshqa oʻgʻillariga qaraganda Bektemir shersavlat, bahodir taxlit yigit boʻlib oʻsibdi.* (Oltin beshik. “Bektemir botir”, 90-b.)

Ijobiy qahramonlar nutqi boshqa folklor janrlari kabi dialog va monologlarda oʻz ifodasini topib, odatda, axloqiy mezonlarga xos

murojaat leksikasi, samimiy va ishonchli bo‘ladi: *Qiz darhol ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib:*

– *Assalomu alaykum, buvijon!* – *debdi.*

– *Vaalaykum assalom, kel, qizim, kel!* (O‘zbek xalq ertaklari. “Podachining qizi”, 133-b.)

Ertaklarning semantik yadrosi ham lingvofolkloristik nuqtayi nazardan o‘ziga xos. Jumladan, ushbu janr semantik yadrosida ezgulik, adolarning g‘alabasi, baxt-saodat, yordam tushunchalari yetakchilik qiladi. Ertak syujetida yomonlik ustidan yaxshilikning g‘alabasiga yo‘naltirilgan mazmun asosiy o‘rinni egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, ertaklaridagi ijobiy obrazlar lingvofolkloristikasi milliy dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va badiiy tafakkurning o‘ziga xosligini til orqali ochib berishga xizmat qiladi. Ularning tili va tasviri xalqning axloqiy va estetik idealini aks ettiradi.

Salbiy obrazlar va ulaning nutqiga xos lingvofolkloristik unsurlar

Ertakda mavjud obrazlarda ijobiy obrazlar yetakchi o‘rinni egallasada, *yovuzlik, to‘siq, sinov, zulm, haqsizlik* timsollarining badiiy ifodasini tahlil qilishda salbiy obrazlar muhim vazifa bajaradi. Ertaklarda shunday salbiy qahramonlar mavjudki, ularni obraz darajasiga ko‘tarish mumkin. Chunki “Badiiy adabiyotda qahramonning salbiy, ijobiyligidan qat’iy nazar asarda tasvirlanish darajasi mukammallikka erishsa, go‘zal obraz deb atash qabul qilingan”²⁷⁰.

Ertaklardagi mif yozma adabiyot taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan tafakkur durdonalaridan biri bo‘lib, insoniyatning eng qadimgi davrlardagi tasavvurlari va e‘tiqodiy qarashlarini o‘zida aks ettirgan. Bunday qarashlar turli obraz, syujet va motivlar shaklida folklor asarlarida bo‘y ko‘rsatib, ular orqali yozma adabiyot badiiy olamining teranlashuviga ham katta hissa bo‘lib qo‘shilgan²⁷¹. Darhaqiqat, salbiy obrazlarning aksariyati miflardan ertaklar tiliga ko‘chgan. E.Meletinskiy miflardagi obrazlar haqida gapirar ekan: “Qayerda o‘xshashlik bo‘lsa, hamma narsa mavjud”²⁷². Bunda olim miflarda hukmron bo‘lgan analogik tafakkur, ya’ni o‘xshashlikka asoslangan tushuncha va sabab-oqibat


²⁷⁰ Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – B. 184.

²⁷¹ Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Toshkent: A.Navoiy nomiдаги Ўз.Миллий курубхонаси нашриёти, 2016. – Б. 159-160.

²⁷² Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. 3-е изд., репринтное. – Москва: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 2000. – С. 49.

aloqalarining o‘ziga xos shakliga asoslanishini inobatga oladi. Mifologik tafakkurda narsalar, voqealar, mavjudotlar o‘rtasidagi bog‘liqlik real sabab-oqibat asosida emas, balki tashqi yoki ichki o‘xshashlik asosida belgilanadi. Jahon mifologiyasida *quyosh* – *erkak*, *oy* – *ayol*; *yer* – *ona*, *osmon* – *ota* sifatida talqin etiladi. Bu esa inson ongi orqali koinot va tabiat hodisalariga insoniy xususiyatlar yuklash, ya’ni antropomorfizmdir. Shu va shunga o‘xshash obrazlarning miflardan ertaklarga ko‘chish holatlari ko‘p uchraydi, ayniqsa, bu holat salbiy obrazlarda ko‘p kuzatiladi. “O‘zbek xalq ertaklarida shunday matnlar borki, undagi obraz, tasvir yoki nomlar asrlar o‘tsa-da, xalqimizga xos madaniy va ma’naviy qadriyatlarni o‘zida saqlab, keyingi avlodlar uchun ko‘prik vazifasini o‘tab kelmoqda”²⁷³.

Ertaklarida **salbiy obrazlar** ertak voqealarida ijobiy qahramonga qarshi turgan, to‘siq yaratadigan, sinovlarni yuzaga keltiradigan shaxslar, mifonimlar yoki mavjudotlardir. Salbiy obrazlarning ertak matnida bir nechta vazifani bajaradi. Shartli ravishda ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:



17-rasm. Ertaklardagi salbiy obrazlarning asosiy vazifalari

Salbiy obrazlar: *dev*, *ajdarho*, *yovuz kampir*, *jodugar ayol*, *zolim podsho*, *hasadgo‘y aka*, *o‘gay ona* va boshqa timsollar xalq og‘zaki ijodining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida shakllanib kelgan. Ularning shakllanishiga quyidagi manbalar asos bo‘lgan:

²⁷³ Bozorov H.X. O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. – Toshkent: Grand kondor print, 2024. – B. 91.

Xalq og‘zaki ijodida salbiy obrazlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan jihatlar

Mifologik qarashlar va ular asosida shakllangan manbalar	Qadimgi e‘tiqodlar, animistik tasavvurlar, shayton, jin, ajina kabi yovuz kuchlar haqidagi rivoyatlar
Tarixiy-ijtimoiy voqelik	Zo‘ravonlik, adolatsizlik, sinfiy qarama-qarshiliklar, turmush og‘irligi kabi holatlar ramziy obrazlarga ko‘chgan
Diniy-ma‘rifiy tasavvurlar	Yomonlik va ezgulik to‘qnashuvi, jinoyat va jazoni aks ettiruvchi axloqiy-falsafiy g‘oyalar
Estetik zarurat	Ertakning kompozitsion tuzilmasi, dramatik ziddiyat va syujet rivoji uchun antagonist qahramon zarurati

O‘zbek xalq ertaklarida mavjud salbiy obrazlarning asosiy turlarini quyidagicha ko‘rsatishimiz mumkin:

1. *Afsonaviy salbiy obrazlar.*
2. *Ijtimoiy salbiy obrazlar.*
3. *Maishiy salbiy obrazlar.*
4. *Simvolik salbiy obrazlar.*

Ertaklardagi **afsonaviy salbiy** obrazlarga *dev, ajdarho, yalmog‘iz* yoki *sehrGAR kampir* kabilarni misol qilish mumkin. Afsonaviy salbiy obrazlar ichidan eng ko‘p ishtirok etuvchi obraz *dev* obrazi hisoblanadi. Bu obrazni J.Eshonqulov: “O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham biz qadim hikmatlarning timsoli sifatida muhrlanib qolgan mifologik obrazlarga duch kelamizki, ulardan biri dev personajidir. Bu obraz bizni ajdodlarimiz dunyoqarashi, tafakkuri tarixi, olam va ezgulik haqidagi tushunchalari, falsafasi, urf-odatlaridan xabardor qiladi”²⁷⁴, – deya ta’kidlaydi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, dev obrazi ertak matnlarida faqatgina salbiy emas, balki ijobiy obraz sifatida ham gavdalandi: *Dev uning gunohini kechiribdi. So‘ngra Mamatboy: – Meni yorug‘ dunyoga olib chiqib qo‘ysang bas, – debdi. Dev uni yelkasiga mindirib, bir zumda ochiq havoga chiqarib qo‘yibdi. – Mamatboy dev bilan xayrlashib, yo‘lga ravona bo‘libdi.* (Oyjamol. “Hunarli yigit”, 69-b.)

²⁷⁴ Ешонкулов Ж. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадиий талқини. Филол.фан.д-ри. ...дисс.авторреф. – Тошкент, 1996. – Б. 7.

Ushbu obraz tasvirida metafora, epitet, ifoda vositalari orqali tasvirlanadi. Masalan, “*Ko‘zi qizil, tishlari tayoqday, ovozi momaqaldiraqdek, uch boshli dev*” kabi tasviriy vosita bilan obraz qiyofasi yaratiladi. Xalq ertaklarida afsonaviy salbiy obrazlar qahramon yo‘lida sinov va to‘siq yaratuvchi, yovuzlik va zulm timsollari bo‘lib, ular ertak drammatizmini kuchaytiradi hamda axloqiy-psixologik mazmuni boyitadi. Ularni lingvofolkloristik tahlili esa badiiy ifoda vositalari va til uslublari orqali teran anglash imkonini beradi. Bunday obrazlar ijtimoiy va madaniy stereotiplar to‘plamini ifodalaydi. Masalan, “*dev*” obrazida zulm va hukmronlik stereotipi, “*ajdaho*”da esa xavf va sirli g‘ayritabiiylik, “*yalmog‘iz*” esa yovuzlik, xavf va zulmat ramzi mavjud. *Dev, ajdaho, yalmog‘iz* yoki *jodugar* obrazlari qahramon psixikasidagi qarama-qarshi kuchlarni (qo‘rquv va jasorat, adovat va mehr-oqibat) ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo‘ladi: *Nodirshoh yurtidan olti oylik yo‘lda, bepoyon cho‘l-u biyobonlar va boshi bulutga yetgan uchta tog‘ning naryog‘ida Devsafid deb atalgan bahaybat dev yashar ekan. Uning uchta boshi bo‘lib, bir boshi odam boshiga, bir boshi qush boshiga, bir boshi ilon boshiga o‘xshar ekan. Uning eng sevimli ovqati odam go‘shiti ekan.* (Oltin beshik. “Pahlavon Rustam”, 5-b.); *Sherzod qarasa, uzoqdan ko‘zlari yongan ajdarho kelayotir.* (Bo‘ri bilan mergan. “Rustamzod va Sherzod”, 50-b.); *Yarim kechaga borganda yalmog‘iz kampir asta-sekin kelib, ko‘rning qonini so‘ra boshlabdi, uni so‘rib bo‘lgach, kenja o‘g‘ilga o‘tibdi.* (Uch og‘ayni botirlar. “Non qudrati”, 297-b.)

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ertaklaridagi afsonaviy salbiy obrazlar nafaqat qahramonni sinovdan o‘tkazuvchi kuch, balki til va badiiy uslubning boy ifoda vositalari orqali autogenetik (ichki taraqqiyot) psixologik-sotsiomadaniy mazmuni ham aks ettiradi.

Ijtimoiy salbiy obrazlarga zolim podsho va xasis boy, mug‘ambir kampir kabi obrazlarni kiritishimiz mumkin. Bu obrazlar adolatsizlik, xasislik, ochko‘zlik kabi illatlarning salbiy oqibatlarini ko‘rsatish maqsadida matnga olib kiriladi. Bu obrazlar xarakterini tavsiflashda kontrast, antiteza kabi badiiy tasvir vositalaridan keng foydalaniladi. Masalan: “*Boyning eshigi oltin, “ko‘ngli tosh*” ifodasi xasis boy obrazining tashqi boylik va ichki kambag‘alligini ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. Ko‘p uchraydigan ijtimoiy-salbiy obrazlardan biri *zolim podshoh* obrazidir. Mazkur obraz o‘z bilganini qiladigan, haqsiz hukmron sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu obraz adolatsizlik, hokimiyatsizlik,

zo‘ravonlik kabi ma’naviy yukni tashish vazifasini ham bajaradi. Quyidagi matnga boy obrazining o‘ziga xos xarakteri yaqqol namoyon bo‘ladi: 1. *Shu tobda boy: “Bolani hozir tortib olsam, u hoynahoy tillaning kamida yarmiga **sherik bo‘ladi**. Undan ko‘ra bolaning shu quduqda olib ketgani yaxshi”, – deb o‘ylab, arqonni shartta qirqib yuboribdi. Boy hamma tillani olib, yo‘lga ravona bo‘libdi.* (Uch og‘ayni botirlar. “Hunarli yigit”, 13-b.); 2. *Rustamni tutib kelgan kishiga bo‘yi baravar oltin berishga va‘da qilibdi. Bu va‘dani eshitib, **og‘zida tishi yo‘q, boshida sochi yo‘q, bir ko‘zli kampir** shahar hokimi oldiga kelib ta‘zim qilib... (Uch og‘ayni botirlar. “Quyosh yerining pahlavoni”, 118-b.); 3. **Zolim podsho g‘azablanib, jallodni chaqiribdi.** – Kimning ajali yetdi, oftob shu‘lasini yerga yetkazmay bosh kesamiz, – deb qilichlarini yalang‘ochlab turibdi jallod. (Uch og‘ayni botirlar. “Malikayi Husnobod”, 253-b.)*

Birinchi misolda boyning xatti-harakati va ichki fikrlari orqali yoritilgan va folklor janrlariga xos boy obrazining axloqiy tubanligi, ochko‘zligi va illatlarini badiiy til vositalari orqali ochib berilgan. Bunda ichki monolog, ya‘ni “*Bolani hozir tortib olsam, u hoynahoy tillaning kamida yarmiga sherik bo‘ladi...*” gapi orqali ifodalangan bo‘lib, boyning shaxsiyati va niyatlari oshkor etiladi. Shuningdek, emotsional va axloqiy baho noverbal tarzda ifodalangan. Matnda boyga nisbatan bevosita salbiy baho berilmagan, ya‘ni “*yomon*”, “*vijdonsiz*” deyilgan emas. Ammo uning xatti-harakati orqali o‘quvchining o‘zi xulosa chiqaradi. Bu esa ko‘rsatish orqali baholash usuli hisoblanib, badiiy matnda kuchli estetik effekt beradi.

Ikkinchi misoldagi “*Bo‘yi baravar oltin*” iborasi an‘anaviy folklorga xos giperbola bo‘lib, bu faqatgina mukofotni emas, balki topshirilayotgan vazifaning og‘irligini hamda ertak qahramonining qadrini ham ko‘rsatadi. Bu kabi mubolag‘ali va‘dalar ertaklarda harakatlantiruvchi kuch vazifasini o‘taydi. Misoldagi antagonist (murosasiz dushman) kampir obrazining salbiylik xususiyatlarini oshirish maqsadida ishlatilgan: “*og‘zida tishi yo‘q*”, “*boshida sochi yo‘q*”, *bir ko‘zli*” birliklari orqali kampirning yoshi, nogironligi, yovuzligini ramzlovchi tashqi ko‘rinishining deformatsiyasini ifodalaydi. “*Bir ko‘zli kampir*” epiteti obrazning folklor janrlarida mavjud antagonistlarga ishora qiladi. Chunki bir ko‘zli maxluqotlar o‘zbek va boshqa xalqlar mifologiyasida yovuz kuchlarning asosiy belgisi hisoblanadi. Bu esa ertak tilida kampirning jismoniy holatidan ko‘ra ma’naviy yovuzligini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Misoldan anglashiladiki, eng zaif ko‘rinishidagi obraz ham ulkan mukofot, ya’ni “bo‘yi barobar oltin” va’dasi bilan folklor janrlariga, jumladan, ertaklarga kirib kelishi, bosh qahramonlarga qarshi fitnada ishtirok etishini ko‘rsatadi.


Uchinchi misolda esa “Zolim podsho” sifatining o‘zi podshoning xalqqa bo‘lgan munosabatini ochib beradi. Bu esa podshoning ertak matnida shaxs emas, balki “zulm” ramzi ekanligini ko‘rsatadi.

Maishiy salbiy obrazlar. Bunday obrazlarga *o‘gay ona* (*hasadgo‘ylik, befarzandlik, yomon muomala timsoli*), *hasadgo‘y aka-uka yoki do‘st* (*xiyonat, kibr, yomon niyat ifodasi*) kabi obrazlarni misol qilish mumkin. Bu obrazlarning o‘ziga xos tomonlarini ko‘rsatishda ko‘chma ma’nolar, ironiya, kinoya kabi usullar keng qo‘llanadi. Ijtimoiy-salbiy obrazlardan biri badjahl, hasadgo‘y, xusumatli o‘gay ona hamda opa-singil obrazlari bo‘lib, ertak matnlarida yetakchi o‘rinni egallaydi. Ushbu turkum obrazlar haqida M.Sodiqova fikr bildirar ekan quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi: “O‘gaylikning yuzaga kelishi, yangi xotini o‘lgan ota boshqa ayolga uylanishi oilaga o‘gay ona kirib kelishi hamda uning qistovida yetim qizning badarg‘a qilinishi mazkur tip syujetining an’anaviy qolipiga mos shaklda muhokama qilinadi”²⁷⁵, – deya ta’kidlaydi. Mazkur tadqiqotda o‘gay qizning keyingi taqdiri cho‘ldagi sarguzashtlari, shahzodaga turmushga chiqishi va o‘gay onaning dushmanligi tufayli qayta badarg‘a qilinishi, kaptar ko‘rinishidagi afsonaviy homiyilar ko‘magida mushkul ahvoldan xalos bo‘lishi voqealari aks etishini qayd etiladi. O‘gay ona obrazi deyarli barcha Sharq va G‘arb ertaklarida mavjud. U, ko‘pincha, o‘z farzandi yo‘qligi yoki faqat o‘z bolasini o‘ylashi, boshqalarning farzandlariga nisbatan yomon muomalada bo‘lishi bilan tasvirlanadi. “O‘gay ona” ishtirok etadigan mashhur o‘zbek xalq ertagi “Zumrad va Qimmat”. Bu ertakda Zumrad mehribon, sabrli, kamtar qiz bo‘lsa, Qimmat o‘gay onaning farzandi, erkatoy va erka. O‘gay ona esa faqat o‘z qizini avaylab, Zumradga og‘ir ishlar yuklaydi, unga nisbatan adolatsiz munosabatda bo‘ladi. O‘gay ona, ko‘pincha, ko‘ngli tor inson, jahl timsoli, zulm ramzi sifatida ko‘rsatiladi. U orqali kinoya bilan haqiqiy hayotdagi beparvo, shafqatsiz, xudbin insonlar tanqid qilinadi²⁷⁶. *Kampirning Zumradni ko‘rgani ko‘zi, otgani o‘qi yo‘q ekan. U hadeb qizni urib, qarg‘ab ertadan kechgacha*

²⁷⁵ Содиқова М.А. Ўғай қиз типигаги туркум эртақларнинг спецификаси, генезиси ва бадиияти. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2003. – Б. 18.

²⁷⁶ Bozorov H. O‘zbek xalq ertaklaridagi salbiy obrazlar va ularning lingvopoetik tahlili // NamDU Ilmiy Axborotnomasi №8. 2025. – B. 443.

ishlatarkan, bechoraga birpas ham tinchlik bermas ekan. (Uch og‘ayni botirlar. “Zumrad va Qimmat”, 244-b.) Mazkur parcha an‘naviy folklor uchun xos “o‘zgay ona” motividagi syujetning ifodasi bo‘lib, aksariyati quyidagi formula asosida shakllanadi:



18-rasm. “O‘gay ona” motividagi syujetning tuzilishi

Matnda kuchli emotsional va qahramonlar xarakterini ochib beruvchi leksik birliklar mavjud. Jumladan, “*Ko‘rgani ko‘zi, otgani o‘qi yo‘q*” iborasi og‘zaki ijod namunasi bo‘lib, o‘gay onaning cheksiz nafratini, “*urib*”, “*qarg‘ab*” agressiv xarakterini ko‘rsatuvchi fe‘llar orqali jismoniy va ma‘naviy zulmni, bu orqali esa ertak tinglovchisida o‘gay onaga nisbatan g‘azab va nafratni keltirib chiqaradi. Ushu salbiy obraz singari ertak kompozitsiyasida muhim o‘rin tutuvchi maishiy salbiy obrazlardan biri hasadgo‘y akalar obrazidir. Bu obraz xatti-harakatlarida ham salbiy munosabat ifodalovchi agressiv harakatlar, qo‘rqoqlik, yolg‘onchilik, mug‘ambirlik, hasad kabi illatlar yetakchilik qiladi va ushbu illatlarni ifodalovchi harakatlarini rivojlantiruvchi lingvistik birliklardan foydalaniladi: *Yarim kechaga borganda ikki aka-uka asta kelib, ukalarini tappa bosib bo‘g‘izlashibdi-da, oyog‘ini kesib, qo‘lini bog‘lab, daryo bo‘yiga olib borib, suvga tashlab yuborishibdi.* (Uch og‘ayni botirlar. “Non qudrati”, 293-b.)

Simvolik salbiy obrazlar. Bunday obrazlarning aksariyati hayvonlar haqidagi ertaklarda ko‘p uchraydi hamda ma‘lum bir ramzni tashiydi. Masalan, *bo‘ri, tulki* – *ayyorlik, xoinlik, qonxo‘rlik, ochko‘zlik* ramzi sifatida hayvon obrazi orqali salbiylik ifodalanadi. Bunda obraz xarakterini yoritishda personifikatsiyadan keng foydalaniladi va allegoriya yetakchilik qiladi. Bundan tashqari, simvolik salbiy obrazlar ertaklarda qiyofasi aniq bo‘lmagan holda ifodalanadigan holatlar ham mavjud bo‘lib, ularning asosiy xususiyatlari nutqi orqali

lingvofolkloristik xarakter kasb etadi. Bunda *vahima uyg'otuvchi leksika, o'ziga xos gap qurilishi va hiylakor nutqiy strategiyalari* orqali ularning yovuz va tajovuzkor xarakteri, dunyoga tartibsizlik keltiruvchi arxetipik mohiyati ta'minlanadi: *Bu joyda bir qo'lini uzatsa sovuq toqqa, bir qo'lini uzatsa olov toqqa yetadigan, o'tirgan joyda kunchiqar tomondagi o'rmondagi bahaybat daraxtlarni ildiz-pildizi bilan yulib oladigan maxluqlar, balogardonlar yashar ekan. O'tirgan joyida kunbotar tomondagi tog'dagi mevalarni bemalol terib yeyaverarmishlar. Bu maxluq dev bo'lib devmasmish, jin-alvasti bo'lib jin-alvasti emasmish. Ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan maxluqlar – balo-yu balogardonlar emish.* (Uch og'ayni botirlar. “Non qudrati”, 282 b.) Mazkur misoldagi “*Dev bo'lib devmasmish, jin-alvasti bo'lib jin-alvasti emasmish*” gapi salbiy obrazning arxetip yangilanishini ko'rsatadi. Ertakchi an'anaviy yovuz obrazlardan ataylab uzoqlashadi. Bu esa tasvirning vahimasini oshirishga xizmat qiladi. Folkloristik nuqtayi nazardan bunday nomlanmaslik tinglovchida noma'lumlikdan kelib chiquvchi dahshat hissini kuchaytiradi. Chunki katta qo'rquv aksariyat hollarda noma'lum narsalardan kelib chiqadi. Misolda leksik parallelizm “*maxluqlar, balogardonlar*”, “*maxluqlar – balo-yu balogardonlar*” matnda ta'kidni oshiradi. Bu folklor nutqiga xos uslub bo'lib, jumlani esda qolarli hamda emotsional qilishini ta'minlaydi. Shuningdek, matndagi salbiy obrazlarning xususiyatlari giperbola va maxsus sintaktik qurilmalar orqali ifodalanadi. Bunda fazoviy chegaraning kengayishi “*bir qo'lini uzatsa sovuq toqqa, bir qo'lini uzatsa olov toqqa yetadigan*” ifodasi ushbu obrazlarning o'lchami va qudratini haddan tashqari oshirib ko'rsatadi. Natijada maxluqotlarning nafaqat jismonan, balki simvolik jihatdan ham cheksiz kuchga egaligini bildiradi. Mazkur matnda sintaktik parallelizm an'anaviy folklor formulasiga bo'ysundirilgan bo'lib, “*bir qo'lini... sovuq toqqa*” va “*bir qo'lini... olov toqqa*” bu tuzilmasi obrazning qudratini ikki qutbni, ya'ni “*sovuq+olov = shimol+janub*” kabilarni bir vaqtning o'zida boshqara olishini ta'kidlaydi. Bu esa matnda sovuq va olov (issiq) leksemalari o'rtasidagi semantik antitezani yuzaga chiqaradi. Vahima va tajovuzkorlik uyg'otuvchi leksik birliklar “*ildiz-pildizi bilan yulib oladigan*” mubolag'asi asosida shakllangan bo'lib, “*yulib olish*” fe'li obrazning shafqatsiz, vahshiy va osonlikcha vayron qiluvchi xarakterini bersa, “*ildiz-pildizi bilan*” esa butunligicha, hech narsa qoldirmay degan ma'noni anglatib, uning tajovuzining to'liqligini ifodalaydi. “*O'tirgan joyda kunchiqar tomondagi o'rmondagi bahaybat daraxtlarni... yulib*

oladigan”, “*O‘tirgan joyida kunbotar tomondagi tog‘dagi mevalarni bemalol terib yeyaverarmishlar*” kabi tasvirlar mazkur obrazlarning harakatlanmasdan turib ulkan vayronkorlik qila olishi ko‘rsatilgan. *Kunbotar (g‘arb)* va *kunchiqar (sharq)* oppozitsiyasi obrazning butun dunyo ustidan hukmronlik qilish imkoniyatini ramziy anglatadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib salbiy obrazlarning ertak matnidagi vazifalari quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. To‘siq va sinov yaratuvchi. Qahramon o‘z yo‘lida dev, ajdaho, zolim podsho kabi kuchlarni yengishi kerak.

2. Axloqiy mezon ko‘zgusi. Salbiy obrazlar yovuzlik namunasi bo‘lib, u orqali ijobiy fazilatlar ajralib turadi.

3. Yaxshilik bilan yomonlik kurashini aks ettiruvchi. Ertak oxirida odatda yomonlik yengiladi va jazolanadi.

Salbiy obrazlar turli badiiy vositalar bilan ifodalanadi. Xususan, bu tip obrazlarning tashqi ko‘rinishi tavsifiga e’tibor qaratilar ekan, devlar odatda “*yetti yoki uch boshli*”, “*olov ko‘zli*”, “*temir tirnoqli*” tarzda, jodugar yoki yalmog‘izlar esa “*bukri*”, “*burunsiz*”, “*mug‘ambir*” tarzda tasvirlanadi. Salbiy obrazlar ertakda, ko‘pincha, *tajovuzkor*, *hiylakor*, *aldamchi* sifatida ifodalanadi, shuningdek, ularning nutqi ham salbiylik xarakterini ifodalovchi til birliklari bilan boyitiladi. Masalan:

– *Assalomu alaykum, – deb ichkariga kiribdi. Yalmog‘iz kampir:*

– *Agar haq saloming bo‘lmaganda, ikki yamlab, bir yutgan bo‘lardim. Kimsan, nega bu yerga kelding? Hozir jo‘nab ket, bo‘lmasa, qornim och, pishirmasdan xomligingcha yutaman, – debdi.* (Uch og‘ayni botirlar. “Non qudrati”, 296-b.) Mazkur matnda yalmog‘iz kampirning nutqi qo‘rqinchli, tajovuzkor, tahdidli tarzda qurilgan. Bu uning salbiy xarakterini ifodalaydi. “*...ikki yamlab, bir yutgan bo‘lardim*” hamda “*...pishirmasdan xomligingcha yutaman*” iboralar kampirning shafqatsiz, hayvonlarga xos yirtqich tabiatini ifodalaydi. Odatda insonlar ovqatni pishirib iste’mol qiladi – kampir esa “*xomligicha yutaman*” deya shafqatsizlikni haddan tashqari kuchaytirgan. Bunda, aytish mumkinki, giperbola muhim ahamiyat kasb etgan. Yalmog‘iz kampir ushbu nutqida buyruq, inkor va tahdid shakllari ustunlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq ertaklaridagi obrazlar xalqning estetik didi, axloqiy qarashlari va ma’naviy qadriyatlarining badiiy aksidir. Ertak fenomenidagi farazlarning badiiy-falsafiy mazmuni, ularning xalq og‘zaki ijodidagi mifologik va arxetipik ildizlari, shuningdek, ularning lingvistik ifoda shakllari lingvofolkloristika fani

rivoji uchun muhim hisoblanadi. Umuman olganda, o‘zbek xalq ertaklaridagi obrazlar milliy tafakkurning ramziy belgilaridir. Ular orqali xalq hayoti, qadriyatlari, orzu-istaklari va axloqiy ideallarining badiiy talqini yuzaga chiqadi.

XULOSA

O‘zbek xalq ertaklarini lingvopoetik va lingvofolkloristik nuqtayi nazardan tadqiq qilish quyidagicha xulosalar chiqarishga imkon yaratadi:

1. Tilshunoslikda yangi yo‘nalishlarning rivojlanishi folklor matnlarini lingvistik tadqiq etishga bo‘lgan yondashuvlarni sezilarli darajada o‘zgartirdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ertaklar nafaqat badiiy meros, balki xalqning milliy-ma‘naviy qadriyatlarini va lisoniy imkoniyatlarini o‘zida mujassam etgan muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

2. Lingvopoetik tahlil ertak matnidagi til birliklarining muayyan estetik maqsadga yo‘naltirilganligini isbotlaydi. O‘zbek xalq ertaklari misolida olib qaralganda, tildagi mavjud vositalarning semantik-struktur qurilishi va ularning nutqiy jarayonda qo‘llanilishi, milliy tilning boy imkoniyatlarini va xalqning obrazli tafakkur tarzini namoyon etuvchi asosiy omillardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

3. O‘zbek tilshunosligida lingvofolkloristika tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida shakllanib kelayotgan mustaqil yo‘nalish bo‘lib, ertak matnlaridagi lisoniy birliklarning estetik vazifasini, obrazlilik darajasini tizimli ravishda ochib berishga imkon yaratadi.

4. Xalq ertaklari leksikasida frazeologizmlar shunchaki turg‘un birikmalar emas, balki matnning emotsional-ekspressiv muhitini shakllantiruvchi asosiy lingvistik vositadir. Ular tilda semantik izchilikni ta‘minlash barobarida, qahramonlarning xatti-harakati va voqealar rivojiga xalqona rangdorlik baxsh etadi.

5. Maqollarning ertaklar matnlarida obrazli tafakkurning yuksak namunasi sifatida olib kiriladi hamda badiiy matnning mazmunini boyitadi. Ular voqealar rivojida qahramonning ruhiy holati, irodasi va qadriyatlarini ifodalovchi lingvopoetik vosita sifatida faol ishtirok etadi.

6. Xalq ertaklaridagi dialektizmlarni lingvopoetik tahlil qilish ularning tarixiy-lingvistik meros sifatidagi qiymatini, badiiy-estetik ekspressivligini, shuningdek, adabiy til bilan o‘zaro aloqadorlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijasida ayonlashdiki, ertakchi, ko‘pincha, adabiy til qoidalaridan chekinib, mahalliy shevalar asosida ertakni shakllantiradi. Bu hodisa nafaqat ertakning realistik fonini yaratadi, balki uning estetik ta‘sirchanligini kuchaytiradi.

7. Ertak matnlaridagi arxaizm va istorizmlar ertak voqeligining tarixiy-etnografik muhitini qayta tiklashda “dalil” vazifasini o‘taydi.

O‘zbek xalq ertaklarida tarixiy so‘zlarni ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog‘liq, ayrim hujjat nomini ifodalovchi, an’anaviy diniy ta’limga oid, kiyim-kechak, bezak va mato nomini ifoda etuvchi, harbiy sohaga oid tushunchalar, qurollar nomini ifoda etuvchi, oziq-ovqat va unga aloqador xomashyolarni ifoda etgan, o‘lchov va pul birliklarini, uy-ro‘zg‘or buyumlari, qurollar nomini ifodalovchi hamda etnografik-maishiy va moddiy madaniyatga oid tarixiy so‘zlar kabi ma’noviy guruhlar asosida tahlil qilish katta samara beradi.

8. Ertak matnlarida qo‘llanilgan o‘xshatishlar xalqning olamni idrok etish modelini shakllantiruvchi lisoniy mexanizmdir. Ushbu vositalar tinglovchining his-tuyg‘ulariga bevosita ta’sir etib, matnning emotsional-ekspressiv quvvatini oshirishga xizmat qiladi. Ertaklarda o‘xshatish asoslari xilma-xil kontekstual vaziyatlar, harakatlar va holatlarda qo‘llanilgan turli predmetlarga tayanadi. Shunga asoslanib ertaklardagi o‘xshatishlarni mazmuniy-sintaktik vazifasiga ko‘ra kinetik (harakat yoki harakat dinamikasini ifodalovchi), vizual (rang, shakl tashqi tafakkur va hajm), emotsional va psixologik, eshitish va sezgi, ekspressiv va baholovchi asosli o‘xshatishlar kabi tematik-semantik guruhlariga ajratildi. Shuningdek, ertaklar xalq tafakkurining umumlashma tasviri ekanligi inobatga olinib, an’anaviy va situativ o‘xshatishlar kabi guruhlariga asosida tahlil qilindi,

9. Ertak janrida giperbola voqealar dinamikasini va ta’sirchanligini ta’minlashda muhim tasviriy vosita hisoblanadi. Giperbolada aldashga urinish emas, balki ertak matnidagi asosiy maqsadi kuchli hissiyotni ifodalash, suhbatga jo‘shqinlik kiritish, obrazlilikni ta’minlashdir. Stilistik jihatdan giperbolaning ertak matnida ekspressivlik baxsh etish, oddiy qahramon va yovuz kuchlar o‘rtasidagi tafovutni keskinlashtirish, giperbolik obrazlar orqali axloqiy saboq berish va poetik mazmun berish kabi asosiy vazifalarni bajaradi. Ertaklardagi giperbolalar mazmun va maqsadlariga ko‘ra shaxsga, narsa-predmet va tabiat hodisalariga oid, zoonim va ornitonimlarga, mifonimlarga, holatning sifatini bo‘rttirishga qaratilgan giperbola kabi katta guruhlarini tashkil qilishi bilan xarakterlanadi.

10. Litota ertaklarda faqatgina kichraytirish vositasi emas, balki ifoda intensivligini pasaytirish orqali obrazning real holatini kinoyaviy va tasviriy tarzda yoritish uchun ham xizmat qiladi. Mazkur stilistik figura ayrim qahramonning jismoniy jihatdan ojiz, lekin ruhan kuchli, jasur va bardoshli obrazini yaratishda (“No‘xatvoy” ertagidagi No‘xatvoy obrazi)

samarali badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, litotaning narsa-hodisaga xos xususiyatni uning aksini inkor qilish orqali ifodalashga asoslangan uslubiy figura sifatidagi talqin qilinishi, shuningdek, litotaning yarim litota kabi turi mavjudligi mazkur uslubiy fuguraning ertaklar tilidagi o‘rni beqiyos ekanligini ko‘rsatadi.

11. Intertekstuallik hodisasi ertaklarda pretsedent va allyuziv birliklar, sarlavha va adabiy parodiya orqali murakkab lisoniy butunlikni hosil qiladi. Bunda sarlavhadan boshlangan ishoralar, asosan, maqollar va xalq xotirasidagi tanish obrazlarga (pretsedentlik) tayanuvchi birliklar matnning madaniy-tarixiy ildizlarini mustahkamlab, o‘quvchi uchun matn osti ma’nolarini ochib beradi.

12. Ertak matnlari tarkibidagi topishmoqlar obrazlarning intellektual salohiyatini ko‘rsatuvchi muhim vositadir. Topishmoqlar inson idrokining borliqni ramziy va obrazli aks ettirish qobiliyatini ko‘rsatadi hamda ertak matnining mantiqiy-semantik qurilmasini mustahkamlaydi.

13. Xalq ertaklarida qarg‘ish va olqishlarning qo‘llanilishi milliy dunyoqarash va ijtimoiy-axloqiy mezonlarning nutqiy ifodasi sifatida baholanadi. Xalq ertaklaridagi qarg‘ishlar: qarg‘ishlarning qo‘llanish usuli va kommunikativ maqsadiga ko‘ra, mazmun prinsipiga asoslangan qarg‘ishlar, manzil tamoyiliga asoslangan qarg‘ishlar kabi uch asosiy mezon asosida tasnif qilish mazkur janrning o‘ziga xos tabiatini ochib berishga xizmat qiladi. Olqishlar esa xalqning ezgu niyatlarini aks ettiradi. Ushbu birliklar ertak matnining xalqonaligini, ta’sirchanligi va ekspressivligini ta’minlovchi muhim lingvofolkloristik unsurlardir.

14. Ertaklardagi folklor motivlari muayyan lisoniy formulalar va turg‘un tuzilmalar vositasida shakllanadi. Ushbu motivlarning lingvofolkloristik tahlili shuni ko‘rsatadiki, matndagi har bir motiv o‘ziga xos til birliklari bilan ifodalanib, ertak syujetining dinamik rivojlanishini va uning an’anaviy poetik qoliplar asosida tashkil topishini kafolatlaydi.

15. Ertak qahramonlarining nutqiy portreti ijobiy va salbiy qutblar o‘rtasidagi keskin lingvistik zidlikka asoslanadi. Ijobiy obrazlar nutqida odob-axloqqa doir til unsurlari yetakchilik qilsa, salbiy obrazlar nutqida tajovuzkor ifodalar alohida o‘rinni egallaydi. Bu esa lingvofolkloristik tahlil orqali obrazlarning tipologik xususiyatlarini aniq tavsiflash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. Миллий тикланишдан Миллий юксалиш сари. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев асарлари ва маърузаларидан олинган фикрлар. Нашрга тайёрловчилар: Салимов О. ва бошқ. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 160 б.

2. Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли. // Халқ сўзи. – Тошкент, 2019 йил 22 октябрь. №218 (7448). 2-б.

3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. – 464 б.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan marosimdagi nutqi. // Xalq so‘zi. 2019-yil, 7-aprel. № 68 (72-98). 1-б.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1. Milliy nashrlar:

6. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодаланишининг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. – 87 б.

7. Абдуллаев Л. Ўзбек тилида экспрессивликини ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 88 б.

8. Абдуллаев Ҳ. Халқ дostonлари ва уларнинг вариантлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 123 б.

9. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 59 б.

10. Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1974. – 222 б.

11. Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1980. – 150 б.

12. Афзалов М. Ўзбек халқ эртақлари ҳақида. – Тошкент: Фан, 1964. – 68 б.

13. Ахмедов Ҳ. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – 252 б.

14. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 276 б.
15. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент, 1983. – 158 б.
16. Бегматов Э.А. Ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.
17. Бобоева С. Хамид Олимжон поэзиясининг лексик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 66 б.
18. Дониёров Ҳ., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1988. – 164 б.
19. Дониёров Х., Мирзая С. Сўз санъати (бадиий маҳорат ва тил хақида мулоҳазалар). – Тошкент: Ўздадабийнашр, 1962. – 316 б.
20. Жалолов Ғ. Ўзбек халқ эртақлари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1976– 156 б.
21. Жўраев М. Ўзбек халқ эртақларида сеҳрли рақамлар. – Тошкент: Фан, 1991. – 152 б.
22. Жўраев М., Нарзиқулова М. Миф, фолклор ва адабиёт. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўз.Миллий курубхонаси нашриёти, 2016. – 184 б.
23. Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртақ. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2014. – 308 б.
24. Имомов К. Ўзбек халқ сатирик эртақлари. – Тошкент: Фан, 1974 – 156 б.
25. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент, 2007. – 151 б.
26. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.
27. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 80 б.
28. Каримов С.А. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994. – 72 б.
29. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: “Зарафшон” нашриёти, 1992. – 140 б.
30. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 86 б.
31. Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун-дуоларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. – Тошкент: Истиклол, 2005. – 96 б.

32. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 111 б.
33. Мусина Ғ. Ўзбек халқ дostonларида хотин-қизлар образи. – Тошкент: Фан, 1983. – 104 б.
34. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – 88 б.
35. Муродова М. Фольклор ва этнография. – Тошкент, 2007. – 102 б.
36. Мухаддинов М., Каримов С. Ғафур Ғуломнинг поэтик маҳорати. – Самарканд: СамДУ, 2003. – 126 б.
37. Раззоқов Ҳ. Ўзбек халқ оғзаки ижодида сатира ва юмор. – Тошкент: Фан, 1965. – 86 б.
38. Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент, 1981. – 154 б.
39. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – 65 б.
40. Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 110 б.
41. Холмуродова О.А. Ўзбек ва инглиз кумулятив эртактарининг қиёсий-типологик тадқиқи. – Тошкент: 2020. Mashhur-press, 2022. – 112 б.
42. Юсупов Ж. Хоразм эртаги ва ҳаёт ҳақиқати. – Тошкент: Фан, 1997. – 127 б.
43. Мамажонов С. Услуг жилолари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 220 б.
44. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991. – 274 б.
45. Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006. – 232 б.
46. Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – 80 б.
47. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 232 б.
48. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – 216 б.
49. Саримсоқов Б. Ўзбек фольклори очерклари. III жилдлик, I жилд. – Тошкент: Фан, 1986. – 216 б.

50. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1962. – 378 б.
51. Ўринбоев Б., Кунгуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик тахлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 219 б.
52. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.
53. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Фан, 1973. – 168 б.
54. Қурбонова М. Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунослиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 49 б.
55. Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд: СамДУ, 1975. – 82 б.
56. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975. – 96 б.
57. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b.
58. Bozorov H.X. O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. – Toshkent: Grand kondor print, 2024. – 198 b.
59. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – 228 b.
60. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir, 2019. – 168 b.
61. Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o‘zbek tili (leksikologiya). – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2021. – 380 b.
62. Mirzayev T. va b. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 512 б.
63. Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 506 b.
64. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2022. – 636 b.
65. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 368 b.

2. Xorijiy nashrlar:

66. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. – М.: Флинта, Наука, 2010. – 224 с.

67. Ананьев Б. Г. Психология чувственного познания. Акад. пед. наук РСФСР. – Москва: Изд-во Акад. пед. наук РСФСР, 1960. – 486 с.
68. Аристотель. Поэтика. Перевод, введение и примечания Новосадского Н.И. – Ленинград: АС АДЕМІА, 1927. – 124 с.
69. Артеменко Е.Б. Вопросы синтаксического строя русской народной лирической песни. Пособие к спецкурсу по лингвофольклористике для студентов-филологов. – Воронеж: Изд-во Ворон, ун-та, 1976. – 154 с.
70. Артеменко Е.Б. Синтаксический строй русской народной лирической песни в аспекте ее художественной организации – Воронеж. Изд-во Ворон, ун-та, 1977. – 160 с.
71. Балли Ш. Французская стилистика. 2-е изд., стереотипное. – Москва: Эдиториал УРСС, 2001. – 392 с.
72. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература, 1975. – 506 с.
73. Бахтин М. Проблема речевого жанра. Литературно-критические статьи. – Москва: Художественная Литература, 1986. – 545 с.
74. Богатырев П. Г. Вопросы теории народного искусства. – Москва: Издлтшльство искусство, 1971. – 510 с.
75. Богородицкий В.А. Общий курсъ русской грамматикию. – Казань. Типолитографія Императорскаго Университета, 1907. – 290 с.
76. Веселовский А.Н. Избранное: Историческая поэтика. – СПб: Университетская книга, 2011. – 687 с.
77. Виноградов В.В. Стилистика, теория поэтической речи, поэтика. – Москва: издательство академии наук, 1963. – 256 с.
78. Винокур Г.О. Филологические исследования: Лингвистика и поэтика. – М.: Наука, 1990. – 452 с.
79. Горская С.А. Лексика. Фразеология. Лексикография. – Гродно: ГрГУ, 2009. – 139 с.
80. Гудков Д.П. Теория и практика межкультурной коммуникации. – Москва: Гнозис, 2003. – 288 с.
81. Евгеньева А.П. Очерки по языку русской устной поэзии в записях XVII-XX вв. – Москва. Издлтшльство академии наук СССР, 1963. – 353 с.

82. Жирмунским В. Композиция лирических стихотворений. Сборники по теории поэтического языка – Петербург: Издательство “Опояз”, 1921. – 110 с.

83. Жирмунский В.М. Теория литературы поэтика стилистика. – Ленинград: Иадательотво «Наука», 1977. – 408 с.

84. Журинский А.Н. Семантическая структура загадки. – Москва: Наука, 1989. – 128 с.

85. Жирмунский В., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. – Москва: Гослитиздат, 1947. – 520 с.

86. Задорнова В.Я. Лингвопоэтика. Слово в художественном тексте // Язык, сознание, коммуникация. – М.: МАКС Пресс, 2005. – 160 с.

87. Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог и роман. Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму. – Москва, 2000. – С. 427- 457

88. Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. Учебное пособие для студентов пед. ин-тов. Сост. проф. Б. Л. Богородский, проф. Н.А.Мещерский. – Москва: Просвещение, 1977. – 224 с.

89. Ларин Б.А. Эстетика слова и языка писателя. – Ленинград: Художественная литература, 1973. – 288 с.

90. Лотман Ю.М. Об искусстве. – Санкт-Петербург: “Искусство – СПб”, 1998. – 704 с.

91. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Наука, 1970. – 387 с.

92. Лютер М. О свободе христианина / Составление, вступ. статья, пер. с нем., коммент., примеч. И.Фокина. – Издательство “ARC”, 2013. – 728 с.

93. Мелетинский Е.М. О литературных архетипах / Российский государственный гуманитарный университет. – Москва: 1994. – 136 с.

94. Мелетинский Е.М. От мифа к литературе. Учебное пособие по курсу “Теория мифа и историческая поэтика повествовательных жанров”. – М.: Российский государственный гуманитарный университет, 2001. – 168 с.

95. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. 3-е изд., репринтное. – Москва: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 2000. – 407 с.

96. Мелетинский Е.М. Происхождение героического эпоса: Ранние формы и архаические памятники. – Москва: Вост. лит. 2004. – 462 с.
97. Невелева С.Л. Вопросы поэтики древнеиндийского эпоса. Эпитет и сравнение. – Москва: Издательство “Наука”, 1979. – 138 с.
98. Никитина С.Е. Устная народная культура и языковое сознание. – Москва: Наука, 1993. – 187 с.
99. Пермяков Г.Л. От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише). – М.: «Наука», 1970. – 244 с.
100. Петрарка Ф. Лирика. Вступ. статья, сост. и примеч. Н.Томашевского; Худож. Л.Ильина – М.: Худож. лит., 1980. – 381 с.
101. Поэтика и стилистика. Русской литературы памяти академика Виктора Владимировича Виноградова. – Ленинград: Издательство “Наука”, 1971. – 463 с.
102. Потеби А. Мысль и язык. Язык и народность. О национализме. 3-е издание. – Харьков: Мирный Трудь, 1913. – 243 с.
103. Потебня А. Полное собрание трудов: Мысль и язык. Подготовка текста Рассказова Ю.С., Сычева О.А. – Москва: Издательство “Лабиринт”, 1999. – 300 с.
104. Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. Научная редакция, текстологический комментарий И.В.Пешкоба. – Издательство «Лабиринт», – М.: 2000. – 336 с.
105. Пропп В.Я. Мифология сказки. Изд. 2-е. – М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1969. – 168 с.
106. Тураева З.Я. Лингвистика текста. Учеб. пособие для студентов пед. ин-тов по спец. – Москва: Просвещение, 1986. – 127 с.
107. Флория А.В. Русская стилистика. – Орск: Издательство ОГТИ, 2011. – 903 с.
108. Хроленко А.Т. Введение в лингвофольклористику: учебное пособие. – Москва: Флинта Наука, 2010. – 152 с.
109. Чичерин А.В. Идеи и стиль. О природе поэтического слова. – Москва: Советский писатель, 1968. – 369 с. narrativ@list.ru
110. Чосер Дж. Кентерберийские рассказы. Пер. с англ., предисл. и примеч. С.Сапожникова. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2024. – 884 с.

- 111.Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. – 432 с.
- 112.Юнг К.Г. Символы трансформации. – Москва: Аст Москва, 2008. – 731 с.
- 113.Ҳожиёв А. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 315 б.
- 114.Aarne A. Vergleichende Rätselforschungen. – Borgå: Kalevala Society, 1919. – 216 s.
- 115.Afanasyev A.N. Russian folktales from the collection of. - New York, 2014. – 219 p.
- 116.Annikki Kaivola-Bregenhøj. Riddles: Perspectives on the Use, Structure, and History. – Helsinki: Finnish Literature Society, 2001. – 186 p.
- 117.Bloomfield L. Language. – London: Unwin LTD, – 581 p.
- 118.Bopp F. Über die Sprache der alten Preußen in ihren verwandtschaftlichen Beziehungen. – Berlin: Akademische Buchdruckerei, 1853. – 63 s.
- 119.Coşeriu E. Lingvistica textului. O introducere în hermeneutica sensului. Editura Universităţii „Alexandru Ioan Cuza” Iaşi, – 2013. – 264 p.
- 120.Dan Ben-Amos. Folklore Genres. Austin & London: University of Texas Press, 1981. – 291 p.
- 121.Delas D., Filliolet J. Linguistique et poetique. – Paris. Larousse, 1973. – 206 p.
- 122.Dundes A. The Evil Eye, a Folklore Casebook. New York: Garland Pub. 1981. – 312 p.
- 123.Eidinow E. Oracles, Curses, and Risk Among the Ancient Greeks. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 534 p.
- 124.Garry J., El-Shami H. Archetypes and Motifs in Folklore and Literature. M.E.Sharpe Armonk, Nyu-York, London, Angliya. – 2004. – 560 p.
- 125.Geoffrey L. Principles of Pragmatics. New York: Longman, 1983. – 264 p.
- 126.Grimm Y., Grimm W. Kinder-und Haus-Marchen. – Berlin, 1812. – 489 s.
- 127.Humboldt W. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues und ihren Einfluss auf die geistige Entwicklung des

Menschengeschlechts. – Berlin. Gedruckt in der Druckerei der Kaniglichen Akademie der Wissmachalten, 1836. – 540 s.

128.Jakobson R. Language in Literature. – England: Edited By Krystyna Pomorska and Stephen Rudy the Belknap press of Harvard university press Cambridge, Massachusetts London, 1987. – 94 p.

129.Jeff S. Anderson. The Blessing and the Curse: Trajectories in the Theology of the Old Testament. – Eugene, OR: Cascade Books, 2014. – 416 p.

130.Leibniz G.W. Die philosophischen Schriften. Erster Band. – Berlin. Weidmannsche Buchhandlung. 1875. – 457 s.

131.Lessing G.E. Laokoon: oder Über die Grenzen der Malerei und Poesie. Erster Teil. 1766. –160 s.

132.Levi-Strauss C. Myth and meaning. – New York: Schocken Books Collection, 1979. – 58 p.

133.Macpherson J. The poems of Ossian. – London, 1796. – 256 p.

134.Menges. K.H. The Turkic languages and peoples: An introduction to Turkic studies. – Wisbaden: Otto Xarrassowitz, 1968. – 248 s.

135.Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A comprehensive grammar of the english language. New York: Longman Group Limited, 1985. – 1791 p.

136.Rabelais F. Gargantua et Pantagruel. Texte transcrit et annoté par. Tome I – Paris: Bibliothèque Larousse, 1913. – 238 p.

137.Robert Petsch. Neue Beiträge zur Kenntnis des Volksrätsels. – Berlin: Mayer & Müller, 1899. – 152 s.

138.Roger D. Abrahams Deep Down in the Jungle... Negro Narrative Folklore from the Streets of Philadelphia. Pennsylvania – Philadelphia: Published, 1964. – 287 p.

139.Taylor A. English riddles from oral tradition. Berkeley and Los Angeles. University of California press, 1951. – 959 s.

140.Ullmann S.The Principles of Semantics. Basil Blackwell Oxford Jackson, Son & Co Glasgow, – 1957. – 346 p.

141.Shiller F. Über die ästhetische Erziehung des Menschen, in einer Reihe von Briefen. 1975. <https://www.projekt-gutenberg.org/schiller/aesterz/aesterz.html>

142.Schleicher A. Compendium der vergleichenden grammatik der indogermanischen sprachen. – Weimar, Herman Böhlau, - 1862. – 494 s.

143. Wales Katie. A Dictionary of Stylistics. New York: Longman Linguistics 1983. – 478 p.

III. Diniy manbalar, adabiyotlar:

144. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 357 b.

IV. Lug‘atlar

145. Девони луғотит турк. I-II жилд. – Тошкент: ЎзФА. нашриёти, 1960 (500 б), 1963 (428 б).

146. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 407 б.

147. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд. – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.

148. Рўзимбоев С., Рўзметов Ҳ. Фольклор атамалари қисқача луғати. – Урганч, 2007. – 56 б.

149. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўншатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.

150. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Туронзамин зиё, 2015. – 42 б.

151. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Нега шундай демиз. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1987. – 352 б.

152. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. – 527 с.

153. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2006-2007. I жилд. – 680 б, II жилд. – 671 б, III жилд. – 687 б, IV жилд. – 606 б, V жилд. – 591 б.

154. Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 400 б.

155. O‘rinbayeva D. Folklor asarlari tiliga xos so‘zlarning izohli lug‘ati. – Samarqand, 2017. – 254 b.

V. Badiiy adabiyotlar

156. Афзалов. М.И. Ойжамол. Ҳаётининг эртақлар. Иккинчи китоб. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1969. – 173 б.

157.Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 152 б.

158.Орипов А. Танланган асарлар. II жилд. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: F.Ғулом, 2001. – 496 б.

159.Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. Nashrga tayyorlovchi: To‘laboyev O. – Toshkent: Zabarjad Media, 2023. – 128 b.

160.Mirzo I. Sizni kuylayman. – Toshkent. 2007. – 146 b.

161.Olimjon H. Oygul bilan Baxtiyor: Dostonlar. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 1999. – 64 b.

162.Osiyo xalq ertaklari. – Toshkent: Meriyus, 2009. – 198 b.

163.Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Hozirgi o‘zbek tilida bayon qiluvchi To‘xliyev B. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 200 b.

VI. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

164.Абдуллаев Ж.Х. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1994. – 114 б.

165.Абдусаламова А.З. Сравнительные конструкции в русских и аварских фольклорных текстах. Дисс. ...канд.филол. наук. – Махачкала, 2016. – 166 с.

166.Акименко Н.А. Лингвокультурные характеристики английского сказочного дискурса. Автореф.дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2005. – 21 с.

167.Алещенко Е. Этноязыковая картина мира в текстах русского фольклора (на материале народной сказки). Автореф.дисс. ...док.филол.наук. Волгоград, 2008. – 45 с.

168.Арипов М. Турк тилидаги тилак, олқиш ва дуоларнинг лингвомаданий ва лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2022. – 57 б.

169.Ахмаджонов Н.З. Бадиий услубда қўлланган прецедент номларнинг лингвопоэтик таҳлили. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2022. – 154 б.

170.Ашуров Д. “Алпомиш” дostonининг лингвокултурологик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Наманган, 2021. – 155 б.

171.Бадмаева С.С. Язык и стиль сказок монгольских народов (на материале лексики). Автореф.дисс. ...канд.фолол.наук. – Элиста, 2004. – 24 с.

172.Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фан. д-ри. дисс... автореф. – Тошкент, 1997. – 51 б.

173.Баканова А.В. Особенности языка испанских народных сказок. Автореф.дисс. ...канд. филол. наук. 2006. – 26 с.

174.Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков). Автореф.дисс. ...док. филол.наук. – Ташкент, 2007. – 286 с.

175.Бекназаров К. Ўзбек халқ маиший эртаклари (ўрганилиши, таснифи, поэтикаси). Филол.фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 1993. – 129 б.

176.Бобожонов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Беҳбудий ва Авлоний драмалари асосида). Филол.фан. номз. ...дисс.автореф. – Самарканд, 2002. – 23 б.

177.Богус З.А. Соматизмы в разносистемных языках: семантико-словообразовательный и лингвокультурологический аспекты. Автореф.дисс. ...канд. филол.наук. – Майкоп, 2006. – 28 с.

178.Бураева Т.В. Язык калмыцких народных сказок (на материале «Калмыцких сказок» Г. И. Рамstedта). Автореф.дисс. ...канд. филол. наук. – Элиста, 2006. – 24 с.

179.Волощенко О.В. Языковые основы фольклора в свете явлений традиционной народной культуры (на материале русской волшебной сказки). Автореф. дисс.канд.фолол.наук. – Воронеж, 2006. – 24 с.

180.Гасанова Д.С. Лингвокультурологические и структурно-семантические особенности языка сказки (на материале лезгинского, русского и английского языков). Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – Махачкала, 2013. – 26 с.

181.Гасанова Ф.Д. Пословицы и поговорки лезгин в сравнении с паремиями азербайджанцев. Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – Махачкала, 2006. – 24 с.

182.Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадний-услубий ўзига хослиги. Филол.фан. ном. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – 23 б.

183. Достходжаева Н.Н. Ўзбек сеҳрли эртақларининг структурал таҳлили. Филол.фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 1999. – 175 б.
184. Досанов Н.Х. Ўзбек халқ эртақлари тилида аниқловчилар. Филол.фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 1994. – 141 б.
185. Дусматов Х. Аския матнининг лингвостилистикаси. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2018. – 136 б.
186. Жумаев А. Ўзбек ва немис эртақларида қушлар образи типологияси ҳамда спецификаси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Бухоро, 2022. – 48 б.
187. Жумаева З.Ш. Фразеологик бирликларнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Жиззах, 2021. – 58 б.
188. Жумаева С. Ҳайвонлар ҳақидаги эртақларнинг генетик асослари ва спецификаси. Филол.фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 1996. – 154 б.
189. Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2017. – 280 б.
190. Жуманиёзов Б.М. Ўзбек халқ эпосида ялмоғиз образи. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996. – 128 б.
191. Жуманиёзова М. Хоразм халқ кўшиқлари лексикаси. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 170 б.
192. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2002. – 136 б.
193. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол.фан. д-ри (DSc). ...дисс. – Самарқанд. 2019. – 230 б.
194. Жўраева М.М. Француз ва ўзбек эртақларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2016. – 233 б.
195. Жўраева М. Ўзбек халқ топишмоқларининг генезиси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.афтореф. – Тошкент, 2017. – 51 б.
196. Задорнова В.Я. Словесно-художественного произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования. Дисс. . . докт. филол. наук. -М., 1992. – 479 с.

197.Зворыгина О.И. Русская литературная сказка: речевые параметры жанра. Автореф.дисс. ...канд. филол. наук. Екатеринбург, 2012. – 32 с.

198.Имомова Г.М. Типик миллий характер яратишда бадий нутқнинг ўрни: Филол.фан. ном. ...дисс.автореф. – Тошкент. 1993. – 24 б.

199.Исхаков Ф. Научно-критический текст “Зарбулмасал Гулхани”: Автореф.дисс. ...канд. филол.наук. – Ташкент, 1997. – 48 с.

200.Йўлдош Қ. Сўз ёлқини. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2018. – 285 б.

201.Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати. (“Кеча ва кундуз” романи мисолида) Филол.фан. номз. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – 145 б.

202.Каримов С.А. Ўзбек тилининг бидий услуби. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 1993. – 56 б.

203.Каххарова Х. Фразеология Абдулли Кадыри. Дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1984. – 273 с.

204.Керимбаева З. Традиционные языковые средства казахских народных сказок. Дисс. ...канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1989. – 246 с.

205.Крюкова И. Речевой акт проклятия и лексико-грамматические средства его осуществления: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Ставрополь, 2011. – 21 с.

206.Кунназарова Ш.М. Қарақалпақ халық ертеклериниң лексика-семантикалық хэм лингвомәдений анализи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Нөкис, 2021. – 140 б.

207.Кульсарина Г.Г. Язык и стиль башкирских народных сказок: Дисс. ...канд.филол.наук. – Уфа, 2004. – 156 с.

208.Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика. Дисс. ...док. филол.наук. – Москва, 1996. – 656 с.

209.Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол.фан. док... дисс. – Тошкент: 1999. – 316 б.

210.Маткаримова А. “Ҳурмат” семантик майдонини ифодаловчи тил воситаларининг лингвопрагматик ва лингвокультурологик

хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Андижон, 2021. – 51 б.

211.Матвейчева Т.В. Специфика языковой экспликации пространственно-временных координат в сказочной модели мира. Автореф. дисс.канд.фолол.наук. – Ставрополь, 2011. – 23 с.

212.Маткулиева М.Ф. Шаҳриёр эпик сюжетининг илк манбалари унинг достон ва эртак вариантлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Урганч, 2020. – 166 б.

213.Махмудов Н. Семантико-синтактическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Дисс. ...док-ра филол. наук. – Тошкент, 1984. – 402 с.

214.Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. Автореф.дисс.д-ра. ... филол.наук. – Ташкент, 1992. – 50 с.

215.Мухаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърийтининг лингвопоэтик тадқиқи. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2003. – 256 б.

216.Назарова Ш.И. Ўзбек халқ эртакларида синов мотивларининг генезиси ва поэтикаси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2017. – 150 б.

217.Ниязова М. Инглиз ва ўзбек адабиётида олқишларнинг бадий-эстетик вазифалари типологияси. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Бухоро, 2022. – 155 б.

218.Нормуродов Р.У. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 140 б.

219.Оллоёров Қ. М. Хоразм достонлари ономастикаси (“Гўрўғли” ва “Ошиқнома” туркум достонлари асосида) Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. – Урганч, 2018. – 190 б.

220.Петрова Е.Е. Способы лингво-прагматической репрезентации фантазийных концептов (на материале английских волшебных сказок). Автореф.дисс. ...канд.фолол.наук. – Санкт-Петербург, 2011. – 25 с.

221.Ражабов Д. Ўзбек халқ кўшиқлари тузилиши: композиция ва образлилик. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2019. – 231 б.

222.Разумова И.А.Стилистическая обрядность русской волшебной сказки. – Петрозаводск: Карелия, 1991. – 153 с.

- 223.Расулова З.Ж. Ўзбек халқ сеҳрли эртақларида “Ғаройиб буюм”лар (спецификаси, генезиси ва бадиияти). Филол.фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 2012. – 146 б.
- 224.Рафиев А. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг структурал-функционал хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 1982. – 50 б.
- 225.Раҳимов З. “Кўхна дунё” романи поэтикаси. Филол.фан. номз. ...дисс. – Фарғона, 2000. – 137 б.
- 226.Ризоева М. Ўзбек халқ мифологик афсоналари (ўзига хос хусусиятлари, таснифи ва образлар тизими). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – 140 б.
- 227.Сабирдинов А.Ғ. Ойбекнинг поэтик маҳорати. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2007. – 307 б.
- 228.Саитбаева М.Н. Именное сказуемое в узбекских народных загадках. Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 135 с.
- 229.Сайидов Е. Жаҳид бадий асарлари лексикаси. Филол.фан. д-ри. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2018. – 284 б.
- 230.Сайидов Е. Фитрат бадий асарлари лексикаси. Филол.фан. номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2001. – 24 б.
- 231.Сайиткулов И. Ўзбек халқ тарихий насрида эпик сюжет ва образ эволюцияси (“Темурнома” мисолида). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – 163 б.
- 232.Салихов Г.Г. Картина мира в башкирском фольклоре. Дисс. ...канд.филол.наук. – Уфа, 1992. – 184 с.
- 233.Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 125 б.
- 234.Совбанова В.И. Лексико-семантические микросистема глаголов передачи в языке великорусских сказок. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Куйбышев, 1975. – 23 с.
- 235.Содиқова М.А. Ўғай қиз типигаги туркум эртақларнинг спецификаси, генезиси ва бадиияти. Филол.фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 2003. – 151 б.
- 236.Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2002. – 302 б.

237. Султонова Ш.М. Диний фразеологизмлар трансформацияси: семантик ва лингвомаданий аспектлар. Фил.фан.док(DSc). ...дисс.автореф. – Тошкент, 2022. – 80 б.

238. Таджиев К. Творчество Максуда Шейхзаде – переводчика. Дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1984. – 193 с.

239. Тилавов А. Ўзбек халқ дostonларидаги от образининг тарихий асослари ва бадий талқини. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 154 б.

240. Тошхужаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси. Филол.фан.б.фалс.док...дисс.автореф. – Фағона, 2017. – 50 б.

241. Тройская О.Н. Языковая картина мира немецкой народной сказки. Дисс. ...канд.филол.наук. – СПб, 1998. – 440 с.

242. Туйчиев М. Язык и стиль романа Шухрата “Золото не ржавеет”. Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ашхабад, 1973. – 36 с.

243. Турдалиева Д. Ўзбек халқ мақолларини лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Қарши, 2019. – 50 б.

244. Умаров И.А. “Фозил Йўлдош ўғлининг “Малика айёр” достони лексикаси” (тарихий-этимологик, функционал-семантик ва стилистик таҳлил). Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Фарғона, 2020. – 52 б.

245. Умарова М. XX аср ўзбек насри намуналарининг урду тилидаги таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2022. – 57 б.

246. Усмонова З.И. Ўзбек эртак новеллаларининг ўзига хос хусусияти ва бадиияти. Филол.фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 1999. – 141 б.

247. Файзиева Д. Ўзбек фольклорида илон образи (генезиси ва бадиияти). Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.

248. Файзуллоев О.М. Ўзбек фольклоридаги лингвокультуремаларнинг инглизча таржимада берилиши (болалар фольклори ва эртаклари мисолида). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2019. – 160 б.

249. Федорова Э.Н. Арабские и персидские заимствования в татарских народных пословицах. Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – Казань, 2003. – 28 с.

250.Хаджимусаева Н.Н. “Орзигул” достонининг статистик, семантик-стилистик ва лингвопоэтик тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Жиззах, 2020. – 46 б.

251.Халиков А. “Гўрўглининг туғилиши” достони тилининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 147 б.

252.Хасанов Л.Л. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадинятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол.фан. номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2010. – 153 б.

253.Ходжиев Ю. “Алпомиш” достонидаги шахс маънавий сифатларини ифода этувчи атов бирликларнинг семантик-структур, концептуал ва лексикографик хусусиятлари. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – 121 б.

254.Ходжалепесова И. Аантропоцентрик хусусиятларни тавсифлашда ранг символизми. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Самарқанд, 2022. – 60 б.

255.Холмонова З. “Шайбонийхон” достони лексикаси (Пўлкан шоир варианты асосида). Филол.фан.номз. ...дис.автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.

256.Хомидова М. Бадиий матн перцепциясида интертекстуаллик. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2021. – 54 б.

257.Худайберганова Д. Достонлар тилидаги нофаол қатламга оид лексик бирликларнинг лисоний таҳлили. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Урганч, 2023. – 61 б.

258.Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол.фан. д-ри. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2015. –102 б.

259.Цыренов Б.Д. Язык бурятских народных сказок. Дисс. ...канд. филол. наук. – Улан-Удэ, 2001. – 182 с.

260.Шабанова Е.В. Семантика и функции языковых средств выражения модальных категорий приказа, просьбы, совета в тексте французской народной сказки. Дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 2000. – 130 с.

261.Шадиева Д. Мухаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2007. – 144 б.

262.Шевчук С.В. Семантико-синтаксическая структура сложноподчинённых предложений с придаточными временными в

украинской народной сказке. Дисс. ...канд. филол. наук. – Киев, 1990. – 156 с.

263.Шомусаров Ш. Араб ва ўзбек фолклори тарихий-қиёсий тахлили. Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1997 – 24 б.

264.Эпоева Л. Лингвокультурологические и когнитивные аспекты изучения языка волшебной сказки (на материале английского и русского языков). Автореф.дисс. ... канд.фолол.наук. – Краснодар, 2004. – 21 с.

265.Эшанова З. Ўзбек халқ достонларида тоғ образи: генезиси ва бадий талқинлари. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2018. – 164 б.

266.Эшбоева Ф. Ўзбек халқ қарғишларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол.фан. номз. ... дис.. – Тошкент, 2008. – 179 б.

267.Эшонкулов Ж. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини. Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1996. – 158 б.

268.Юлдашев Б. Язык и стиль произведений Саида Ахмада. Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1979. – 15 с.

269.Юлдашев М. Бадий матнининг лингвопоэтик тадқиқи. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2009. – 314 б.

270.Юсупов Ж. Хоразм эртақларининг генезиси, асосий хусусиятлари ва поэтикаси. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 1999. – 287 б.

271.Юсупова Ҳ.Ў. Ўзбек халқ оғзаки насри намуналарининг инглизча таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши (эртақлар, латифалар мисолида). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2011. – 149 б.

272.Якуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 257 б.

273.Ян Кэ. Лингвостилический и лингвострановедческий анализ русских народных волшебных сказок. Дисс. ...канд. филол. наук. – Казань, 1995. – 160 с.

274.Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклорининг жанрий таркиби, генезиси ва бадиияти. Филол.фан.док-ри. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 304 б.

275.Ўринбаева Д.Б. Халқ оғзаки ижоди: жанрий-лисоний ва лингвостатистик тадқиқ муаммолари. Филол.фан. д-ри. ...дисс. автореф – Тошкент, 2019. – 74 б.

276.Қаюмов О.С. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва бадиияти). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1999. – 169 б.

277.Қобулова У. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида). Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2007. – 121 б.

278.Қодиров К.Н. Ўзбек сеҳрли эртақларида замон ва макон талқини. Филол.фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 2004. – 148 б.

279.Қурбонова М.О. Мустақиллик даври дostonлари лингвопоэтикаси. Филол.фан. б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2019. – 153 б.

280.Қўчқорова С. Ўзбек ва француз эртақларида маданий рамзларнинг коммуникатив-прагматик роли. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Самарқанд, 2022. – 61 б.

281.Қўчқоров Н. Ўзбек халқ олқишларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол.фан.номз. ...дисс. – Самарқанд, 1994. – 128 б.

282.Abdumannatova N. “Hotamnomma” asarining lingvofolkloristik tadqiqi (“Hotamnommayi turkiy” asari misolida). Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.. – Samarqand, 2024. – 130 b.

283.Bozorov H.X. O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok...diss.avtoref. – Termiz, 2023. – 164 b.

284.Israilova S.T. Ingliz va o‘zbek tillari ertak duskursida “sinov” konsepti verballashuvining lingvomadaniy xususiyatlari. Filol.fan.b.fals.dok...diss.avtoref. – Toshkent, 2023. – 57 b.

285.Rahmatullayev Sh. O‘zbek xalq ertaklari tilidagi antroponimlarning lingvokulturologik tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Buxoro, 2023. – 53 b.

286.Taylonova M.N. Koreyscha ertaklarning o‘zbekcha tarjimasida hayvonot va o‘simlik dunyosining leksik-semantik tarnsformatsiyasi. – Toshkent, 2024. Filol.fan.b.fals.dok...diss.avtoref. – 45 b.

287.Xudoyev S. O‘zbek va nemis topishmoqlari tipologiyasi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Buxoro, 2025. – 50 b.

288.Yokubova S. O‘zbek jadid she‘riyatida obraz va ramzlar poetikasi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Toshkent, 2024. – 53 b.

289.Zakirova D. O‘zbek va rus tillarida qarg‘ish nutqiy janrining qiyosiy tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Andijon, 2023. – 57 b.

290.Zaripova Z. Qoraqalpoq qahramonlik dostonlarida alp xotin-qizlar obrazining tadrijiy bosqichlari. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Nukus, 2023. – 51 b.

291.Ziyayeva Y. Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazlarining poetik takomili. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Toshkent, 2023. – 55 b.

292.Shermamatova S.O‘. Ingliz va o‘zbek xalqlarining ertaklarida ezgulik konsepti. – Farg‘ona. 2022. – 128 b.

VII. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar:

293.Ахманова О., Гюббенет И. “Вертикальный контекст” как филологическая проблема // Вопросы языкознания. – Москва, 1977. – № 3. – С. 47-54.

294.Бушуй А.М., Журакулов Р.Д. Фразеология узбекских народных сказок // Сов. тюркология. 1990. № 5. – С. 40-48.

295.Бушуй А.М., Яхшиев А.А. Фразеология узбекской диалогической речи (на материале художественной прозы) // Сов. тюркология. 1986. № 3. – С. 27-33.

296.Дониёров Х., Самадов Қ. Ҳ.Олимжоннинг тилдан фойдаланишдаги новаторлиги // Шарқ юлдузи, №7. 1959.

297.Исраилова С. Замонавий тилшуносликда халқ эртақларини ўрганишнинг лингвокультурологик хусусиятлари. // Сўз санъати. – Тошкент, 2020. № 5. – Б. 230-235.

298.Йўлдошев Б. Мустақиллик йилларида ўзбек фразеологияси: эришилган ютуқлар ва навбатдаги вазифалар. // Хорижий филология. №1. 2017. 8-б.

299.Лещенко О.И. Антропоцентризм в англоязычной сказке как концепт мироотношения // Сучасна картина світу: інтеграція наукового та позанаукового знання: збірник наукових праць. – Суми: ВВП «Мрія -1» ЛТД, 2002.

300.Ловпаче А.Н. Языковые особенности народных сказок о животных в адыгской лингвокультуре. // Вестник Адыгейского университета. – Майкоп, 2010. – № 3. – С. 157-161.

301.Мамажонов С. Услуб, образ, тасвирий воситалар // Шарқ юлдузи. № 6. 1969.– Б. 8-10.

302.Оссовецкий И.А. О языке русского традиционного фольклора. // Вопросы языкознания. 1975. № 5. – С. 66-77.

303.Расулов Т. Бадиий образ ва образли тасвирий воситалар // Ўзбек тили ва адабиёти. № 5. 1965. – Б. 5-13.

304.Шоабдурахмонов Ш. Ойбек романларининг тили ва стили // Шарқ юлдузи, №10. 1955.

305.Рахимов Х.Р. Эртақлар типологик каталогини яратиш масаларига оид // Ўзбекистонда хорижий тиллар. 2021. № 1 (36). – Б.225-234.

306.Саримсоқов Б. Олқишлар // Ўзбек фольклори очерклари. III томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 128-143.

307.Сафаров О., Ўраева Д. Маросим олқишлари ҳақида // Ўзбек маросим фольклорини ўрганишнинг янгича тамойиллари мавзуидаги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Навоий, 2007. – Б. 15-18.

308.Шомақсудов А. Ўзбек адабий тилининг ривожланишида Ҳамза ижодининг аҳамияти // Шарқ юлдузи. №3, 1954

309.Шукуров Н. Бадиий услуб ва бадиий тил // Ўзбек тили ва адабиёти. № 4. – Тошкент, 1972. – Б. 4-9.

310.Шукуров Н. Ғафур Ғуломнинг тилдан фойдаланиш маҳоратига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, №4. 1959.

311.Ўраева Д., Розикова Ф. Маросим олқишлари бадиияти // Адабиёт ва таржима. – Тошкент: Зарқалам, 2006. – Б. 104-106.

312.Қодирова Д.Ҳ. Дунё тилшунослигида лингвопоэтика соҳасидаги янги назарий қарашлар // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. –12/4-2022. – Б. 133.

313.Қўчқорова С.Т. Ўзбек эртақлари дискурсида ғаройиботларнинг воқеланишининг лингвосемиотик хусусиятларига оид. // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2021, № 1(36). 79, 92-б.

314.Abdulloyeva K. Ingliz hamda o‘zbek ertaklarining lingvomadaniy va stilistik tahlili. // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2. 2021. № 5. ISSN: 2181-1601. 377-381-b.

315.Ahmed Sayeef. Teaching english language using popular folk tales in bangladesh // International Journal of Literature, Linguistics and Language Teaching. Volume 1 Issue. 1 January 2019.

316.Birkelund M. Litotes – an ironic or polyphonic figure of speech? The Sign of the V Papers in Honour of Sten Vikner. Department of English School of Communication & Culture Aarhus University, 2019. – P. 65. <https://doi.org/10.7146/AUL.348.89>

317.Bozorov H. O‘zbek xalq ertaklaridagi obrazlar: lingvopoetik, badiiy va falsafiy tahlil // FarDU. Ilmiy xabarlar. №4. Volume 31 Issue 4,

2025-yil. – B. 103. https://doi.org/%2010.56292/SJFSU/vol31_iss4/a99.
<https://journal.fdu.uz>

318.Bozorov H. O‘zbek xalq ertaklaridagi salbiy obrazlar va ularning lingvopoetik tahlili // NamDU Ilmiy Axborotnomasi №8. 2025. – B. 443.

319.Evans-Pritchard E.E. Nuer Curses and Ghostly Vengeance // Cambridge University Press, 1949. Vol. 19, Iss: 4, pp 288-292.

320.Christian I.G. Linguistik and cultural analysis of three gujarati folktales. Doctor of philosophy. Texas, 1983. – P. 14.

321.Hoenigswald H.A. Proposal for the study of folk-linguistics, in: William Bright (ed.), Sociolinguistics. – London: The Hague: Mouton, 1966. – P. 16-26.

322.Qayumova S.A. O‘zbek va turk ertaklarida “yaxshilik” konseptining ifodalanishi. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021. № 11. – P. 5-6.

323.Nihal N. Sarhan. A Critical Stylistic Analysis of Ideologies of Masculinity and Femininity in Folktales of Egypt // Journal of Scientific Research in Arts (Language & Literature) volume 24 issue 1. 2023. – P. 36-37

324.Soe Marlar Lwin. Revisiting a structural analysis of folktales: a means to an end? // The buckingham journal of language and linguistics. – P. 69.

325.Soe Marlar Lwin. Using Folktales for Language Teaching. XLIV (2), 2015. – P. 74.

326.SooHo Song. Narrative structures in Korean folktales: A comparative analysis of Korean and English versions. // Topics in Linguistics. 2017, №.18 (2). – P. 2.

327.Sperber D., Wilson D. Precis of Relevance: Communication and Cognition. Behavioral and Brain sciences (1987) 10, 697-754 Printed in the United States of America. – P. 708. https://www.dan.sperber.fr/wp-content/uploads/1987_wilson_precis-of-relevance.pdf

328.O‘rayeva D., Gadoyeva M. Ingliz va o‘zbek madaniyati olqishlarida somatizm semantikasi // “Science and Education” Scientific Journal / ISSN 2181-0842. VOLUME 2, ISSUE 11 NOVEMBER 2021. – P. 894. <http://www.openscience.uz/>

VIII. Internet saytlari

329.<http://www.openscience.uz/>

- 330.https://www.dan.sperber.fr/wp-content/uploads/1987_wilson_precis-of-relevance.pdf
- 331.<https://www.cambridge.org/9780521528054>
- 332.<https://repo.kspi.kz/bitstream/handle/123456789/3883/1150-al-farabi700-703.pdf?sequence=1&isAllowed=y>
- 333.<https://www.projekt-gutenberg.org/schiller/aesterz/aesterz.html>
- 334.https://doi.org/%2010.56292/SJFSU/vol31_iss4/a99.
- <https://journal.fdu.uz>
- 335.<https://doi.org/10.7146/AUL.348.89>

MUNDARIJA

Kirish	3
TILSHUNOSLIKDA XALQ ERTAKLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOFOLKLORISTIK TAHLILI	
Jahon tilshunosligida xalq ertaklarining o‘rganilishi	7
Matni lingvopoetik tahlil qilishning lingvistik asoslari	24
Jahon va o‘zbek tilshunosligida lingvofolkloristik tadqiqotlar	38
O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI	
Frazeologizmlarning lingvopoetik tahlili	52
Xalq ertaklari matnidagi dialektal qatlamning lingvopoetik va funksional xususiyatlari	84
O‘zbek xalq ertaklarida eskirgan so‘zlar	93
BADIIY TASVIR VOSITALARI LINGVOPOETIKASI VA INTERTEKSTUALLIK	109
Xalq ertaklarida o‘xshatish vositalarining lingvopoetik vazifalari va badiiy-estetik imkoniyatlari	109
O‘zbek xalq ertaklarida giperbolaning obraz yaratishdagi o‘rni	125
Ertaklarda litota	138
Ertaklarda intertekstuallik	149
ERTAK MATNINING LINGVOFOLKLORISTIK XUSUSIYATLARI	
Topishmoqlar: til va folklor uyg‘unligi	163
Xalq ertaklari tilida mavjud qarg‘ishlarning lingvofolkloristik tadqiqi	168
Olqishlar lingvofolkloristikasi	177
O‘zbek xalq ertaklaridagi folklor motivlarining lingvofolkloristik tahlili	1844
Xalq ertaklari obrazlarining lingvofolkloristik talqini	1966
Ijobiy obrazlar tasvirida folklor an‘analarining o‘rni	205
Salbiy obrazlar va ulaning nutqiga xos lingvofolkloristik unsurlar	2099
Xulosa	2199
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	2222

Ilmiy-ommabop nashr

Hamid Bozorov

**O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING
LINGVOPOETIK VA LINGVOFOLKLORISTIK
TADQIQI**

M o n o g r a f i y a

Muharrir: M.Talipova

Musahhih: N.Niyazova

Kompyuterda tayyorlovchi: B.Haydarov

Bosishga ruxsat etildi: 03.05.2026-yil
Bichimi 60x84^{1/16}. «Times New Roman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabog‘i 15,5. Nashr.h.t. 10.2
Adadi 50. Buyurtma № 22-03

«IMPRESS MEDIA» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Qushbegi ko‘chasi, 6-uy.